"Mahalla budjeti" mablag'laridan moliyalashtiriladigan xarajatlar yo'nalishidan ko'rish mumkinki, ushbu mablag'lardan samarali foydalanish mahallani obodonlashtirish, mahallada ijobiy ijtimoiy va ma'naviy muhit va ish o'rinlari yaratish hamda aholi farovonligini oshirishga va umumiy qilib aytganda ijtimoiy davlat qurish maqsadlarini amalga oshirishga xizmat qiladi. Shuning uchun ushbu jamg'arma faoliyatini tahlil va prognoz qilish, xarajatlar samaradorligi va u bilan bog'liq institutsional muammolarni ilmiy jihatdan tadqiq etish muhim ahamiyat kasb etadi. Shunga asosan mazkur tadqiqotimizning maqsadi O'zbekistonda "mahalla budjeti" ko'rsatkichlarini tahlil qilish va uning qisqa muddatli prognoz ko'rsatkichlarini ishlab chiqish hisoblanadi.

## Mavzuga oid adabiyotlar sharhi

Mahallalar faoliyatining u yoki bu jabhalar borasida ko'plab mahalliy tadqiqotchilar izlanishlar olib borishgan. Jumladan, D. Yusupova (2022) O'zbekistonda mahallalarda kasanachilikni rivojlantirish orqali aholi bandligini ta'minlash masalalarini tahlil qilgan. Muallifning fikricha qishloq joylarda aholi farovonligini oshirish va ularning bandligini ta'minlashda yo'q bo'lib ketish arafasida turgan kasanachilik va hunarmandchilik faoliyatlarini rivojlantirish va davlat tomonidan himoyalash muhim ahamiyatga ega [3]. Z. Tuxtasinov (2023) ham aynan mahallalarda tadbirkorlik va hunarmandchilikni rivojlantirishni tartibga solishning institutsional jihatlari tahlil qilgan. Muallif, hunarmandchilikni rivojlantirishda xorij tajribalari zarur deb hisoblaydi. Bundan tashqari hukumat tomonidan ushbu soha vakillari uchun mavjud imtiyoz va preferensiyalar borasida targ'ibot ishlari zarur [4]. Shuningdek, yirik tadbirkorlik subyektlarini mahallalarga birlashtirish orqali aholi daromadlari hamda hudud iqtisodiyotini rivojlantirish masalalariga B. Gafurov (2022) tomonidan e'tibor qaratilgan. Muallif xulosasiga ko'ra hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish uchun mahallalarda aholi tadbirkorligini rivojlantirish zarur. Buning eng maqbul usullaridan biri esa "yetakchi tadbirkorlar"ning imkoniyatidan foydalanish hisoblanadi [5]. M. Inagamova (2022) tomonidan esa mahalla instituti faoliyatini rivojlantirish borasida qabul qilingan normativlar ijrosining natijaviy ko'rsatkichlari tahlil qilingan. Muallifning xulosasiga ko'ra, mahalladagi ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni tizimli ravishda hal etish uchun mahallalarning moliyaviy imkoniyatlarini kengaytirish va mahallalarda aholining tadbirkorlik

ixtisoslashuvdan kelib chiqib, ularni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash zarur [6]. A. Teshaboev (2022) ham mahalla institutining jamiyat hayotidagi o'rni, uning faoliyatini tashkil etishning huquqiy asoslarini tahlil qilgan. Shuningdek, maqolada asosan mahalla raisini saylashning formal protsedurasiga e'tibor qaratilgan. Muallifning xulosasiga ko'ra mahalla institutining rivojlanishi tarixiy xususiyatga ega hamda mahalladagi barcha ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni hal etishda zaruriy institut hisoblanadi [7]. S.O. Rasulov (2023) esa fuqarolarning o'z-o'zini boshqarish organlarining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishdagi boshqaruvning samaradorligini baholash masalalariga e'tibor qaratgan. Muallif asosan ushbu tizimning samaradorligini baholashda uchta uslubiyatni taklif etgan. Birinchisi statistik tahlil usuli bo'lib, unda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning miqdor va sifat ko'rsatkichlarini tahlil qilish nazarda tutilgan. Ikkinchi usul ekspert baholash usuli bo'lib, unga ko'ra ekspertlar tomonidan mahalliy o'zini-o'zi boshqaruv organlari faoliyatining samaradorligi mezonlari orqali baholashni o'z ichiga oladi. Uchinchi usul esa jamoatchilik baholash usuli bo'lib, u turli ijtimoiy so'rovnomalar orqali jamoatchilik fikrini o'rganish va tahlil qilishni o'z ichiga oladi [8]. B. Berkinov (2024) esa mahalla hududida kambag'allikni qisqartirish masalalariga e'tibor qaratgan bo'lib, tadqiqotda "yashash minimumi", "iste'mol savatchasi" kabi mezonlar kambag'allikni ifodalovchi asosiy indikatorlar sifatida foydalanilgan. Muallifga ko'ra mahalla hududida kambag'allikni qisqartirishning eng zarur shartlaridan biri sifatida kichik, o'rta va yirik hududlar atrofida agrosanoat klasterlari guruhlarini tashkil etish va ishsizlar hamda aholining ehtiyojmand qatlamini unga jalb etish zarur [9]. Shu bilan birga mahalla faoliyatiga oid B. Berkinov (2024) ning yana bir tadqiqoti mahalla hududida aholini oziq-ovqat mahsulotlariga bo'lgan iste'mol talabi tahlili va prognoziga qaratilgan bo'lib, muallifning xulosasiga ko'ra so'nggi yillarda aholining oziq-ovqat mahsulotlariga bo'lgan talabi o'sgan. Shuningdek, 2023-yilda o'rtacha bitta uy xo'jaligiga to'g'ri keladigan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmi prognozi minimum iste'mol va tabiiy ratsional me'yorlarga mos keladi [10]. F. Abdullaxojevich (2024) esa mahalla budjeti daromadlari manbaini kengaytirish orqali mahalla faoliyati samaradorligini oshirish masalalarini o'rgangan. Muallifga ko'ra mahalla budjeti daromadlari oshishi va mahallalarning iqtisodiy rivojlanishi mahallalarga biriktirilgan soliq

inspektori faoliyatiga bog'liq [11]. Shuningdek, muallif o'zining yana bir tadqiqotida mahallalarga biriktirilgan soliq inspektorlari faoliyatini tadqiq etgan bo'lib, tadqiqot xulosasiga ko'ra ayrim tumanlarda bitta inspektorga beshtagacha mahalla to'g'ri keladi va inspektorlar masalani to'liq qamrab ololmaydilar. Bundan tashqari, inspektorlarning ish yuklamasi haddan ziyod ko'pligi uchun ular zimmasidan majburiy ijro byurosining soliq undiruv bo'yicha sud qarorlari ijrosini ta'minlash vazifasini olib tashlash lozim [12]. Bundan tashqari mahalla yettiligi faoliyati samaradorligini ball tizimi asosida baholash va ular faoliyatiga KPI tizimini joriy etishning uslubiy asoslari U. G'afurov (2024) tomonidan o'rganilgan [13]. Turaeva, L. (2024) ham yoshlar daftarini shakllantirish orqali ularning bandligini ta'minlash masalalariga e'tibor qaratgan. Muallifning fikricha yoshlar daftarining bandlikni ta'minlashdagi samaradorligini oshirishda mahallalardagi yoshlar yetakchilarining yuqori boshqaruv instansiyalari bilan samarali axborot almashinuvini yo'lga qo'yish hamda bu bilan bog'liq barcha tizimni raqamlashtirish zarur [14].

O'rganilgan tadqiqotlar mahalla budjetini tahlil qilishga nisbatan tashkiliy-huquqiy va institutsional jihatdan yondashilgan tadqiqotlar mavjudligini ko'rsatmoqda. Bundan tashqari mahallalarda kambag'allikni qisqartirish va aholi bandligini ta'minlash borasida ham qator izlanishlar olib borilgan. Biroq, mahalla budjetining daromad va xarajatlari va ularning hududiy xususiyatlari hamda ularni prognozlash bilan bog'liq tadqiqotlar topilmadi. Shuning uchun ushbu maqola mahalla budjeti ko'rsatkichlarini tahlil qilishni, mavjud ko'rsatkichlar to'plamiga asosan qisqa muddatli prognoz ko'rsatkichlari ishlab chiqishni hamda budjet daromadlarini mustahkamlash borasida taklif va tavsiyalar ishlab chiqishni maqsad qiladi.

#### **Tadqiqot metodologiyasi**

Ushbu tadqiqotni amalga oshirishda gipotezaning nazariy va amaliy ahamiyatidan kelib chiqqan holda tizimli yondashuv, statistik kuzatuv, sabab-oqibat, qiyosiy tahlil va taqqoslash hamda matematik modellashtirish kabi tadqiqot usullaridan foydalanilgan.

#### **Tahlil ma'lumotlari**

Tadqiqotni amalga oshirishda O'zbekiston Respublikasi "ochiq budjet" portali saytining rasmiy ma'lumotlaridan foydalanildi. Statistik kuzatuvlar esa 2024-yilning 11 oylik ma'lumotlariga hamda O'zbekiston Respublikasi 14 ma'muriy-huquqiy tuzilmalarning mahalla budjeti ko'rsatkichlariga asoslanadi.



**Prognozlash modeli**

Mahalla budjeti ko'rsatkichlarini prognozlashda VAR (vector autoregression model) modelidan foydalanamiz. **VAR modeli – vaqt qatorlari guruhiga kiruvchi model bo'lib, prognoz qilinayotgan o'zgaruvchilar joriy qiymatlarini o'zining oldingi qiymatlari bilan bog'liqligi, ya'ni, iqtisodiy kechikishlarni hisobga olish orqali baholash imkonini beruvchi ko'p omilli model hisoblanadi [15]. Modelning standart ko'rinishi quyidagicha tuziladi:**

$$y_t = u + \sum_{i=1}^p b_{1i}y_{t-1} + \sum_{i=1}^p b_{2i}x_{t-1} + v_t \quad (1),$$

**bu yerda:**

$y_t$  – bog'liq o'zgaruvchi vektori;  $u$  – ozod hadli vektor;  $x_t$  – mustaqil o'zgaruvchilar vektori;  $v_t$  – stardart xatoliklar vektori.

Mahalla budjeti bo'yicha kuzatuvlar sonining kamligi, nostatsionarlik muammosini keltirib chiqarishi mumkin. Ushbu muammoni farqlar operatori yordamida tartibga solish mumkin.

**Prognozlarning aniqligini tekshirish**

Prognozlarning aniqligini tekshirish, tadqiqot metodologiyasining yakuniy bosqichi bo'lishi bilan birga eng muhim bosqichi hisoblanadi. Shunga asosan, tadqiqotimizda ushbu amaliyot yuzasidan uchta uslubiyatdan foydalanamiz. Dastlabki usul MAPE (Mean Absolute Percentage Error) usuli bo'lib u quyidagi ko'rinishga ega:

$$MAPE = \frac{1}{n} \sum_{i=1}^n \frac{|A_i - F_i|}{A_i} \quad (2),$$

**bu yerda:**

$A_i$  - haqiqiy kuzatilgan qiymatlar;  $F_i$  – prognoz qilingan qiymatlar;

$n$  – kuzatuvlar soni.

Mazkur usul vaqt qatorlariga asoslangan prognozlarning prognoz qilingan qiymatlar va haqiqiy kuzatilgan qiymatlar o'rtasidagi o'rtacha mutlaq foiz farqini aniqlash orqali baholaydi. Lewis (1982) ning ta'kidlashicha ushbu ko'rsatkich 10 foiz va undan kichik bo'lsa yuqori aniqlikdagi prognoz, 10–20 foiz bo'lganda ishonchli, 20–50 foiz bo'lganda esa qoniqarli hamda 50 foizdan yuqori bo'lganda esa zaif va ishonchsiz prognozlar hisoblanadi [16]. Bundan tashqari, prognozlar aniqligini tekshirishning yana bir usuli o'rtacha mutlaq xatoliklar usuli bo'lib, (Mean Absolute Error – MAE) prognoz qilingan qiymatlar va haqiqiy kuzatilgan qiymatlar o'rtasidagi xatolarning

o'rtacha kattaligini o'lchash orqali prognozning aniqligini baholaydi va quyidagicha aniqlanadi:

$$MAE = \frac{1}{n} \sum_{i=1}^n (Y_i - \hat{Y}_i) \quad (3),$$

**bu yerda:**

$Y_i$  – haqiqiy kuzatilgan qiymatlar;  $\hat{Y}_i$  – prognoz qilingan qiymatlar;

$n$  – kuzatuvlar soni.

Navbatdagi metod kvadrat qoldiqlarni o'lchash usuli (Mean Squared Error – MSE) bo'lib, bunda haqiqiy kuzatilgan qiymatlar va prognoz qilingan qiymatlar orasidagi farq kvadrat qiymatlarga aylantiriladi va kuzatuvlar soniga bo'linadi. Uslubiyat quyidagicha ko'rinish kasb etadi:

$$MSE = \frac{1}{n} \sum_{i=1}^n (\hat{Y}_i - y_i)^2 \quad (4),$$

**bu yerda:**

$y_i$  – haqiqiy kuzatilgan qiymatlar;  $\hat{Y}_i$  – prognoz qilingan qiymatlar;

$n$  – kuzatuvlar soni.

Bu usulning MAPE usuliga nisbatan afzalligi shundaki, ushbu usul foizdagi vaqt qatorlarini prognozlashda ishonchliroq natija beradi.


**Tahlil va natijalar**

Tahlilni dastlab hududlar kesimida budjet holatini tahlil qilishdan boshlaymiz. Ushbu tahlil hududlarda mahalla budjeti tushumlari, xarajatlari, ular orasidagi nisbat va tafovut borasida umumiy xulosa chiqarishga yordam beradi (1-rasm).

---

**Mahalla budjetining  
respublika bo'yicha jami  
yig'indisi 340,9 milliard  
so'mni tashkil etgan bo'lsa,  
uning xarajatleri esa  
160.8 milliarddan iborat  
bo'lgan. Ijobiy tafovut  
180.0 milliard so'mni yolki  
47,2 foizni tashkil etmoqda.**


---



**1-rasm. O'zbekiston Respublikasi Mahallaning ijtimoiy-iqtisodiy muammolarini hal etish jamg'armasining 2024-yilda hududlar bo'yicha ko'rsatkichlari (ming so'm)**

**Manba:** O'zbekiston Respublikasi "ochiq budjet" portali saytining rasmiy ma'lumotlari asosida muallif tomonidan ishlab chiqildi. <https://openbudget.uz/neighborhood-budget/general>

Ma'lumotlardan ko'rish mumkinki, eng katta budjet tushumlari, Samarqand va Surxondaryo viloyatlariga to'g'ri kelsa, eng kam tushumlar Sirdaryo va Navoiy viloyatlariga to'g'ri keladi. Surxondaryo, Xorazm, Navoiy, Jizzax va Andijon viloyatlari esa tasarrufidagi tushumlarini xarajatlarga yo'naltirishga nisbatan faolroq bo'lishiga qaramasdan, ularning xarajatlari yillik tushumlarning bor yo'g'i 50 foizdan ortiqroq qismiga to'g'ri keladi. Toshkent shahrida esa tasarrufdagi budjet tushumlaridan foydalanish darajasi 10 foizga ham yetmaydi (5,7%). Mahalla budjetining respublika bo'yicha jami yig'indisi 340,9 milliard so'mni tashkil etgan bo'lsa, uning xarajatlari esa 160.8 milliarddan iborat bo'lgan. Ijobiy tafovut 180.0 milliard so'mni yolki 47,2 foizni tashkil etmoqda. Bundan xulosa qilish mumkinki, Respublika bo'yicha o'rta hisobda mahalla budjeti mablag'laridan foydalanish faolligi 50 foizga ham yetmaydi. Endilikda, mahalla budjeti ko'rsatkichlarining o'zgarish tendensiyasini oylar kesimida tahlil qilamiz (2-rasm).



**2-rasm. O'zbekiston Respublikasi Mahallaning ijtimoiy-iqtisodiy muammolarini hal etish jamg'armasining 2024-yilda oylar bo'yicha ijrosi dinamikasi (million so'm)**

**Manba:** O'zbekiston Respublikasi "ochiq budjet" portali saytining rasmiy ma'lumotlari asosida muallif tomonidan ishlab chiqildi. <https://openbudget.uz/neighborhood-budget/general>

Ko'rsatkichlar dinamikasidan ko'rish mumkinki, mahalla jamg'armasi daromadlari va xarajatlari mavsumiylik ta'siridan xoli emas. Asosan, yilning may va avgust oylarida tushumlar eng yuqori ko'rsatkichni qayd etgan bo'lsa boshqa oylarda 35.0 milliard so'mga ham yetmagan. Ahamiyatlisi shundaki, 2024-yilda jamg'arma tushumlarining 90,5 foizi mol-mulk va yer solig'idan undiriladigan 10 foizlik ulushga to'g'ri keladi. Ushbu oylardagi tushumlarning faolligi soliq tushumlarining tendensiyasiga bog'liq bo'lishi mumkin. Jamg'arma xarajatlarining faolligi esa asosan, may va iyun oylariga to'g'ri kelgan. Shuningdek, noyabr oyida hamda dekabr oyining dastlabki ma'lumotlariga ko'ra jamg'arma ijrosi kamomad bilan bajarilganligini ko'rish mumkin, bu holat xarajatlarni oshganligi bilan emas, tushumlarni kamayganligi bilan bog'liq. Bu bo'yicha rasmiy manbalarda tushumlar va xarajatlar tarkibining oylik tendensiyasi ochiqlanmaganligi uchun tahlil qilish imkoniyati cheklangan. Endilikda jamg'arma tushumlari va xarajatlarini prognozlashga ahamiyat qaratamiz.

Prognozlashni dastlab o'zgaruvchilarning tasviriy statistikasidan boshlaymiz. Tasviriy statistika o'zgaruvchilardagi tendensiyalar haqida atroflicha ma'lumot beradi (1-jadval).

**1-jadval.**

**Prognoz o'zgaruvchilarining tasviriy statistikasi**

Variable	Obs	Mean	Std.Dev	Min	Max
income	11	3091351	1088615	704438	4963998
exp	11	1543992	1404423	131476	3856671

**Manba:** Stata 16 dasturi asosida muallif tomonidan ishlab chiqilgan

Mahallani ijtimoiy-iqtisodiy qo'llab quvvatlash jamg'armasi tushumlari va xarajatlari million so'mda ifodalanadi. Jadvaldan ko'rish mumkinki, tushumlarning eng yuqori chegarasi 11 oy ichida 4.9 milliardni tashkil etgan bo'lsa, uning quyi chegarasi 7.0 milliardni tashkil etgan. Uning o'rtacha qiymatlari esa 3.0 milliarddan biroz yuqori. Xarajatlar ham mos ravishda yuqori qiymatlarda 3.8 milliardni va quyi qiymatlarda 1.3 milliardni tashkil etmoqda. Uning o'rtacha qiymati esa 1.5 milliard so'mni tashkil etgan. Bu shuni anglatadiki, ikkala o'zgaruvchi uchun ham yuqori darajada standart chetlanish mavjudligini ko'rsatadi. Bu esa normal taqsimot muammosini keltirib chiqarishi mumkin. Biroq, vaqtli qatorlar prognozida normal taqsimot muhim

ahamiyat kasb etmaydi. Statsionarlik esa nisbatan muhimroq muammo hisoblanadi. Quyida vaqtli qatorlar statsionarligini Dickey-Fuller testi orqali tekshiruvdan o'tkazamiz (2-jadval).

**2-jadval.**


**Dickey-Fuller testi bo'yicha statsionarlik tekshiruvi**

Variable	Test Statistic	1% Critical Value	5% Critical Value	10% Critical Value	p-value for Z(t)
dif1_income	-3.704	-3.750	-3.000	-2.630	0.0041***
dif1_exp	-2.793	-3.750	-3.000	-2.630	0.0592*

Izoh: \*\*\* p<0.01, \*\* p<0.05, \* p<0.1

**Manba:** Stata 16 dasturi asosida muallif tomonidan ishlab chiqilgan


Birlik ildiz testi bo'yicha o'zgaruvchilarning dastlabki holatida statsionarlik shartlari bajarilmadi, shuning uchun farqlar operatori yordamida o'zgaruvchilarning birlamchi farqlaridan foydalandik ( $Y_t - Y_{t-1}$ ). Natijadan ko'rish mumkinki, birlamchi farqlarda daromad ko'rsatkichi 1 foizlik ahamiyatlilik darajasida statsionarlikni qayd etgan bo'lsa, xarajatlar ko'rsatkichi 5 foizlik ahamiyatlilik darajasida statsionarlik shartlarini qanoatlantirgan. Test natijalari vaqtli qatorlarda birlik ildiz mavjud emasligi va alternativ gipotezasini qabul qilish mumkin ekanligini ko'rsatmoqda. Quyida prognozlashdan olingan natijalar bilan tanishamiz (3-rasm).



**3-rasm. VAR (1) modeli orqali mahalla jamg'armasining tushum va xarajatlari ko'rsatkichlari prognozi**

**Manba:** Stata 16 dasturi asosida muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

Prognoz ko'rsatkichlar dinamikasidan ko'rish mumkinki, 2025-yilning dastlabki oylarida tushumlarning keskin oshishi va xarajatlarning tushib ketishi kutilmoqda. Yil oxiriga qadar esa ikkala o'zgaruvchilarda ham barqarorlashuv tendensiyasi kutilmoqda. Prognoz natijalarini quyidagi gistogrammada ham ko'rish mumkin (4-rasm).



4-rasm. Prognoz natijalarining gistogrammadagi ifodasi (prognoz davri 2025m1-2025m12)

Manba: muallif hisob-kitoblari.

Ta'kidlash joizki, ushbu dinamik tasvir o'zgaruvchilarning prognos miqdori borasida tushunarli axborot taqdim etmaydi (1-ilovada prognos natijalari bilan batafsil tanishish mumkin). Quyida prognosning aniqligini tegishli usullar orqali baholaymiz va tahlil qilamiz (3-jadval).

### 3-jadval.

#### Prognoslash modellarining aniqligini baholash

Assessment Criteria	Variables	VAR (1)
MAPE	income	0.691
	exp	0.664
MAE	income	0.947
	exp	0.928
MSE	income	2.681
	exp	2.513

Manba: muallif hisob-kitoblari.

Baholash metodologiyalariga ko'ra, barcha kriteriyalar bo'yicha baholash natijalari 0 ga qanchalik yaqin bo'lsa aniqlik shuncha yuqori ekanligini anglatadi. Natijalardan ko'rish mumkinki, MAPE va MAE usullarining natijalari ikkala o'zgaruvchi uchun ham 1% dan kam, bu esa prognosning 99% aniq ekanligini ko'rsatadi. MSE usulining natijalari birozgina yuqoriroq bo'lib, tushumning prognosi uchun 2.68%, xarajatning prognosi

uchun 2.51% aniqlikni ko'rsatmoqda. Biroq ikkala o'zgaruvchida ham xatolik darajasi 3% ga yetmaydi va aniqlik 97% dan yuqori bo'lgan natijani qayd etmoqda.

#### Xulosa va takliflar

Maqolada mahallani ijtimoiy-iqtisodiy qo'llab-quvvatlash jamg'armasining daromad va xarajatlari tahlil va prognos qilindi. Tahlil natijalari, oylar kesimidagi jamg'arma tushumlari va xarajatlari barqaror emasligi va yuqori darajada tebranuvchanlikka ega ekanligi ma'lum bo'ldi (2-rasm). Bu esa ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni smetalash va rejalashtirishda katta qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi. Biroq, prognos natijalari esa jamg'arma tushum va xarajatlari keyingi yilning ikkinchi choragidan boshlab barqaror o'sish tendensiyasini prognos qilmoqda. Shuningdek, prognos natijalarining aniqligi esa barcha kriteriyalar uchun yuqori natijalarni qayd etmoqda. Agar, keyingi yilda jamg'arma tushum va xarajatlari kutilmagan yoki obyektiv-subyektiv sabablar ta'siridan xoli bo'lsa jamg'armaning tushum va xarajatlari biz taklif qilayotgan prognos ko'rsatkichlari doirasida bo'lishi mumkin. Hududlar kesimidagi tahlil natijalari esa daromadlar va xarajatlarning sarflanishida yuqori tafovut mavjudligini ko'rsatdi. Tahlil natijalariga asoslanib, mazkur muammolarni hal etish borasida bir necha taklif va tavsiyalar ishlab chiqishni maqsadga muvofiq deb topdik.

**Birinchi**dan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-458 sonli qarorida “mahalla budjeti”ning asosiy daromad manbasi sifatida tumanda undiriladigan mol-mulk va yer solig‘ining 10 foizi jamg‘armaga yo‘naltirilishi belgilangan. Buning natijasida 2024-yilda ushbu jamg‘armaning 90,5 foiz tushumlarini aynan shu soliq tushumlari tashkil etgan. Hududlarning iqtisodiy xususiyatlari turlicha bo‘lganligi va hududiy rivojlanish tafovutining yuqoriligi, mahalla jamg‘armasidagi ushbu tafovutni yanada kuchaytiradi. Tahlillar shuni ko‘rsatmoqdaki (1-rasm), Toshkent shahrida mahalla jamg‘armasi tushumlari Samarqand, Surxondaryo va Toshkent viloyatlaridan tashqari barcha hududlarning umumiy tushumlari-dan ko‘ra ko‘proq bo‘lib, uning daromad qoldiqlari esa eng kichik ko‘rsatkichni qayd etgan. Fikrimizcha, kuzatilgan hududiy tabaqalanishning oldini olish uchun, mol-mulk va yer solig‘idan undiriladigan 10 foizli ulush miqdorini hududlarning rivojlanish darajasiga nisbatan differentsiatsiya qilish lozim (Misol uchun, Toshkent shahri va boshqa ma‘muriy tuzilmalarning markaziy shaharlari uchun 5 – 7 foiz, qolgan hududlar uchun 10 – 15 foiz).

**Ikkinchi**dan, hududlar bo‘yicha mahalla jamg‘armasi tushum va xarajatlari orasidagi ijobiy saldo o‘ta yuqori bo‘lib, tahlil davrida o‘rta hisobda respublika bo‘yicha jami xarajatlar, jami tushumlarning 50 foiziga ham yetmaydi. Xarajatlar jami tushumlarning

48 foizini, qoldiqlar esa 52 foizini tashkil etmoqda (1-rasm). O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-209-sonli Farmonida mahallalar jamg‘armasidan moliyalashtiriladigan xarajatlar yo‘nalishiga mahalla hududidagi ichki yo‘llar, elektr va tabiiy gaz tarmoqlari, ichimlik va oqova suv tizimini ta‘mirlash va tiklash, mahalla binosi, mahalla hududida joylashgan sport maydoni, nuroniylar choyxonasi, yoshlar markazi, bolalar maydonchasi, kutubxona, madaniyat markazini qurish, mukammal va joriy ta‘mirlash hamda ularni inventar, mebel, kompyuter texnikasi va boshqa uskunalar bilan jihozlash, mahalla hududida infratuzilmani rivojlantirish, “Yashil makon” umummilliy loyihasi doirasida obodonlashtirish va ko‘kalamzorlashtirish ishlarini amalga oshirish hamda ijtimoiy himoyaga muhtoj va kam ta‘minlangan oilalarga moddiy ko‘maklashish hamda ularning turar joylarini ta‘mirlash va jihozlash kabilar kiritilgan. Fikrimizcha, mahallada bandlikni ta‘minlash va bo‘sh ish o‘rinlarini yaratish hamda mahallalarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish maqsadida jamg‘arma xarajatlarini rag‘batlantirish lozim. Xususan, jamg‘armadan moliyalashtiriladigan xarajatlar yo‘nalishiga xizmat ko‘rsatish sohalarida kichik biznesni tashkil etish, kasanachilik va hunarmandchilikni rivojlantirish kabi yo‘nalishlarini ham jamg‘armadan subsidiyalash asosida moliyalashtirish amaliyotini joriy etish lozim.

## Manba va adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 26-dekabrda “Mahalla budjeti tizimini joriy etish orqali mahallalarning moliyaviy imkoniyatini yanada kengaytirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-458 sonli Qarori. O‘zbekiston Respublikasi qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi. <https://lex.uz/>
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 25 dekabrda “Mahalla institutining jamiyatdagi rolini tubdan oshirish va uning aholi muammolarini hal etishda birinchi bo‘g‘in sifatida ishlashini ta‘minlashga qaratilgan chora-tadbirlar to‘g‘risida” gi PF-209-son Farmoni. O‘zbekiston Respublikasi qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi. <https://lex.uz/>
3. Dildora Yusupova (2022). Mahallalarda kasanachilikni rivojlantirishning aholi bandligini ta‘minlashdagi o‘rni. *Central Asian Academic Journal of Scientific Research*, 2 (2), 217-229.
4. Tuxtasinov, Z. (2023). Mahallalarda tadbirkorlik va hunarmandchilikni rivojlantirishni boshqarishning institutsional asoslari. *Бюллетень педагогов нового Узбекистана*, 1(7), 17-20.
5. Gafurov, B. (2022). Possibilities of economic development of regions through connecting “leading entrepreneurs” to mahallas. <https://www.bulletennauki.ru>, 216.
6. Инагамова, М.М. (2022). Янги ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияда қонун устуворлигини таъминлаш ва маҳалла институти фаолиятининг самарадорлигини оширишнинг ташкилий-ҳуқуқий масалалари (таҳлилий статистик маълумотлар асосида). *Academic research in educational sciences*, 3(10), 315-321.
7. Тешабоев, А. (2022). Ўзбекистонда маҳалла институти фаолиятини ташиқил этишининг ҳуқуқий асослари. *Общество и инновации*, 3(7/8), 165-170.
8. Salimovich, Otabek Rasulov. (2023). O‘zini-o‘zi boshqarish organlarining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini boshqarishni baholash masalalari. *Qo‘qon universiteti xabarnomasi*, 8, 70-73.

9. Беркинов, Б. (2024). Маҳалла ҳудудида камбағалликни бартараф этиши йўллари. *Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil*, 2(1), 310-317.

10. Беркинов, Б. (2024). Маҳалла ҳудудида аҳолининг озиқ-овқат маҳсулотларига бўлган истеъмол талабларининг таҳлили ва прогнози. *Economics and Innovative Technologies*, 12(2), 245-252.

11. Abdullaхоjaevich Fayziyev Farrux. (2024). Mahalla budjeti daromadlari manbaini kengaytirish va uning samaradorligini yanada oshirish masalalari. *World scientific research journal*, 26(3), 52-59.

12. Файзиев, Ф. А. (2024). Маҳаллада солиқ органлари фаолиятини таъкил этиши. *Gospodarka i Innowacje.*, 52, 18-23.

13. Гафуров, У. (2024). Маҳалла еттилиги тизимида ходимлар фаолият самарадорлигини баҳолашни такомиллаштириши масалалари. *Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil*, 2(5), 465-473.

14. Turaeva, L. (2024). “Yoshlar daftari” ning yuritish tizimini takomillashtirish yo‘nalishlari. *Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot*, 2(9).

15. Kelikume, I., & Salami, A. (2014). Time series modeling and forecasting inflation: Evidence from Nigeria. *The International Journal of Business and Finance Research*, 8(2), 41-51.

16. Lewis, C.D. (1982) *Industrial and Business Forecasting Methods*. Butterworths Publishing, London, p 143. ISBN 100408005599

1-ilova

**Mahalla jamg‘armasining tushum va xarajatlari ko‘rsatkichlari prognozi**

	Davr	Tushum	Xarajat	Qoldiq
<b>Fakt</b>	2024m2	2686832,0	465527,0	2221305,0
	2024m3	2768914,0	482597,0	2286317,0
	2024m4	2367116,0	442626,0	1924490,0
	2024m5	4963998,0	131476,0	4832522,0
	2024m6	3541991,0	265204,0	3276787,0
	2024m7	3157622,0	1170401,0	1987221,0
	2024m8	4284303,0	3856671,0	427632,0
	2024m9	2809526,0	2540154,0	269372,0
	2024m10	3352652,0	2858527,0	494125,0
	2024m11	3367465,0	3603285,0	-235820,0
	2024m12	704438,0	1167439,0	-463001,0
	<b>Prognoz</b>	2025m1	3808866,2	1623781,8
2025m2		3351484,3	576331,9	2775152,4
2025m3		3466082,7	1333949,1	2132133,6
2025m4		3367244,5	1641687,5	1725557,0
2025m5		3191832,8	1811897,8	1379935,0
2025m6		3157372,8	1860179,6	1297193,2
2025m7		3146641,7	1801609,5	1345032,2
2025m8		3165364,3	1750823,9	1414540,4
2025m9		3184575,7	1720279,5	1464296,2
2025m10		3193527,5	1713117,7	1480409,8
2025m11		3195343,7	1718875,5	1476468,2
2025m12		3193077,2	1726376,1	1466701,1

**Manba:** stata 16 dasturi asosida muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

УЎК: 334.021.(575.1)

**Muxtor SUNNATOV,**  
*PhD (iqtisodiyot fanlari bo'yicha),*  
*O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi*  
*Kadrlar malakasini oshirish va statistik tadqiqotlar instituti dotsenti,*  
**E-mail:** muxtor.sunnatov@mail.ru

## MILLIY HISOBLAR TIZIMIDA INTELLEKTUAL MULK MAHSULOTLARI HISOBINI YURITISH MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH

**Annotasiya:** *ushbu maqolada, makroiqtisodiy ko'rsatkichlarda intellektual mulk mahsulotlari hisobini yuritish mexanizmining zamonaviy uslubiy asosini Milliy hisoblar tizimi–2008 qoidalariga moslashtirish, ushbu aktivlarni “yangi iqtisodiyot”ning o'ziga xos belgisi sifatida makroiqtisodiy ko'rsatkichlarda aks ettirish, “intellektual mulk mahsulotlari” hisobi bilan bog'liq konseptual asoslarni yaratish zaruriyati tahlil qilindi.*

**Kalit so'zlar:** *Milliy hisoblar tizimi, intellektual mulk mahsulotlari, oraliq iste'mol, asosiy kapitalning yalpi jamg'arilishi, asosiy kapital iste'moli, aktivlar, asosiy fondlar, ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlari.*

### СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ МЕХАНИЗМА УЧЕТА ПРОДУКТОВ ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНОЙ СОБСТВЕННОСТИ В СИСТЕМЕ НАЦИОНАЛЬНЫХ СЧЕТОВ

**Мухтар Суннатов,**  
*PhD (по экономическим наукам),*  
*доцент Института подготовки кадров и*  
*статистических исследований*  
*Агентства статистики при Президенте*  
*Республики Узбекистан*

**Аннотация:** *в статье адаптируются современные методологические основы механизма учета продукции интеллектуальной собственности в макроэкономических показателях к правилам Системы национальных счетов–2008, отражающие эти активы в макроэкономических показателях как от-*

*личительный признак «новой экономики», при этом по счету «Продуктов интеллектуальной собственности» проанализирована необходимость создания соответствующих концептуальных основ.*

**Ключевые слова:** *система национальных счетов, продукты интеллектуальной собственности, промежуточное потребление, валовое накопление основного капитала, потребление основного капитала, активы, основные фонды, научно-исследовательские и опытно-конструкторские работы.*

### IMPROVEMENT OF THE MECHANISM FOR ACCOUNTING INTELLECTUAL PROPERTY PRODUCTS IN THE SYSTEM OF NATIONAL ACCOUNTS

**Mukhtar Sunnatov,**  
*PhD (in Economics),*  
*Associate Professor of the Institute of Training*  
*Personnel and Statistical Research of the*  
*Agency for Statistics under the President of the*  
*Republic of Uzbekistan*

**Abstract:** *the article adapts the modern methodological foundations of the mechanism for accounting for intellectual property products in macroeconomic indicators to the rules of the 2008 System of National Accounts, reflecting these assets in macroeconomic indicators as a distinctive feature of the “new economy”, while the need to create appropriate conceptual foundations for the “Intellectual Property Products” account is analyzed.*

**Keywords:** *system of national accounts, intellectual property products, intermediate consumption, gross fixed capital formation, consumption of fixed capital, assets, fixed assets, research and development.*

### **Kirish**

Bugungi kunda milliy iqtisodiyotimizdagi takomillashtirilayotgan makroiqtisodiy statistikaga oid uslubiy qo'llanmalar asosan xalqaro tashkilotlar tomonidan tavsiya etilayotgan qo'llanmalar hamda Milliy hisoblar tizimi – 2008 (MHT–2008 ) talablari asosida ishlab chiqilmoqda va amaliyotga joriy etilmoqda. Xususan, so'ngi o'n yillikda milliy statistikamizni rivojlantirishdagi ustuvor yo'nalishlar doirasida ko'plab me'yoriy hamda uslubiy qo'llanmalar ishlab chiqilib amaliyotga joriy etildi. Rasmiy statistikani tarqatish va/yoki taqdim etish bilan bog'liq jarayonlarning shaffofligini ta'minlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi "e-stat Library" uslubiy materiallar elektron kutubxonasini tashkil etgan [1].

Hozirgi vaqtda mamlakatimiz MHT–2008 yangi xalqaro standartni joriy qilmoqda. Amalda bo'lgan MHT–1993 standartga nisbatan MHT–2008 da ilmiy-tadqiqot faoliyati natijalaridan foydalanishning aks ettirilishiga nisbatan yondashuvi o'zgardi. Jumladan, ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlari xarajatlari, huddi binolar, asbob-uskunalar, jihozlar, kompyuter dasturiy ta'minoti va boshqa xarajatlar kabi asosiy kapitalning yalpi jamg'arilishi sifatida o'z aksini topadi, chunki ular ishlab chiqarish jarayonida ko'p martalab foydalanilishi sababli, ular uchun asosiy fondlar tarkibida alohida pozitsiya "intellektual mulk mahsulotlari" guruhi ajratilgan. Shu bilan birga, ilmiy-tadqiqot va ishlanmalar bo'yicha harajatlarni va ularning zaxiralarini aniqlash, bilvosita o'lehanadigan moliyaviy vositachilik xizmatlarini hisoblash kabi muhim masalalarga e'tibor qaratilmoqda.

Ilmiy-tadqiqot faoliyati statistikasini ishlab chiqish xalqaro darajada so'nggi yillarda Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (IHTT) doirasida Fan va texnologiya ko'rsatkichlari bo'yicha Milliy ekspertlar ishchi guruhi (Working Party of National Experts on Science and Technology Indicators - NESTI) tomonidan amalga oshirilgan "Frascati Yo'riqnomasi 2015"ni takomillashtirish bilan bog'liq. Ushbu takomillashtirishdan ko'zlangan maqsad "Frascati Yo'riqnomasi 2015"dan ko'plab mamlakatlar o'z amaliyotida foydalanishini hisobga olgan holda,

milliy hisoblar tizimi doirasida uning ko'rsatkichlarini baholash uchun tadqiqot faoliyati to'g'risidagi statistik ma'lumotlardan foydalanish imkoniyatini ta'minlash edi. MHT–2008 da ilmiy-tadqiqot va ishlanmalar xarajatlarining yangi talqini munosabati bilan turli ko'rsatkichlar va hisoblar o'rtasidagi o'zaro munosabatlar muvofiqlashmagan masalalari yuzaga keldi. Xususan, xalqaro uslubiy tavsiyalarni keng jamoatchilik institutlari bilan muhokama qilinayotgani, o'zaro munosabatlar bo'yicha yuqorida keltirilgan tushuntirishlarni umumlashtirishga va ularni yanada tizimli shaklda taqdim etishga harakat qilinayotgani tadqiqotimizning dolzarbligini asoslaydi.

### **Tadqiqot metodologiyasi**

Tadqiqotning metodologik asosini intellektual mulkning fundamental qonunlari, xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi "O'zbekiston–2030" strategiyasi to'g'risidagi PF-158-son, 2022-yil 28-yanvardagi "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmonlari hamda 2020-yil 3-avgustdagi "O'zbekiston Respublikasining milliy statistika tizimini yanada takomillashtirish va rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4796-son, 2022-yil 26-apreldagi "Intellektual mulk sohasini yanada rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-221-son qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 19-avgustdagi "O'zbekiston Respublikasida milliy hisoblarning zamonaviy tizimini joriy etish to'g'risida"gi 691-son qarori asosida belgilangan ustuvor vazifalardan kelib chiqib, mamlakatning iqtisodiyot tarmoqlariga intellektual faoliyat natijalari va innovatsiyalarni joriy etish mexanizmlarini takomillashtirish, O'zbekiston Respublikasida iqtisodiy statistikani yanada takomillashtirish va milliy hisoblar zamonaviy tizimini joriy etish bo'yicha amaliy chora-tadbirlar kompleksi, intellektual mulkning ishonchli huquqiy himoyasini ta'minlash borasida global intellektual mulk infratuzilmasini yaratish, intellektual mulk sohasida davlat boshqaruvini yanada takomillashtirish orqali mamlakatning investitsiyaviy jozibadorligini oshirish chora-tadbirlarining milliy hamda xalqaro amaliyoti tashkil etadi [2,3,4,5,6].

MHT–2008 yangi xalqaro standartga asosan ilmiy-tadqiqot faoliyati yordamchi faoliyat sifatida ko'rilmaydi, balki ilmiy-tadqiqot faoliyatining natijalari "intellektual mulk mahsuloti" sifatida kapitalizatsiya qilinishi kerak, qachonki ilmiy tadqiqot va rivojlantirish



sohasidagi faoliyat ishlab chiqaruvchi yoki mulkdorga iqtisodiy foyda keltirmasa uning natijalari oraliq iste'mol sifatida talqin qilinishi kerak [7].

#### Asosiy qism

MHTdagi "aktivlar" guruhida ilgari "nomoddiy ishlab chiqarilmagan aktivlar" hisobi MHT–2008 da "intellektual mulk mahsulotlari" hisobi deb yuritiladigan bo'ldi va uning tarkibi kengaytirildi. Ushbu aktivlarning aksariyati ko'pincha "yangi iqtisodiyot"ning o'ziga xos belgisi sifatida qaraladigan bo'ldi. "Intellektual mulk mahsulotlari (IMM)" hisobiga bog'liq ma'lumotlar bazalari aniqlashtirildi, shuningdek, ilmiy-tadqiqot va ishlanmalar uchun xarajatlarni jamg'arish elementi sifatida ko'rib chiqish joriy etildi.

O'z mablag'lari hisobidan amalga oshiriladigan yalpi asosiy kapitalni shakllantirish uchun foydalaniladigan tovarlar yoki xizmatlar korporatsiya yoki uy xo'jaliklari hisobiga iqtisodiy usulda ishlab chiqariladi. Bundan tashqari, ilmiy mahsulotlar kabi intellektual mulk mahsulotlari – tadqiqot va ishlanmalar yoki kompyuter dasturlari ham shular jumlasidandir.

Milliy statistikada intellektual mulk mahsulotlarini hisobga olishning zamonaviy uslubiy asosini Milliy hisoblar tizimining oxirgi versiyasi 2008-yilgi qoidalari tashkil etadi.

MHT–2008 metodologiyasiga muvofiq, intellektual mulk mahsulotlarining tuzilishi quyidagilarga bo'linadi: ilmiy-tadqiqot faoliyati natijalari; foydali qazilmalar zaxiralarini qidirish va baholash natijalari; kompyuter uchun dasturiy ta'minot va ma'lumotlar bazalari (kompyuter dasturlari va ma'lumotlar bazalarini ajratib ko'rsatish bilan); ko'ngilochar janrdagi asarlarning asl nusxalari, adabiyot va san'at asarlari; boshqa intellektual mulk mahsulotlari.

Ko'plab mamlakatlar MHT–2008 yangi xalqaro standartini joriy qilmoqdalar. Ushbu yangi xalqaro standartda ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik xizmatlarining yangi talqinining mohiyati shundan iboratki, turli institutsional sektorlarga mansub turli institutsional bo'linmalar tomonidan ushbu xizmatlardan foydalanish asosiy kapitalning jamg'arilishi sifatida ko'rib chiqiladi.

Shu sababli, MHT–2008 da o'z egasiga iqtisodiy foyda keltirmaydigan ilmiy tadqiqot faoliyati oraliq iste'mol sifatida ko'rib chiqilishi kerakligi tushuntiriladi. Shu bilan birga, ilmiy-tadqiqot va ishlanmalar bo'yicha harajatlarni va ularning zaxiralarini hisoblash, bilvosita o'lchanadigan

moliyaviy vositachilik xizmatlarini hisoblash kabi muhim masalalarga e'tibor qaratilmoqda.

#### Ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik xizmatlarining oraliq iste'moli quyidagi xarajatlar yig'indisi sifatida aniqlanadi:

a) "Tadqiqot va ishlanmalar" tarmog'iga tegishli bo'linmalar tomonidan sotib olingan tadqiqot va ishlanmalar xizmatlari;

b) aktiv bo'lmagan litsenziyalarni sotib olish munosabati bilan barcha tarmoqlar bo'linmalari tomonidan sotib olingan ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik xizmatlari;

v) ishlab chiqaruvchiga foyda keltirmaydigan tadqiqot xizmatlari (agar bunday xizmatlar haqida aniq ma'lumot mavjud bo'lsa, ushbu tavsiyani amalda qo'llash mumkin). Ba'zi mamlakatlarda ushbu band samarasiz tadqiqot xarajatlarini aks ettiradi, shu sababli ular to'xtatilgan yoki yo'qotishlar sifatida hisobdan chiqarilgan;

g) eksport.

#### Bundan tashqari MHT–2008 yangi standartida doimiy o'zgaruvchan iqtisodiy muhit bilan bog'liq asosiy muammolarni hal qilish bo'yicha tavsiyalar berilgan. Bular:

- iqtisodiyotda bilim komponentini qanday hisobga olish va o'lchash kerak (nomoddiy aktivlarga investitsiyalar chegaralarini yanada kengaytirish mumkin, intellektual mulk mahsulotlaridan foydalanishni yaxshiroq hisobga olish);

- o'sib borayotgan globallashtirish va xalqaro miqyosni qanday aks ettirish kerakligi hamda ishlab chiqarish jarayonining parchalanishi;

- boylik va qarzlarning to'g'risidagi ma'lumotlarga talab ortib borayotgan iqtisodiy va moliyaviy inqirozga qanday munosabatda bo'lish kerak, shu jumladan tarmoqlar va iqtisodiyotlar o'rtasidagi munosabatlarga oid batafsil ma'lumotlar;

- jamiyatlarning ma'lumotlarga talabining ortishi.

Xususan, 1993-yilgi MHT bilan solishtirganda 2008-yilgi MHTdagi o'zgarishlar 1993-yilgi MHTdagi o'zgarishlardan sezilarli darajada kichikroq. Yangi elementlarni beshta asosiy guruhga birlashtirish mumkin: aktivlar; moliya sektori; globallashtirish va u bilan bog'liq muammolar; davlat boshqaruvi sektori va davlat sektori; norasmiy sektor. Har bir guruhdagi asosiy o'zgarishlarga MHT–2008 da izoh berib o'tilgan [8].

2008-yilgi MHTda Ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlari quyidagicha ta'riflangan. "Ilmiy-

tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlari – bu bilimlar zaxirasini ko‘paytirish va ushbu bilimlar zaxirasidan yangi mahsulotlarni yaratish yoki o‘zlashtirish orqali samarali ishlab chiqarish jarayonlari rivojlantirish uchun foydalanish maqsadida tizimli asosda amalga oshiriladigan ijodiy faoliyat”. [9] Ushbu ta’rif “Fraskati Yo‘riqnomasi 2015” ta’rifiga mos keladi, hamda ushbu faoliyatni o‘rganish uchun ma’lumotlarni to‘plashining umume’tirof etilgan xalqaro standartidir.

Ilmiy-tadqiqot va ishlanmalar mahsuloti, agar bu faoliyat ishlab chiqaruvchiga (shuningdek, egasiga) aniq iqtisodiy foyda keltirmasa, “intellektual mulk mahsuloti” sifatida kapitallashtirilishi kerak. Bu holda oraliq iste’mol sifatida qaraladi. Ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik mahsulotlarini aktivlar tarkibiga kiritish bilan 1993- yilgi MHTda ishlab chiqarilmaydigan aktivlar tarkibiga kiruvchi “patent qilinadigan ob’ektlar” sifatida mavjud bo‘lgan aktivlarning bunday toifasi undan chiqarib tashlanadi, o‘rniga asosiy fondlar tarkibiga “ilmiy tadqiqot va ishlanmalar mahsulotlari” toifasi kiritiladi.

Asosiy fondlar ishlab chiqarish jarayonlarida bir yildan ortiq vaqt davomida qayta yoki uzluksiz foydalaniladigan vositalardir. Asosiy fondlar ob’ektining o‘ziga xos xususiyati uning qandaydir jismoniy ma’noda mustahkam bo‘lishida emas, balki ishlab chiqarishda uzoq vaqt, bir yildan ortiq vaqt davomida qayta-qayta yoki uzluksiz foydalanish mumkinligidadir [10].

Ba’zi tovarlar, masalan, ko‘mir, jismoniy ma’noda juda bardoshli bo‘lishi mumkin, lekin asosiy vositalar deb hisoblanmaydi, chunki ular faqat bir marta ishlatilishi mumkin. Asosiy fondlar nafaqat mashinalar va uskunalar, shuningdek, kompyuter dasturlari, san’at asarlari kabi intellektual mulk mahsulotlarini ham o‘z ichiga oladi. MHT–2008 da aktivlar tasnifida asosiy fondlar klassifikatsiyasi tarkibiga bir qancha o‘zgarishlar kiritildi. Jumladan:

1) Bino va inshootlarga “yerni yaxshilash” toifasi qo‘shildi. U 1993-yilgi MHTdagi “ishlab chiqarilmagan nomoliyaviy aktivlarning sezilarli yaxshilanishi” atamasini almashtirdi. Barcha yerlarga egalik huquqini o‘tkazish bilan bog‘liq xarajatlar “yerni yaxshilash” toifasiga kiritilishi kerak.

2) Mashina va uskunalarining bir qismi sifatida “axborot, kompyuter va telekommunikatsiya uskunalarini” ning yangi kategoriyasi aniqlandi.

3) Qurol-yarog‘ tizimlari – ishlab chiqarilgan aktivlar sifatida qaraladi va alohida tasniflanadi.

4) “Nomoddiy ishlab chiqarilmagan aktivlar” atamasining nomi “intellektual mulk mahsulotlari” bilan almashtirildi. “Mahsulotlar” so‘zi MHTga tegishli bo‘lgan uchinchi tomon huquqlarini o‘z ichiga olmasligini tushuntirish uchun kiritilgan.

5) “Tadqiqot va ishlanmalar (sun’iy intellekt)” mahsulotlari intellektual mulk mahsulotlariga kiritilgan. Natijada, patentlangan buyumlar endi ishlab chiqarilmagan aktivlarga kiritilmaydi va shunday tasniflanadi.

6) “Foydali qazilmalarni qidirish” atamasining sarlavhasi “foydali qazilmalar zaxiralarini qidirish va baholash”ga o‘zgartirildi, bu esa ushbu toifaning qo‘llanilish doirasining xalqaro buxgalteriya standartlariga muvofiqligini ta’kidladi.

7) “Kompyuter dasturiy ta’minoti” turkumiga ma’lumotlar bazalari kiritildi; “Kompyuter dasturiy ta’minoti” va “ma’lumotlar bazalari” bu toifadagi ikkita yozuvdir.

8) “Boshqa intellektual mulk mahsulotlari” atamasi “boshqa nomoddiy asosiy fondlar” atamasini almashtiradi.

MHT–2008 xalqaro standartda o‘zgarishlar kiritilganligi sababli, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Asosiy fondlar tasniflagichida ob’ektlarni kodlashtirish tizimi ishlab chiqildi (1-jadval ma’lumoti). Jumladan, O‘zbekiston Respublikasining Asosiy fondlar tasniflagichi guruhlarida intellektual mulk mahsulotlari tarkibi kengaytirildi [10].

1-jadval

**O‘zbekiston Respublikasining Asosiy fondlar tasniflagichi**

O‘R AFT kodlari				O‘R AFT guruhlarining nomi
Bo‘lim	Guruh	Kichik guruh	Sinf	
<b>Aktivlarning turlari bo‘yicha asosiy fondlar</b>				
1				<b>Turar joy binolari</b>
2				<b>Boshqa binolar va inshootlar</b>
3				<b>Mashina va uskunalar</b>
4				<b>Qurol-yarog‘lar tizimi</b>
5				<b>Yetishtiriluvchi biologik resurslar</b>
6				<b>Noishlab chiqarish aktivlarga mulk huquqini berish bilan bog‘liq xarajatlar</b>
7				<b>Intellektual mulk mahsulotlari</b>
	71			<b>Ilmiy tadqiqotlar va ishlanmalar</b>

**Manba:** muallif tomonidan tuzildi.

O'zbekiston Respublikasi Asosiy fondlar tasniflagichi (O'R AFT) Birlashgan Millatlar Tashkiloti, Evropa komissiyasi, Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti, Xalqaro valyuta jamg'armasi va Jahon banki guruhlarining Milliy hisoblar tizimi (MHT-2008)ga muvofiq asosiy vositalarning holati va harakati to'g'risidagi ma'lumotlarni shakllantirishga yondashuvlarni uyg'unlashtirish maqsadida ishlab chiqilgan. O'R AFTni tuzishda Mustaqil davlatlar hamdo'stligining asosiy fondlari model statistik tasniflagichlari (Yevrostatning: "Inshootlar turlari klassifikatsiyasi" (SS/KS 1998), "Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mahsulotlarning statistik klassifikatsiyasi" (SRA/KPYeS 2008), shuningdek SRA/KPYeS 2008ga asoslangan "O'zbekiston Respublikasining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mahsulotlarning (tovarlar, ishlar, xizmatlarning) statistik tasniflagichi (O'zDSt 2914:2014), Qozog'iston Respublikasining asosiy fondlar davlat tasniflagichi (GK RK 12-2009), Rossiya asosiy fondlar tasniflagichi (OK 013-2014 (MHT-2008 )) va Qirg'iziston Respublikasi asosiy fondlar davlat tasniflagichi (GK 026-2017))dan foydalanilgan [11].

Korxonalar faoliyatidagi buxgalteriya hisobining milliy standarti (11-son BHMS)ning maqsadi ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlariga xarajatlarni buxgalteriya hisobida aks ettirish tartibini belgilashdan iborat. Ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlariga xarajatlarni hisobga olishning asosiy masalasi bu xarajatlarni aktiv yoki xarajat sifatida tan olishdan iborat [12].

Qolaversa ilmiy va innovatsion faoliyat korxonalar faoliyat natijalariga, xususan, to'g'ridan-to'g'ri asosiy kapitalining yalpi jamg'arilishiga ta'sir ko'rsatadi.

Ilmiy-tadqiqotlar va ishlanmalarni hisobga olish sohasida ilmiy va innovatsion faoliyat yalpi ichki mahsulotdan olinadigan makroiqtisodiy ko'rsatkichlarning qiymatlariga ham ta'sir qiladi,

---

**Ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlariga xarajatlarni hisobga olishning asosiy masalasi bu xarajatlarni aktiv yoki xarajat sifatida tan olishdan iborat**

---

xususan, xalqaro statistikada milliy tadqiqotlarni rivojlantirishga investitsiyalarning intensivligini tavsiflovchi ilmiy-tadqiqot va ishlanmalar xarajatlarning yalpi ichki mahsulotga (YaIM) nisbatiga ta'sir qiladi. Ushbu o'zgarishlar natijasida yalpi ichki mahsulot hajmi ortadi. Xususan, yangi MHT-2008 standarti qo'llanilganda YaIMni hisoblashning har uchala usuliga (ishlab chiqarish usuli, daromadlardan foydalanish usuli va daromadlar manbalari bo'yicha YaIMni shakllantirish usuli) o'zgarishlar ta'sir qiladi [13]. Shuningdek, yakuniy iste'mol yoki xarajatlar bo'yicha YaIMni hisoblashda davlat boshqaruvi sektorining yakuniy iste'molga xarajatlari kamayadi va asosiy kapitalning yalpi jamg'armasi oshadi. Mazkur o'zgarishlarning YaIMga ta'siri uch yillik dinamikada YaIMning o'rtacha yarim foiz o'sishiga olib kelishi aniqlangan [14].

Ilmiy-tadqiqot faoliyati ishlab chiqarishning asosiy qismini oraliq iste'moldan jamg'arishga o'tkazish, ilmiy-tadqiqot faoliyatiga sarflanadigan xarajatlarni tezlashtirish sharti bilan yalpi ichki mahsulotning mutlaq qiymatining, shuningdek, uning o'sish sur'atlarining oshishiga olib keladi. YaIM hajmini hisoblashda oraliq iste'molga ilmiy-tadqiqot faoliyatining faqat takror foydalanib bo'lmaydigan natijalari kiritiladi. Natijada, YaIMni ishlab chiqarish usulida oraliq iste'mol kamayadi va yalpi qo'shilgan qiymat ortadi.

Ilmiy-tadqiqot xizmatlarining narxi kelajakda undan foydalanishdan kutilayotgan iqtisodiy foydani hisobga olgan holda belgilanishi kerak. Asosan, bu xizmatlarning bozor narxida aks etadi. Ilmiy-tadqiqot xizmatlarining bozor bahosi to'g'risida to'g'ridan-to'g'ri ma'lumotlar mavjud bo'lmaganda, ularni joriy xarajatlar miqdori, shu jumladan natijalarni bermagan ishlarning xarajatlari bilan baholash mumkin.

Ilmiy-tadqiqot va tajriba konstruktorlik faoliyati statistikasini MHT-2008 xalqaro standarti talablaridan kelib chiqqan holda ishlab chiqish, jumladan, so'nggi yillarda fan va texnologiya ko'rsatkichlari bo'yicha milliy ekspertlar ishchi guruhi tomonidan amalga oshirilgan "Frascati Yo'riqnomasi 2015"ni takomillashtirish bilan bog'liq [15].

Maqsad Milliy hisoblar tizimi doirasida ilmiy-tadqiqot faoliyatining ko'rsatkichlarini baholash uchun statistik ma'lumotlardan foydalanish imkoniyatini ta'minlash edi. Biz quyidagi 2-jadval orqali MHT-2008 da Ilmiy-tadqiqot va ishlanmalarni ishlab chiqarish va foydalanishni talqin qilishga oid qoidalar tizimlashtirilganligini ko'rishimiz mumkin.

2-jadval

**Ilmiy-tadqiqot natijalari va undan foydalanishni MHT–2008 da aks ettirish**

Ishlab chiqarilish	Foydalanish
<p><b>Bozor ishlab chiqarilishi:</b> - korporatsiyalar; - davlat boshqaruvi sektori birliklari (bozor muassasalari); - nokorporativ korxonalar.</p>	<p>Foydalanuvchilarning yalpi asosiy kapitalining jamg'arilishi ("Tadqiqot va ishlanmalar" sohasida faoliyat yurituvchilar va aktiv bo'lmagan litsenziyalarni sotib oluvchilar bundan mustasno); Foydalanuvchilar tomonidan oraliq iste'mol ("Tadqiqot va ishlanmalar" sohasida faoliyat yurituvchilar va aktiv bo'lmagan litsenziyalarni sotib oluvchilar bundan mustasno); Ishlab chiqaruvchilar o'rtasida aylanma mablag'lar (tugallanmagan ishlab chiqarish) zaxiralarning o'zgarishi; Eksport.</p>
<p>Bozor ishlab chiqaruvchilari (korporatsiyalar)ning o'z foydalanishlari uchun ishlab chiqarishi</p>	<p>Ishlab chiqaruvchilarning yalpi asosiy kapitalining jamg'arilishi (korporatsiyalar)</p>
<p>Davlat boshqaruvi sektori birliklarining (nobozor korxonalarining) bozordan tashqari ishlab chiqarishi</p>	<p>Davlat boshqaruvi sektori birliklarining yalpi asosiy kapitalini jamg'arilishi</p>
<p>Egasiga foyda keltirmaydigan ishlab chiqarish</p>	<p>Ishlab chiqaruvchining oraliq iste'moli</p>

**Manba:** muallif tomonidan tuzildi.

Xalqaro tashkilotlar tomonidan tavsiya etilayotgan ilmiy-tadqiqot natijalarini kapitalizatsiya qilish metodologik yondashuvlarini milliy iqtisodiyotimizning hisoblar tizimiga qo'llash zaruriyati mavjud deb hisoblaymiz [16].

её развития, формированию целевых ориентиров долгосрочно развития, отражающих национальные интересы всех слоёв общества и эффективных механизмов их достижения.


### Источники и литература

1. Вернигора А.А. Стратегическое планирование как механизм государственного управления: опыт Турции // *Проблемы национальной стратегии*. 2022. № 5 (74). С. 206-223. DOI 10.52311/2079-3359\_2022\_5\_206.
2. Fatih Demir. *Public Administration, Governance and Globalization*. ISBN 978-3-030-41647-8. © Springer Nature Singapore Pte Ltd. 2020. José Manuel Ruano • Marius Profireoiu. Editors *The Palgrave Handbook of Decentralisation in Europe*. ISBN 978-3-319-32437-1 (eBook). 2020.
3. *Kalkınma Planı (Birinci Beş Yıl) 1963–1967. Ocak 1963* // T.C. Cumhurbaşkanlığı Strateji ve Bütçe Başkanlığı. URL: <http://www.sp.gov.tr/upload/xSPTemelBelge/files/0s8jg+plan1.Pdf>
4. Стратегический план социально-экономического развития Турецкой Республики на 2024 -2028 годы. [https://www.ssb.gov.tr/Images/Uploads/MyContents/V\\_20240405145902497059.pdf](https://www.ssb.gov.tr/Images/Uploads/MyContents/V_20240405145902497059.pdf)
5. *Strategic Plan 2020-2024 DG REFORM – Directorate-General for Structural Reform Support*. European Commission. 2019.
6. *The European Commission's Recovery Plan and revised proposal for the 2021-2027 long-term EU budget (May 2020)*.
7. Halis Kural Tekin Akdemir Editors. *Public Financial Management Reforms in Turkey: Progress and Challenges, Volume 1. Accounting, Finance, Sustainability, Governance & Fraud: Theory and Application*. © Springer Nature Singapore Pte Ltd. 2020. P. 64-76.
8. Holmes, M., & Evans, A. *A Review of Experience in Implementing Medium Term Expenditure Frameworks in a PRSP Context: A Synthesis of Eight Country Studies*. Centre for Aid & Public Expenditure. London. 2003.
9. World Bank. *Beyond the Annual Budget*. Washington, DC: World Bank. 2013 <https://doi.org/10.1596/978-0-8213-9625-4>
10. Методика ООН. «STRATEGIC PLANNING MANUAL: Strategic Planning and Policy Development» Sarajevo Bosnia and Herzegovina, 2010.
11. U. Ayik., G. Erkal (2021). *Forecasting of Unemployment and Economic Growth for Turkey: ARIMA Model Application*. *Turkish Journal of Forecasting*. Vol. 5. № 1. p.12-22.
12. Orhun Sevinç, Ufuk Demiroğlu, Emre Çakır, E. Meltem Baştan (). *Potential Growth in Turkey: Sources and Trends*. © Central Bank of the Republic of Turkey. Working Paper, No: 21/07, 2021.
13. Hüseyin T. Eğin , Hale Akbulut. *The import tariff changes and sectoral production in Turkey: a computable general equilibrium (CGE) modeling approach*. *Quantitative Finance and Economics*. Volume 3, Issue 3: 2019 456-472. doi: 10.3934/QFE.2019.3.456.
14. Prof. Dr.Hasan Canpolat İstanbul Gedik University Ahmet Kesik Independent. *Review of The Strategic Management Experience in Turkey: How Strategic Management Approach Is Reflected in Strategy Documents; Difficulties and Disappointments (2022)*. 34 Pages Posted: 8 Dec 2022.
15. Dr. Ahmet Taner *Strategic planning as a tool for accountability in turkish public administration*. 2018. DOI 10.31460/mbdd.343518 <https://dergipark.org.tr/tr/download/article-file/545870>




## Приложение 1

## ЭТАПЫ ФОРМИРОВАНИЯ ДОКУМЕНТОВ СТРАТЕГИЧЕСКОГО ПЛАНИРОВАНИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ (макроуровень, проект)



*\*Для Узбекистана это высокий уровень энерго-капитало-водоёмкости экономического роста; слабая институциональная среда; сырьевая ориентация/низкий уровень диверсификации национальной экономики; низкое качество/инклюзивность экономического роста в рамках сложившейся модели развития; нарастающий дефицит водно-энергетических и земельных ресурсов на фоне быстрого роста численности населения; исчерпание традиционных источников роста.*

## Этап 2: ЦЕЛЕПОЛАГАНИЕ И СЦЕНАРНЫЕ ПРОГНОЗЫ



## Этап 3: РЕАЛИЗАЦИЯ И МОНИТОРИНГ ДОКУМЕНТОВ СТРАТЕГИЧЕСКОГО ПЛАНИРОВАНИЯ



## Приложение 2

## ПРИМЕРНОЕ СОДЕРЖАНИЕ

## научно-методического обеспечения разработки и использования документов стратегического планирования для экономики в целом её отдельных секторов и регионов

Разделы и подразделы	Содержание
<b>Основные термины понятия и определения стратегического планирования (СП) и госуправления</b>	Объекты и субъекты госуправления экономикой, прямые и обратные связи, макрорегуляторы, назначение СП, объекты СП, цели и задачи долгосрочного развития, процесс разработки СП, концепция развития, долгосрочные прогнозы и сценарии развития, механизмы реализации СП и т.д.
<b>Введение</b>	Цели и задачи методического руководства, содержание СП и целевых программ, роль и место СП в существующей и новой системе управления экономикой, нацеленной на повышение эффективности государственного управления, основные требования, принципы и этапы их разработки, примеры лучшей мировой практики разработки и использования СП и целевых программ в странах с формирующимися рынками, принципы формирования законодательной базы СП, обзор публикаций, необходимых для использования в качестве дополнения к методическому руководству.
<b>1. Принципы и критерии устойчивого развития в условиях усиления рисков внешней нестабильности и неблагоприятных климатических изменений</b>	Определение устойчивого развития экономики, источники роста, их истощение и пополнение, шоки внутренней и внешней нестабильности, классификация шоков, возможности государства управлять этими рисками в рамках долгосрочных национальных программ и планов развития
<b>2. Общие принципы и подходы к формированию СП и целевых программ</b>	
<b>2.1. Иерархия документов СП</b>	Схемы с взаимосвязями документов долгосрочного развития на макро, отраслевом и региональном уровнях, основные принципы их разработки, макрорегуляторы и механизмы формирования условий устойчивого развития со стороны государства
<b>2.2. Основные требования к документам СП и процессу их формирования</b>	Увязка с системными, наиболее острыми проблемами и барьерами на пути устойчивого развития экономики/отрасли/региона, наличие количественных ориентиров для оценки прогресса в преодолении существующих проблем и барьеров, требуемые изменения в институциональной среде, необходимое ресурсное обеспечение и рост ресурсной эффективности, реалистичность документов СП, их нацеленность на укрепление потенциала устойчивости развития
<b>2.3. Основные этапы разработки документов СП</b>	Общая схема, порядок и результаты использования мировых долгосрочных прогнозов технологического развития, мировой конъюнктуры, долгосрочных демографических, климатических и геологических прогнозов по Узбекистану, подходы к формированию концепции развития, наиболее вероятным альтернативам в источниках и факторах экономического роста, оценки степени их реалистичности, выбора наиболее перспективного сценария и его ресурсного обоснования
<b>3. Система индикаторов СП</b>	Иерархия целевых индикаторов, факторы, условия и предпосылки экономического роста, ресурсные индикаторы, показатели ресурсной эффективности, качественные индикаторы и индексы, устойчивые взаимосвязи между ними, индикаторы потенциала устойчивости развития, источники формирования информационной базы СП, методы бенчмаркинга
<b>4. Экономическая диагностика сложившихся экономических трендов и оценка их последствий их сохранения для объекта государственного управления</b>	Требования к статистике, используемой при поведении экономической диагностики, основные методы статистического анализа, включая методы выделения трендов, многофакторный анализ и другие методы выявления причин и факторов, формирующих динамику исследуемого индикатора, методы прогнозирования временных рядов, методы декомпозиции, ссылки на соответствующие методические пособия и онлайн обучающие программы, конкретные примеры по экономике Узбекистана

Разделы и подразделы	Содержание
<b>5. Подходы к моделированию и прогнозированию будущего развития</b>	Требования к модельному инструментарию, порядок его разработки, роль и возможности привлечения международных организаций к созданию модельного инструментария, ориентированного на конкретные отрасли и регионы республики
<b>6. Сценарный подход к структуризации неопределённости будущего развития</b>	Логика разработки альтернативных сценариев, этапы формирования сценариев, основные виды сценариев, используемых на практике
<b>7. Особенности методологии разработки планов стратегического развития для различных объектов управления</b>	Особенности источников роста, проблем и барьеров устойчивого развития, объективных ограничений, целевых ориентиров и т.д., используемых методов анализа и прогноза, конкретные примеры для общенациональных программ и стратегий развития, отраслевых стратегий развития, стратегий развития различных регионов республики
<b>8. Правовое обеспечение процесса разработки стратегических планов и программ</b>	Краткая характеристика существующей нормативной и правовой базы разработки и реализации СП, порядок инициации и утверждения документов СП в органах госуправления, порядка отчётности и обсуждения промежуточных итогов реализации стратегических документов развития
<b>9. Существующие в мире принципы и подходы к мониторингу выполнения целевых показателей: условия и возможности их использования в Узбекистане</b>	Обзор мирового опыта и конкретные рекомендации для Узбекистана по механизмам независимого мониторинга достижения целевых ориентиров, отражённых в документах СП.
<b>10. Требования к использованию современных цифровых технологий платформ в мониторинге реализации документов стратегического планирования</b>	Обзор доступных цифровых технологий, проектные решения и обоснования необходимости применения конкретных технологий и цифровых платформ на различных этапах разработки и использования документов СП.
<b>Приложения</b>	Технические дополнения, полезные ссылки, примеры и пояснения.

УЎК: 336.27.275.(575.1)

**Mirzabek JAMOLOV,***Makroiqtisodiy va hududiy tadqiqotlar instituti yetakchi mutaxassisi,***E-mail:** mirzabekjamalov@gmail.com,**Zokir RUSTAMOV,***Makroiqtisodiy va hududiy tadqiqotlar instituti yetakchi mutaxassisi,***E-mail:** zokir.toirovich@mail.ru

## DAVLAT TASHQI QARZINING IQTISODIY O‘SISHGA TA’SIRI TAHLILI

**Annotatsiya:** maqolada davlat qarzining iqtisodiy o‘shiga ta’siri O‘zbekiston misolida tahlil qilingan. Nazariy qarashlar, jumladan, klassik va Rikardo ekvivalentlik nazariyalari ko‘rib chiqildi. Klassik nazariya qarz iqtisodiy o‘shini sekinlashtirishini ta’kidlaydi, Rikardo ekvivalentligi esa ahamiyatli bog‘liqlik yo‘qligini ilgari suradi. Empirik tahlillar davlat qarzi va iqtisodiy o‘sh o‘rtasida O‘zbekistonda sezilarli bog‘liqlik yo‘qligini ko‘rsatdi. Shuningdek, xorijiy investitsiyalar va urbanizatsiyaning o‘shiga ijobiy ta’siri aniqlandi. Natijalar davlat qarzini samarali boshqarish orqali barqaror iqtisodiy o‘shni ta’minlash zarurligini ko‘rsatadi.

**Kalit so‘zlar:** davlat tashqi qarzi, investitsiyalar, YaIM, infratuzilma, iqtisodiy barqarorlik, byudjet tanqisligi, ishsizlik darajasi, mehnat resurslari.

**Анализ влияния государственного внешнего  
долга на экономический рост**

**Мирзабек Жамолов,***ведущий специалист Института**макроэкономических и региональных исследований,***Зокир Рустамов,***ведущий специалист Института**макроэкономических и региональных исследований*

**Аннотация:** в статье анализируется влияние государственного долга на экономический рост на примере Узбекистана. Рассмотрены теоретические подходы, в том числе классическая теория и теория эквивалентности Рикардо. Классическая теория утверждает, что долг замедляет экономический рост, в то время как эквивалентность Рикардо предполагает, что существенной взаимосвязи

между ними нет. Эмпирический анализ показал, что существенной связи между государственным долгом и экономическим ростом в Узбекистане нет. Также было определено положительное влияние иностранных инвестиций и урбанизации на экономический рост. Результаты показывают необходимость обеспечения устойчивого экономического роста посредством эффективного управления государственным долгом.

**Ключевые слова:** государственный внешний долг, инвестиции, ВВП, инфраструктура, экономическая стабильность, бюджетный дефицит, уровень безработицы, трудовые ресурсы.

**Analyzing the impact of public external debt on  
economic growth**

**Mirzabek Jamolov,***Institute of Macroeconomic and Regional Studies,**leading specialist,***Zokir Rustamov,***Institute of Macroeconomic and Regional Studies,**leading specialist*

**Abstract:** the article analyzes the impact of public debt on economic growth on the example of Uzbekistan. Theoretical approaches are considered, including the classical theory and Ricardo's equivalence theory. The classical theory argues that debt slows down economic growth, while Ricardo's equivalence theory suggests that there is no significant relationship between the two. Empirical analysis showed that there is no significant relationship between public debt and economic growth in Uzbekistan. The positive impact of foreign investment and urbanization on economic growth was

*also determined. The results show the need to ensure sustainable economic growth through effective public debt management.*

**Keywords:** *public external debt, investment, GDP, infrastructure, economic stability, budget deficit, unemployment rate, labor resources.*

### **Kirish**

Davlat qarzi va iqtisodiy o'sish o'rtasidagi munosabat iqtisodiyot fanining dolzarb masalalaridan biridir. Dunyo miqyosida davlat qarzining yuqori darajasi va davlat byudjeti tanqisliklari ko'plab mamlakatlar uchun katta muammo hisoblanadi. Ayniqsa, rivojlanayotgan mamlakatlarda davlat qarzining iqtisodiy o'sishga ta'sirini tahlil qilish muhim ahamiyatga ega. Davlat qarzi iqtisodiy o'sish sur'atlariga qanday ta'sir ko'rsatadi, davlat qarzining ortishi bilan iqtisodiy o'sish susaydimi yoki aksincha, davlat qarzi iqtisodiy barqarorlikka yordam beradimi – bu savollar iqtisodiyotchi olimlar, davlat arboblari va moliyaviy tahlilchilar orasida muhim bahs-munozaralarga sabab bo'lgan.

Davlat qarzi deganda, davlat tomonidan o'zining ichki yoki tashqi iqtisodiy ehtiyojlarini qondirish uchun qarz olish jarayoni tushuniladi. Davlat qarzi davlatga byudjet tanqisliklarini bartaraf etish, infratuzilma loyihalarini moliyalashtirish, iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish yoki favqulodda vaziyatlarda iqtisodiy yordam ko'rsatish uchun zarur bo'lishi mumkin. Shuningdek, davlat qarzi rivojlanish sur'atlari sust bo'lgan mamlakatlar uchun iqtisodiy o'sishni ta'minlashda muhim moliyaviy manba sifatida qaraladi. Lekin, davlat qarzi darajasi oshib borishi bilan iqtisodiy rivojlanish va barqarorlik orasidagi bog'liqlik ham murakkablashadi. Bu holatda davlat qarzining iqtisodiy o'sishga ta'siri ijobiy yoki salbiy ekanligini tushunish uchun turli iqtisodiy nazariyalar va empirik tadqiqotlarga murojaat qilish lozim.

O'zbekiston kabi rivojlanayotgan mamlakatlar uchun davlat qarzi va iqtisodiy o'sish o'rtasidagi bog'liqlikni chuqurroq o'rganish nihoyatda muhimdir. Mamlakatning iqtisodiy rivojlanishi uchun zarur bo'lgan infratuzilmalar, energetika loyihalari va boshqa iqtisodiy sektorlar davlat qarzi orqali moliyalashtiriladi. Biroq, davlat qarzi darajasining oshib ketishi mamlakatning kelajakdagi iqtisodiy barqarorligiga tahdid solishi mumkin. Shunday qilib, davlat qarzining iqtisodiy o'sishga ta'sirini aniqlash va bu bog'liqlikning qanday omillarga bog'liqligini

tushunish davlat siyosati uchun muhimdir. O'zbekiston iqtisodiyotida davlat qarzi va iqtisodiy o'sish o'rtasidagi bog'liqlikni empirik tadqiq qilish nafaqat iqtisodiy o'sish sur'atlarini oshirishda, balki davlat qarzini samarali boshqarish uchun ham zarurdir. Bu tadqiqotlar yordamida mamlakat uchun optimal qarz darajasi aniqlanib, bu orqali iqtisodiy o'sishni ta'minlash va barqarorlikni saqlashda muhim yondashuvlar ishlab chiqiladi.

### **Adabiyotlar tahlili**

Davlat qarzining iqtisodiy o'sishga ta'siriga oid nazariy yondashuvlar tahlilini dastlab klassik nazariya misolida ko'rib chiqsak. Klassik iqtisodiy nazariyaga ko'ra davlat qarzi va iqtisodiy o'sish o'rtasida salbiy bog'liqlikni o'zida aks ettiradi. Barro (1974) va Bon (1989) [1] tadqiqotlariga ko'ra, davlat qarzining ortishi kelgusidagi iqtisodiy o'sishni pasaytiradi. Bu nazariya davlat qarzining ortishi iqtisodiyotning kelgusidagi daromadlarini davlat tomonidan qarz to'lovlariga yo'naltirishini ko'rsatadi. Bu nazariy asos, xususan, davlat qarzi yuqori bo'lgan mamlakatlar uchun dolzarbdir.

Klassik nazariya davlat qarzi va investitsiyalar o'rtasidagi qarama-qarshi bog'liqlikka ham urg'u beradi. Bunday holatda, davlat qarzi darajasining oshishi davlat investitsiyalari uchun cheklovlar yaratadi. Bu esa, iqtisodiy o'sishning sekinlashishiga olib kelishi mumkin. Ushbu nazariya O'zbekiston kabi iqtisodiy rivojlanayotgan davlatlar uchun ham muhim, chunki bu holatda davlat qarzining iqtisodiy o'sishga ta'siri yanada kuchayishi mumkin.

David Rikardo tomonidan ilgari surilgan ekvivalentlik nazariyasiga ko'ra, davlat qarzi va iqtisodiy o'sish o'rtasida ahamiyatli bog'liqlik yo'q [2]. Bu nazariyaga ko'ra, davlat qarzi xalqning kutilmalariga bevosita ta'sir qilmaydi, chunki fuqarolar kelgusida soliqlar orqali qarzni to'lash zaruriyatini anglaydilar va shunga yarasha qarorlar qabul qiladilar. Shu sababli, davlat qarzining oshishi iqtisodiy o'sishga sezilarli ta'sir qilmaydi. Rikardo ekvivalentlik nazariyasining mohiyati shundaki, davlat qarzi va soliqlar o'zaro almashtirilishi mumkin deb hisoblanadi.

Checherita-Westphal va Rother (2012) [3] Rikardo ekvivalentligi nazariyasini qo'llab-quvvatlagan holda, davlat qarzining iqtisodiy o'sishga bo'lgan ahamiyatsiz ta'sirini ta'kidlagan. Biroq, bu tadqiqotda davlat qarzi iqtisodiyotda noxush iqtisodiy holatlarni keltirib chiqarishi mumkinligi ham qayd etilgan. Ular davlat qarzi yuqori bo'lganda investitsiyalar kamayishi va iqtisodiy o'sish susayishi mumkinligini keltirib o'tgan.

O'z ishlarida kvadratik bog'liqlik nazariyasini

olg'a surgan Lyudvigsen (1996) va Reinhart va Rogof (2010) [4] tadqiqotlariga ko'ra, davlat qarzi va iqtisodiy o'sish o'rtasida kvadratik munosabat mavjud bo'lishi mumkin. Bu nazariyaga muvofiq, davlat qarzi iqtisodiy o'sishga ijobiy yoki neytral ta'sir ko'rsatishi mumkin, ammo qarz ma'lum bir darajadan oshganda iqtisodiy o'sishni susaytiradi. Bu "qulay" va "xavfli" davlat qarzi darajasi tushunchasini taqdim etadi. Ularning tadqiqotiga ko'ra, 90% darajadagi qarz iqtisodiy o'sish uchun xavf tug'diradi. Bu esa, davlat qarzining chegaralangan ta'sirini ko'rsatadi, ya'ni qarz ma'lum chegaradan oshib ketganda salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Davlat tashqi qarzini tahlil qilish jarayonida empirik tadqiqotlar ham o'z o'rnida o'rganib chiqildi. Davlat qarzining daromad va inflyatsiyaga ta'siri qanday darajada bo'lishi mumkinligi to'g'risidagi nazariyalar ham o'rganib chiqildi. Kumar va Vu (2015) [10] davlat qarzining iqtisodiy o'sishga empirik ta'sirini o'rganish uchun turli mamlakatlar misolida regression tahlil o'tkazishgan. Ularning tadqiqotlari davlat qarzi yuqori bo'lgan mamlakatlarda iqtisodiy o'sish darajasi past bo'lishi mumkinligini ko'rsatdi. Shuningdek, ular iqtisodiyotni barqarorlashtirish uchun qarz darajasini pasaytirish zarurligini ta'kidladilar. Bunday holatlarda davlat qarzining inflyatsiyaga ham ta'sir ko'rsatishi mumkin. Bu tadqiqotlar davlat qarzining iqtisodiy ko'rsatkichlarga umumiy ta'sirini chuqur o'rganishga yordam beradi.

Reinhart va Rogof (2010) [4] davlat qarzi va iqtisodiy o'sish o'rtasidagi murakkab bog'liqlikni o'rganishdi. Ularning tadqiqotida, davlat qarzi 90% darajadan oshganda iqtisodiy o'sish salbiy ta'sirlanishi kuzatilgan. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, yuqori darajadagi davlat qarzi o'sishga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin, bu esa iqtisodiy inqirozlarni keltirib chiqarishi ehtimolini oshiradi. Ushbu natijalar davlat qarzi va iqtisodiy barqarorlik o'rtasidagi aloqani yanada chuqurroq tushunishga yordam beradi.

Bundan tashqari dunyoning ko'zga ko'ringan olimlari ham ushbu mavzuda o'z tadqiqotlarini olib borganlar. Robert Barro (1974) [1] o'z izlanishlarida davlat qarzi va soliqlar orqali davlat xarajatlarini moliyalashtirish o'rtasidagi bog'liqlikni tadqiq etgan. U "tax-smoothing" nazariyasini ilgari surib, davlat qarzi ortishi kelgusidagi soliqlar oshishi bilan qoplanishi kerakligini ta'kidlagan. Barro davlat qarzining o'sishiga nisbatan konservativ yondashuv tarafdori bo'lib, u davlat qarzi iqtisodiy o'sishga salbiy ta'sir ko'rsatishini bildiradi.

Francesco Giavazzi va Marco Pagano (1990) [9] esa davlat qarzi va fiskal siyosatning iqtisodiy o'sishga ta'sirini o'rganib, "non-Keynesian" ta'sir haqida tadqiqot olib borishgan. Ularning tadqiqotida fiskal konsolidatsiya (masalan, qarzni kamaytirish maqsadida xarajatlarni qisqartirish) ba'zi hollarda iqtisodiy o'sishni kuchaytirishi mumkinligi ko'rsatilgan. Bu yondashuvda, qarz yukining kamayishi bozor ishonchini oshirib, o'sishga ijobiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Manmohan Kumar va Jaejoon Woo (2010) [10] o'z tadqiqotlarida davlat qarzi va iqtisodiy o'sish o'rtasidagi uzoq muddatli munosabatni empirik tahlil qilganlar. Ular davlat qarzi yuqori bo'lgan mamlakatlarda iqtisodiy o'sishning sekinlashishi mumkinligini aniqlashgan va davlat qarzining o'sishi investitsiyalar uchun cheklov yaratishi mumkinligini ta'kidlagan.

Alberto Alesina va Silvia Ardagna (2009) [8] davlat qarzi va iqtisodiy o'sish o'rtasidagi bog'liqlikni fiskal konsolidatsiya siyosatlari orqali o'rgangan. Ularning tadqiqotlari iqtisodiy barqarorlik uchun davlat qarzini kamaytirishga yo'naltirilgan siyosatlarning samarali bo'lishini ta'kidlab, bu jarayon iqtisodiy o'sishni rag'batlantirishga yordam berishi mumkinligini ko'rsatgan.

O'zbekiston iqtisodiyoti uchun davlat qarzi va iqtisodiy o'sish o'rtasidagi bog'liqlik an'anaviy klassik nazariya va Rikardo ekvivalentligi nazariyasiga qisman mos keladi. Tahlil natijalariga ko'ra, O'zbekiston misolida davlat qarzi va iqtisodiy o'sish o'rtasidagi bog'liqlik ahamiyatsiz va neytral bo'lib chiqdi. Bu esa, davlat qarzi va iqtisodiy o'sish o'rtasida kuchli bog'liqlik yo'qligini ko'rsatadi va Rikardo ekvivalentlik nazariyasini qisman tasdiqlaydi.

Shuningdek, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar va urbanizatsiyaning iqtisodiy o'sishga ijobiy ta'sir ko'rsatishi O'zbekiston iqtisodiyoti uchun muhim omillardan biri ekanini ko'rsatdi. O'zbekistonning o'ziga xos iqtisodiy xususiyatlari ushbu o'zgaruvchilar orqali iqtisodiy o'sishni rag'batlantirishda muhim rol o'ynashi mumkin. Davlat tashqi qarzi va iqtisodiy o'sish o'rtasidagi bog'liqlikni tahlil qilishda nazariy va empirik tadqiqotlar muhim ma'lumotlar taqdim etadi. Klassik nazariya va kvadratik bog'liqlik modeli davlat qarzining yuqori darajasi iqtisodiy o'sishni cheklashini ko'rsatsa, Rikardo ekvivalentlik nazariyasi bu bog'liqlikni rad etadi. Empirik tadqiqotlar davlat qarzining iqtisodiy o'sishga ta'siri murakkab ekanini

va u mamlakatning iqtisodiy xususiyatlariga bog'liq bo'lishi mumkinligini ko'rsatadi. O'zbekiston misolida tahlil natijalari davlat qarzi va iqtisodiy o'sish o'rtasida ahamiyatli bog'liqlik yo'qligini ko'rsatdi, bu esa mamlakatning o'ziga xos iqtisodiy sharoitlaridan kelib chiqqan holda Rikardo ekvivalentlik nazariyasiga qisman mos kelishini anglatadi.

### Metodologiya

Davlat qarzining iqtisodiy o'sishga ta'siri ko'plab ishlarda tahlil qilingan (Barro, 1974; Bon, 1989; Lyudvigsen, 1996; Reinhart va Rogof, 2010; Checherita-Vestfal va Ruter, 2012; Kumar va Vu, 2015). Davlat qarzining iqtisodiy o'sishga ta'siri asosan 2 iqtisodiy nazariya – klassik nazariya va Rikardo ekvivalentlik nazariyalari vositasida tahlil qilinadi. Birinchisi iqtisodiy o'sish davlat qarzi asosida kamayishini ko'zda tutsa, ikkinchisi bu ikki ko'rsatkich orasida ahamiyatli munosabat yo'qligini ta'kidlaydi. Reinhart va Rogof (2010) hamda Checherita-Vestfal va Ruter (2012) o'z ishlarida munosabatning kvadratik shakl kasb etishi mumkinligi ham muhokama qilingan.

Ushbu tahlilni amalga oshirish uchun Reinhart va Rogof (2010) tomonidan shakllantirilgan metodologiyalardan foydalanildi. **Mehnat, kapital va inson kapitali resurslarining Kobb-Duglas funksiyasi shaklidagi integratsiyasi Solou-Suan iqtisodiy o'sish modelining asosini tashkil qiladi:**

$$Y = A \times K^\alpha \times L^\beta$$

**Ushbu iqtisodiy o'sish modelini chiziqli modelga aylantirish uchun model logarifmlanadi:**

$$\ln(Y) = \ln(A) + \alpha \times \ln(K) + \beta \times \ln(L)$$

**Reinhart va Rogof (2010) tomonidan nazarda tutilgan qo'shimcha o'zgaruvchilar bilan to'ldirilgan modelning yakuniy ko'rinishi quyidagicha:**

$$Y_{it} = \alpha_0 + \alpha_1 \times K_{it} + \alpha_2 \times L_{it} + \alpha_3 \times GD_{it} + \alpha_4 \times UN_{it} + \alpha_5 \times INF_{it} + \alpha_6 \times U + \varepsilon_{it}$$

O'zgaruvchilarning modeldagi taqdimoti va ularning STATA dasturidagi nomlari va tavsiflari 1-jadvalda keltirilgan.

**O'zbekistonning o'ziga xos iqtisodiy xususiyatlari ushbu o'zgaruvchilar orqali iqtisodiy o'sishni rag'batlantirishda muhim rol o'ynashi mumkin.**

### 1-jadval

#### O'zgaruvchilar tavsifi

O'zgaruvchining modeldagi nomi	O'zgaruvchining STATA-dagi nomi	O'zgaruvchining tavsifi
Y	gdp	Iqtisodiy mahsulotni ifoda etish uchun yalpi ichki mahsulot qiymatlari vositasida ifoda etilgan
GD	govdebt	Asosiy ta'sir ko'rsatuvchi o'zgaruvchi sifatida modelga davlat qarzi ko'rsatkichlari qo'shilgan
INF	cpi	Iqtisodiyotdagi narxlar dinamikasini ifoda etish uchun iste'molchi mahsulotlari narxlar indeksi
UN	unempl	Mamlakatdagi ishsizlik darajasi va daromad taqsimotini ifoda etish uchun ishsizlar soni
L	pop	Mamlakatdagi mehnat resurslarini ifoda etish uchun aholi soni o'sish sur'atlari
K	invest	Mamlakatdagi real kapital akkumulyatsiyasini ifoda etish uchun to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar
U	urban	Mamlakatdagi infratuzilma va hayot sur'ati rivojlanishini ifoda etish uchun shaharda yashovchi aholi ulushi

**Manba:** O'zgaruvchilarning modeldagi, STATA dasturidagi nomlari va tavsiflari.

Ushbu ko'rsatkichlar uchun statistik ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi tomonidan taqdim etiladigan "O'zbekiston Respublikasi davlat qarzi holati va dinamikasi sharhi" byulletinidan va O'zbekiston Statistika agentligi ma'lumotlar bazasidan olingan. To'plangan statistik ma'lumotlar tasviriy ko'rsatkichlari 2-jadvalda keltirilgan. Ma'lumotlar statistik tahlili STATA ekonometrik instrumentlar to'plamining 14-versiyasida bajarilgan.

### 2-jadval.

#### Tasviriy statistik ko'rsatkichlar

Variable	Obs	Mean	Std. Dev.	Min	Max
gdp	27	6.722e+10	3.282e+10	2.786e+10	1.312e+11
govdebt	25	18.972	12.426	6.1	44.8
cpi	24	110.531	6.62	103.65	128.2
unempl	27	6.96	2.927	4.526	13.3
pop	27	1.665	.433	1.078	2.823
invest	26	8.704e+08	7.988e+08	65300000	2.498e+09
urban	27	14359466	2387717	10575599	18399889

**Manba:** "O'zbekiston Respublikasi davlat qarzi holati va dinamikasi sharhi" byulletini va O'zbekiston Statistika agentligi ma'lumotlarining STATA-14 dasturidagi statistik tahlili.



Navbatdagi 3-jadvalda ko'rsatkichlar orasidagi munosabatning boshlang'ich tavsifini berish maqsadida korrelyatsiya ko'rsatkichlari taqdim etilgan bo'lib, yalpi ichki mahsulot bilan kuchli aloqani to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar hajmi, mamlakat aholisi va mamlakatdagi urbanizatsiya darajasi tashkil qilishini ko'rish mumkin.

3-jadval

## Korrelyatsiyalar matritsasi

Variables	(1)	(2)	(3)	(4)	(5)	(6)	(7)
(1) gdp	1.000						
(2) govdebt	-0.093	1.000					
(3) cpi	-0.172	0.631	1.000				
(4) unempl	-0.655	0.681	0.698	1.000			
(5) pop	0.497	-0.346	-0.163	-0.509	1.000		
(6) invest	0.839	-0.106	-0.163	-0.601	0.735	1.000	
(7) urban	0.986	-0.229	-0.287	-0.755	0.564	0.846	1.000

**Manba:** STATA ekonometrik instrumentlar to'plamining 14-versiyasida olingan korrelyatsiya ko'rsatkichlari.

Ko'rsatkichlar tahlillari natijasi o'laroq kutilayotgan munosabatlarni tahlil qilinsa, yalpi ichki mahsulot va davlat qarzi orasida munosabat yo'q ekani David Rikardo qarashlaridan buyon tahlil qilinadi. Inflyatsiya va yalpi ichki mahsulot dinamikasi o'rtasidagi munosabat murakkab bo'lib, natijalarning salbiy yoki ijobiy chiqishligi ehtimoli mavjud. Bu ikki ko'rsatkich o'rtasidagi salbiy iqtisodiy munosabat inqiroz keltirib chiqarishini hisobga olsak, O'zbekiston uchun munosabatning ijobiy chiqishi ko'zda tutilishi kerak. Lekin, mamlakatda olib borilayotgan inflyatsiyani targetlash siyosati iqtisodiy o'sish hamda narxlar dinamikasi orasida ahamiyatsiz salbiy munosabatni ifoda etishi mumkin. Oukun qonunining mazmuni ishsizlik va yalpi ichki mahsulot o'sish sur'atlari orasida salbiy munosabatni nazarda tutadi. To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar mamlakatdagi kapital shakllanmalari ortishi hisobiga iqtisodiy o'sishga ijobiy ta'sir ko'rsatishi ko'zda tutiladi. Va nihoyat, urbanizatsiya va yalpi ichki mahsulot ortishi ijobiy munosabatga ega bo'ladi.

**Natijalar tahlili**

Qiziqish bildirilayotgan munosabatning empirik tahlilini amalga oshirish uchun shakllantirilgan ekonometrik modelning ustida to'plangan statistik ma'lumotlar vositasida regression tahlil amalga oshirildi. Regression tahlil STATA-14 ekonometrik instrumentlar to'plami yordamida o'tkazildi. Tahlilni eng kichik kvadratlar usuli (EKKU, OLS) da amalga oshirish Gauss-Markov shartlariga tekshirishni ham talab etadi.

Kuzatmalar soni 30 dan kichik ekani munosabatlar ahamiyat darajasini tahlil qilishda normal taqsimotdan ko'ra Irving Fisher tomonidan ishlab chiqilgan Talabning t-taqsimotini qo'llashilishini talab etadi. Modelda geteroskedastlik muammosini Bryush-Peygan geteroskedastlik testi vositasida, ko'p tarmoqli kollinearlik esa model variatsiya inflyatsion omillari (VIF-ko'rsatkichlari) ni hisoblash orqali tekshiriladi. Ma'lumotlar to'plami bir mamlakat uchun bir necha yillar miqyosida olingani modelda vaqt qatorlarida ko'p uchraydigan avtokorrelyatsiya muammosi kuzatilishi ehtimoli yuqoriroq bo'lishini anglatadi. Bu muammoni tekshirish uchun Bryush-Godfri avtokorrelyatsiya testi qo'llanilib, yechim sifatida tafovutlar regressiyasi tahlil qilinadi.

Modelning regression tahlili 4-jadvalda taqdim etilgan. Jadvalning yuqori qismi yalpi ichki mahsulotga ta'sir ko'rsatuvchi omillarni tahlil qiladi. Jadval quyi qismida model sifat ko'rsatkichlari – determinatsiya koeffitsienti, modelning umumiy ahamiyatini ko'rsatuvchi ko'p omilli Fisher testi, Akaike ma'lumotlar kriteriyasi bo'yicha moslik koeffitsientlari ko'rsatilgan.

4-jadval

Yalpi ichki mahsulotga ta'sir ko'rsatuvchi omillar (eng kichik kvadratlar regressiyasi usulida)

gdp	Coef.	St.Err.	t-value	p-value	[95% Conf	Interval]	Sig
govdebt	86567201	67227350	1.29	.217	-56724503	2.299e+08	
cpi	1.689e+08	1.128e+08	1.50	.155	-71522333	4.093e+08	
unempl	1.130e+09	6.518e+08	1.73	.103	-2.590e+08	2.519e+09	
pop	-5.271e+09	1.844e+09	-2.86	.012	-9.202e+09	-1.341e+09	**
invest	2.118	1.625	1.30	.212	-1.345	5.58	
urban	15269.252	627.579	24.33	0	13931.6	16606.905	***
Constant	-1.751e+11	1.239e+10	-14.13	0	-2.015e+11	-1.487e+11	***
Mean dependent var		66943803855.533	SD dependent var			27891626577.832	
R-squared		0.996	Number of obs				22
F-test		583.879	Prob > F				0.000
Akaike crit. (AIC)		1013.611	Bayesian crit. (BIC)				1021.248

\*\*\*  $p < .01$ , \*\*  $p < .05$ , \*  $p < .1$

**Manba:** eng kichik kvadratlar usulida amalga oshirilgan regression tahlil natijalari.

5-jadval

VIF qiymatlar

Variable	VIF	1/VIF
unempl	9.950	0.101
urban	6.880	0.145
invest	6.650	0.150
govdebt	3.590	0.278
pop	3.000	0.333
cpi	2.740	0.364
Mean VIF	5.470	

**Manba:** Model uchun hisoblangan variatsiya inflyatsion omillari (VIF-ko'rsatkichlari).

Modelning mustaqil o'zgaruvchilarining yalpi ichki mahsulotga ta'sirini ikkinchi ustun ifoda etadi (Coef.). Unga ko'ra, yalpi ichki mahsulotga salbiy ta'sir ko'rsatayotgan yagona o'zgaruvchi aholi soni o'sish sur'atlari (-5.271\*109 – taqriban 5.271 milliard so'm). Boshqa barcha o'zgaruvchilar iqtisodiy o'sishga ijobiy hissa qo'shishi ko'rsatilgan.

O'zgaruvchilar ta'sirining ahamiyat darajasiga to'xtalsak, aholi o'sish sur'atlari va urbanizatsiya ko'rsatkichlaridan boshqa barcha o'zgaruvchilar ahamiyatli ta'sirni ifoda etmagan.

Eng kichik kvadratlar usulida amalga oshirilgan regression tahlilni verifikatsiyalashda Gauss-Markov shartlarining bajarilganligi muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki modelda bu shartlarning buzilishi eng kichik kvadratlar usulida hisoblangan beta-koeffitsientlar to'g'riligiga (avtokorrelyatsiya holatida), model determinatsiya koeffitsienti ishonchliligiga (ko'p tarmoqli kollinearlik holatida), ko'rsatkichlar ta'sirining ahamiyat darajasiga (geteroskedastlik holatida) salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Ushbu maqsad bilan STATA-14 vositasida Bryush-Peygan geteroskedastlik testi o'tkazildi. Test xi-kvadrat koeffitsienti 0.46 ni tashkil qilib, p-qiymat 0.4992 ni ko'rsatdi. Bryush-Peygan testining nol gipotezasi gomoskedastlik shartining saqlanganligi va bu nol gipotezani rad etishga asos yetarlicha deb topilmaganligi modelning geteroskedastlik muammosidan holi deb topilishiga olib keldi.

5-jadval model uchun hisoblangan variatsiya inflyatsion omillarini taqdim etadi. Umumiy qabul qilingan qoidaga ko'ra, hisoblangan VIF qiymatlar 10 dan ortishi modelning ko'p tarmoqli kollinearlik muammosi xavfi borligini anglatadi. 5-jadvalga ko'ra, eng yuqori VIF qiymat ishsizlik darajasiga tegishli bo'lib, 9.950 ni tashkil qilgan. Bu modelning ko'p tarmoqli kollinearlik muammosidan holi ekanini anglatadi.

## 6-jadval

## Bryush-Godfri avtokorrelatsiya testi (H0: modelda avtokorrelatsiya muammosi yo‘q)

Breusch-Godfrey LM test for autocorrelation chi2	df	Prob>Chi2
4.033	1	0.045
4.624	2	0.099

**Manba:** *Bryush-Godfri avtokorrelatsiya testi natijalari.*

6-jadval modeldagi avtokorrelatsiya muammosini Bryush-Godfri testi orqali tekshirish natijalarini taqdim qiladi. Natijalarga ko‘ra modelda AR(1) daraja avtokorrelatsiya mavjud deb topildi. Ushbu muammoni hal qilish vositalaridan biri tafovutlar regressiyasi bo‘lib, bunda kuzatmalarning bir yil avvalgi kuzatmalardan ayirmalari statistik ma‘lumot sifatida qabul qilinadi va eng kichik kvadratlar usulida regressiya qilinadi. Tafovutlar regressiyasi natijalari 7-jadvalda taqdim etilgan.

## 7-jadval

## Tafovutlar regressiyasi

D.gdp	Coef.	St.Err.	t-value	p-value	[95% Conf	Interval]	Sig
D.govdebt	98713843	63831785	-1.55	.144	-2.356e+08	38191720	
D.cpi	1.039e+08	79815858	1.30	.214	-67325750	2.751e+08	
D.unempl	-1.795e+09	6.781e+08	2.65	.019	3.403e+08	3.249e+09	**
D.pop	-1.098e+09	1.264e+09	-0.87	.399	-3.808e+09	1.612e+09	
D.invest	1.072	.672	1.60	.133	-.369	2.513	
D.urban	324.972	5367.084	-0.06	.953	-11836.222	11186.279	
Constant	4.814e+09	1.651e+09	2.92	.011	1.273e+09	8.354e+09	**

Mean dependent var	4081123067.298	SD dependent var	1738372634.980
R-squared	0.482	Number of obs	21
F-test	2.176	Prob > F	0.108
Akaike crit. (AIC)	952.338	Bayesian crit. (BIC)	959.650

\*\*\*  $p < .01$ , \*\*  $p < .05$ , \*  $p < .1$

**Manba:** *tafovutlar regressiyasi natijalari.*

Tafovutlar regressiyasi natijalari munosabatlar yo‘nalishi va ahamiyatlar darajasida katta farq ko‘rsatmadi. Ushbu model avtokorrelatsiya muammosidan holi ekanini model uchun hisoblangan Bryush-Godfri avtokorrelatsiya testi vositasida ko‘rish mumkin (9-jadvalda keltirilgan). Modelning boshqa muammolardan holi ekanini testlarni takrorlash vositasida aniqlandi.

## 8-jadval

## Tafovutlar regressiyasi uchun VIF qiymatlar

VIF	1/VIF
2.090	0.479
1.700	0.589
1.460	0.684
1.390	0.718
1.370	0.732
1.260	0.791
1.540	

Bryush-Peygan testi vositasida amalga oshirilgan tafovutlar regressiyasi tekshiruv modelning xi-kvadrat test ko'rsatkichi 0.00 ga teng ekanini va mos p-qiyamat 0.983 ni tashkil qilganini ko'rsatdi. Bu modelda geteroskedastlik muammosi yo'qligi xulosasini taqdim etadi. Model VIF qiymatlari ham 10 dan past bo'lib, model ko'p tarmoqli kollinearlik muammosidan holi degan xulosaga to'xtalamiz. Bu tahlillar tafovutlar regressiyasi natijalarini to'g'ri deb qabul qilishga asos bo'ladi.

## 9-jadval

### Tafovutlar regressiyasi uchun hisoblangan avtokorrelyatsiya testi

Breusch-Godfrey LM test for autocorrelation chi2	df	Prob>Chi2
1.068	1	0.301
2.462	2	0.292

Tahlillar yakunida aytishimiz mumkinki, davlat qarzining yalpi ichki mahsulotga ta'siri ahamiyatsiz va ijobiy deb topildi. O'zbekiston misolida olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, davlat qarzi va iqtisodiy o'sish o'rtasida sezilarli bog'liqlik mavjud emas, bu esa qisman Rikardo ekvivalentlik nazariyasiga mos keladi. Misol uchun, davlat qarzi muayyan darajada iqtisodiy o'sishga neytral ta'sir ko'rsatadi. Ammo bu ta'sir, qarz darajasi ortishi bilan salbiy tomonga o'zgaradi, bu esa "qulay" va "xavfli" qarz darajalarining chegarasini aniqlash zarurligini ko'rsatadi. Shu bilan birga, urbanizatsiya va xorijiy investitsiyalar iqtisodiy o'sishni kuchli qo'llab-quvvatlaydigan asosiy omillar sifatida ko'riladi.

#### Xulosa

Ushbu tadqiqotda davlat qarzi va iqtisodiy o'sish o'rtasidagi bog'liqlik nazariy va empirik jihatdan o'rganildi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, davlat qarzi va iqtisodiy o'sish o'rtasidagi munosabat o'zgaruvchan bo'lib, turli nazariy qarashlarga ega. Klassik iqtisodiy nazariya davlat qarzi ortishi bilan iqtisodiy o'sishning susayishini ta'kidlaydi, chunki qarzlar kelgusidagi davlat daromadlarini qarz to'lovlariga yo'naltirish zaruriyatini yaratadi va bu iqtisodiy resurslarni kamaytiradi. Bu nazariy qarashlar davlat qarzining iqtisodiy o'sishga salbiy ta'sirini ochib beradi, ayniqsa, davlat xarajatlarini moliyalashtirish uchun soliqlar oshirilishi iqtisodiy rag'batni pasaytiradi.

Shu bilan birga, Rikardo ekvivalentlik nazariyasiga ko'ra, davlat qarzi va iqtisodiy o'sish o'rtasida sezilarli

bog'liqlik mavjud emas. Aholi qarzni kelgusida soliqlar bilan to'lanishi kerakligini anglab, o'z iste'mol va jamg'arma qarorlarini o'zgartiradi. Natijada, davlat qarzining iqtisodiy o'sishga ta'siri neytral bo'lib qoladi. Ushbu nazariya davlat qarzi va iqtisodiy o'sish o'rtasidagi munosabatni muvozanatli deb hisoblaydi va qarzning oshishi iqtisodiy o'sishga bevosita ta'sir qilmasligini ta'kidlaydi.

O'zbekiston misolida olib borilgan tahlillar davlat qarzi va iqtisodiy o'sish o'rtasida sezilarli bog'liqlik mavjud emasligini ko'rsatadi, bu esa qisman Rikardo ekvivalentlik nazariyasiga mos keladi. Shu bilan birga, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar va urbanizatsiyaning iqtisodiy o'sishga ijobiy ta'siri kuzatiladi. Bu natijalar O'zbekistonning iqtisodiy o'ziga xosliklari va rivojlanish strategiyasini hisobga olishni talab qiladi.

Umuman olganda, davlat qarzi va iqtisodiy o'sish o'rtasidagi bog'liqlik turli omillarga, jumladan, qarzning miqdori, mamlakat iqtisodiyotining rivojlanish darajasi va resurslarni boshqarish qobiliyatiga bog'liqdir. Bu tadqiqotdan kelib chiqadigan asosiy xulosa shundan iboratki, davlat qarzining iqtisodiy o'sishga ta'siri mamlakatning o'ziga xos iqtisodiy sharoitlari, qarz darajasi va qarz boshqaruvi samaradorligiga bog'liqdir. Shu sababli, O'zbekiston uchun davlat qarzi darajasini muvozanatli ushlab turish va investitsiyalarni rag'batlantirish orqali barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash dolzarb vazifa hisoblanadi.

#### Manba va adabiyotlar

1. Barro, Robert J. "Are Government Bonds Net Wealth?" *Journal of Political Economy*, vol. 82, no. 6, 1974, pp. 1095–117.
2. Roberts, R. O. "Ricardo's Theory of Public Debts." *Economica*, vol. 9, no. 35, 1942, pp. 257–66.
3. Cristina Checherita-Westphal and Philipp Rother, (2012), *The impact of high government debt on economic growth and its channels: An empirical investigation for the euro area*, *European Economic Review*, 56, (7), 1392-1405

- 
4. Reinhart, Carmen M., and Kenneth S. Rogoff. 2010. "Growth in a Time of Debt." *American Economic Review*, 100 (2): 573–78.
  5. Sirojiddin Abdukayum O'g'li Davlatyarov. Davlat qarzini boshqarish masalalari // *Science and Education*. 2023. №5.
  6. Akbar Aqmirzayevich Shernayev. O'zbekistonda davlat tashqi qarzini samarali boshqarish // *Science and Education*. 2023. №6.
  7. S.G'. Jo'raqobilova, A.O. Shukurov, M. Umarov. Davlat krediti va davlat qarzini samarali boshqarish, "Science and Education" *Scientific Journal / Impact Factor 3.567 (SJIF) November 2022 / Volume 3 Issue 11*
  8. Giavazzi, Francesco and Pagano, Marco, (1990), *Can Severe Fiscal Contractions be Expansionary? Tales of Two Small European Countries*, No 3372, NBER Working Papers, National Bureau of Economic Research, Inc
  9. Alesina, Alberto & Ardagna, Silvia. (2009). *Large Changes in Fiscal Policy: Taxes Versus Spending*. *Tax Policy and the Economy*. 24. 10.2139/ssrn.1502862.
  10. Kumar, Manmohan and Woo, Jaejoon, *Public Debt and Growth* (July 2010). *IMF Working Paper No. 10/174*
-

Investitsiya, raqamli va innovatsion texnologiyalar /  
Инвестиции, цифровые и инновационные технологии /  
Investment, digital and innovative technologies

УЎК: 338.24:004.738.(575.1)

**Qahramon MAMBETJANOV,**  
iqtisodiyot fanlari doktori,  
O'zbekiston Milliy universiteti professori,  
**Shahzod BAHROMOV,**  
O'zbekiston Milliy universiteti iqtisodiyot fakulteti 2-kurs talabasi,  
Email: bahromovshahzod27@gmail.com

**O'ZBEKISTONDA RAQAMLI IQTISODIYOT RIVOJLANISHINING  
AHOLI BANDLIGIGA TA'SIRI**

**Annotatsiya:** ushbu maqolada O'zbekistonda raqamli iqtisodiyotning shakllanishi jarayonida aholi turmush farovonligini yaxshilash va bandlikni ta'minlash imkoniyatlari hamda ular duch keladigan muammolar tahlil qilinadi. Maqolada aholi bandligi va turmush darajasini ko'tarish borasida raqamli iqtisodiyotning ahamiyatiga e'tibor qaratiladi. Raqamli texnologiyalarning rivojlanishi bilan yangi ish o'rinlari yaratish, xizmatlarning onlayn ko'rishda taqdim etilishi va iqtisodiy samaradorlikni oshirish imkoniyatlari o'rganiladi.

**Kalit so'zlar:** raqamli iqtisodiyot, O'zbekiston, turmush farovonligi, bandlik, innovatsiya, texnologik rivojlanish.

**Влияние цифрового развития экономики на  
уровень занятости в Узбекистане**

**Кахрамон Мамбетжанов,**  
доктор экономических наук, профессор  
Национального Университета Узбекистана,  
**Шахзод Бахромов,**  
Студент 2-курса факультета экономики  
Национального Университета Узбекистана

**Аннотация:** в данной статье анализируются возможности повышения уровня жизни населения и обеспечения занятости в процессе формирования цифровой экономики в Узбекистане, а также рассматриваются проблемы, с которыми сталкиваются в этом направлении. Особое внимание уде-

ляется значимости цифровой экономики в вопросах занятости населения и улучшения уровня жизни. Исследуются возможности создания новых рабочих мест, предоставления услуг в онлайн-формате и повышения экономической эффективности с развитием цифровых технологий.

**Ключевые слова:** цифровая экономика, Узбекистан, уровень жизни, занятость, инновации, технологическое развитие.

**The impact of digital economic development on  
employment levels in Uzbekistan**

**Qahramon Mambetjanov,**  
Doctor economic science,  
National University of Uzbekistan, professor,  
**Shahzod Bahromov,**  
National University of Uzbekistan, Faculty of  
Economy, 2-course student

**Abstract:** this article analyzes the opportunities to improve the living standards of the population and ensure employment during the formation of the digital economy in Uzbekistan, as well as the challenges encountered in this direction. Special attention is given to the importance of the digital economy in enhancing employment and living standards. The study examines the potential for creating new jobs, delivering services online, and increasing economic efficiency with the development of digital technologies.

**Keywords:** digital economy, Uzbekistan, living

*standards, employment, innovation, technological development.*

### Kirish

O'zbekistonda raqamli iqtisodiyot sohasidagi o'zgarishlar oxirgi yillarda sezilarli darajada rivojlanib, mamlakat iqtisodiyoti uchun yangi imkoniyatlar ochmoqda. Raqamli iqtisodiyot zamonaviy texnologiyalarga asoslangan bo'lib, uni rivojlantirish nafaqat iqtisodiy samaradorlikni oshirish, balki yangi ish o'rinlari yaratish va aholining turmush farovonligini yaxshilashda ham muhim omil hisoblanadi. Raqamli iqtisodiyotning keng tarqalishi davlat boshqaruvida shaffoflikni ta'minlash, ma'muriy jarayonlarni soddalashtirish va aholiga tezkor xizmatlar ko'rsatish imkonini beradi. Xalqaro miqyosda raqamli iqtisodiyot eng tez rivojlanayotgan sohalardan biri bo'lib, Jahon Bankining 2021-yilgi ma'lumotlariga ko'ra, raqamli xizmatlar global yalpi ichki mahsulotning (YaIM) 15 foizini tashkil etadi va bu ko'rsatkich yiliga taxminan 3 foizga o'sib bormoqda, raqamli iqtisodiyot global miqyosda 30 milliondan ortiq ish o'zni yaratishga sabab bo'ldi. Raqamli texnologiyalar ta'sirida yangi iqtisodiy modellar, shu jumladan, elektron tijorat, onlayn xizmatlar, masofaviy ta'lim va virtual xizmat ko'rsatish rivojlanmoqda [1]. Elektron tijorat sohasida yirik kompaniyalar, xususan, Amazon va Alibaba, butun dunyo bo'ylab yangi ish o'rinlari yaratishda va mahalliy iqtisodiyotlarni rivojlantirishda sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. O'zbekistonda raqamli iqtisodiyotga o'tish jarayoni 2017-yilda **"Raqamli O'zbekiston – 2030"** dasturining qabul qilinishi bilan boshlanib, iqtisodiyotni raqamlashtirish davlat siyosatining asosiy yo'nalishlaridan biriga aylandi. O'zbekiston hukumati raqamli infratuzilmani rivojlantirish, texnologiyalarni keng joriy qilish va aholiga raqamli xizmatlar ko'rsatishni yaxshilashni o'z oldiga maqsad qilgan. Shu bilan birga, **"Raqamli O'zbekiston – 2030"** dasturi doirasida elektron hukumat tizimi va raqamli bank xizmatlarini kengaytirish orqali iqtisodiy samaradorlikni oshirish rejalashtirilgan. Bugungi kunda O'zbekistonda raqamli iqtisodiyotning hissasi YaIMning taxminan 2,5 foizini tashkil qilmoqda va bu ko'rsatkich har yili o'sib bormoqda. Raqamli iqtisodiyotning yalpi ichki mahsulotga qo'shgan hissasi ortishi bilan bir qatorda, raqamli texnologiyalar orqali yaratilyotgan ish o'rinlari soni ham sezilarli darajada o'sib bormoqda. Jumladan, 2023-yilda O'zbekistonda axborot texnologiyalari va raqamli xizmatlar sohasida

30 mingdan ortiq yangi ish o'rinlari yaratilgani haqida rasmiy ma'lumotlar mavjud [2].

O'zbekistonda raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi nafaqat iqtisodiy o'sishga, balki aholining turmush farovonligini oshirishga ham sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Masalan, onlayn xizmatlarning rivojlanishi qishloq joylarida yashovchi aholining ham davlat xizmatlariga osonroq kirishini ta'minlab, ularning vaqt va xarajatlarini qisqartirishga yordam bermoqda. Shu bilan birga, masofaviy ish imkoniyatlari orqali ish bilan ta'minlanish hajmi ham oshmoqda, bu esa bandlik darajasini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Elektron tijorat va raqamli bank xizmatlari aholining kundalik hayotiga tobora ko'proq kirib bormoqda. Masalan, 2023-yilda O'zbekistonda elektron tijorat hajmi 20 foizga o'sib, umumiy hajmi 1,5 milliard AQSh dollariga yetdi, bu esa iqtisodiy faollik va raqamli savodxonlik darajasining oshayotganidan dalolat beradi. Raqamli bank xizmatlarinishi esa aholining moliyaviy inklyuziya darajasini oshirib, bank xizmatlaridan foydalanishni soddalashtirdi va aholining turmush darajasiga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda [3].

Xalqaro tajribaga nazar tashlasak, Janubiy Koreya, Singapur kabi mamlakatlarda raqamli iqtisodiyot aholi turmush farovonligiga sezilarli ta'sir qilgani kuzatilgan. Singapurda raqamli infratuzilmaning rivojlanishi bilan birga aholining onlayn xizmatlardan foydalanish ko'rsatkichi 85 foizga yetgan. O'zbekistonda ham shunga o'xshash raqamli xizmatlarni keng joriy etish orqali aholi turmush farovonligini oshirish imkoniyatlari mavjud. O'zbekiston raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish orqali iqtisodiy o'sish sur'atini oshirib, global iqtisodiyotda o'z o'rnini mustahkamlashi mumkin. Shu sababli, raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi mamlakatda keng qamrovli ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlarga zamin yaratadi. Mazkur maqolada raqamli iqtisodiyotning O'zbekiston sharoitida turmush farovonligi va bandlikka ta'siri tahlil qilinadi va bu yo'nalishda duch kelinayotgan imkoniyat va cheklolar yoritiladi [4].

O'zbekiston hukumati **"Raqamli O'zbekiston – 2030"** dasturi doirasida raqamli xizmatlar va infratuzilmani rivojlantirishga alohida e'tibor bermoqda. O'zbekistonda internetga kirish imkoniyatlari yanada kengaytirilmoqda, shuningdek, 2023-yilda internetdan foydalanish darajasi 78 foizga yetgan. Bu esa raqamli iqtisodiyotning asosiy poydevorini mustahkamlaydi va aholining turmush farovonligini yaxshilashga imkon yaratadi [5]. Davlat

**Ключевые слова:** бизнес-процесс, разрешение, цифровизация, автоматизация, таможенный режим, таможенный режим «переработка на таможенной территории», таможенный режим «переработка вне таможенной территории».

**Simplification of customs procedures in processing of goods through digitalization**

**Ozodjon Allabergenov,**  
Chief Inspector of the Department of the  
Customs Committee, independent applicant

**Abstract:** this article examines international experiences in digitalization and software systems to develop business processes aimed at simplifying goods processing procedures through digitalization, thereby reducing costs and time for foreign economic activity participants. It also addresses the digitalization of the process for obtaining processing permits, placing goods under customs regimes, automating reports on goods (raw materials) placed under processing regimes, processed products, residues, and waste.

*Reasoned proposals have been developed for further improvement of these processes based on global best practices and for addressing problematic situations in this area.*

**Keywords:** *Business process, permit, digitalization, automation, customs regime, customs regime "processing on customs territory", customs regime "processing outside customs territory".*

### **Kirish**

Raqamli bojxona atamasi bojxona faoliyatining samaradorligi va muvofiqlashtirilishiga hissa qoʻshadigan har qanday avtomatlashtirilgan yoki elektron faoliyatni anglatadi. Bunga misol qilib, avtomatlashtirilgan bojxona rasmiylashtiruv tizimlari, "Yagona oyna" konsepsiyasi, elektron maʼlumotlar almashinuvi, axborotni uzatish va shaffoflikni taʼminlash uchun veb-saytlar hamda aqlli telefonlardan foydalanishni aytishimiz mumkin. Raqamli bojxonaning ushbu yangi davri bojxona faoliyatini oʻzgartirdi. Xususan, tovarlarni qayta ishlash, maʼlumot olish va almashish, chegara faoliyatini muvofiqlashtirish, huquqni muhofaza qilish harakatlarida hamkorlik qilish va oshkoralikni taʼminlash qobiliyatini oshiradi [1].

Bugungi kunda, Tashqi iqtisodiy faoliyat qatnashchilarining vaqti va harajatlarini kamaytirish, qayta ishlash rejimlariga joylashtiriladigan tovarlar (xom-ashyolar), qayta ishlash mahsulotlari, qoldiq va chiqindilar hisobini toʻgʻri, toʻliq va oʻz vaqtida yuritish, shuningdek, mazkur rejimlardan foydalanish tartib- taomillarini raqamlashtirish orqali tadbirkorlarga yengilliklar yaratish – ushbu yoʻnalishda avtomatlashtirilgan tizimlarni joriy qilishni taqozo etadi.

Qayta ishlash bojxona rejimi ostida tovarlarni qayta ishlashni kengaytirishning asosiy shartlaridan biri xalqaro standartlar va xorijiy ilgʻor tajribalarni inobatga olgan holda bu rejimga rasmiylashtirish tartibotlarini soddalashtirish, mavjud byurokratik toʻsiqlarni kamaytirish hisoblanadi. Bu borada dunyo mamlakatlarida turlicha oʻziga xos tajriba va natijalar mavjud.

Har qanday mamlakatning ishlab chiqaruvchi tashkilot yoki korxonasi oʻz ishlab chiqarish bosqichlarini tovarlarning importi va eksporti qisqa muddatlarda, ishonchli hamda kam harajat bilan amalga oshiriladigan mamlakatda tashkil qilishni oʻylaydi. Bu esa mamlakatning jahon bozoriga chiqishida hal

qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Samarali bojxona tartib- taomillari va zamonaviy logistika tizimlari taʼminot zanjirining uzluksiz ishlashida zaruriy komponentlar sanaladi. Xalqaro savdoning qariyb 70–80 foizi Global qiymat zanjiri orqali amalga oshirilishini inobatga oladigan boʻlsak, taʼminot zanjirining globallashuvi, tashqi savdo siyosatini ishlab chiqishda, xalqaro hamkorlar bilan kelishilgan va chuqur oʻylangan yondashuvni talab qiladi.

Bojxona rasmiylashtiruv jarayonlarini soddalashtirish va avtomatlashtirish tadbirkorlarning vaqti va xarajatlarini kamaytiradi. Natijada bojxona hududida qayta ishlangan tovarlarning tannarxini pasaytirishga yordam berib, eksport hajmini oshirishga taʼsir etadi.

Qayta ishlash jarayonlari ustidan nazoratni amalga oshirishda avtomatlashtirilgan axborot tizimlarini qoʻllash, nafaqat tadbirkorlik subyektlarida, balki bojxona organlarida ham ish samaradorligini oshirib, rejim imkoniyatlaridan toʻlaonli foydalanishga yordam beradi.

Tovarlarini "Bojxona hududida qayta ishlash" bojxona rejimini qoʻllashdan koʻzlangan asosiy maqsad mahalliy ishlab chiqaruvchilarning oʻz mahsulot va xizmatlarini teng raqobat muhitidagi xalqaro bozorlarga olib chiqishi, milliy iqtisodiyotda sanoat ishlab chiqarishini rivojlantirish hamda ishlab chiqarish quvvatlarini uzluksiz xomashyo resurslari bilan taʼminlash va qoʻshimcha ishchi oʻrinlarini yaratishdan iboratdir.

Bojxona hududida qayta ishlash bojxona rejimidan foydalangan holda mahsulot ishlab chiqarishda ishlab chiqaruvchilar tomonidan olib kelinadigan har xil xomashyolarning turli mamlakatlardan bir nechta partiyalarda olib kelinishi tovarlar hisobini yuritishda birmuncha murakkabliklarni yuzaga keltiradi.

Bunda, mukammal ishlab chiqilgan raqamli texnologiyalardan foydalanish va avtomatlashtirilgan tizimni yaratish ortiqcha harajatlarsiz xizmat koʻrsatishni sezilarli darajada yaxshilab, ushbu rejimdan foydalanuvchilar koʻpayishiga imkon beradi. Shuningdek, bunday tizim qayta ishlash bojxona rejimlarini nazorat qilishda va byudjetga tushumlarning oshishida oʻta muhim hisoblanadi.

Bugungi kunda, turli mamlakatlarda import qilingan tovarlar harakatini nazorat qiladigan turli dasturlardan foydalaniladi.

Butunjahon bojxona tashkiloti tomonidan oʻtkazilgan soʻrovlar natijasiga koʻra, qayta ishlash rejimlariga rasmiylashtirilgan tovarlar bojxona nazoratida boʻlgan davrda avtomatlashtirilgan axborot

tizimlarida bir qancha kamchiliklar borligi aniqlangan. Xususan, tizim to'liq monitoringni ta'minlamasligi nazoratning inson mehnati bilan vaqt va resurs sarflagan holda amalga oshirishni taqozo etishi, ayrim holatlarda avtomatlashtirilgan axborot tizimi faqat bojxona hududida qayta ishlashni (bojxona hududidan tashqarida qayta ishlash nazoratga olinmagan), ariza taqdim etishni, ruxsatnoma berishni yoki berilgan ruxsatnomalar arxivini yuritishni qamrab olganligi ma'lum bo'lgan.

Ushbu so'rovda qatnashgan 70 mamlakatdan 37 tasida qayta ishlash rejimlari (bojxona hududida qayta ishlash, bojxona hududidan tashqarida qayta ishlash)ga rasmiylashtirilgan tovarlar harakatini raqamlashtirish orqali to'liq nazorat qilish yo'lga qo'yilganligi ma'lum bo'lgan. Xususan, dunyodagi eng yirik savdo va logistika markazlaridan biri bo'lgan Singapur birinchilardan bo'lib bojxona va savdo munosabatlarini avtomatlashtirish yuzasidan, milliy IT rejasining bir qismi bo'lgan yuqori darajadagi davlat ko'maklashishi, xususiy sektorni jalb qilish, tizimni boshqarish uchun kompaniya tashkil etish, chuqur sinovlar va testlar o'tkazish bilan "TradeNet" tizimini joriy qilgan [2].

Keyinchalik ushbu tizimdan ilhomlanib, Gana – GCNet (Ghana Community Network Services), Mavrikiy – TradeNet Mauritius tizimini, Janubiy Koreya – UNIPASS (ya'ni UNiversal PASS (Universal Customs Clearance System)) tizimini, Indoneziya – Indonesia National Single Window (INSW) tizimini, Vyetnam – VNACCS/VCIS (Vietnam Automated Cargo and Port Consolidated System) tizimini yaratgan.

Mavjud tartibotlarni raqamlashtirish "Samarasiz savdo tartiblari"ni [2, 8-b] yengillashtirish, ya'ni ortiqcha qog'ozbozlik, xatoliklarga moyillik, iqtisodiy yoki moliyaviy operatsiya (Transaksiyalar)ni amalga oshirishdagi yuqori harajatlar va inson qo'l mehnatini kamaytirishga erishishda muhim ahamiyat kasb etadi.

#### **Tadqiqot uchun material va uslublar**

Oxirgi yillarda hukumat tomonidan bojxona hududida qayta ishlash rejimida tovarlarni qayta ishlashda tadbirkorlarga qulayliklar yaratishga muhim e'tibor qaratib kelinmoqda. Xususan, Davlat Rahbari raisligida o'tkazilgan yig'ilishlar va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 21-fevraldagi PF-37-son Farmoni bilan tasdiqalangan "O'zbekiston – 2030" strategiyasining Qonun ustuvorligini ta'minlash, xalq xizmatidagi davlat boshqaruvini tashkil etish yo'nalishi bo'yicha 2024-yilga mo'ljallangan amaliy tadbirlar rejasida, tarmoq va

hududlarda axborot texnologiyalarini rivojlantirish hamda davlat boshqaruvini raqamlashtirish bo'yicha ustuvor vazifalar [3], mahalliy mahsulotlarni tashqi bozorlarga yetkazishda ishonchli logistika zanjirlarini tashkil qilish, mintaqaviy va yirik xalqaro loyihalarni jadallashtirish, tovarlarni bojxona rejimida qayta ishlashni kengaytirishga [4], bojxona hududida qayta ishlash va (yoki) bojxona hududidan tashqarida qayta ishlash bojxona rejimlariga tovarlarni joylashtirish uchun ruxsat berish jarayonlarini raqamlashtirish (Bojxona rejimiga tovarlarni joylashtirishni raqamlashtirish bo'yicha texnik-loyiha hujjatlari hamda dasturiy ta'minotni ishlab chiqib, amaliyotga joriy etish)ga [5] alohida e'tibor qaratilib, tegishli topshiriqlar berildi.

Mazkur topshiriqlar ijrosini to'liq va sifatli bajarish maqsadida, O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Bojxona qo'mitasining 2024-yil 10-yanvardagi 4-son [6], 2024-yil 23-yanvardagi 12-son [7], 2024-yil 26-fevraldagi 40-son [8], buyruqlar ishlab chiqilib, ustuvor loyihalar va nazorat rejaları tasdiqlandi.

Ushbu maqolani yoritishda chet el olimlari (Atta A Addo [9], K.Sathasivam [2], Luc De Wulf [10], M.R.A.Mohammadnour[11])ning tadqiqotlari hamda xorijiy davlatlarning amaliyotga joriy qilinib, foydalanilayotgan dasturiy ta'minot tizimlari o'rganildi. Ushbu olimlarning tadqiqot ishlarida axborot texnologiyalari (AT) vositasidagi o'zgarishlarning rivojlanayotgan mamlakat byurokratiyasidagi "mantiq-sizligini", mamlakatlarda joriy qilingan tizimlarning sifati, axborot sifati, xizmat sifati, ulardan foydalanish, foydalanuvchilarning qoniqishi, ma'lumot almashish sifati kabilarni o'rganib, tegishli fikrlar bildirilgan.

Mazkur ilmiy maqolani tadqiq etishda: funksional yondashuv, tizimlilik, induksiya va deduksiya hamda boshqa umum-ilmiy uslublardan foydalanilgan.


#### **Tadqiqot natijalari**

Tadqiqot jarayonida raqamlashtirish borasida xorijiy mamlakatlar tajribalari, dasturiy ta'minot tizimlari o'rganildi. Qayta ishlashga ruxsatnoma olish jarayonlarini raqamlashtirish, ularni bojxona rejimlariga joylashtirish, qayta ishlash rejimlariga joylashtiriladigan tovarlar (xomashyolar), qayta ishlash mahsulotlari, qoldiq va chiqindilar bo'yicha hisobotlarni avtomatlashtirish va ushbu jarayonlarni jahon tajribasi asosida yanada takomillashtirish, muammoli holatlarni bartaraf etish yo'nalishida asoslangan takliflar ishlab chiqildi.

Shuningdek, har bir amalga oshiriladigan ishlar rejali bo'lishi uning sifat darajasiga samarali ta'sir ko'rsatishi inobatga olinib, birinchi navbatda qayta ishlash tartibotlarini raqamlashtirish jarayonini 3 ta bosqichda amalga oshirish yuzasidan biznes jarayonlar ishlab chiqildi. Bunda, 1-biznes jarayon: "Tovarlarni qayta ishlash"ga ruxsatnoma olish moduli (1-rasm), 2-biznes jarayon: "Tovarlarni qayta ishlash"ga rasmiylashtirish moduli (2-rasm), 3-biznes jarayon: "Qayta ishlash" bo'jxona rejimiga rasmiylashtirilgan tovarlarni chiqarish moduli (3-rasm) deb nomlandi.

Ushbu jarayonlar 3 ta bosqich (qadam)dan iborat bo'lganligi inobatga olinib, umumiy "Tolling uch qadamda" deb nom berildi.

Ta'kidlash lozimki, ushbu jarayonlar "Qayta ishlash" rejimiga joylashtiriladigan tovarlarni rejimiga rasmiylashtirish uchun ruxsatnoma olish jarayonidan to yakuniy bo'jxona rejimiga rasmiylashtirish jarayoniga qadar bo'lgan operatsiyalarni o'z ichiga oladi, ya'ni rejim talablari bo'yicha to'liq nazoratini amalga oshirishni ta'minlaydi.



1-rasm. "Tovarlarni qayta ishlash"ga ruxsatnoma olish modulining biznes jarayoni


Manba: muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

### Tadqiqot natijalari tahlili

Raqamli texnologiyalarning kundan kunga takomillashib borishi, mavjud dasturiy ta'minot tizimlarini yangilash bilan bir qatorda hozirgi zamon talabiga javob beradigan zamonaviy axborot tizimlarini yaratishni taqozo qiladi.

Bugungi kunda, O'zbekiston Respublikasi Bojxona organlarida jami 157 ta dasturiy mahsulotlar ishlab

chiqilib, uzluksiz ishlashi ta'minlanib kelinmoqda. Xususan, 35 ta avtomatlashtirilgan axborot tizim, 43 ta interaktiv xizmat, 9 ta mobil ilova, 8 ta xalqaro davlatlar va 1 ta xalqaro tashkilot, 33 ta vazirlik va idoralar hamda 33 ta xorijiy aviakompaniyalar bilan axborot almashinuvi yo'lga qo'yilgan. 2024-yil davomida dasturlash yo'nalishida 2 ta axborot tizimi, 1 ta mobil ilova, 1 ta rasmiy veb-sayt, 20 ga yaqin



1-rasm. “Tovarlarni qayta ishlash”ga ruxsatnoma olish modulining biznes jarayoni


Manba: muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

yangi modullar, 200 tadan ortiq axborot tizimlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritilgan. Lekin, bugungi kunda tovarlarni qayta ishlash bo‘yicha mukammal tarzda alohida dasturiy ta‘minot tizimi mavjud emas.

Ma‘lumki, so‘ngi yillarda O‘zbekiston hukumati tomonidan tovarlarni qayta ishlashda tashqi iqtisodiy faoliyat qatnashchilariga yengillik va qulayliklar


yaratishga muhim e‘tibor qaratib kelinmoqda. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 25-apreldagi “Bojxona hududida qayta ishlash bojxona rejimini qo‘llashni soddalashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-115-son Farmoni [12] ushbu rejim imkoniyatlarini oshirishda muhim rol o‘ynamoqda. Farmon bilan tovarlarni bojxona hududida qayta ishlash rejimiga joylashtirishdagi ko‘plab to‘siqlar olib tashlandi va bu o‘z navbatida ushbu rejimdan foydalanish imkoniyatlaridir. Xususan, bojxona statistik ma‘lumotlariga nazar tashlaydigan bo‘lsak, 2019-yilda bojxona hududida qayta ishlash bojxona rejimiga 686 ta bojxona yuk deklaratsiyasi rasmiylashtirilgan bo‘lsa, ushbu ko‘rsatkich 2023-yil yakuniga kelib 6878 tani tashkil etgan, ya‘ni ushbu bojxona rejimdagi bojxona yuk deklaratsiyalari soni keyingi 5 yil ichida 10 barobarga oshgan (4-rasm).

**2024-yil davomida dasturlash yo‘nalishida 2 ta axborot tizimi, 1 ta mobil ilova, 1 ta rasmiy veb-sayt, 20 ga yaqin yangi modullar, 200 tadan ortiq axborot tizimlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritilgan.**



3-rasm. “Qayta ishlash” bojxona rejimiga rasmiylashtirilgan tovarlarni chiqarish modulining biznes jarayoni

Manba: muallif tomonidan ishlab chiqilgan.



4-rasm. “Bojxona hududida/hududidan tashqarida qayta ishlash” bojxona rejimlariga rasmiylashtirilgan bojxona yuk deklaratsiyalari dinamikasi

Manba: Bojxona qo‘mitasining elektron bazasi ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

### Xulosa va takliflar

Bugungi kunda, tovarlarni qayta ishlash bojxona rejimlariga tovarlarni joylashtirish uchun bojxona yuk deklaratsiyalarini to‘ldirish jarayonlari birmuncha murakkab bo‘lib, ularni oddiy tadbirkor tomonidan amalga oshirish qiyin hisoblanganligi uchun ba’zi tadbirkorlar tomonidan ushbu jarayonlar tegishli brokerlik firmalarining mutaxassislarini jalb qilgan holda amalga oshirilib kelinmoqda. Bu esa o‘z navbatida, tadbirkorlarning ortiqcha mablag‘ va vaqt sarflashiga sabab bo‘ladi. Ushbu muammoning yechimi bojxona yuk deklaratsiyalarini to‘ldirish va bojxona organlariga taqdim qilish jarayonlarini “Tovarlar qayta ishlash”ga rasmiylashtirish moduli (2-rasm) asosida soddalashtirilgan raqamli tizimini joriy qilish hisoblanadi. Bu borada bojxona organlarining nazorat rejimlari (tovarlar bojxona nazorati ostida saqlanadigan rejimlar) uchun yaratilgan dasturlar o‘rganilganda, tovarlar nazorati uchun “Bojxona va



yuk operatsiyalari” tizimi mavjudligi, lekin ushbu tizimda tovarlarni qayta ishlash rejimi bo‘yicha hisobotlari, ularining monitoringini yuritish bo‘limlari mavjud emasligi, bu esa o‘z navbatida ushbu rejimlarga rasmiylashtirilgan tovarlarning nazoratini olib borishda qiyinchiliklar yuzaga kelishiga olib keladi.

Shu bilan birga, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 27-apreldagi PF-122-son Farmoni [13] 2-ilovasining 13-bandiga asosan Bojxona hududida qayta ishlash va (yoki) bojxona hududidan tashqarida qayta ishlash bojxona rejimlariga tovarlarni joylashtirish uchun ruxsat berish jarayonlari raqamlashtirilgan. Biroq, bugungi kunda tadbirkorlar tomonidan bildirilgan takliflar yaratilgan interaktiv xizmatni takomillashtirishni taqozo etmoqda. Xususan, qayta ishlovchi korxonalar tomonidan olib kiriladigan tovarlar soni ko‘p bo‘lgan (1 500 tagacha) hollarda har bir tovar to‘g‘risidagi ma‘lumotni bir necha kunlab kiritish taqozo etilayotganligi, ushbu jarayonlarda tizimda biron-bir xatolik yuzaga kelsa (dastur ishlamay qolishi, hududlarda elektr uzilishlari, internet tarmog‘idagi uzilishlar va h.k.) yuqoridagi tovarlarni kiritish uchun sarflangan vaqt samarasiz ketib, ma‘lumotlar qayta kiritilayotganligi ularga noqulayliklar tug‘dirmoqda.

Bu borada, olib borilgan tadqiqot natijalarimiz asosida yuqorida keltirilgan biznes jarayonlarga tayangan holda yangi axborot tizimlarini yaratish orqali tashqi iqtisodiy faoliyat qatnashchilariga juda katta qulaylik va yengilliklar yaratishimiz mumkin. Xususan, ruxsatnoma olish bo‘yicha murojaatning tovarlar to‘g‘risidagi ma‘lumotlarga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish imkonini yaratish orqali, murojaatchining sezilarli vaqtini (shu jumladan, ushbu vaqt davomida sarflagan elektr energiyasini) tejashga erishiladi. Odatda, ruxsatnoma olish uchun arizani to‘ldirish jarayonida asosiy vaqt tovarlar to‘g‘risidagi (Tovar nomi, TIF TN kodi, netto vazni, shartnoma bo‘yicha qiymati, o‘lchov birligi va o‘lchov birligidagi miqdori bo‘yicha) ma‘lumotlarni kiritishga sarflanadi. Bitta tovar bo‘yicha ma‘lumotlarni kiritish uchun tajribali xodim tomonidan 1 daqiqa ketsa, 100 ta tovarda 100 daqiqa (1 soat 40 daqiqa), 1 500 ta tovarda 1 500 daqiqa, (25 soat) vaqt (shu jumladan, 25 soat davomida 60 W lik lampa va 100 W lik noutbuk uchun ketadigan 4kW elektr energiyasi) sarfi tejaladi.

Shuningdek, ushbu tizimda tovarlar to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni “Excel” fayl ko‘rinishida yuklash,

yangi ariza yuborishda har bir qadamni saqlash, tugallanmagan arizani ixtiyoriy boshqa vaqtda davom ettirish imkoniyatini yaratish tadbirkorlik subyektlarining vaqtini 3–5 barobargacha tejashi mumkin.

Shu bilan birga, tovarlarni qayta ishlash bojxona rejimiga rasmiylashtirish uchun taqdim qilinagan bojxona yuk deklaratsiyalarini to‘ldirish jarayonida oldin kiritilgan ma‘lumotlarning avtomatik shakllanishi orqali ushbu jarayonga sarflanadigan vaqtni 2–3 barobargacha qisqartirish mumkin.

#### **Yuqoridagilardan kelib chiqib, quyidagilarni taklif sifatida kiritamiz:**

1. Bojxona hududida qayta ishlash va (yoki) bojxona hududidan tashqarida qayta ishlash bojxona rejimlariga tovarlarni joylashtirish uchun ruxsat berish jarayonlarini raqamlashtirishning yangi modulini (yangi tizim) ya‘ni “Bojxona va yuk operatsiyalari” AAT negizida “Qayta ishlash” modulini ishlab chiqish.

2. Ushbu tizimda avval berilgan ruxsatnomani o‘zgartirish bo‘yicha ariza yuborish va ariza asosida ruxsatnomaga tegishli o‘zgartirish kiritish imkoniyatini yaratish (bunda avval berilgan ruxsatnoma raqami saqlanib qolib, yangi ruxsatnomada ruxsatnoma o‘zgartirilganligi to‘g‘risida qo‘shimcha yozuv qoldirish).

3. Ushbu tizimda tovarlar to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni “Excel” fayl ko‘rinishida yuklash imkoniyatini yaratish hamda yangi ariza yuborishda har bir qadamni saqlash imkoniyati yaratilib, tugallanmagan arizani ixtiyoriy boshqa vaqtda davom ettirish imkoniyatini yaratish.

4. “Tovarlar qayta ishlash”ga rasmiylashtirish moduli asosida Bojxona yuk deklaratsiyalarini to‘ldirish va bojxona organlariga taqdim qilish jarayonlarining soddalashtirilgan raqamli tizimini ishlab chiqish.

5. Mazkur soddalashtirilgan raqamli tizimida, takrorlanuvchi ma‘lumotlarning oldin kiritilgan ma‘lumotlar bazasidan (shartnoma ma‘lumotlari va transport vositasi chegara orqali kirib kelgandagi tranzit deklaratsiyasi) avtomatik shakllantirish chorasini ko‘rish.

6. Yuborilayotgan ma‘lumotlarni bojxona organlarida mavjud ma‘lumotlar bazasi bilan solishtirish orqali mantiqiy nazorat funksiyalarini yaratish va ushbu tizimda xavf profillarini ishga tushirish.

## Manba va adabiyotlar

1. Jahon bojxona tashkiloti 2016-yilni Raqamli bojxona yili deb e'lon qildi [World Customs Organization declares 2016 to be the year of Digital Customs] (<https://www.wcoomd.org/en/media/newsroom/2015/november/world-customs-organization-declares-2016-to-be-the-year-of-digital-customs.aspx>).
2. K.Sathasivam., Yagona elektron oyna - Singapurning TradeNet - xizmatlar doirasi va narxlash modeli [The Single Electronic Window – Singapore's TradeNet – Scope of Services And Pricing Model] 2009-yil 15-iyul (<https://www.carecprogram.org/uploads/SW-Workshop-Day2-TradeNet1.pdf>).
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev rahbarligida 2023-yil 20-dekabr kuni kengaytirilgan tartibda o'tkazilgan videosektor yig'ilishining 48-son bayoni [Under the leadership of the President of the Republic of Uzbekistan Sh.M. Mirziyoyev Minutes No. 48 of the extended meeting of the video selector held on December 20, 2023] (<https://president.uz/oz/lists/view/6938>).
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev rahbarligida 2024-yil 18-yanvar kuni kengaytirilgan tartibda o'tkazilgan videosektor yig'ilishining 3-son bayoni [Under the leadership of the President of the Republic of Uzbekistan Sh.M. Mirziyoyev Minutes No. 3 of the extended meeting of the video selector held on January 18, 2024] (<https://president.uz/oz/lists/view/6975>).
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 21.02.2024-yildagi PF-37-son Farmoni. [Decree of the President of the Republic of Uzbekistan dated February 21, 2024 No. PF-37.] (<https://lex.uz/docs/6811936>) (4-ilova, 33-band)
6. O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Bojxona qo'mitasining 2024-yil 10-yanvardagi 4-son buyrug'i [Order No. 4 of the Customs Committee under the Ministry of Economy and Finance of the Republic of Uzbekistan dated January 10, 2024] (2-ilova, 1-band)
7. O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Bojxona qo'mitasining 2024-yil 23-yanvardagi 12-son buyrug'i [Order No. 12 of January 23, 2024 of the Customs Committee under the Ministry of Economy and Finance of the Republic of Uzbekistan] (8, 9-bandlar)
8. O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Bojxona qo'mitasining 2024-yil 26-fevraldagi 40-son buyrug'i [Order No. 40 of February 26, 2024 of the Customs Committee under the Ministry of Economy and Finance of the Republic of Uzbekistan] (ilova, 4-band)
9. Atta A Addo., Rivojlanayotgan davlatlar byurokriyasida AT-ga asoslangan o'zgarishlarning "mantiqsizligini" tushuntirish: Gana savdo tarmog'ining misolida [Explaining 'irrationalities' of it-enabled change in a developing country bureaucracy: the case of ghana's tradenet] EJISDC (2016) 77, 6, 1-22 (<https://onlinelibrary.wiley.com/doi/epdf/10.1002/j.1681-4835.2016.tb00565.x>).
10. Luc De Wulf., Ganadagi Tradenet axborot texnologiyalaridan foydalanishning eng yaxshi amaliyoti [Tradenet in Ghana Best Practice of the Use of Information Technology] 2004-yil 28-yanvar (<https://documents1.worldbank.org/curated/ar/137601468771018721/pdf/313620GH0trade11WDR20050bkgd0paper1.pdf>).
11. M.R.A.Mohammadnour., Iordaniya ASYCUDA bojxona axborot tizimi uchun axborot tizimlarini muvofiqligini baholash modulini ishlab chiqish. [Developing a model of information systems success evaluation for ASYCUDA customs information system in Jordan] 2018-yil ([https://ir.upsi.edu.my/files/docs/2020/5061\\_1596525209.pdf](https://ir.upsi.edu.my/files/docs/2020/5061_1596525209.pdf)).
12. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 25.05.2024-yildagi PF-115-son Farmoni. [Decree of the President of the Republic of Uzbekistan dated 25.05.2024 No. PF-115.] (<https://lex.uz/docs/5980247>)
13. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 27.04.2022-yildagi PF-122-son Farmoni. [Decree of the President of the Republic of Uzbekistan dated April 27, 2022 No. PF-122.] (<https://lex.uz/docs/5998615>)

УЎК: 338.334.7.(575.1)

**Nodirbek SHERG‘OZIEV,**  
*Makroiqtisodiy va hududiy tadqiqotlar instituti yetakchi mutaxassisi,*  
**E-mail: shergozievpost@gmail.com,**  
**Salimjon BEKMURODOV,**  
*Makroiqtisodiy va hududiy tadqiqotlar instituti loyiha rahbari,*  
**E-mail: s.bekmuradov13@gmail.com**

## GIG IQTISODIYOTNING O‘ZBEKISTONDA TADBIRKORLIK FAOLIYATIGA TA'SIRI

**Annotatsiya:** ushbu maqola gig iqtisodiyotining O‘zbekistondagi tadbirkorlik faolligiga ko‘rsatgan ta‘sirini tahlil qiladi. Gig iqtisodiyoti, asosan, internet platformalar orqali mehnat faoliyatini tashkil etib, o‘zini o‘zi band qilish va qo‘shimcha daromad olish imkoniyatlarini kengaytiradi. Tadqiqot natijalari gig platformalarining O‘zbekistonda tadbirkorlikni rivojlantirishda muhim rol o‘ynashini ko‘rsatdi. Ayniqsa, gig platformalari yangi bizneslar ochishda va tadbirkorlik ko‘nikmalarini shakllantirishda sezilarli darajada yordam beradi. Platformalar orqali malaka oshirish va kamroq moliyaviy resurslar bilan tadbirkorlik faoliyatiga kirish imkoniyati gig iqtisodiyotining asosiy afzalliklaridan biri sifatida e‘tirof etilgan. Shu bilan birga, gig iqtisodiyoti orqali o‘zini o‘zi band qilgan shaxslar sonining ortishi mamlakat mehnat bozoriga ijobiy ta‘sir ko‘rsatmoqda. O‘zbekistonda gig iqtisodiyoti va raqamli platformalar orqali tadbirkorlik faoliyatini kengaytirish istiqbollari maqolada batafsil yoritilgan.

**Kalit so‘zlar:** Gig iqtisodiyoti; Raqamli platformalar; O‘zini o‘zi band qilish; Kichik va o‘rta biznes (SME); Mehnat bozori; Frilanserlik; Platforma iqtisodiyoti; Mehnatning noan‘anaviy shakllari.

### Влияния gig-экономики на бизнес-активность в Узбекистане

**Нодирбек Шергозиев,**  
*ведущий специалист*  
*Института макроэкономических*  
*и региональных исследований,*  
**Салимжон Бекмуродов,**  
*руководитель проекта Института*  
*макроэкономических и региональных исследований*

**Аннотация:** в данной статье анализируется влияние gig-экономики на предпринимательскую активность в Узбекистане. Gig-экономика, главным образом организованная через цифровые платформы, расширяет возможности для самозанятости и получения дополнительного дохода. Результаты исследования показывают, что gig-платформы играют важную роль в развитии предпринимательства в Узбекистане, в особенности, помогая открытию новых бизнесов и формированию предпринимательских навыков. Одним из главных преимуществ gig-экономики является возможность заниматься предпринимательской деятельностью с минимальными финансовыми ресурсами и повышать квалификацию через платформы. Также увеличение числа самозанятых лиц благодаря gig-экономике оказывает положительное влияние на рынок труда страны. В статье подробно рассмотрены перспективы расширения предпринимательской деятельности в Узбекистане с помощью gig-экономики и цифровых платформ.

**Ключевые слова:** gig-экономика; Цифровые платформы; Самозанятость; Малый и средний бизнес (МСП); Рынок труда; Фрилансер; Платформенная экономика; Нетрадиционные формы работы.

### The impact of the gig economy on business activity in Uzbekistan

**Nodirbek Sherg‘oziev,**  
*Institute for Macroeconomic and Regional Studies,*  
*Leading specialist,*  
**Salimjon Bekmurodov,**  
*Institute for Macroeconomic and Regional Studies,*  
*Head of Project*

**Abstract:** *this article analyzes the impact of the gig economy on entrepreneurial activity in Uzbekistan. The gig economy, primarily organized through digital platforms, expands opportunities for self-employment and supplementary income. The research findings indicate that gig platforms play a significant role in fostering entrepreneurship in Uzbekistan, especially by supporting the establishment of new businesses and the development of entrepreneurial skills. One of the main advantages of the gig economy is the ability to enter entrepreneurial activities with minimal financial resources and opportunities for skill enhancement through platforms. Additionally, the increase in self-employed individuals through the gig economy positively influences the labor market. The article provides a detailed overview of the prospects for expanding entrepreneurial activity in Uzbekistan through the gig economy and digital platforms.*

**Keywords:** *Gig economy; Digital platforms; Self-employment; Small and medium business (SME); Labor market; Freelance; Platform economy; Non-traditional forms of work.*

### **Kirish**

Gig iqtisodiyoti zamonaviy iqtisodiyotda mehnat bozorining yangi yo'nalishlaridan biri bo'lib, frilanserlik, vaqtinchalik ishlar va mustaqil pudratchilik kabi shakllarda kuzatiladi. Bu turdagi iqtisodiyot, ayniqsa, raqamli platformalar orqali amalga oshirilgani sababli, ishchilarga moslashuvchanlik, qo'shimcha daromad manbalariga ega bo'lish va turli ish imkoniyatlarini izlashda qulayliklar yaratadi. Ushbu model raqamli texnologiyalar, internet va boshqa yuqori texnologiyalarning rivojlanishi bilan chambarchas bog'liq bo'lib, Vincent Hardy (2024) gig iqtisodiyoti "platforma iqtisodiyoti", "taqsimlash iqtisodiyoti" va boshqa shu kabi nomlar bilan ham ifodalanishini takidlaydi [18].

XX asrning ilk yillarida jaz musiqasida ilk bor qo'llanilgan "gig" atamasi, qisqa muddatli konsertlarni anglatgan bo'lib, keyinchalik iqtisodiyotga moslashib, qisqa muddatli ish faoliyatini tavsiflash uchun qo'llanila boshlangan [13]. Bugungi kunda esa bu tushuncha dunyo bo'ylab keng tarqalib, zamonaviy ish shakllarini ifodalaydi. Jahon banki institutining 2023-yildagi tadqiqotiga ko'ra, global gig ishchilar soni 154 million nafardan 435 million nafargacha yetishi mumkin bo'lib, ular 545 ta raqamli platformada faoliyat yuritmoqda [12].

O'zbekistonda ham gig iqtisodiyoti jadal rivojlanmoqda. Raqamli va mobil texnologiyalarning keng tarqalishi natijasida ko'plab ishchilar uchun gig iqtisodiyoti yangi daromad manbalaridan biriga aylanib, ayniqsa past malakali ishchilar, yoshlar uchun yangi iqtisodiy imkoniyatlarni vujudga keltirmoqda. Gig iqtisodiyoti nafaqat mehnat bozoriga, balki tadbirkorlik faoliyatiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda, chunki yangi bizneslarni kamroq resurslar bilan boshlash imkoniyatini yaratadi. Shu bilan birga, gig iqtisodiyoti innovatsion rivojlanishni rag'batlantirib, iqtisodiy taraqqiyotni rag'batlantiradi [6]. O'zbekiston sharoitida gig iqtisodiyotining biznes muhit va tadbirkorlik faoliyatiga ta'siri va uning imkoniyatlari ushbu maqolada tahlil qilinadi va zarur yechimlar taklif etiladi.

**Adabiyotlar sharhi. Gig iqtisodining ishtirokchilari buyurtmalarni oson amalga oshirish uchun raqamli platformalardan foydalangan holda masofadan turib iqtisodiy faoliyat bilan shug'ullanadilar. [10]. Gig iqtisodiyotini Dr. Trevor Brown va Molly Turner quyidagi 3 ta ishtirokchidan iborat deb ta'riflaydi [6]:**

*Platforma kompaniyalar* – Mehnat bozorining raqamlashuvi jarayonida qisqa muddatli ish bitimlari uchun mo'ljallangan onlayn platformalar.

**Platforma kompaniyalarining bir qancha umumiy xususiyatlari mavjud bo'lib, ular quyidagilar:**

- ishlab chiqaruvchilar va iste'molchilar uchun operatsiyalarni soddalashtirib beradi;
- platformadan foydalanuvchilar uchun moslashuvchan rejimni taqdim etadi;
- to'lovlarni onlayn shaklda amalga oshirish imkonini yaratib beradi;
- har bir foydalanuvchilar shaxsiy kabinet (account) ega bo'ladi.

**Gig ishchilar – raqamli platformalar orqali daromad oladigan ishchilar. Gig ishchilarni ikki qismga bo'lish mumkin:**

Xizmat ko'rsatuvchilar (kamroq malaka talab qiluvchi vazifalarni bajarishadi). Yo'lovchi tashish bilan shug'ullanuvchilar, kuryerlar, maishiy xizmatchilar kabi misollar mavjud.

Mahsulot yaratuvchilar (asosiy ishidan tashqari, gig platformalarda ishlash orqali qo'shimcha daromad oluvchi yuqori malakali ishchilar). Hunarmand-dizaynerlar va rassomlarni bunga misol tariqasida keltirish mumkin.

Illuzzi va Tang (2021) ta'kidlashicha, gig ishchilar asosan frilanserlar, vaqtinchalik xodimlar,

mustaqil ishchilar, mutaxassislar, konsultantlar va ikki yoki undan ortiq ish joyida ishlovchi xodimlarni (moonlighters) o'z ichiga oladi [8].

**Iste'molchilar** – Platformadan buyurtma berish orqali o'zining ma'lum bir turdagi xizmat yoki tovarga bo'lgan ehtiyojini qondiruvchi shaxslar.

So'nggi yillarda gig iqtisodiyoti mehnat bozorlarida sezilarli o'zgarishlarni yuzaga keltirdi va ko'plab odamlar uchun daromad manbalarini diversifikatsiya qilish imkoniyatini yaratdi. Gig iqtisodiyoti modeli an'anaviy ish bilan solishtirganda texnologik innovatsiyalar, moslashuvchanlik va qulay ish muhiti bilan ajralib turadi.


### 1-jadval

#### An'anaviy mehnat faoliyati (doimiy asosda ishlash) va gig iqtisodiyotida ishlash o'rtasidagi farqlar

	An'anaviy bandlik	Gig iqtisodiyoti
Ish rejimi	Ish beruvchi talabiga ko'ra doimiy va uzoq vaqtga rejalashtirilgan ish rejimi	Mustaqil ishchi uchun mos ish vaqti va asosan qisqa vaqtda tugaydigan va qulay o'zgaruvchan ish vaqti
Haq to'lash tizimi	Ish haqi oylik maosh yoki ishlangan soat asosida to'lanadi	Kelishuv asosida bajarilgan ish uchun haq to'lanadi (ishbay)
Mehnat anjomlari	Ish beruvchi tomonidan ta'minlanadi	Gig ishchining o'zi sotib olishga ma'sul bo'ladi
Rag'batlantirish	Sug'urta va pensiyalarkabi ijtimoiy himoya va rag'batlantirishning maxsus tizimlari bor	Mavjud emas
Mehnat ta'tili	Haq to'lanadigan mehnat ta'tili beriladi	Berilmaydi
Mehnat munosabatlari	Ish beruvchiga doimiy hisobot berish va korxonada ichki tartibiga rioya qilish	Vazifani kelishilgan- day o'z vaqtida va sifatli buyurtmachiga topshirish

**Manba:** mualliflar ishlanmasi.

Ishchilarda an'anaviy bandlik va gig platformalarda ishlash tanlovi bo'lganida, aynan gig platformalar orqali faoliyat yuritish sabablari turli omillarga borib taqaladi. Jahon banki o'tkazgan tadqiqot natijalari shuni ko'rsatmoqdaki, gig platformalar orqali faoliyat yuritayotganlarning salmoqli ulushi (23,3%) ish tartibining moslashuvchanligi sababli ham gig platformalar orqali ishlaydi (1-rasm). Shuningdek, qo'shimcha daromad (17,8%), doimiy daromadning kamligi (14,3%) va mehnat faoliyatidagi erkinlik (13,7%) kabi omillar ham muhim hisoblanadi [12].



### 1-rasm. Ishchilarning gig platformalarini tanlashdagi asosiy sabablari

**Manba:** Jahon bankining tahliliy sharhi da keltirilgan ma'lumotlar asosida mualliflar tarjimai [12] [https://www.worldbank.org/en/topic/jobsanddevelopment/publication/online-gig-work-enabled-by-digital-platforms?s\\_kwcid=AL118468!3!!!x!!&gad\\_source=1](https://www.worldbank.org/en/topic/jobsanddevelopment/publication/online-gig-work-enabled-by-digital-platforms?s_kwcid=AL118468!3!!!x!!&gad_source=1)

Ewens, Nanda va Rhodes-Kropf (2018) larning fikricha Gig iqtisodiyoti tadbirkorlikda noaniqliklarni kamaytirish va tadbirkorlik ko'nikmalarini shakllantirishda turli jihatlar orqali ta'sir ko'rsatadi. Birinchidan, gig iqtisodiyoti shaxslarning tajriba orttirishi va o'zlarini tadbirkor sifatida sinovdan o'tkazishi uchun imkoniyat yaratadi, shu bilan innovatsion faoliyatni arzonroq va tezroq amalga oshirishga yordam beradi [5].

Denes, Lagaras, Tsoutsouralar (2023) tadqiqotlari ko'rsatishicha, 2012-2021 yillarda AQShda gig iqtisodiyotdan daromad olganlar orasida yangi korxonada ochish ehtimoli 1% yuqori bo'lgan [4]. Shuningdek, gig ishchilarning 3,5% yangi firma ochgan, aholi orasida esa bu ko'rsatkich atigi 0,7%ni tashkil etadi. Ko'plab yangi korxonalar gig platformalar orqali olingan tajriba asosida, ayniqsa transport, xizmatlar va savdo sohalarida tashkil etilgan [4]. Barrios va boshqalar tomonidan o'tkazilgan tadqiqotga ko'ra, AQShda gig iqtisodiyoti yangi biznes ro'yxatga olishni 3-5% ga oshirgan [1].

Gig iqtisodiyotning rivojlanishi ayollarning mehnat bozoriga kirishiga ham yordam bermoqda. Jahon banki hisobotida aytilishicha, ayollar qo'shimcha daromad olish imkoniyati va ishning moslashuvchanligi sababli gig platformalarda faol ishtirok etadi, global miqyosda ayollar ulushi 42%ga yetgan [12], bu umumiy mehnat bozoridagi ulushdan yuqoriroqdir (2023-yilda 40,1%[19]).

Shuningdek, gig platformalar raqamli texnologiyalar yordamida ishchi va mijozlarni samarali

bog'laydi. Cramer va Krueger (2016) o'z tadqiqotlarida Uber kabi platformalarda haydovchilarga beriladigan to'lov miqdori an'anaviy taksi haydovchilariga qaraganda yuqoriroq bo'lib, mijozlarga xizmat ko'rsatish vaqti qisqaroq ekanligini aniqlashgan [2].

Cyrilla va Geva (2019) OECD tadqiqotchilari ta'kidlashicha, gig platformalarning kirib kelishi yangi turdagi xizmatlarning rivojlanishiga va narxlar barqarorligiga ta'sir ko'rsatadi. Narxlarning pasayishi xizmatlarga qo'shimcha talab yaratib, umumiy bozorni kengaytiradi [3].

### **Asosiy qism**

#### *O'zbekistonda gig iqtisodiyot tendensiyalari*

O'zbekistonda gig iqtisodiyoti rivojlanish bosqichida bo'lib, mamlakatda internet va mobil texnologiyalarning keng tarqalishi uning o'sishiga imkon yaratmoqda. Gig platformalari, jumladan, Yandex, Uzum, Uklon va Express24 kabi xizmatlar yo'lovchi tashish va yetkazib berishda, Upwork, TopTal, va Freelancer esa IT va frilansingda yoshlar, ayollar va malakasiz ishchilar uchun yangi imkoniyatlar yaratmoqda. Bu borada gig iqtisodiyoti rivojlanishida internet qamrovi va urbanizatsiya darajasi muhim omillar hisoblanadi. Xususan, urbanizatsiya darajasi yuqori bo'lgan hududlarda gig platformalarning tezroq rivojlanishi kuzatilmoqda, bu ayniqsa O'zbekiston sharoitida viloyatlarning ma'muriy markazlari va katta shaharlarida yaqqol namoyon bo'lmoqda [20].

Biroq, gig iqtisodiyotiga oid mehnat bozori statistikasining yetarli darajada shakllantirilmaganligi O'zbekiston miqyosida bu yo'nalishda chuqur tadqiqotlar ko'lami va izchilligini cheklaydi. Umuman olganda, gig ishchilar sonini aniqlash murakkab amaliyot hisoblanadi, sababi ayrim holatlarda fuqarolar bir vaqtning o'zida doimiy ish bilan shug'ullanib, gig platformalarida ham faoliyat yuritishi mumkin. Bu esa gig iqtisodiyotida ishlayotganlarning miqyosini aniq baholash va sohaga yo'naltirilgan muqobil islohotlarga to'sqinlik qilishi mumkin.

Bundan tashqari, gig iqtisodiyotini tahlil qilish jarayonida nafaqat statistik ma'lumotlarning yetishmasligi bilan bog'liq muammolar, balki ushbu yo'nalishda amaliyotda ishchilar va korxonalar duch kelayotgan qiyinchiliklar kuzatilmoqda. Jahon banki hisobotlariga ko'ra, korxonalar uchun kerakli ko'nikmalarga ega ishchilarni topish va ularni boshqarish jiddiy muammolardan biri bo'lib qolmoqda. Global miqyosda, ishchilar esa o'z faoliyatida mehnat xavfsizligi va professional

rivojlanish imkoniyatlarining cheklanganligidan aziyat chekmoqda. Ushbu muammolar gig iqtisodiyotining to'laqonli rivojlanishini sekinlashtirishi mumkin [23].

O'zbekistonda gig ishchilarning ko'pchiligi asosan o'zini o'zi band qilish shaklida o'z faoliyatini yuritadi. Shu sababli ham o'zini o'zi band qilgan holda iqtisodiy faoliyat yuritishning tartibini ko'zdan kechirish tadqiqot uchun ahamiyatli. Ko'plab mamlakatlarda o'zini o'zi band qilganlar soliq subyekti hisoblanadi. Masalan, AQShda o'zini o'zi band qilganlarga 15,3% soliq qo'llaniladi [15]. O'zbekistonda esa o'zini o'zi band qilganlar faoliyatida 100 mln. so'mgacha bo'lgan aylanma mablag'lar soliqqa tortilmaydi, balki yilida 1 marotaba 1 bazaviy hisoblash miqdori (BHM) miqdorida davlat boji to'lanadi. Shuningdek, aylanma mablag'lar miqdori 100 mln. so'mdan 1 mlrd. so'mgacha bo'lganda 4 foizlik soliq stavkasi qo'llanilishi belgilangan [24].

O'zbekistonda 2024-yil 1-iyul holatiga ko'ra, o'zini o'zi band qilgan shaxs sifatida 3,55 mln. dan ortiq fuqaro faoliyat yuritmoqda. Ular orasida eng ko'p xizmat ko'rsatish, qishloq xo'jaligi, ijtimoiy, sanoat va axborot-kommunikatsiya yo'nalishlarida faoliyat yurituvchi o'zini o'zi band qilganlar mavjud. Shuningdek, ushbu davrda yengil avtotransportda yo'lovchi tashish bilan shug'ullanuvchi 530 mingdan ortiq fuqaro ro'yxatdan o'tgan [22].

### **Metodologiya**

Gig iqtisodiyotining tadbirkorlikka ta'sirini baholash uchun o'zini o'zi band qilganlar va yangi tashkil etilgan kichik tadbirkorlik subyektlariga oid statistik ma'lumotlar tahlil qilindi. So'nggi yillarda o'zini o'zi band qilganlar soni ortmoqda, lekin yangi kichik tadbirkorlik subyektlarining soni pasaygan. Tadqiqotchilar tomonidan ilgari surilgan gipoteza [3] ga ko'ra, o'zini o'zi band qiluvchilar kichik tadbirkorlik subyektlariga qaraganda pastroq darajada soliqqa tortilishi va gig platformalarining o'sishi ko'plab kichik tadbirkorlarning o'zini o'zi band qilish shakliga o'tishiga olib keladi.

**Ushbu gipotezani tekshirish uchun gig iqtisodiyotning yangi tashkil etilgan kichik tadbirkorlik subyektlari va o'zini o'zi band qiluvchilarga ta'sirini baholashga qaratilgan ikkita model yaratildi. Ma'lumotlar to'plami quyidagi o'zgaruvchilarni o'z ichiga oladi:**

**New\_SMEs:** yangi tashkil etilgan kichik tadbirkorlik subyektlari soni;

**Self\_Employed:** o'zini o'zi band qilgan shaxslar soni;

**Gig\_Platforms:** faol gig platformalar soni<sup>1</sup>;

**Internet\_users:** har 100 kishiga to'g'ri keladigan mobil internet abonentlari soni;

**Urbanization:** urbanizatsiya darajasi.

Modelda 2021-2023-yillarga oid ma'lumotlardan foydalanilgan bo'lib, gig iqtisodiyotning vaqt o'zgarishi, uzoq vaqt davomidagi ta'siri tahlil qilinmadi. Sababi, gig iqtisodiyotning mamlakat iqtisodiyotidagi analogi o'zini o'zini band qilish tizimi nisbatan yangi tizim bo'lib, O'zbekistonda o'zini o'zi band qilgan shaxs sifatida faoliyatni amalga oshirish tartibi 2020-yilning 24-dekabridan kuchga kirgan. Bundan tashqari, aksariyat gig platformalar oxirgi bir necha yillarda (ayniqsa, COVID-19 pandemiyasi va undan keyingi davrda) mahalliy bozorda faoliyat yurita boshladi.

Hausman testi yordamida ikki modelda mos ravishda o'zgarish va tasodifiy effektlar tanlandi. Model tekshiruv uchun Breusch-Pagan testi (geteroskedastiklik), Breusch-Godfrey/Wooldridge testi (avtokorrelyatsiya), Pesaran CD testi (kesma bog'liqlik), va Shapiro-Wilk testi (normal tarqalganlik) o'tkazildi.

**Model tenglamalari:**

$$New\_SMEs = \beta_0 + \beta_1 * Gig\_Platforms * + \beta_2 * Internet\_users * + \beta_3 * Urbanization * + \varepsilon$$

$$Self\_Employed = \beta_0 + \beta_1 * Gig\_Platforms * + \beta_2 * Internet\_users * + \beta_3 * Urbanization * + \varepsilon$$

### Natijalar va olingan xulosalar

Model natijalar tanlangan o'zgaruvchilar yangi tashkil qilingan kichik tadbirkorlik subyektlari soni va o'zini o'zi band qilganlar sonidagi o'zgarishlarni tushuntirishda samarali ekanini ko'rsatmoqda. Hududlarda har bir yangi gig platforma o'zini o'zi band qilganlar sonini 42,1 ming nafarga oshirsa, yangi tashkil etilgan kichik tadbirkorlik subyektlari sonini esa 725 birlikka kamaytiradi.

**Kichik tadbirkorlikka gig platformalarining salbiy ta'sirini bir nechta mulohazalar izohlaydi:**


1. Gig iqtisodiyoti rivojlanishidan avval, kichik va o'rta biznes subyektlarida innovatsiyalarni, ilmiy texnologik yangiliklarni joriy etish jarayoni nisbatan sekin sur'atlarda olib borilgan.

Xususan, 2022-yildagi statistika ma'lumotlariga ko'ra, mamlakatimizda har 10 mingta faoliyat

yuritayotgan tadbirkorlik subyektiga o'rtacha 12 ta innovatsion faol tadbirkor to'g'ri kelgan. Bu esa mamlakatimizda innovatsion faollikning past darajada ekanini ko'rsatadi. Bundan tashqari, ilmiy-tadqiqot ishlariga ajratilayotgan mablag'larning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi ham juda kam bo'lib, atigi 0,16%ni tashkil etgan [21].

2. Mijozlar va xodimlar uchun qulay dasturiy ta'minotlarga ega bo'lgan gig platformalari transport, yetkazib berish, xizmat ko'rsatish va savdo kabi sohalarda an'anaviy biznes subyektlari uchun jiddiy raqobat muhitini yuzaga keltirdi. Bu raqobat nafaqat texnologik jihatdan, balki biznes jarayonlarini boshqarish (menejment) sohasida ham kuzatilmoqda.

3. Google Trends platformasida amalga oshirilgan tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, 2022-yildan boshlab tadbirkorlikka oid qidiruvlar soni kamayishi bilan yangi tashkil etilgan kichik tadbirkorlik subyektlari sonining o'zgarishi orasida bevosita bog'liqlik mavjud (2-rasm).



**2-rasm. O'zbekistonda qidiruv tizimida tadbirkorlikka oid qidiruvlar dinamikasi (google trends) va yangi tashkil qilingan biznes subyektlarining o'zgarishi**

**Manba:** mualliflar tomonidan Google trends ma'lumotlari asosida tayyorlangan.

Shuningdek, internet foydalanuvchilari soni o'sishining ijobiy ta'siri o'zini o'zi band qilishda ham sezilmoqda — internet abonentlari soning bir foiz birlikka oshishi, o'zini o'zi band qilganlar sonining 2 767 nafarga ortishiga olib kelmoqda (korrelyatsiya koeffitsienti 0,187). Urbanizatsiyaning kichik biznesga ta'siri ham ijobiy bo'lib, urbanizatsiya darajasining har bir foiz punktga ortishi 151 ta yangi kichik biznes sub'ektlarining tashkil etilishiga ta'sir qilayotgan bo'lishi mumkin (korrelyatsiya koeffitsienti 0,68).

1 Internet ma'lumotlari asosida mualliflar tomonidan mamlakatda faoliyat yuritayotgan taksi, yetkazib berish va ish izlash yo'nalishidagi yirik gig platformalari soni hisobga olindi

Ekonometrik tahlil natijalari bo'yicha batafsil ma'lumotlar 2-jadvalda keltirilgan:

2-jadval

Regression modellashtirish natijalari

Erkin o'zgaruvchilar	Erksiz o'zgaruvchi (O'zini o'zi band qilish)	Erksiz o'zgaruvchi (Yangi tashkil qilingan KO'Blar)
Gig platformalar	42188.3** (13449.6)	-725.6* (369.5)
Internet foydalanuvchilar	2767.7** (841.1)	13.5 (21.1)
Urbanizatsiya	-12021.7 (35035.9)	151.1** (46.8)
O'zgarimas		-61.2 (1974.6)
Kuzatuvlar	42	42
Guruhlar soni	14	14

R-kvadrat: 0.69511; Adj. R-kvadrat: 0.49998; F-ko'rsathich: 18.9987 on 3 and 25 DF, p-qiyamat: 1.2398e-06  
R-kvadrat: 0.31597; Adj. R-kvadrat: 0.26197;  
Chisq: 17.5535 on 3 DF, p-qiyamat: 0.00054367

**Manba:** mualliflar ishlanmasi.

**Takliflar**

*Tadqiqot natijalari va tadqiqot doirasida o'rganilgan xorijiy tajribaga asoslanib quyidagi choralar taklif etiladi:*

1. Gig iqtisodiyotining tez sur'atlar bilan rivojlanishi va bunday iqtisodiyotda noan'anaviy ish

turlarining keng tarqalganini hisobga olib, mehnat faoliyatining nostandart shakllarini ya'ni, gig ishchisi, o'zini o'zi band qilgan shaxs, mustaqil ishchi kabi turli noan'anaviy ish turlarini aniq va batafsil tasniflash. Gig platformalaridagi faoliyatni tahlil qilish uchun keng qamrovli ma'lumotlar to'plash. Bu orqali gig ishchilarining soni, daromadi, xizmat turlari va boshqa ko'rsatkichlarni aniqlash mumkin.

2. Ekonometrik tahlil natijalaridan kelib chiqib, Respublika hududlarida ishbilarmonlik faoliyatini rag'batlantirish, xususan innovatsion tadbirkorlik xususiyatlarini o'zida aks ettiruvchi gig platformalariga qulay sharoit yaratish maqsadida hududlardagi infratuzilma jumladan, internet tarmog'i va uning tezligini yaxshilash hamda urbanizatsiya jarayonlarini jadallashtirish maqsadida "vertikal urbanizatsiya" va "15 daqiqalik shahar" tamoyillari asosida tuman markazlarini rivojlantirish dasturlarini ishlab chiqish.

3. Gig ishchilarining mehnat huquqlarini kafolatlash uchun qonunchilik bazasini takomillashtirish va tegishli normativ-huquqiy hujjatlarni qabul qilish.

4. Gig iqtisodiyotining mehnat bozoriga sezilarli ta'sirini hisobga olgan holda, mutaxassislarni ushbu sohada muvaffaqiyatli ishlash uchun zarur bo'lgan ko'nikma va bilimlar bilan qurollantirishga qaratilgan yangi o'quv dasturlarini ishlab chiqish.

5. O'zini o'zi band qiluvchilarni qo'llab-quvvatlash, ularning kichik tadbirkorlik maqomiga o'tishini osonlashtirish uchun "hukumat-biznes" oraliq institutlarning shakllanishiga va ularning ishtirokini oshirishga ko'maklashish kerak. Bu mamlakatimizda tadbirkorlikni rivojlantirish uchun qulay sharoit yaratadi.

**Manba va adabiyotlar**

1. Barrios J. M., Hochberg Y. V., Yi H. L. (2020). "Launching with a parachute: The gig economy and entrepreneurial entry". University of Chicago, Becker Friedman Institute for Economics Working Paper No. 2020-21.
2. Cramer J., & Krueger A. (2016). "Disruptive Change in the Taxi Business: The Case of Uber". NBER Working Paper No. 22083.
3. Cyrille S., Geva A., Pak M., Veiel R. "Gig economy platforms: Boon or Bane?". OECD Economics Department Working Papers No. 1550.
4. Denes M., Lagaras S., & Tsoutsoura M. "Entrepreneurship and the Gig Economy: Evidence from US Tax Returns".
5. Ewens M., Nanda R., & Rhodes-Kropf M. (2018). "Entrepreneurship in the Gig Economy".
6. Fitzgerald R., Brown T., Turner M. (2017). "The Future of Work: The Rise of the Gig Economy", 3-4.
7. Healy J., Nicholson D., Pekarek A. (2017). "Understanding the Gig Economy: Labour, Regulation and the New Economy".
8. Illuzzi K., Tang P. (2021). "Gig Economy Trends and Impact on Small and Medium Practices".



9. Kuhn K., Maleki A. (2017). "Gig Economy and Its Impact on Employment and Social Security".
10. Steven P. Vallas, Juliet B. Schor, 2020, *What Do Platforms Do? Understanding the Gig Economy*.
11. Stewart A., Stanford J. (2017). "Regulating Work in the Gig Economy".
12. World Bank Group (2023). "Working without borders: The Promise and Peril of Online Gig Work".
13. Bunny Studio. (n.d.). "The History of the Gig Economy". <https://bunnystudio.com/blog/the-history-of-the-gig-economy/>
14. Internal Revenue Service. (2024). "Gig Economy Tax Center". <https://www.irs.gov/businesses/gig-economy-tax-center>
15. Internal Revenue Service. (2024). "Self-Employment Tax, Social Security, and Medicare Taxes". <https://www.irs.gov/businesses/small-businesses-self-employed/self-employment-tax-social-security-and-medicare-taxes>
16. McKinsey & Company. (n.d.). "What is the Gig Economy?" <https://www.mckinsey.com/featured-insights/mckinsey-explainers/what-is-the-gig-economy>
17. Open Knowledge World Bank. (2024). "Working without Borders". <https://openknowledge.worldbank.org/entities/publication/ebc4a7e2-85c6-467b-8713-e2d77e954c6c>
18. Statistika Canada (2024). "Defining and Measuring the Gig Economy Using Survey Data". <https://www150.statcan.gc.ca/n1/pub/75-004-m/75-004-m2024001-eng.htm>
19. World Bank Data. (n.d.). "Labor force, female (% of total labor force)". <https://data.worldbank.org/indicator/SL.TLF.TOTL.FE.ZS>
20. Yandex Go haqida rasmiy xabar. <https://www.gazeta.uz/oz/2024/06/27/yandex-go/>
21. 2022–2026-yillarda O‘zbekiston Respublikasining innovatsion rivojlanish strategiyasi <https://lex.uz/uz/docs/-6102462>
22. Soliq qo‘mitasi telegram kanali. <https://t.me/fiskaltahlil/880>
23. World Bank Documents. (2024). <https://documents.worldbank.org/en/publication/documents-reports/documentdetail/099060524074041161/p1796471e104d70c8193971d1ead6456d2e>
24. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 29.12.2023-yildagi PQ-422-son <https://lex.uz/ru/docs/-6721144?ONDATE=01.01.2024>

УЎК: 336.162.(575.1)

**Samandar XALILOV,**  
*Makroiqtisodiy va hududiy tadqiqotlar instituti*  
*bosh mutaxassisi.*  
**Email:** samandar.xalilov92@mail.ru

## O‘ZBEKISTONDA ISLOM MOLIYASINI TATBIQ QILISH IMKONIYATLARI VA UNING AFZALLIKLARI

**Annotatsiya:** mazkur maqolaning maqsadi O‘zbekistonda investitsiya loyihalarini moliyalashtirishda islom moliyasi instrumentlaridan foydalanish imkoniyatlari va afzalliklarini o‘rganishdan iborat. Xususan, maqolada islom moliyasining mohiyati, ilmiy tadqiqotlar, islom moliyasining jahon kapital bozoridagi o‘shish tendensiyasi, O‘zbekistonda islom moliyasini joriy qilishdagi va bu yo‘nalishdagi empirik tahlillar o‘rganilgan hamda tahlil natijalari asosida O‘zbekistonda islom moliyasini takomillashtirish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqilgan.

**Kalit so‘zlar:** islom moliyasi, islom bank tizimi, islom moliya tizimi, islom moliyasi tamoyillari.

### Внедрение исламского финансирования в Узбекистане: возможности и преимущества

**Самандар Халилов,**  
*Главный специалист Института*  
*макроэкономических и региональных исследований*

**Аннотация:** целью данной научной работы является изучение возможностей и особенностей использования исламских финансовых инструментов для финансирования инвестиционных проектов в Узбекистане. В данной научной работе разработаны рекомендации по совершенствованию исламских финансов в Узбекистане. Они основаны на изучении сущности исламских финансов, анализе научных исследований, тенденций роста исламских финансов на мировом рынке капитала, особенностей их внедрения в Узбекистане, а также на результатах эмпирического анализа в данной области.

**Ключевые слова:** исламские финансы, исламская банковская система, исламская финансовая система, принципы исламских финансов.

### Introducing islamic finance in Uzbekistan: opportunities and features

**Samandar Khalilov,**  
*Institute for Macroeconomic and Regional Studies,*  
*Chief specialist*

**Abstract:** the purpose of this research paper is to study the possibilities and features of using Islamic finance instruments in financing investment projects in Uzbekistan. In this research paper, several recommendations are proposed for improving Islamic finance in Uzbekistan. These recommendations are developed by examining the essence of Islamic finance, reviewing scientific research, analyzing the growth trends of Islamic finance in the global capital market, exploring the introduction of Islamic finance in Uzbekistan, and conducting empirical analysis in this area.

**Keywords:** Islamic finance, Islamic banking system, Islamic financial system, principles of Islamic finance.

### Kirish

Bugungi kunda O‘zbekistonda tadbirkorlik muhitini yaxshilash va tadbirkorlik faoliyatini qo‘llab-quvvatlash ustuvor vazifalardan biriga aylangan. Mamlakat iqtisodiy strategiyasining muhim yo‘nalishlaridan biri bo‘lgan tadbirkorlik milliy iqtisodiyotni rivojlantirish, ish o‘rinlari yaratish va aholining daromadlarini oshirishda hal qiluvchi ahamiyatga ega. Tadbirkorlik faoliyatni yo‘lga qo‘yish, mavjud faoliyatni kengaytirish hamda ularni rivojlantirishda moliyaviy resurslar ta‘minoti muhim rol o‘ynaydi. So‘nggi yillarda jahon moliya bozorlarida shuningdek, mamlakatimizda an‘anaviy kreditlash foiz stavkalarining oshishi tijorat banklarida kreditlarning qimmatlashishiga sabab bo‘lmoqda. Ushbu holat

xorijiy davlatlarning tadbirkorlikni moliyalashtirish borasidagi samarali tajribalarini tahlil qilgan holda moliyalashtirishning yangi instrumentlarini joriy qilish, mavjud moliyalash usullarini rivojlantirishni taqozo etadi. Bu borada bugungi kunda jahon moliya bozorida jadallik bilan rivojlanib borayotgan islom moliyasi instrumentlaridan foydalanishni takomillashtirish tadbirkorlarning moliyaviy resurslarga bo'lgan talablarini qondirish va biznesni amalga oshirish bilan bog'liq bo'lgan xatarlarni kamaytirishda muhim ahamiyatga ega.

**Islom moliyasi hamda islom bank tizimi bu alohida tushunchadir. Islom moliyasi bu iqtisodiyot, moliya va xo'jalik yuritishning barcha jabhalarida islom shariati tomonidan belgilangan qonun-qoidalarga amal qilishni anglatadi. Islom bank tizimi esa bank faoliyatini shariat qonun qoidalari asosida amalga oshirishdir. Islomiy bank faoliyatini amalga oshirishda bank xizmatlari hamda mahsulotlari an'anaviy bank mahsulot va xizmatlaridan asosan quyidagi tamoyillar asosida farqlanadi:**

- pul real qiymatga ega bo'lgan tovar emas u o'lchov vositasidir, daromad esa real qiymatga ega bo'lgan aktivlar harakati natijasida olinadi;
- bitimning natijasi unda qatnashayotgan tomonlardan birining foyda olishi boshqa bir tomonning yo'qotishiga olib kelsa, yoki bitimning biror bir shartida noaniqlik bo'lsa bunday bitimlar spekulativ bitim deb qaraladi;
- foyda olishga qaratilgan har qanday faoliyatda unda qatnashuvchi har bir ishtirokchi uchun zarar ko'rish tavakkalchiligi mavjud bo'lib, ushbu tavakkalchilikdan ishtirokchilardan biri yoki bir nechta kafolatlanishi natijasida boshqa ishtirokchilarning zarar ko'rishi mumkin emas.

Mazkur tamoyillar islom moliyasining eng asosiy tamoyillaridan hisoblanib boshqa tamoyillar ushbu tamoyillar asosida shakllangan.

Yuqoridagi tamoyillarga ko'ra islom banklari tomonidan an'anaviy bank mahsulot va xizmatlariga muqobillar ishlab chiqilgan. **Xususan:**

- mablag'larni jalb qilishda deposit operatsiyalari o'rniga mudoraba shartnomalari;
- investitsion loyihalarni moliyalashtirish uchun kreditlar o'rniga, mushoraka, mudoraba, salam, istisno yoki sukuk qimmatli qog'ozlari;
- savdoni moliyalashtirish murobaha shartnomalari;
- lizing xizmatlari ijara shatnomari asosida amalga oshiriladi.

Yuqoridagi shartnoma turlarini birlashtirish orqali moliyalashtirishning aralash usullari ham qo'llaniladi. Ayniqsa, uzoq muddatli va yirik investitsion loyihalar uchun bu yondashuv samarali hisoblanadi. Misol uchun, uzoq muddatli aktivlarni moliyalashtirishda mushoraka hamda ijara usullari birgalikda qo'llanilishi mumkin.

2022-yilda dunyoda boshlangan geosiyosiy keskinlik ta'sirida ko'plab mamlakatlarda inflatsiya darajasining va davlat qarzlari miqdorining oshishi, ko'chmas mulk bozorlaridagi aktivlikning tushishi fonida jahon global moliya bozorida barqarorlik susaydi. Shunday sharoitda islom moliyasi xizmatlar sanoati o'z barqarorligini saqlab qolib, o'sishda davom etdi. Xususan, 2023-yilda islom moliyasi xizmatlari jami aktivlari 4,0 foizga oshib, 3,38 trillion AQSH dollariga yetdi. Aholisining asosiy qismi musulmonlardan iborat bo'lgan davlatlar uchun ushbu tarmoqni rivojlantirish dolzarb hisoblanadi [3].

Shunday ekan, hozirgi kunda moliyalashtirish usullari yuqori darajada diversifikatsiya qilinmagan O'zbekiston uchun ham mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi va tadbirkorlik subyektlarini moliyaviy qo'llab-quvvatlashni yanada kuchaytirish uchun an'anaviy moliyalashtirish mexanizmlari bilan bir qatorda islom moliyasi instrumentlaridan foydalanishni rivojlantirish masalasi tadqiq etilishi dolzarb hisoblanadi.

#### **Mavzuga oid adabiyotlar tahlili**

O'zbekistonda islom moliyasini tatbiq qilishga doir tadqiqotlar o'tgan yaqin yillar mobaynida ortib bormoqda. Ushbu mavzuga oid ilk tadqiqotlardan biri Alexander Wolters [8] tomonidan 2013-yilda O'rta Osiyo mamlakatlarida islom moliyasining joriy holati, mavjud qiyinchiliklar va istiqbollari o'rganilgan. 2013-yilda islom moliyasini joriy qilish bo'yicha Qozog'iston yetakchilik qilgan bo'lsa-da, O'zbekiston geografik joylashuvi hamda aholining mentalitetiga ko'ra islom moliyasi uchun istiqbolli deb baholanadi.

Shukhrat Umarov, Issam Tlemsani, Mohamed Ashmel Mohamed Hashim, Robin Matthews [4] muallifligida so'rovnomasi asosida tadqiqot o'tkazilgan. So'rovnomasi aholi, bank va moliya sohasidagi xodimlar, bir nechta islom moliya tashkilotlarining O'zbekistondagi vakillari orasida o'tkazilgan. Tadqiqot natijalari O'zbekistonda islom bank xizmatlariga yetarli talab darajasi borligini ko'rsatgan. Mavjud muammolar sifatida esa samarali bozor muhitini yaratilmaganligi qayd etilgan. Ushbu bank tizimini

joriy qilishni jadallashtirish borasida xalqaro islom moliyasi tashkilotlari bilan hamkorlikda qonunchikni qayta ko'rib chiqish, bank va moliya sohasidagi hodimlarning malakasini oshirish kabilar qayd etilgan.

O'zbek tadqiqotchilaridan Jakhongir Imamnazarov [11] 2020-yilda olib borgan tadqiqotida kichik va o'rta biznesni moliyalashtirishdagi muammolar, qonunchilikda islom moliyasini amalga oshirishga doir kamchiliklar, shuningdek islom moliyasi mahsulotlari va xususiyatlari yoritib berilgan. Tahlil natijalari sifatida qonunchilikka o'zgartirish kiritish, qonun ishlab chiqiladigan davrga qadar nobank moliya muassasalariga ma'lum turdagi islom moliyasi mahsulotlari bilan xizmat ko'rsatishga ruxsat berish, Islom moliyasi uyushmasini tashkil qilish kabi takliflar berilgan.

Orifjan Namozov, Shoxruxxo'ja Faxriddinxo'jaev, Saida Gulomova va Rakhmatilla Ubaevlar [16] tomonidan olib borilgan tadqiqotda islom moliyasining afzalliklari, MDH mamlakatlarida islom moliyasining joriy holati, O'zbekistonda islom moliyasining takomillashishida vujudga kelayotgan muammolar hamda takliflar keltirilgan. Mavjud muammolar sifatida islom moliyasiga doir qonunlar mavjud emasligi, ushbu sohaga doir tadqiqotlar va ilmiy izlanishlarga qiziqishning kamligi hamda jamoatchilikning islom moliyasiga doir savodxonligi yuqori emasligi keltirilgan. Mavzuga doir takliflar sifatida tijorat banklari xodimlarini islom banki mahsulotlari bo'yicha texnik qo'llab-quvvatlash, xalqaro islom moliyasi tashkilotlari bilan birgalikda chet el kapitali ishtirokida islom banklarini tashkil qilish, xalqaro islom moliyasi tashkilotlari bilan hamkorlikni oshirish va jamoatchilikning islom moliyasi bo'yicha ko'nikmalarini oshirishga qaratilgan dasturlar ishlab chiqish keltirilgan. Shuningdek, hukumat tashqi qarzlarni jalb qilish hamda "Sukuk" qimmatli qog'ozlardan foydalanish va xususiy sektorlarda ushbu qimmatli qog'ozlar bozorini rivojlantirish taklifi berilgan.


### Tadqiqot metodologiyasi

Tadqiqotni amalga oshirishda empirik tadqiqot usulidan foydalanildi. Bunda islom moliyasining jahon bozorida tendensiyalari, qo'shni mamlakatlarning islom moliyasini joriy qilishdagi tajribalari hamda mamlakatimizda ushbu sohada amalga oshirilgan ishlar tahlil qilinib xulosa va takliflar ishlab chiqildi.

Jahonda islom moliyasi asosiy ko'rsatkichlari. 2023-yilda jami islom moliyaviy aktivlari hajmi

4,0% ga oshib 3,38 trln AQSh dollariga yetdi. Ushbu aktivlarning asosiy qismi (70,21 foizi) bank tizimiga to'g'ri kelgan bo'lsa, undan keyingi ulushni sukuk va islomiy jamg'armalar (29,08 foiz) egallagan. Shuningdek, islomiy sug'urta xizmatlari aktivi eng kam (0,71 foiz) ulushni tashkil qilmoqda [3].

Bank faoliyatining aktivlar miqdorining oshishi yaxshi holat sifatida baholansada, ushbu ko'rsatkichlar bank faoliyat samaradorligini belgilashga yetarli hisoblanmaydi. Bank faoliyati samaradorligi hamda sog'lomligini ifodalovchi asosiy ko'rsatkichlar kapital yetarliligi koeffitsienti, leveraj koeffitsienti, kapital va aktivlar rentabiligi hamda jami aktivlaridagi muammoli aktivlar ulushi asosiy ko'rsatkichlari hisoblanadi. Islom moliyaviy xizmatlar kengashi tomonidan e'lon qilingan yillik hisobotda 2023-yilning IV choragida kapital yetarlilik koeffitsienti 19,1 foizni, 1-darajali kapitalning yetarlilik darajasi 17,8 foizni, leveraj koeffitsienti 11,3 foizni tashkil etgan [3].




1-rasm. Islomiy banklar faoliyatining asosiy ko'rsatkichlari (foizda)

Manba: Islom moliyaviy xizmatlar kengashining 2023-yil uchun yillik hisoboti [3]

**Ma'lumot uchun:** Basel III tavsiyasiga ko'ra kapital yetarlilik koeffitsienti 10,5 foizni, 1-darajali kapital yetarliligi 8,5 foizni, 1-darajali asosiy kapital yetarlilik koeffitsienti 7,0 foizni tashkil qiladi. Shuningdek, Islom moliyaviy xizmatlar kengashining IFSB-23 standartlari bo'yicha ushbu ko'rsatkichlar mos ravishda 8,0; 6,0 hamda 4,5 foiz etib belgilangan.

Jahonda islomiy moliya tashkilotlarining kapital rentabiligi darajasining 2020-yilda 16,2 foizlik o'zining eng quyi darajasini qayd etgan bo'lsa, keyingi yillarda ushbu ko'rsatkich muntazam ravishda o'sib, 2023-yilning yakuniga kelib 25,3 foizni tashkil etgan. Ushbu davr mobaynida barqaror hisoblangan yevropa mamlakatlari an'anaviy bank tizimida kapital

rentabellik darajasi 2023-yilning II-choragida o'zining eng yuqori darajasi 10,6 foizni tashkil qilgan bo'lsa yil yakuniga kelib 7,6 foizga tushgan.[19] Ushbu ko'rsatkichlar islom moliya xizmatining an'anaviy bank tizimiga nisbatan yuqori darajada foydalilik darajasiga egaligini tasdiqlamoqda.



## 2-rasm. Islom bank tizimining rentabellik ko'rsatkichlari (foizda)

**Manba:** *Islom moliyaviy xizmatlar kengashining 2023-yil uchun yillik hisoboti [3]*

Qozog'istonda islom moliyasini tatbiq qilishga doir amalga oshirilgan ishlar va joriy holati. Qozog'istonda islom bankini tashkil etishga doir amaliy ishlar 2009-yilda bank faoliyatiga doir qonunni islom bank tizimiga moslashtirish bilan boshlangan. Mazkur yildan keyingi yillarda islom moliyasini rivojlantirish yo'lida xalqaro hamda xorijiy mamlakatlardagi islom moliyasi tashkilotlari bilan hamkorlik yo'lga qo'yilib bir nechta islom moliyaviy tashkilotlari ochildi. Xususan, 2013-yilda Xususiy sektorni rivojlantirish bo'yicha Islom korporatsiyasi (XSRİK) Zamon-Bank aksiyalarini sotib olib, hamkorlikda Kazakhstan Ijara Company tashkilotiga asos solgan [20].

Qozog'istonda Ostona xalqaro moliyaviy markaziga asos solinishi islom moliyasining rivojlanishi uchun shart-sharoitlar yaratilishidagi muhim tadbirlardan biri bo'ldi. Mazkur markaz faoliyati natijasida mamlakatning moliya va bank sektorida faoliyat yurituvchi bir qancha xodimlar islom moliyasi bo'yicha Angliya, Bahrayn va Malayziyada malaka oshirishni boshladi. 2020-yilda esa Islom


banklarini tashkil qilish uchun ustav kapitalining eng kam miqdori 10,0 mln AQSh dollaridan 5,0 mln AQSh dollariga kamaytirilib, foyda va qo'shilgan qiymat solig'idan ozod qilindi [22].

Bugungi kunda Qozog'istonda Al Hilol islom banki, Zamon-Bank hamda Alif Islamic Banklar to'liq islom banki sifatida faoliyat yuritib kelayotgan bo'lsa, Halyk banki, ForteBank kabi an'anaviy tijorat banklari islom darchasi orqali islom bank xizmatlarini ko'rsatib kelmoqda.

Qozog'istonda Islom moliyasi va bank tizimiga doir bir qancha qonunchiliklar 2009-yilda qabul qilingan bo'lsada islom bank tizimi faoliyat yuritishi uchun yetarli bo'lmagan. Xususan, o'sha davrdagi amaldagi soliq kodeksida islomiy moliyalashtirishga doir bandlar nazarda tutilmaganligi islom bank xizmatini ko'rsatuvchi banklar uchun soliq yuki an'anaviy banklarga nisbatan yuqori bo'lishiga sabab bo'lgan. Bunda islom bank xizmatini ko'rsatuvchi banklarda kapital aktiv bilan harakatlanishi ushbu aktivlar uchun mol-mulk hamda qo'shimcha qiymat soliqlari yukini oshirgan, natijada ushbu banklar an'anaviy bank xizmatini ko'rsatuvchi tijorat banklari bilan teng raqobat imkoniyatiga ega bo'lmagan. 2023-yilga kelib soliq kodeksiga o'zgartirishlar kiritilgan. Davlat tomonidan islom moliyasini rivojlanishiga yaratilgan shart-sharoitlar natijasida 2023-yilning yakuni bo'yicha islomiy moliyalashtirish jami moliyalashtirishning 0,2% foizini tashkil etgan bo'lsa, 2025-yilning yakuniga qadar ushbu ko'rsatkichni 3-5 %ga yetkazish rejalashtirilgan [37].

Qirg'izistonda islom moliyasini tatbiq qilishga doir amalga oshirilgan ishlar va joriy holati. Qirg'izistonda islom moliyasini tadbiq qilishga doir ishlar 2006-yilda "EcoBank" ATB ning Islom taraqqiyot banki bilan birgalikda amalga oshirgan loyihasi bilan boshlangan. 2009-yil bank hamda sug'urta qonunchiligiga o'zgartirish kiritilgandan so'ng ushbu bank 2010-yilning oxiriga kelib an'anaviy depozitlar qabul qilish va kreditlar berishni to'xtatib, o'z faoliyatini islom banki faoliyatiga muvofiqlashtirgan. Shu bilan birga bank o'z nomini "EcoIslamicBank" ATBga o'zgartirgan [21].

2013-yilda mikromoliya va kredit uyushmalari qonunchiligiga hamda 2016-yilda soliq kodeksi, bojxona va fuqarolik kodekslariga kiritilgan tegishli o'zgartirishlar mamkalatda islom moliyasi faoliyatining qonuniy asoslarini to'la ta'minlab berdi [22].




**3-rasm. Jami moliyalashtirishda islom moliyasi ulushi (foizda)**

**Manba:** BMT Taraqqiyot Dasturining 2023 yildagi “Qirg‘izistonning moliyaviy taraqqiyotini baholash” hisoboti ma‘lumotlari [23].

Bugungi kunga kelib bitta bank to‘liq hamda to‘rtta bank moliyaviy darchalar ochish orqali islom bank xizmatlarini taqdim etmoqda. 2024-yilning 31-oktabr holatiga jami islomiy moliyalashtirish 27,9 foizga o‘shib, 89,5 mln AQSh dollarini (7,7 mlrd qirg‘iz somi) tashkil etdi [24].

Qirg‘izistonda islom bank mahsulotlaridan foydalanish an’anaviy bank xizmatlariga nisbatan yuqori o‘smoqda. Xususan, 2024-yilning yanvar-oktabr oylarida an’anaviy kreditlash hajmi 22,0 foizga o‘sgan bo‘lsa, islomiy moliyalashtirish hajmi 27,9 foizga o‘sgan [23].



**4-rasm: 2024-yilning 31-oktabr holatiga an'anaviy va islomiy moliyalashtirishning sohalar kesimida yillik o'sishi (foizda)**


**Manba:** Qirg‘iziston milliy bankining 2024-yil sentyabr oyi ma‘lumotlari asosida tayyorlandi.

O‘zbekistonda islom moliyasini tatbiq qilishga doir amalga oshirishgan tadbirlar va ularning joriy holati. O‘zbekiston Islom taraqqiyot banki bilan ilk memorandumni 2003-yilda imzolab, unga a‘zo bo‘lgan. Banklar tomonidan islom moliyaviy tashkilotlar liniyalari orqali xususiy sektorni moliyalashtirish 2006-yildan boshlangan. Mazkur davrda Ipak yo‘li bankiga Xususiy sektorni rivojlantirish bo‘yicha islom korporatsiyasi (XSRIK) tomonidan 2 mln. AQSh dollari miqdorida birinchi moliyalashtirish liniyasi ajratilgan bo‘lsa, 2010-yil 5 mln. AQSh dollari, 2017-yilda 14 mln. AQSh dollari hamda 2024-yilda 15 million AQSh dollari va 5 million yevro miqdorida moliyalashtirish liniyasi to‘g‘risidagi bitim imzolangan [28],[29]. Xususiy sektorni moliyalashtirish borasidagi xalqaro islom moliyasi tashkilotlari bilan bitimlar, asosan XSRIK bilan imzolangan. Jumladan, Trastbank ushbu tashkilot bilan 2024-yilga qadar qiymati 64 million AQSh dollari miqdoridagi 6 ta kelishuv imzolagan bo‘lsa, 2024-yil 26-noyabr kuni yana 30 mln. AQSh dollari miqdorida shartnoma imzoladi [26]. Shuningdek, Biznesni rivojlantirish banki tomonidan ham ushbu tashkilot bilan 21,0 mln. AQSh dollari miqdoridagi kelishuvlar imzolangan [31]. Shuningdek, joriy 2024-yilda yuqoridagi banklar bilan bir qatorda Ipoteka-bank va Asakabank 20 mln AQSh dollari [27] miqdorida shatnomalar imzoladi. Ushbu kredit liniyasi islom moliya tashkilotlaridan jalb qilingan bo‘lsada, amaldagi qonunchilik talablariga ko‘ra tijorat banklari ushbu mablag‘larni murobaha shartnomasi asosida mijozlarga taqdim eta olmagan hamda ko‘p hollarda tovar qiymatiga ustama o‘zgaruvchan svop asosida shakllantirilgan. Tijorat banklari ushbu turdagi kredit liniyalarida murobaha shartnomasidagi vakil sifatida ishtirok etib, bank marjasi tovar qiymatiga o‘z vakillik to‘lovi sifatida shakllantirilgan.

O‘zbekistonda islom moliyasini tatbiq qilishga doir ishlar 2019-yildan boshlangan. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 5-martdagi “Islom taraqqiyot banki guruhi va Arab muvofiqlashtirish guruhi jamg‘armalari bilan sheriklikni yanada kengaytirish va chuqurlashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori qabul qilingan bo‘lib, bank sektoriga islomiy moliyalashtirish infratuzilmasini rivojlantirish doirasida XSRIKning maslahat yordamini jalb qilish belgilangan. 2021-yilda esa O‘zbekistonda Islom banki va moliya sohasining huquqiy asoslarini ishlab chiqishni qo‘llab-quvvatlash uchun Islom taraqqiyot banki tomonidan 265,000


AQSH dollari miqdorida texnik yordam granti ajratilgan [24].

Hozirgi kunda O‘zbekistonda islom moliyasini tatbiq etishni takomillashtirishga doir qabul qilingan oxirgi qonunchilikdagi o‘zgarish 2024-yil 26-iyuldagi Markaziy bankning “Mikromoliya tashkilotlari tomonidan islomiy moliyalashtirishga oid xizmatlarni ko‘rsatish tartibi to‘g‘risida”gi nizomi bo‘lib, ushbu nizomda nobank kredit muassasalari tomonidan murobaha, islomiy ijara, mushoraka, muzoraba, salam shartnomalari asosida mijozlarga xizmat ko‘rsatilishiga ruxsat berilgan. Shu bilan birga bugungi kunda, banklar hamda nobank kredit tashkilotlari bilan bir qatorda “Iman Halal Investments Kommanditnoe Tovarishestvo” islomiy investitsion kompaniyasi mudoraba shartnomalar asosida investitsion mablag‘larni qabul qilish va islomiy moliyashtirish faoliyatini amalga oshirmoqda. Ushbu kompaniyaning 2023-yildagi daromadi 2022-yildagi yillik daromaddan 50,0 foizga ortiq bo‘lgan.[5]



**5-rasm: 2023-yil davomida IMAN invest kompaniyasining oylik sof foydasining investitsiyaga nisbati (foizda)**


**Manba:** “IMAN HALAL INVESTMENTS KOMMANDITNOE TOVARISHESTVO” kompaniya-sining 2023-yil yillik hisoboti [5]



**6-rasm. IMAN invest tomonidan 2023-yil davomida imzolangan muddatli to‘lov shartnomalari soni**

**Manba.** “IMAN HALAL INVESTMENTS KOMMANDITNOE TOVARISHESTVO” kompaniya-sining 2023-yil yillik hisoboti [5].

Ushbu ma’lumotlardan 2023-yilda mijozlar tomonidan kompaniya bilan imzolangan shartnomalar soni sezilarli darajada oshgan. Jumladan, oylik nasiya savdo hajmi sezilarli darajada oshgan bo‘lib dekabr oyi davomidagi savdolar hajmi yanvar oyidagiga nisbatan 2 barobarga oshgan.



**7-rasm: 2023-yilda tijorat banklari tomonidan ajratilgan iste‘mol krediti hajmi (mlrd so‘m)**

**Manba.** O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining 2023-yil uchun statistik byulleteni.

Keyingi yillarda islom moliyasini tatbiq qilishni takomillashtirishga doir bir qancha ishlar amalga oshirilgan bo‘lsada, islom moliyasi to‘g‘risida bank faoliyati bilan bog‘liq qonunchilikka hali o‘zgartirish kiritilmagan.

**Xulosa va takliflar**

Islom moliyalashtirish metodi moliyaviy mablag‘lar aktiv asosida harakatga keladigan,

bitimdagi bir tomonning foyda ko'rishini boshqa tomonning zarariga olib kelmaydigan, tavakkalchilikning taqsimlanishiga asoslangan moliyalashtirish usulidir. Shuningdek, bugungi kunda ushbu moliyalashtirish metodi jahonda ijobiy tendensiya ko'rsatayotgan bo'lishi bilan birga, bank tizimi an'anaviy moliyalashga asoslangan mamlakatlarda islom moliyasini tatbiq qilish bir qancha qiyinchiliklarga olib kelgan. Xususan, tadqiqotimiz davomida tahlil qilingan qo'shni Qozog'iston hamda Qirg'iziston mamlakatlarida ushbu tizimni joriy qilishga doir dastlabki harakatlar 2009-yilda boshlangan bo'lsada, bugungi kunga qadar yetarlicha takomillashmagan.

O'zbekistonda IMAN kompaniyasining islomiy moliyalash xizmatiga bo'lgan talab 2023-yilda o'sish dinamikasiga ega bo'lgan bo'lsa, tijorat banklari tomonidan jismoniy shaxslarga ajratilgan iste'mol krediti hajmida yilning 2-yarmidan pasayish kuzatilgan. Ushbu holat mamlakatda islomiy moliyalashga talab ortayotganini bildiradi. Lekin bugungi kunda mamlakat rezidentlari hamda tijorat banklari xodimlarining sohaga oid bilim darajasining yuqori emasligi ushbu soha bilan bog'liq qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi.

**Qo'shni mamlakatlar tajribasini o'rganish natijasida O'zbekistonda islom moliyasini tatbiq qilishni takomillashtirish yuzasidan quyidagi takliflarni beramiz:**

- Xalqaro islom moliyasi tashkilotlari hamda konsultantlar bilan birgalikda islom moliyasini joriy

qilish bo'yicha aniq tadbirlar ketma-ketligini o'z ichiga olgan strategiya ishlab chiqish;

- Bank tizimi sohasiga doir qonunchiliklar ("Banklar va bank faoliyati to'g'risida"gi, "Markaziy bank to'g'risida"gi v.b.) bilan bir qatorda soliq munosabatlariga hamda yuridik va jismoniy shaxslarning mulkiy munosabatlarini tartibga soluvchi qonunchiliklar: "Soliq kodeksi", "Fuqorolik kodeksi", "Sug'urta faoliyati to'g'risida"gi, "Qimmatli qog'ozlar to'g'risida"gi qonunlarga ham bir vaqtda Xalqaro islom moliyasi tashkilotlari yuristlari hamda texnik ko'magi yordamida tegishlicha o'zgartirish kiritish;

- Islom moliyasi sohasida yuqori malakali hodimlarni tayyorlash uchun bank ishi yo'nalishi mavjud bo'lgan davlat oliy ta'lim muassasalarida islom moliyasi bo'yicha alohida darslarni yo'lga qo'yish. Shuningdek, bank xodimlari uchun chuqurlashtirilgan kurslarni tashkil qilish uchun yetuk islom moliyasi mutaxassislari ishtirokida amaliy treninglar tashkil qilish hamda xalqaro islom moliyasi tashkilotlari bilan islomiy moliyalash bo'yicha hamkorlikda investitsion loyihalarni amalga oshirish;

- Aholining islom moliyasiga doir xabardorligini oshirish maqsadida islom moliyasi mahsulotlari to'g'risida qiziqarli hamda innovatsion usulda tayyorlangan qisqa ma'lumotlarni televideniya, Markaziy bank va tijorat banklari rasmiy sahifalarida hamda ijtimoiy tarmoqlarda keng namoyish etish;

- Markaziy bank va uning hududiy boshqarmalarida islom moliyasi bo'yicha alohida bo'linmalar tashkil qilish.

## Manba va adabiyotlar

1. *Analysis of Islamic Finance development in Kazakhstan: overview and prospects*, Rimma K. Sagiyeva, Laura A. Kuapova, *Экономика: стратегия и практика*, № 3 (14), 2019 z, 39-48.
2. *An Overview of Islamic Finance*, Mumtaz Hussain, Asghar Shahmoradi, and Rima Turk, June 2015
3. *Islamic Financial Services Industry (IFSI) Stability Report 2024*.
4. *Implementing Islamic Banking in Uzbekistan*, Shukhrat Umarov, Issam Tlemsani, Mohamed Ashmel Mohamed Hashim, Robin Matthews, *Journal of Islamic Business and Management* 2024, 14(01) <https://doi.org/10.26501/jibm/2024.1401-002>
5. *IMAN HALAL INVESTMENTS KOMMANDITNOE TOVARISHESTVO kompaniyasining 2023-yil yakunlari bo'yicha hisoboti*
6. *Improving the Use of Islamic Banking Services in Financing Investment Projects in Uzbekistan*, Xo'jamqulov D.Y, Zayniddinov R.X, Ergashev D.R, Mamatov M.A, O'ktamov X.F, *Revista Gestão Inovação e Tecnologias*-June 2021
7. *Innovation in Islamic Finance*, IsDB, March 2023.
8. *Islamic Finance in the States of Central Asia:Strategies, Institutions, First Experiences*, Alexander Wolters, *Forschungspapiere Research Papers* 2013/01
9. *Islamic Development Bank annual report 2023*
10. *Islomiy moliya asoslari*, Hasanov Husan, 2019
11. *Islom moliyasi: O'zbekiston uchun yangi imkoniyatlar*, Imamnazarov J. M, Abrorov S.Z, *Iqtisodiyot va ta'lim / 2021 yil, 4-son*.



12. *Islom moliya tizimiga ega mamlakatlarda islom moliyasining tahlili*, Shoxbozbek Adxamjonov, *International Journal of Finance and Digitalization* ISSN: 2181-3957, 04, 2024.
13. *Jahonda islom moliyasining rivojlanish tendensiyasi*, Eshimov Alisher, *Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil*, 2023-yil, noyabr, 65-71
14. *Kyrgyz Republic Development Finance Assessment (DFA)*, UNDP, 2023 [https://www.undp.org/sites/g/files/zskgke326/files/2023-07/kyrgyz\\_republic\\_dfa\\_fin\\_july\\_2023-1.pdf](https://www.undp.org/sites/g/files/zskgke326/files/2023-07/kyrgyz_republic_dfa_fin_july_2023-1.pdf)
15. *Landscaping analysis of islamic finance instruments in Uzbekistan*, Jakhongir Imamnazarov, UNDP, 2020, [https://www.undp.org/sites/g/files/zskgke326/files/migration/uz/ENG\\_Landscaping-IF-in-Uzbekistan\\_final.pdf](https://www.undp.org/sites/g/files/zskgke326/files/migration/uz/ENG_Landscaping-IF-in-Uzbekistan_final.pdf)
16. *Need for the systemic institutionalization of Islamic finance in Uzbekistan*, Namozov O, Fakhriiddinkhujaev Sh, Gulomova S, Ubaev R, September 25, 2023 [proreforms.uz](https://proreforms.uz).
17. *Opportunities across Micro, Small, and Medium Enterprises in the Kyrgyz Republic*, Financial Institutions Group, February, 2016
18. *Technical Note on the Astana International Financial Center and the Kazakhstan Financial System for the Kazakhstan FSAP*, IMF Country Report No. 24/313
19. *Yevropa markaziy bankinging 2024-yil may oyi uchun moliyaviy barqarorlik blyuteni*
20. *Analysis of Islamic Finance development in Kazakhstan: overview and prospects*: Rimma K. Sagiyeva, Laura A. Kuanova.
21. *Islamic finance in Central Asia and Russia*, Ruslan Nagayev, Rashed Jahangir
22. *Islamic Finance Country Report For Kazakhstan, September 2024, (45)*, [https://aifc.kz/wp-content/uploads/2024/09/ifcr-kazakhstan\\_2024\\_eng\\_print-1.pdf](https://aifc.kz/wp-content/uploads/2024/09/ifcr-kazakhstan_2024_eng_print-1.pdf)
23. *BMT Taraqqiyot Dasturining 2023 yildagi "Qirg'izistonning moliyaviy taraqqiyotini baholash" hisoboti*
24. <https://islamicmarkets.com/articles/isdb-signs-grant-agreement-to-assist-launch-of-islamic-financial>
25. <https://salaamgateway.com/story/islamic-finance-in-kazakhstan-progress-and-future-prospects>
26. <https://www.nbkr.kg/index1.jsp?item=80&lang=ENG>
27. <https://www.islamicfinancenews.com/kyrgyzstan-set-to-be-regional-center-for-islamic-economics-and-finance-in-central-asia.html>
28. [https://www.ipotekabank.uz/uz/news/news030524?sphrase\\_id=312113](https://www.ipotekabank.uz/uz/news/news030524?sphrase_id=312113)
29. [https://trustbank.uz/uz/press\\_center/news/trastbank-va-xususiy-sektorni-rivojlantirish-bo-yicha-islom-korporatsiya-si-o-rtasida-bitim-imzolandi/](https://trustbank.uz/uz/press_center/news/trastbank-va-xususiy-sektorni-rivojlantirish-bo-yicha-islom-korporatsiya-si-o-rtasida-bitim-imzolandi/)
30. <https://www.devdiscourse.com/article/business/2925760-itfc-holds-meeting-on-enhancing-trade-economic-cooperation-with-member-countries>
31. <https://ipakyulibank.uz/bank-haqida/malumot/bankning-rivojlanish-tarixi>
32. <https://ipakyulibank.uz/news/2023-05-22-ipak-yoli-banki-xsrik-bilan-yangi-shartnoma-orqali-kichik-va-orta-biznes-ni-islomiy-moliya-bilan-taminlaydi-p779>
33. [https://trustbank.uz/uz/press\\_center/news/trastbank-va-xususiy-sektorni-rivojlantirish-bo-yicha-islom-korporatsiya-si-o-rtasida-bitim-imzolandi/](https://trustbank.uz/uz/press_center/news/trastbank-va-xususiy-sektorni-rivojlantirish-bo-yicha-islom-korporatsiya-si-o-rtasida-bitim-imzolandi/)
34. <https://t.me/QQBANK/135>
35. <https://icd-ps.org/en/search>
36. <https://www.isdb.org/uzbekistan>
37. <https://www.elibrary.imf.org/view/journals/002/2024/313/article-A001-en.xml>

**Korporativ boshqaruv, sanoat, agrar va hududiy iqtisodiyot /  
Корпоративное управление, промышленность, аграрная и региональная экономика /  
Corporate governance, industry, agriculture and regional economy**

УЎК: 658.75.(575.1)

**Миlena ЗАГРЕБЕЛЬСКАЯ,**

*PhD, доцент, Филиал Российского государственного  
университета нефти и газа им. И.М.Губкина в Ташкенте,  
E-mail: Milena5533@mail.ru*

**ПРЕДИКТИВНОЕ ПЛАНИРОВАНИЕ В НЕФТЕГАЗОВОЙ ОТРАСЛИ:  
ТЕНДЕНЦИИ И БАРЬЕРЫ**

**Аннотация:** современные технологии позволяют разработать новую концепцию планирования цепи поставок, которая может практически полностью автоматизировать процесс планирования. В статье предложено понятие предиктивного планирования как новейшего этапа планирования цепи поставок. Предложены основные инструменты предиктивного планирования, которые обеспечат синергетический эффект в повышении точности прогноза спроса и снижении погрешности прогнозирования, а также рассмотрены основные барьеры по эффективному их внедрению.

**Ключевые слова:** цепочка поставок, планирование, предиктивное планирование, Искусственный интеллект, Big data, Интернет вещей, блокчейн, Облачные вычисления.

**Neft va gaz sanoatida prediktiv rejalashtirish:  
tendensiyalar va to'siqlar**

**Milena Zagrebelskaya,**

*PhD, dotsent, I.M.Gubkin nomidagi Rossiya davlat  
neft va gaz universitetining Toshkentdagi filiali*

**Annotatsiya:** zamonaviy texnologiyalar jara-yonini deyarli to'liq avtomatlashtirishi mumkin bo'lgan ta'minot zanjirini rejalashtirishning yangi konsepsiyasini ishlab chiqish imkonini beradi. Maqolada ta'minot zanjirini rejalashtirishning eng yangi bosqichi sifatida prognozli rejalashtirish konsepsiyasi taklif etiladi. Prognozli rejalashtirishning asosiy vositalari ular talab prognozlarining aniqligini oshirish va prognoz xatolarini kamaytirishda sinergik

*ta'sir ko'rsatadi, shuningdek ularni samarali amalga oshirishdagi asosiy to'siqlarni ko'rib chiqadi.*

**Kalit so'zlar:** ta'minot zanjiri, rejalashtirish, prognozli rejalashtirish, sun'iy intellekt, katta ma'lumotlar, narsalar interneti, blokcheyn, bulutli hisoblash.

**Predictive Planning in the Oil and Gas Industry:  
Trends and Barriers**

**Milena Zagrebelskaya,**

*PhD, Associate Professor, Branch of the  
Russian State University of Oil and Gas named after  
I.M. Gubkin in Tashkent*

**Abstract:** modern technologies allow developing a new concept of supply chain planning, which can almost completely automate the planning process. The article proposes the concept of predictive planning as the latest stage of supply chain planning. The main tools of predictive planning are proposed, which will provide a synergistic effect in increasing the accuracy of demand forecasting and reducing forecasting errors, and the main barriers to their effective implementation are considered.

**Keywords:** supply chain, planning, predictive planning, Artificial Intelligence, Big data, Internet of Things, blockchain, Cloud computing.

**Введение**

В современной эпохе технологического развития, с появлением инновационных цифровых решений, таких как Искусственный интеллект (Artificial

Intelligence), Blockchain, Интернет вещей (Internet of Things), Облачный сервис (Cloud Services), цифровые двойники (Digital Twins), Дополненная и виртуальная реальность (Augmented/Virtual Reality), стало возможным реализовывать процесс планирования на основе использования анализа большого массива данных, алгоритмов Машинного обучения (Machine Learning) и прогнозирования. Новые технологии позволяют значительно повысить точность прогноза спроса, снижая погрешность прогнозирования на 30–50% [1].

Под предиктивным планированием следует понимать непрерывный процесс планирования, основанный на полностью автоматизированной платформе, позволяющей использовать расширенную аналитику на каждом этапе процесса планирования цепочки поставок с возможностью оптимизации бизнес-процессов в режиме реального времени. Предиктивное планирование позволяет минимизировать «человеческий фактор» при принятии решений.

Данные из различных источников собираются, обрабатываются и анализируются для прогнозирования будущих потребностей и оптимизации ресурсов. Предиктивное планирование позволяет принимать более точные и обоснованные решения на основе данных и прогнозов, а также дигитализировать цепочку поставок с помощью автоматизации, Интернета вещей и других инновационных технологий.

### Литературный обзор

Современные технологии Индустрии 4.0. являются технологиями цифрового будущего [11]. Наиболее перспективными технологиями Индустрии 4.0 считаются технологии блокчейн, Интернет вещей, Искусственный интеллект, Облачные вычисления, Big Data [12]. Многие компании переходят от удаленного мониторинга к контролю, оптимизации и, наконец, к передовым автономным системам на базе Искусственного интеллекта для улучшения их деятельности в области планирования и исполнения в цепи поставок [13]. Управление цепочкой поставок является одной из областей, которая с наибольшей вероятностью принесет большую выгоду от использования Искусственного интеллекта [14]. Глубокая интеграция информатизации и индустриализация – это современная необходимость для снижения издержек и повышения качества и эффективности работы предприятия. Искусственный интеллект дает возможность прогнозирования,

предупреждения, эффективного анализа данных и оптимизации процессов с помощью таких технологий как Интернет вещей, Облачные вычисления, Big Data, блокчейн [15]. Интернет вещей собирает различные данные о звуковых сигналах, наличии источника света, температуры, положения в пространства через различные устройства (RFID метки) и датчики по проводной и беспроводной связи на ближнем и дальнем расстоянии [17]. Big Data – это сбор данных, которые традиционные информационные технологии и программное обеспечение и оборудование не может собирать, хранить, анализировать в необходимый период времени [18]. В отличие от традиционной концепции обработки данных, Big Data характеризуются большим объемом, высокой скоростью, разнообразием обработки, а также низкими затратами во внедрение [19]. Блокчейн – это многофункциональная и многоуровневая информационная технология, предназначенная для надежного учета различных активов [20], без возможности искажения сохраненных блоков данных. Облачные вычисления полагаются на мощные серверы и крупномасштабные центры обработки данных для запуска сетевых приложений и сетевых сервисов. Пользователям нужен только подходящее устройство доступа в Интернет (компьютер, мобильный телефон и т. д.) и стандартный браузер [21]. Облачные вычисления, Big Data и Искусственный интеллект – это основные технологии для реализации Интернета вещей, а блокчейн может восполнить недостатки Интернета вещей в области безопасности [16].


### Основная часть

Появление новых источников информации с одной стороны усложняет процесс планирования, с другой стороны, увеличивает потенциал обработки больших массивов данных для преобразования деятельности нефтегазовых компаний. Новые технологии и инструменты, такие как Искусственный интеллект, Интернет вещей, Блокчейн, Big Data, Облачные вычисления позволяют компаниям использовать данные для быстрого анализа и динамической визуализации, что дает более полное представление о вопросах бизнеса. Эти пять технологий дополняют друг друга, восполняют недостатки и играют значительную роль в экономии рабочей силы и материальных ресурсов, а также повышают эффективность планирования [2]. Инструменты предиктивного планирования преобразуют статический

анализ и объемные массивы данных в динамические визуальные элементы (рисунок 1).

Блокчейн и Интернет вещей (IoT) могут играть важную роль в процессе сбора информации для предиктивного планирования. Вместе они обеспечивают безопасное хранение данных и непрерывный поток информации, что способствует более точным и актуальным прогнозам и анализу. Прогнозируется, что стоимость блокчейна превысит 176 миллиардов к 2025 году и 1,3 триллиона долларов США к 2030 году [3].

При использовании блокчейна и Интернета вещей в предиктивном планировании, данные могут быть собраны из различных источников, включая производственные линии, логистические системы и сенсоры Интернета вещей, а затем переданы в блокчейн для хранения и дальнейшего анализа. Блокчейн обеспечивает целостность и надежность данных, а Интернет вещей обеспечивает актуальность и оперативность информации [8].



**Рисунок 1. Инструменты предиктивного планирования**

**Источник:** составлено автором.

Облачные вычисления (Cloud Computing), с одной стороны, дают Интернету вещей необходимые мощные возможности обработки и хранения для управления различными динамическими узлами, что снижает сложность управления терминалами в Интернете вещей и отвечает растущим потребностям производства [9]. С другой стороны, Интернет вещей предоставляет достаточно места для приложений облачных вычислений.

Для работы с Big Data используются специализированные методы и инструменты, которые позволяют обрабатывать, анализировать и извлекать ценные знания из больших объемов данных. Такие технологии включают в себя распределенные базы данных, облачные вычисления и масштабируемые алгоритмы анализа данных.

Искусственный интеллект во взаимосвязи с Интернетом вещей выступает в качестве инструмента научного принятия решений, интеллектуального управления и контроля. Процесс сбора данных сенсорами Интернета вещей требует поддержки алгоритмов, которые разрабатываются техническими специалистами с использованием технологий искусственного интеллекта. Искусственный интеллект также формулирует соответствующие планы путем обработки, анализа, глубокого обучения и, наконец, реализации с помощью устройств Интернета вещей.

С помощью алгоритмов искусственного интеллекта разработчики внедрили ряд практических прикладных технологий в разведке и разработке месторождений. В разведке использование нейронных сетей уже продемонстрировало хорошие результаты в виде снижения рисков геологоразведки и увеличения скорости бурения разведочных скважин [4]. В бурении автоматическая буровая установка и интеллектуальная буровая труба облегчили процесс бурения и значительно уменьшили его стоимость [5]. Искусственный интеллект способствует снижению стоимости добычи нефти, увеличивает средний объем добычи, оптимизации управления предприятием, а также экономическому и социальному развитию предприятия [6] (таблица 1).

**В разведке использование нейронных сетей уже продемонстрировало хорошие результаты в виде снижения рисков геологоразведки и увеличения скорости бурения разведочных скважин.**

Таблица 1

**Положительный эффект от использования инструментов предиктивного планирования на предприятиях нефтегазового комплекса [10,11,12,13]**

Компания	Эффект
<b>Aker BP – Cognitive</b>	- сокращение затрат на \$6 млн. за счет оптимизации производственного процесса и уменьшения воздействия на окружающую среду; - эффективное предотвращение загрязнения водных ресурсов за счет использования машинного обучения.
<b>Petrobus</b>	- выручка достигла \$100 млн. за счет оптимизационных проектов производства; - на нефтеперерабатывающих заводах внедрены технологии Искусственного интеллекта; - используются Облачные технологии.
<b>Shell – Microsoft – C3.ai</b>	- снижение затрат на техническое обслуживание в размере \$2 млн. на нефтеперерабатывающем заводе Пернис; - использование Искусственного интеллекта в масштабах всего предприятия; - использование алгоритмов машинного обучения для прогнозирования и предупреждения неисправности оборудования.
<b>Aramco</b>	- сокращение факельных выбросов на 50 % благодаря использованию Big Data; - использование сверточных нейронных сетей для контроля и анализа параметров пламени; - использование 18 000 источников данных для мониторинга и прогнозирования возможного возгорания.

Зарубежные иностранные компании BP, Shell, Saudi Aramco и «Газпром нефть» активно инвестируют в исследовательскую деятельность по внедрению инструментов предиктивного планирования. **Однако, следует отметить, что существует ряд препятствий по-быстрому и массовому использованию этих инструментов и это не специфическая проблема нефтегазовой отрасли, а обычное явление на данном этапе развития инструментов:**

**1. Кадры.** Успех искусственного интеллекта критически зависит от человеческого капитала. К примеру, решения Искусственного интеллекта должны быть адаптированы к бизнес-контексту и данным, которыми располагает компания [14]. Поиск и удержание талантов в области Искусственного интеллекта – очень сложная задача. Существует значительная нехватка специалистов на рынке труда [15].

**2. Качественные исходные данные.** Эффективное использование инструментов предиктивного планирования зависит от наличия точных и своевременных данных в достаточном объеме. Никакие манипуляции с неточными или ограниченными данными не помогут при использовании алгоритмов машинного обучения. Нефтяные и газовые месторождения генерируют большие объемы данных, связанных с добычей сырья. Тем не менее, это не гарантия успеха, поскольку существуют известные проблемы с качеством и точностью полевых данных [16].

**3. Открытие данных.** Искусственный интеллект появился в открытой среде сотрудничества и

является результатом научной деятельности академических кругов практически без какого-либо делового влияния. Это создало культуру бесплатного обмена и открытия данных, поэтому компаниям различных отраслей необходимо принять этот факт в качестве стандарта для достижения успеха.

В то время как открытые инновации становятся стандартом в технологическом секторе, нефтегазовые компании не славятся своими совместными отраслевыми проектами, реализуемыми между конкурентами и особенно в таких стратегических областях, как Искусственный интеллект. Несмотря на то, что многие компании заявляют об открытии в публичный доступ некоторых своих данных и заявляют о необходимости межфирменного и трансграничного обмена данными, реальность сейчас довольно пессимистична.[17]

#### **Выводы**

В результате внедрения предиктивного планирования и связанной с ним модели цепочки поставок, предприятие сможет получить ряд значительных преимуществ. Во-первых, повышенный уровень автоматизации и использование предиктивного анализа позволяют сократить время планирования и принятия решений, что в свою очередь повышает гибкость и реакционность цепочки поставок [18]. Во-вторых, более точное прогнозирование спроса и динамики рынка позволяет оптимизировать объемы запасов и сократить затраты на хранение. Кроме того, предиктивное планирование поможет улучшить обслуживание клиентов и повысить их

удовлетворенность, благодаря более точному планированию спроса и предложения.

Предиктивное планирование в нефтегазовой отрасли Узбекистана обладает значительным потенциалом для повышения эффективности и устойчивости производства. Использование современных методов прогнозирования и аналитики данных может способствовать улучшению качества планирования, оптимизации затрат и повышению производственной безопасности. Применение технологий Искусственного интеллекта и Машинного обучения позволит предсказывать возможные сбои и корректировать стратегии управления в реальном времени.

Основными барьерами для внедрения предиктивного планирования в нефтегазовой отрасли Узбекистана являются недостаточная зрелость цифровой инфраструктуры, нехватка квалифицированных специалистов и высокие начальные затраты на внедрение технологий. Важным препятствием является также недостаточное взаимодействие между различными уровнями управления и отсутствие

унифицированных стандартов для обработки и анализа данных.

Для эффективного внедрения предиктивного планирования в отрасли необходимо сосредоточиться на обучении специалистов, улучшении взаимодействия между государственными и частными структурами, а также на создании эффективной нормативно-правовой базы. Ожидается, что в случае успешного преодоления этих барьеров Узбекистан сможет значительно повысить продуктивность нефтегазовой отрасли и обеспечить более устойчивое развитие в долгосрочной перспективе.

2. Кимё саноати таркибидаги маҳаллийлаштириш даражаси юқори ва паст бўлган ишлаб чиқарувчилар орасида кооперация алоқаларини кенг йўлга қўйиш бўйича асосланган таклифлар ишлаб чиқиш;

3. Тармоқ корхоналарининг халқаро ярмарка ва кўرғазмаларда иштирокини кўпайтириш, янги бозорларга чиқиш, Экспортни қўллаб-қувватлаш агентлиги ёрдамида логистика харажатларини қоплаш, импорт қилинадиган хом ашё маҳсулотларига марказлаштирилган логистикани йўлга қўйиш, маҳсулотлар етказиб берувчилар билан нархларни камайтириш бўйича қўшимча ишлар олиб бориш;

4. Корхоналарда замонавий бошқарув тизимларини ташкил этиш, ишлаб чиқариш тузилмаларини такомиллаштириш.

**Узоқ муддатли истиқболда амалга оширилиши таклиф этиладиган чора-тадбирлар:**

1. Технологик эскирган технологиялар ва ишлаб чиқариш комплексларини модернизация қилиш, энергия ва ресурс тежамкор технологияларга инвестиция қилиш;

2. “Ўзкимёсаноат” АЖ томонидан тармоқ корхоналари ишлаб чиқариш қувватларини танқидий кўриб чиқиш, энергия сарфи юқори бўлган асбоб-ускуна ва жиҳозларни тармоқдан узиш ёки модернизация қилиш юзасидан аниқ ва манзилли чора-тадбирлар режасини ишлаб чиқиш;

3. Импорт ўрнини босувчи кимё саноати маҳсулотлари (минерал ўғитлардан ташқари) ишлаб чиқариш қувватларини яратиш ва экспортга йўналтиришни рағбатлантириш мақсадида имтиёз ва преференциялардан фойдаланиш;

4. Маҳаллий ишлаб чиқарувчиларни қўллаб-қувватлаш ҳамда валюта маблағлари четга чиқиб кетишининг олдини олиш мақсадида, ПВХ маҳсулотини юқори ликвидли ва монопол маҳсулотлар рўйхатидан чиқариб, ички истеъмолчиларга тўғридан-тўғри шартномалар асосида сотишни йўлга қўйиш.

### Манба ва адабиётлар

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2023 йил 11 сентябрдаги ““Ўзбекистон–2030” стратегияси тўғрисида”ги ПФ-158-сонли Фармони, <https://www.lex.uz/uz/docs/6600413>
2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2024 йил 7 августдаги “Саноат соҳасида нуфузли халқаро брендлар билан ҳамкорликни ривожлантириш ва миллий брендларни қўллаб-қувватлаш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПҚ-286-сонли қарори, <https://www.lex.uz/uz/docs/7059241>
3. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2023 йил 27 июлдаги ““Фаргонаазот” акциядорлик жамиятида мавжуд қувватлардан самарали фойдаланиш ҳамда ички ва ташқи бозорда талаб юқори бўлган маҳсулотлар ишлаб чиқаришни таъминлаш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПҚ-242-сонли қарори, <https://www.lex.uz/uz/docs/6555068>
4. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 28 декабрдаги “Ўзбекистон Республикасининг 2023 – 2025 йилларга мўлжалланган инвестиция дастурини амалга ошириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПҚ-459-сонли қарори, <https://www.lex.uz/uz/docs/6329448>
5. Отчет международной сети ” Deloitte”: процесс внедрения цифровых технологий в химической промышленности характеризуется медленными темпами, 2017г. <https://www2.deloitte.com/kz/ru/pages/about-deloitte/press-releases/2017/chemical-report.html>
6. Перспективы инновационного развития предприятий химической промышленности, Е. А Кондрашова, 2020г. <https://cyberleninka.ru/article/n/perspektivy-innovatsionnogo-razvitiya-predpriyatiy-himicheskoy-promyshlennosti-1>
7. Влияние инновационных технологий на развитие химической промышленности и производство, Ниязбердиева М, Международный научный журнал «Всемирный ученик» Выпуск № 20, Том 1
8. Кимё саноати корхоналари иқтисодий барқарорлигини таъминлашининг илгор хорижий давлатлар тажрибасидан фойдаланиш йўллари, Иқтисодиёт ва таълим журнали, 2022 йил 6 сон, <https://cedr.tsue.uz/index.php/journal/article/view/878>
9. Ўзбекистон Республикаси иқтисодиётида кимё саноатининг тутган ўрни, аҳамияти, муаммолари ва товар моддий захираларини ҳисобга олишни такомиллаштириш масалалари, Ачилов Аброр Ниятқобилович, Иқтисод ва молия журнали, 2018 йил 4-сон, <http://uzscite.uz/wp-content/uploads/2022/03/25-30.pdf>
10. Иқтисодий фаолият турлари бўйича саноат маҳсулотлари ишлаб чиқариш ҳажми, [https://api.siat.stat.uz/media/uploads/sdmx/sdmx\\_data\\_590.xlsx](https://api.siat.stat.uz/media/uploads/sdmx/sdmx_data_590.xlsx)
11. “Ўзкимёсаноат” АЖ томонидан 2023 йилда амалга оширилган ишлар тўғрисида ҳисобот, <https://uzkimyosanoat.uz/uz/corporate/disclosure/indicators/report-2023>
12. Международная выставка «ХИМИЯ», 2024 год <https://www.chemistry-expo.ru/ru/exhibition/about/>

УЎК: 696.7.(575.1)

**Mirxamid TURAEV,**  
*Makroiqtisodiy va hududiy tadqiqotlar  
instituti bosh mutaxassisi,*  
**E-mail:** mturaev53@mail.ru

## O‘ZBEKISTON QURILISH MAJMUASIDA ENERGIYA TEJASHNI YANADA RIVOJLANTIRISHNING ASOSIY VEKTORLARI

**Annotatsiya:** narxlarning ko‘tarilishi va energiya resurslarining etishmasligi mamlakat iqtisodiyotida, shu jumladan qurilish majmuasida energiya tejash zarurligiga olib keldi. Mavjud muammolar o‘rganildi, ularning yechimi yoqilg‘i-energetika sanoatini diversifikatsiya qilish va jadal rivojlantirish, yangi quvvatlarni joriy etish, jumladan, qayta tiklanadigan energiya manbalaridan foydalanishni kengaytirish bilan bog‘liqligi ko‘rsatildi. Binolarni qurish, ta‘mirlash va ishlatishda, shuningdek bino va inshootlarni izolyatsiyalashda "yashil" texnologiyalarni qo‘llash zarurati ko‘rib chiqildi.

**Kalit so‘zlar:** energiya tejash, qurilish majmuasi, qayta tiklanadigan energiya.

### Основные векторы дальнейшего развития энергосбережения в строительном комплексе Узбекистана

**Мирхамид Тураев,**

*Главный специалист Института  
макроэкономических и региональных исследований*

**Аннотация:** рост стоимости и нехватка энергетических ресурсов ведет к необходимости энергосбережения в экономике страны, в том числе в строительном комплексе. Исследованы существующие проблемы, их решения за счет диверсификации и ускоренного развития топливно-энергетической отрасли с вводом новых мощностей, в том числе расширения использования возобновляемых источников энергии. Рассмотрены необходимости мер по применению «зеленых» технологий при строительстве, реновации и эксплуатации зданий, а также утеплении зданий и сооружений.

**Ключевые слова:** энергосбережение, строительный комплекс, возобновляемая энергия.

**The main vectors of further development of energy saving in the construction complex of Uzbekistan**

**Mirkhamid Turaev,**

*Institute of Macroeconomic and Regional Studies  
Chief Researcher*

**Abstract:** the rise in the cost and shortage of energy resources leads to the need for energy saving in the country's economy, including in the construction industry. The existing problems are investigated, their solution is due to the diversification and accelerated development of the fuel and energy sector with the introduction of new capacities, including the expansion of the use of renewable energy sources. Measures are being taken to apply "green" technologies in the construction, renovation and operation of buildings, as well as insulation of buildings and structures.

**Keywords:** energy saving, construction complex, renewable energy.

### Kirish

Qurilish O‘zbekiston iqtisodiyotida muhim o‘rin egallab, uzoq davr mobaynida izchil yuqori o‘shish sur‘atlarini namoyish etmoqda. Shu bilan birga, turli bino va inshootlarni qurish, rekonstruksiya qilish yoki kapital ta‘mirlashda innovatsion tamoyillar tizimidan foydalangan holda qurilish sohasida ekologik "yashil" texnologiyalar faol joriy etilmoqda.

**Ma‘lumot uchun:** yashil qurilish, yashil binolar (inglizcha Green construction, Green Buildings) bino va inshootlarni qurish va ulardan foydalanish amaliyoti bo‘lib, uning maqsadi energiya va moddiy resurslar sarfini kamaytirishdir [1].

Iqtisodiyotni dekarbonizatsiya qilish vazifalarini amalga oshirish sharoitida qurilish majmuasida energiya tejaydigan texnologiyalardan foydalanish masalalari

tobora dolzarb bo'lib bormoqda. Iqlim muammolari va issiqxona gazlari chiqindilari manbalarini tahlil qilish bo'yicha bir qator xorijiy tadqiqotlar natijalari shuni ko'rsatadiki, binolar va qurilish sektori ulkan resurslarni tejash salohiyatini saqlab, global iqlim o'zgarishining ta'sirini kamaytirishga katta hissa qo'shmoqda.

### Mavzuga oid adabiyotlar sharhi

Ilmiy adabiyotlardagi tadqiqotlarda qo'yilgan muammoning yechimini topishda turli xil formulalar qo'llaniladi. M.Shoyxet Yevropa Parlamenti va Yevropa Ittifoqi Kengashi tomonidan qabul qilingan "Energy Performance of Building" 2002/91/EC sonli Direktiva (EPBD) orqali amalga oshirilayotgan energiya tejash siyosatini ochib berdi. Ushbu direktiva bilan binolardagi energiya tejamkorligi bo'yicha talablar sezilarli darajada kuchaytirildi. Barcha yangi va rekonstruksiya qilinadigan yirik binolar uchun yagona bino samaradorligini hisoblash metodikasi, minimal energiya iste'mol me'yorlari, bino sertifikatlash tizimlari kabi talablar belgilab berildi [2].

I.Matveyev Yaponiya tajribasini yoritib berar ekan, mamlakat hukumati "Energiya va tabiiy resurslar bo'yicha maslahat qo'mitasi" ("Advisory Committee on Energy and Natural Resources") ning tavsiyalariga muvofiq, 2030-yilga borib 2004-yilga nisbatan iqtisodiyotning energiya samaradorligini 30–40% ga oshirish maqsadida choralar ko'rayotganini ta'kidlaydi. Texnik qayta jihozlash va issiqlik izolyatsiyasi bo'yicha chora-tadbirlar "Building Energy Management Systems" va "Home Energy Management Systems" dasturlari asosida amalga oshiriladi [3].

M.Onishchenko, N. Borisova va A. Borisovlar "Energetik resurslardan samarali foydalanish jamiyatimizning eng muhim muammolaridan biriga aylanganini, eng faol energiya iste'mol qiluvchilardan biri qurilish majmuasi hisoblanishini va energiya iste'molini kamaytirishning samarali usuli qurilishda energiya tejaydigan texnologiyalarni qo'llash ekanligini" ta'kidlaydilar [4].

E.Popov va hammualliflar o'zlarining tadqiqotida "Samaradorlikni oshirish maqsadida qurilish sohasida energiya tejaydigan texnologiyalardan foydalanish asosan kompleks xarakterga ega bo'lishi kerak", degan fikrni bildiradilar [5].

### Metodologiya

O'tkazilgan tadqiqotning metodologik asosini tegishli tarmoqlar va hududlarni rivojlantirishning energiya va resurs tejash darajalarini oshirish hamda qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanishni


kengaytirishni nazarda tutuvchi normativ-huquqiy hujjatlar, konsepsiyalar va dasturlar tashkil etadi. Tadqiqotda mavjud statistik ma'lumotlar va tarmoq hisobotlaridan foydalanildi.

Bino va inshootlarni qurish va ekspluatatsiya qilishda energiya tejash masalalariga bag'ishlangan tegishli ilmiy ishlar, davriy nashrlarning axborot-tahliliy materiallari o'rganildi. Ma'lumotlarni to'plash, umumlashtirish va qayta ishlash, ekspert baholash va taqqoslash tahlili, shuningdek, ko'rib chiqilayotgan faoliyat sohasi rivojlanishining dinamikasini o'rganish va taqqoslash, kelajakdagi rivojlanish istiqbollari ta'sir ko'rsatuvchi omil va tendensiyalarni aniqlash hamda taqdim etishda zamonaviy usullar va kuzatuvlar qo'llanildi.

### Tahlil va natijalar

Dunyo bo'ylab bino va inshootlar iste'mol qilinadigan barcha birlamchi energiyaning taxminan 30–40 foizidan, elektr energiyasining 55 foizidan [6], turli xil xomashyoning 40 foizidan [7] va ichimlik suvning 15 foizidan foydalanadi. Shu bilan birga, barcha karbonat angidrid chiqindilarining 37 foizini va qattiq maishiy chiqindilarning yarmini hosil qiladi [8].

Evropa mamlakatlarining energiya samaradorligi bo'yicha xalqaro tadqiqotlarda keltirilgan ma'lumotlarga ko'ra, 1970-yillarga qadar qurilgan binolarni isitish uchun yiliga taxminan 300–400 kvt/m<sup>2</sup> talab qilinadi. So'nggi o'n yillikda esa Yevropada yiliga 100 kvt/m<sup>2</sup> dan oshmaydigan minimal energiya balansiga ega binolar faol ravishda qurilmoqda (1- rasm) [9].



### 1-rasm. Zamonaviy va energiya tejamkor texnologiyalarni joriy etishning ijobiy natijalari

**Manba:** [https://bpie.eu/wp-content/uploads/2015/10/HR\\_EU\\_B\\_under\\_microscope\\_study.pdf](https://bpie.eu/wp-content/uploads/2015/10/HR_EU_B_under_microscope_study.pdf)

Ushbu ijobiy natijalarga "yashil" bino va inshootlarni qurish va ulardan foydalanish, shu jumladan quyosh panellaridan, yuqori sifatli issiqlik izolyatsiyasi, energiya tejaydigan shamollatish tizimlarini joriy etish, shuningdek, issiqxona gazlari chiqindilarini kamaytirishga qaratilgan boshqa usullar bilan kompleks sa'y-harakatlar natijasida erishildi.

"Yashil" binolarning aksariyatini qurish odatdagidan ko'ra 4-10 foiz oralig'ida qimmatroq. Biroq, amaliyot shuni ko'rsatadiki, an'anaviy inshootlarga nisbatan "yashil" binolarning ishlatilishi odatdagi iqtisodiy jihatdan foydaliroqdir [10].

"Yashil" binolarda dastlabki 3-5 yil ichida qo'shimcha qurilish xarajatlari operatsion xarajatlarning kamayishi orqali qoplanishi mumkin:

- energiya iste'moli 25-50 foizga kamayadi;
- suv iste'moli 10-40 foizga kamayadi;

- barcha tizimlar zamonaviy boshqaruvining samarali va yuqori sifati, boshqarishni optimallashtirish hisobiga binolarni ta'mirlash xarajatlari kamayadi [11].


Xorijiy tadqiqotchilar va mutaxassislarning tahlili shuni ko'rsatadiki, agar inshootlar va muhandislik qurilmalarining izolyatsiyasi standartlarga mos kelmasa, energiya yo'qotilishi 20 dan 45 foizgacha bo'lishi mumkin. Yuqori sifatli izolyatsiya loyihalari binolarning issiqlik va elektr ta'minoti uchun energiyani odatdagi ko'rsatkichlarga nisbatan 25-30 foizgacha tejash imkoniyati mavjudligini ko'rsatdi [12].

O'zbekistonda ekologik toza, o'tga chidamli va energiya tejovchi bazalt tolalari asosida tayyorlangan plitalari bilan qoplanadigan 30 mingga yaqin ko'p qavatli uylar renovatsiya qilinmoqda. Bazalt plitalari bilan qoplangan uylarda o'rtacha 30-35 foizgacha energosamaradorlikka erishish mumkin.

Eng katta miqdorda energiya tejovchi ta'sirga ega bo'lgan qurilishining asosiy tendensiyasi quyosh panellari va boshqa muqobil energiya manbalaridan foydalanish bo'lib, barqaror energiya tejaydigan binolarni yaratishga imkon beradi va an'anaviy energiya manbalariga bog'liqlik darajasini kamaytiradi.

Mamlakatimizda bino va inshootlar energiya sarfi yiliga 24,1 mln tonna neft ekvivalentiga teng bo'lib, umumiy energiya sarfining deyarli yarmini tashkil etadi [13].

Birlashgan Millatlar Tashkilotining Taraqqiyot dasturi hisobotiga ko'ra, O'zbekistonda yakuniy energiya iste'molining qariyb 50 foizi qurilish va u bilan bog'langan sektorlarda ishlatiladi (2- rasm) [14].



**2-rasm. Sohalarning umumiy energiya sarfidagi ulushi**

**Manba:** CPO-Э-150 CPO НП «Межрегиональный Альянс Энергоаудиторов»

Shu bilan birga, respublikamizdagi bino va inshootlarda energiya iste'moli rivojlangan mamlakatlardagi tegishli ko'rsatkichlardan 2-2,5 baravar yuqori [15].

Binolarning energiya samaradorligini oshirish maqsadida O'zbekistonda zamonaviy "yashil" qurilish texnologiyalarini joriy etish bo'yicha bir qator ishlar amalga oshirilmoqda. Barcha uy-joy qurilishi ob'ektlari loyihalarida qurilish-montaj ishlari jarayonida energiya tejovchi uskunalar bilan jihozlangan bo'lishi belgilangan. Shu bilan birga, dizayn va qurilish yechimlarini optimallashtirish bilan raqamli resurs va energiya tejaydigan BIM-texnologiyalari (Building Information Modeling) qo'llaniladi. [16].

**O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 30-apreldagi PF-70-sonli Farmonida energiya tejashga, respublikaning qurilish va uy-joy sektoriga yanada samarali texnik yechimlarni joriy etishga yangi turtki berdi, shu jumladan:**

- ko'p qavatli binolarni qurishda "yashil" uy-joy standartlarini ishlab chiqish va joriy etish;
- jismoniy shaxslarga "yashil" ipoteka kreditlari ajratish;
- 2025 yildan boshlab qurilish tashkilotlariga "yashil" uy-joy standartlari asosida ko'p xonadonli turar-joy binolarini qurish uchun kreditlar ajratish belgilangan [17].

Shuningdek, ushbu jarayonlarni tezlashtirish uchun zamonaviy audit yondashuvlari asosida bino va inshootlarning energiya samaradorligining turli toifalarini belgilash bo'yicha ishlar olib borilmoqda. Bino va inshootlarni baholash uchun xalqaro "yashil" standartlarga muvofiq BREEAM (Building Research



Establishment Environmental Assessment Method) va LEED (Leadership in Energy and Environmental design) sertifikatlash bosqichma-bosqich joriy etilmoqda [18].

**Xalqaro energiya samaradorligi standartlarini amalga oshirish uchun tartibga solish muhitini takomillashtirish jarayonida quyidagi qoidalar ham o'rnatildi:**

- umumiy maydoni 1 ming kvadrat metrda oshadigan yangi qurilayotgan va renovatsiya qilinayotgan binolarda quyosh suv isitgichlarini o'rnatish majburiy;

- Yangi Toshkentni qurish jarayonida zamonaviy energiya tejovchi texnologiyalar va qurilish materiallaridan foydalanish majburiy [19];

- fotoelektrik panellardan energiya ta'minoti manbai sifatida foydalanadigan iste'molchilar ishga tushirilgan kundan boshlab 3 yil muddatga va quyosh panellari o'rnatilgan quvvatining kamida 25 foiz quvvatiga ega elektr energiyasini saqlash tizimlarini o'rnatilganda – 10 yil davomida turli soliqlarni to'lashdan ozod qilinadi [20].

#### **Xulosa va takliflar**

Qurilish majmuasida energiya samaradorligini oshirish vazifalari bilan bog'liq masalalar tahlili shuni

ko'rsatdiki, O'zbekistonda "yashil qurilish" tamoyillari, "yashil" standartlar, shu jumladan qayta tiklanadigan energiya manbalarini joriy etishga asoslangan kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

**Mamlakat qurilish majmuasida energiya samaradorligini yanada oshirish bo'yicha quyidagi chora-tadbirlar taklif etiladi:**

1. Mavjud binolarni ta'mirlashga "yashil" texnologiyalarni majburiy joriy etishga qaratilgan urbanizatsiya siyosatini takomillashtirish.

2. Zamonaviy xalqaro amaliyotga javob beradigan energiya tejashga qaratilgan standartlarni joriy etish bo'yicha ishlarni tezlashtirish.

3. Muqobil energiya ta'minoti tizimlaridan foydalangan holda "yashil arxitektura" ning samarali mexanizmlarini keng joriy etish.

4. Ekologik rejalashtirish sohasidagi loyihalarning "yashil" standartlarga muvofiqligini tasdiqlash uchun tegishli malakaga ega bo'lgan ekologlar va energetika mutaxassisleri tayyorlashni kengaytirish.

5. Turli ommaviy axborot vositalarini jalb qilgan holda binolarning energiya samaradorligini oshirish zarurligi ruhida faol, keng tizimli axborot va reklama kompaniyalarini o'tkazish.

#### **Manba va adabiyotlar**

1. <https://globoledge.ru/press/journal/vyipusk-70/zelenoe-stroitelstvo>
2. Концепция энергоэффективного здания: европейский опыт  
URL: [https://www.abok.ru/for\\_spec/articles.php?nid=3787](https://www.abok.ru/for_spec/articles.php?nid=3787)
3. Энергосбережение в Японии. URL: <https://dzen.ru/a/XE7XYt8tdAct4Fpd>
4. Онищенко М.Ю., Борисова Н.И., Борисов А.В. Энергосберегающие технологии в строительстве // Экономика и менеджмент инновационных технологий. 2016. №3 [Электронный ресурс].  
URL: <https://ekonomika.snauka.ru/2016/03/11128>.
5. Попов Е. и другие. Комплексное применение технологий энергосбережения в строительной отрасли на современном этапе. <https://cyberleninka.ru/article/n/kompleksnoe-primenenie-tehnologiy-energoberezeniya-v-stroitelnoy-otrasli-na-sovremennom-etape>
6. International Energy Agency. Buildings are a big part of rising energy demand and emissions // <https://www.iea.org/reports/the-critical-role-of-buildings>
7. Ezzati, Peyman & Mohammadi, Arvin & Alizadehfard, Mohammad. (2022). Effect of insulation on energy saving of buildings with closed cell flexible elastomeric foam (FEF) insulation. // [https://www.researchgate.net/publication/357554683\\_Effect\\_of\\_insulation\\_on\\_energy\\_saving\\_of\\_buildings\\_with\\_closed\\_cell\\_flexible\\_elastomeric\\_foam\\_FEF\\_insulation](https://www.researchgate.net/publication/357554683_Effect_of_insulation_on_energy_saving_of_buildings_with_closed_cell_flexible_elastomeric_foam_FEF_insulation)
8. The Global Status Report for Buildings and Construction (2024) // [https://www.unep.org/resources/report/global-status-report-buildings-and-construction%23:~:text=In%202022%2C%20buildings%20were%20responsible,carbon%20dioxide%20\(CO2\)%20emissions.](https://www.unep.org/resources/report/global-status-report-buildings-and-construction%23:~:text=In%202022%2C%20buildings%20were%20responsible,carbon%20dioxide%20(CO2)%20emissions.)
9. Europe's buildings under the microscope. A country-by-country review of the energy Performance of buildings // [https://bpie.eu/wp-content/uploads/2015/10/HR\\_EU\\_B\\_under\\_microscope\\_study.pdf](https://bpie.eu/wp-content/uploads/2015/10/HR_EU_B_under_microscope_study.pdf)

---

10. International Finance Corporation. *Building Green. Sustainable Construction in Emerging Markets* (2023) // <https://www.ifc.org/content/dam/ifc/doc/2023/building-green-sustainable-construction-in-emerging-markets.pdf>

11. *Financial Benefits of Green Buildings – Are They Expensive?* (2022) // <https://smart-cre.com/financial-benefits-of-green-buildings-are-they-expensive/>

12. *Binolarning energiya samaradorligi: O‘zbekistonning barqaror rivojlanishining yashirin resursi.* [https://unece.org/fileadmin/DAM/hlm/prgm/cph/experts/uzbekistan/02\\_housing\\_and\\_construction/Energy\\_efficiency\\_in\\_housing\\_in\\_Russian\\_.pdf](https://unece.org/fileadmin/DAM/hlm/prgm/cph/experts/uzbekistan/02_housing_and_construction/Energy_efficiency_in_housing_in_Russian_.pdf)

13. *O‘zbekistonda binolarning energiya samaradorligi: energiya tejash salohiyati, islohotlar yo‘nalishlari va kutilayotgan samaralar.*

<https://cer.uz/en/post/publication/energoeffektivnost-zdanij-v-uzbekistane-potencial-energoberezheniya-napravleniya-reform-i-ozhidaemye-effekty>

14. *O‘zbekiston jamoat binolarining energiya samaradorligini oshirishga sarmoya kiritmoqda.* <https://sro150.ru/novosti/5877-26-04-2024-uzbekistan-investiruet-v-povyshenie-energoeffektivnosti-obshchestvennykh-zdanij>

15. <https://cer.uz/en/post/publication/energoeffektivnost-zdanij-v-uzbekistane-potencial-energoberezheniya-napravleniya-reform-i-ozhidaemye-effekty>

16. *O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 14.11.2018 yildagi PF-5577-sonli Farmoni.* <https://lex.uz/docs/4060068>

17. *O‘zbekistonda "yashil" uy-joy standartlari joriy etiladi.* <https://uzdaily.uz/ru/post/85622/>

18. <https://globaledge.ru/press/journal/vyipusk-70/zelenoe-stroitelstvo>

19. *O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Yangi Toshkent shahrini barpo etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2023-yil 20-iyuldagi PQ-232-son qarori.*

20. *Qayta tiklanadigan energiya qurilmalarini o‘rnatgan shaxslar yer solig‘i va mulk solig‘idan ozod qilinadi.* <https://minenergy.uz/ru/news/view/3481>

---

УЎК: 502.171:620.9/98.(575.1)

**Эльвира БИКЕЕВА,**  
Руководитель проекта Института макроэкономических и  
региональных исследований,  
E-mail: elbikeyeva@mail.ru,  
**Малика САПАРМУХАМЕТОВА,**  
Ведущий специалист Института макроэкономических  
и региональных исследований,  
E-mail: saparmukhamedovamalika15@gmail.com

## РЕАЛИЗАЦИЯ ЦЕЛЕЙ УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ: ГЛОБАЛЬНЫЕ И НАЦИОНАЛЬНЫЕ ЗАДАЧИ ПО ОБЕСПЕЧЕНИЮ ВСЕОБЩЕГО ДОСТУПА К ЧИСТОЙ ЭНЕРГИИ

**Аннотация:** в статье анализируются индикаторы доступа к чистой энергии в контексте глобальных целей устойчивого развития. С использованием методологии разработки индекса SDG 7 определен рейтинг Узбекистана в системе ключевых индикаторов, отражающих прогресс в обеспечении всеобщего доступа к энергии. Выявлены статистические ограничения в существующих базах данных для оценки прогрессивных сдвигов в энергоснабжении. Представлены меры, направленные на решение национальных задач по достижению SDG 7.

**Ключевые слова:** устойчивость, индексы, доступ к энергии, баллы, прогрессивные сдвиги, рейтинг, индикаторы возобновляемые источники, чистая энергия, энергоэффективность, задачи, меры, глобальные цели.

**Barqaror rivojlanish maqsadlarini amalga oshirish: toza energiyadan foydalanishni ta'minlash bo'yicha global va milliy vazifalar**

**Elvira Bikeyeva,**  
Makroiqtisodiy va hududiy tadqiqotlar instituti  
loyiha rahbari,  
**Malika Saparmuxametova,**  
Makroiqtisodiy va hududiy tadqiqotlar instituti  
yetakchi mutaxassisi

**Annotatsiya:** maqolada global barqaror rivojlanish maqsadlari kontekstida toza energiyadan foydalanish indikatorlari tahlil qilingan. SDG 7 indeksini

ishlab chiqish metodologiyasidan foydalangan holda energiyadan foydalanishni ta'minlashdagi taraqqiyotni tavsiflovchi asosiy ko'rsatkichlar tizimida O'zbekistonning reytingi aniqlandi. Energiya ta'minotidagi progressiv siljishlarni baholash uchun mavjud ma'lumotlar bazalarida statistik cheklovlar aniqlandi. SDG 7 ga erishish bo'yicha milliy vazifalarni hal qilishga qaratilgan chora-tadbirlar taqdim etildi.

**Kalit so'zlar:** barqarorlik, indekslar, energiyadan foydalanish imkoniyati, ballar, progressiv siljishlar, reyting, indikatorlar, qayta tiklanuvchi manbalar, toza energiya, energiya samaradorligi, vazifalar, chora-tadbirlar, global maqsadlar.

**Implementing the sustainable development goals: global and national targets to ensure universal access to clean energy**

**Elvira Bikeeva,**  
Project Manager, Institute for Macroeconomic  
and Regional Studies,  
**Malika Saparmukhmetova,**  
leading specialist, Institute for Macroeconomic  
and Regional Studies

**Abstract:** the article analyzes indicators of access to clean energy in the context of global sustainable development goals. Using the methodology for developing the SDG 7 index, the rating of Uzbekistan in the system of key indicators characterizing progress in ensuring universal access to energy was determined.

*Statistical limitations in existing databases for assessing progressive shifts in energy supply were identified. Measures aimed at solving national problems in achieving SDG 7 were presented.*

**Keywords:** *sustainability, indices, energy access, scores, progress, ranking, indicators, renewable sources, clean energy, energy efficiency, targets, measures, global goals.*

### **Введение**

В последнее десятилетие становится всё очевиднее, что дальнейшее развитие цивилизации будет зависеть от принятия скоординированных мер по предотвращению экологической катастрофы, связанной с глобальными климатическими изменениями. В ответ на эти глобальные вызовы, мировым сообществом была поставлена цель по переходу к устойчивому развитию, как механизма предотвращения экологических и других антропогенных проблем.

Впервые эта цель была озвучена в 1992г. на Конференции ООН по окружающей среде, проходившей в Рио-де-Жанейро. Последующее ее осмысление и развитие способствовало принятию в 2015г. более конкретных 17 Целей Устойчивого развития (ЦУР), включающих в себя уже 169 задач, которые были утверждены в качестве основы новой глобальной повестки мирового развития на следующие 15 лет. Достижение глобальной устойчивости неразрывно связано с рациональным использованием энергетических ресурсов, обеспечением всеобщего доступа к чистой энергии, так как эти факторы важны для стимулирования более устойчивого экономического роста и поддержания жизненного уровня населения любой страны. Вопросы энергетического развития, обоснование направлений диверсификации структуры энергопотребления занимают ключевое место в повестке дня политических и экономических дискуссий, как на национальном, так и глобальном уровне.

Учитывая значимость этих вопросов, цель по достижению всеобщего доступа к надёжной и чистой энергии (ЦУР7) в глобальной системе целей устойчивого развития (ООН) включена в число основополагающих. Важность данной цели заключается в её комплексном влиянии на решение социальных, экономических и экологических проблем, обостряющихся в условиях изменения климата.

Результаты анализа научно-теоретических и практических исследований, публикуемых в научных

трудах, официальных документах и отчетах международных организаций, позволили сделать вывод, что энергетическая доступность напрямую связана не только с улучшением качества жизни и снижением бедности, но и выступает в качестве основы достижения других целей устойчивого развития, таких как: борьба с изменением климата, переход на более устойчивые модели производства и потребления, развитие инфраструктуры, улучшение здравоохранения и образования и т.д. В ходе исследования данных взаимосвязанных проблем была поставлена задача оценить прогресс в показателях доступа населения к энергии и определить позицию Узбекистана в мировой системе соответствующих индикаторов в контексте устойчивого развития.

В условиях глобальных изменений, вызванных ростом населения и изменением климата, достижение ЦУР 7 требует интегрированного подхода и активных действий на всех уровнях – от местного на уровне отдельной страны до международного. Этот аспект требует анализа зарубежного опыта в обеспечении значительных прогрессов в этих областях устойчивого развития, с учетом достигнутых рейтингов различных стран, и разработки соответствующих предложений для Узбекистана, что стало одной из ключевых задач исследования.

### **Методология исследования**

Исследование базировалось на методологии проведения мониторинга достижения ЦУР (ООН) на глобальном уровне и в разрезе отдельных стран, которая охватывает различные аспекты экономических, финансовых, социальных и экологических достижений с использованием 169 показателей, систематизированных по каждой из целей устойчивого развития. Для оценки прогрессивных изменений были использованы индексы (SDG) и рейтинговые показатели, рассчитываемые согласно методологии анализа и мониторинга прогресса в достижении ЦУР на мировом уровне<sup>1</sup>.

**Аналитические данные для оценки были сформированы на основе сводного отчета по устойчивому развитию (SDR) и глобального обзора "Tracking SDG7: The Energy Progress Report" (2024) [1]** В соответствии с методологией разработки индекса SDG 7 было использовано 5 ключевых индикаторов, отражающих качественные и количе-

<sup>1</sup> Методология индекса SDSN была проверена Совместной исследовательской комиссией ЕС в июле 2019 года и рецензирована Nature Geoscience и Cambridge University Press

ственные аспекты прогресса в обеспечении доступа к энергии. Анализируемые показатели позволяют оценить степень продвижения к достижению цели [2]. Детализация сводного индекса SDG 7 включает в себя следующие показатели: (а) доля населения, имеющего доступ к электроэнергии, разделенная по городским и сельским территориям; (б) доля населения, использующего чистые виды топлива и технологии для приготовления пищи; (с) доля возобновляемых источников энергии (ВИЭ) в общем объеме генерации электроэнергии; (д) доля инвестиций в развитие энергетической инфраструктуры в общей структуре капитальных инвестиций экономики; (е) энергоёмкость валового внутреннего продукта (ВВП). В дополнение к оценке энергоэффективности также использовался показатель углеродоемкости ВВП.

Для получения сопоставимых результатов и вычисления комплексного индекса применялась методика ранжирования стран, которая включала нормализацию данных по четырем индикаторам, демонстрирующим прогресс в достижении ЦУР 7. В рамках данной методологии было применено линейное масштабирование по методу "min-max", при котором показатели, влияющие положительно (например, доля населения с доступом к электроэнергии), нормализовались с учетом принципа "чем выше, тем лучше", а отрицательные показатели (например, углеродоемкость) инвертировались для корректного отражения их воздействия. Композитный индекс каждой страны рассчитывался как среднее значение нормализованных показателей (индекс варьируется от 0 до 1, баллы – от 0 до 100). На основе этих индексов был составлен ранговый список стран, где более высокие значения индекса соответствуют более высокому месту в рейтинге. В исследовании был использован метод группировки стран на основе их балльных значений. В выборку было включено 180 стран, которые были разделены на три группы в зависимости от уровня достижения ЦУР 7. Группировка стран проводилась по следующим категориям: группа 1 (высокий уровень) – страны с баллами от 85 до 100, группа 2 (средний/умеренно высокий уровень) – от 56 до 85 баллов, и группа 3 (низкий уровень) – от 22 до 55 баллов. Индексы рассчитывались на основе нескольких взаимосвязанных индикаторов, которые отражают процесс расширения доступа: доступ населения


к электроэнергии и чистым видам топлива, углеродоемкость, доля возобновляемых источников энергии (ВИЭ) и инвестиции в энергоснабжение.

Применённый в исследовании подход позволил более детально оценить достижения по ЦУР в целом, используя аналитическую базу данных, охватывающую все целевые задачи, опубликованные в последнем отчете ООН (2024). В ходе исследования было установлено, что в существующих базах данных большинство показателей, отражающих продвижение к ЦУР на уровне отдельных стран, охватывают период с 2015 по 2021 годы (в некоторых случаях – 2022 год), что затрудняет объективную оценку прогресса с учетом данных за 2023 год. Эти статистические ограничения были актуальны для многих стран, включая Узбекистан. В последние 2–3 года в стране наблюдаются значительные изменения в развитии чистой энергии и улучшении энергетической инфраструктуры. Учитывая этот факт, анализ прогресса в обеспечении доступа к энергии на национальном уровне был дополнен статистическими данными за 2022–2023 гг., что позволило учесть результаты реформ в энергетическом секторе, проведенных в последние годы.

#### **Основные результаты исследования**

Анализ мировых тенденций, показал, что за последнее десятилетие достигнут значительный прогресс в части глобального доступа к электроэнергии, который возрос с 87% до 92%. Тем не менее, на 78-й сессии Генеральной Ассамблеи ООН, которая проходила в апреле 2024 года, было отмечено, что темпы энергетических преобразований, по-прежнему, слишком медленные, а выгоды распределяются неравномерно – 685 млн. человек в наименее развитых странах всё ещё не имеют доступа к электричеству и, около 2,1 млрд человек, по-прежнему, используют загрязняющие виды топлива. По оценкам международных экспертов, если текущие тенденции сохранятся, то к 2030 году доступ к экологически чистым видам топлива для приготовления пищи получат только 79% населения. При этом, около 1,8 млрд человек при приготовлении пищи будут зависеть от традиционных и неэффективных печей, работающих на твердом топливе (древесина, уголь, угольные отходы) и керосине. В целях преодоления этих тенденций, выдвигаются новые требования по предоставлению всеобщего доступа к недорогой устойчивой энергии путём утروения

доли возобновляемых источников энергии и удвоения энергоэффективности. В Узбекистане, задачи по расширению доступа к чистой энергии входят в число приоритетных. Проведенные в последние годы энергетические реформы позволяют оценить эффект их влияния на достижение цели по всеобщему доступу к чистой энергии. Результаты проведенных расчетов показали, что в мировом рейтинге стран по уровню достижения ЦУР 7 Узбекистан занял 109-е место, набрав 68,5 балла, что выше среднемирового показателя, который составляет 64,2 балла. Таким образом, позиция Узбекистана по набранному баллу немного превышает среднемировой уровень. Согласно системе классификации, принятой в данном исследовании, Узбекистан можно отнести ко второй (2) группе стран с средним или умеренно высоким уровнем доступа населения к чистой энергии (Рис. 1).



**Рис. 1. Рейтинг стран мира по индексу достижения ЦУР 7**

**Источник:** разработано авторами на основе вычислений

В группу стран с наибольшим прогрессом по индексу доступа к чистой энергии, как и ожидалось, входят преимущественно все европейские государства, которые демонстрируют значительные достижения в использовании потенциала ВИЭ. Эти страны сохраняют лидерство в рейтингах зеленого развития благодаря высоким показателям энергоэффективности и демонстрируют наивысший уровень всеобщего доступа к чистой энергии.

Для Узбекистана характерна более низкая динамика прогрессивных сдвигов в доступе к энергии, но значение индекса примерно соответствует уровню стран СНГ, которые в среднем набрали от 70 до 80 баллов. Тем не менее, достигнутые значения Узбекистана в мировом рейтинге немного улучшились, что определялось активизацией мер по улучшению обеспечения населения электроэнергией, а также позитивным ростом показателей энергоэффективности. В числе факторов, положительно повлиявших на эти сдвиги, выступали ускоренные темпы роста инвестирования в системы энергообеспечения и технологии ВИЭ, особенно заметными в последние годы.

**Анализ основных индикаторов, влияющих на общий индекс доступа населения к чистой энергии, выявил следующие положительные тенденции:**

- В период с 2018 по 2023 гг. доступ к электроэнергии значительно улучшился, что подтверждается увеличением общего потребления электроэнергии на 24,5%. Поставки энергии непосредственно населению увеличивались в среднем на 5,2% ежегодно, а потребление электроэнергии домохозяйствами возросло более чем на 31% по сравнению с уровнем 2018 г.;

- Выработка энергии на основе возобновляемых источников значительно увеличилась, повысившись в 1,27 раза по сравнению с 2018 г., что создало дополнительные возможности для перераспределения увеличенных объемов электроэнергии среди населения. Особенно заметный рост был зафиксирован в период с 2022 по 2023 гг., когда производство солнечной и ветровой энергии возросло с 435,8 млн кВт·ч до 1,237 млрд кВт·ч, что соответствует росту в 2,8 раза;

- Общая энергетическая мощность возросла в 1,3 раза по сравнению с 2018 годом, а по отношению к текущим показателям 2024 г. – в 1,47 раза. В соответствии с мировыми тенденциями, доля ВИЭ в структуре энергетических мощностей постепенно увеличивается, возросшая с 12–13% в 2018–2019 годах до 15,5% в 2023 г. В частности, мощности солнечных и ветряных станций выросли с практически нулевого уровня в предыдущие годы до 1,1%–2,6% в 2022–2023 гг.

Необходимо отметить значительную роль инвестиционных факторов в развитии энергетической инфраструктуры. Доля инвестиций в энергоснабже-

ние в общей структуре инвестиций в основной капитал экономики возросла с 5,3% в 2020 г. до 12,2% в 2023 г., что в абсолютных цифрах означает рост более чем в 2,3 раза. Наблюдаемая инвестиционная активность в энергетической сфере оказывала положительное влияние на показатели эффективности, способствуя поэтапному выводу устаревших мощностей и внедрению новых технологий. Как результат, улучшились такие важные показатели, как углеродемкость генерации энергии — на 5-6%, а энергоёмкость ВВП в среднем снижалась более чем на 5% ежегодно.

В целом, положительные тенденции в развитии энергетической системы, отмечаемые в период 2018–2023 гг., способствовали постепенному улучшению доступа населения к чистым источникам энергии.

Анализ статистических данных и обобщение расчетных значений показали, что по индикатору доступа населения к электросетям Узбекистан входит в группу стран, где 100% населения имеет доступ к электричеству. Однако, как и в многих странах мира, показатель всеобщего подключения к электросети не всегда гарантирует поставки энергии, соответствующие требованиям по качеству и надежности, а также доступности стоимости электроэнергетики.

В условиях развития Узбекистана, несмотря на достижение и поддержание высокого уровня доступа населения к электросети, сохраняются проблемы устойчивого снабжения домашних хозяйств электроэнергией, особенно в сельских районах. Как показал анализ, домохозяйствами преимущественно используются электричество и газ. Но, по оценкам международных экспертов из-за отключения электричества и недопоставок газа, многие домохозяйства в сельской местности всё ещё вынуждены использовать менее эффективные и загрязняющие окружающую среду технологии (уголь и дрова). Это указывает на сохранение проблемы устойчивого энергоснабжения сельского населения. Однако следует отметить, что в последние годы наблюдается значительный прогресс в ее решении. Продолжительность и количество случаев отключений сократились в несколько раз. Устранение перебоев в подаче электроэнергии является одной из приоритетных задач и ключевых направлений реформ на ближайший период.

#### **Основные выводы**

Результаты проведенного исследования по-

зволили определить путь к более устойчивому обеспечению населения энергией. Это подтверждается положительными трендами роста ключевых индикаторов, которые отражают качественные изменения в обеспечении доступа населения к электроэнергии. Также наблюдаются прогрессивные изменения в интеграции потенциала ВИЭ в существующую энергетическую систему.

В условиях роста населения и поставленных целей по улучшению качества жизни необходимо более детально анализировать показатели, отражающие структуру и направления использования чистых видов топлива и энергии (например, в готовке, отоплении домов и т. д.). Недостаточность и фрагментация данных может сдерживать процесс принятия правильных и скоординированных решений. Эти данные имеют большое значение для корректировки проводимой политики, направленной на решение национальных задач по обеспечению всеобщего доступа к чистым источникам энергообеспечения.

**Также, требуется уточнение оценок и рейтинговых показателей достижения целей устойчивого развития (ЦУР). В этом направлении, исследования ИМРИ будут продолжены. В целях повышения рейтинга Узбекистана по индексу доступа населения к чистым видам топлива и энергии рекомендуется:**

- Продолжение укрепления потенциала в области управления, сбора и мониторинга энергетических данных с целью создания справедливого и инклюзивного энергетического сектора;

- Создание условий для полного вовлечения потенциала и возможностей использования чистой электроэнергии в секторе домашних хозяйств, вырабатываемой на основе ВИЭ посредством привлечения частного сектора в развитие энергетических систем, с учетом действующих экономических стимулов;

- Реализация новых, более совершенных схем финансирования внедрения установок ВИЭ в домашних хозяйствах с учетом использования уже закрепленных льгот и преференций;

Важным направлением выступает также выработка рекомендаций по методологии, которые должны быть ориентированы на оценку степени интеграции ЦУР в стратегии развития национальных компаний и организаций, вовлеченных в процесс устойчивого обеспечения населения энергией.

### Источники и литература

1. Отчет об устойчивом развитии, 2024 – *Sustainable Development Report, 2024* // <https://dashboards.sdindex.org/>
2. Отслеживание ЦУР 7: Отчет о прогрессе в области энергетики, 2024 – *Tracking SDG7: The Energy Progress Report, 2024* // <https://www.irena.org/Publications/2024/Jun/Tracking-SDG-7-The-Energy-Progress-Report-2024>
3. Отчет о Целях устойчивого развития, 2024 – *The Sustainable Development Goals Report, 2024* // <https://unstats.un.org/sdgs/report/2024/The-Sustainable-Development-Goals-Report-2024.pdf>
4. Новый индекс Цели 7 в области устойчивого развития как парадигма оценки энергетической устойчивости: на примере Европы, 2022 – *A novel Sustainable Development Goal 7 composite index as the paradigm for energy sustainability assessment: A case study from Europe, 2022* // <https://www.sciencedirect.com/science/article/abs/pii/S0306261921014446>
5. Агентство статистики при Президенте Республики Узбекистан // <https://nsdg.stat.uz/goal/10>
6. Министерство энергетики Республики Узбекистан // <https://minenergy.uz/ru>



**Ijtimoiy masalalar, fan, ta'lim va kambag'allikni qisqartirish /  
Социальные вопросы, наука, образование и сокращение бедности /  
Social issues, science, education, and poverty reduction**

УЎК: 331.25.(575.1)

**Shaxlo MAXKAMOVA,**

*uqtisodiyot fanlari nomzodi,*

*O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi  
huzuridagi Byudjet-soliq ilmiy tadqiqotlari instituti bo'lim boshlig'i,*

**Baxrom ABSAMATOV,**

*O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi  
huzuridagi Byudjet-soliq ilmiy tadqiqotlari instituti bosh mutaxassisi,*

**Alisher MAMANOV,**

*O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi  
huzuridagi Byudjet-soliq ilmiy tadqiqotlari instituti bosh mutaxassisi,*

**E-mail:** shmahkamova@mail.ru

## PENSIYA TA'MINOTI TIZIMINI ISLOH QILISH

**Annotatsiya:** maqolada amaldagi davlat pensiya tizimining asosiy muammolari yoritilgan. Demografik bosimning pensiya jamgarmasining barqarorligiga ta'siri tahlil qilingan. Ayrim mamlakatlarning pensiya ko'rsatkichlari taqqoslandi. Pensiya tizimi indikatorlari turli ssenariylarining uzoq muddatli prognozlarini hisoblash asosida alohida takliflar ishlab chiqildi, shu jumladan pensiya yoshini oshirish va demografik bosim koeffitsiyentini pasaytirish usulini qo'llash natijasida pensiya yosh chegarasining o'zgarishi ta'siri baholandi.

**Kalit so'zlar:** o'sish tendensiyasi, pensiya yoshi, yoshga doir pensiya olish, ish staji, mehnatga layoqatli yoshdagi aholi, pensiya yoshidan yuqori aholi, aholi, yoshlar, xususiy pensiya jamg'armalari, iqtisodiy faol aholi, pensiya miqdori.

### Реформирование системы пенсионного обеспечения

**Шахло Махкамова,**

*кандидат экономических наук,  
начальник отдела Института бюджетно-налоговых научных исследований при Министерстве экономики и финансов Республики Узбекистан,*

**Бахром Абсаматов,**

*главный специалист Института бюджетно-налоговых научных исследований при Министерстве экономики и финансов Республики Узбекистан,*

**Алишер Маманов,**

*главный специалист Института бюджетно-налоговых научных исследований при Министерстве экономики и финансов Республики Узбекистан*

**Аннотация:** в статье освещены имеющие основные проблемы действующей государственной пенсионной системы. Анализирована влияние демографической нагрузки на устойчивость пенсионного фонда. Сопоставлены пенсионные показатели отдельных стран. Выработаны отдельные предложения на базе расчета долгосрочных прогнозов различных сценариев индикаторов пенсионной системы, в том числе оценки влияния изменения возрастного ценза в результате применения метода повышения пенсионного возраста и снижения коэффициента демографической нагрузки.

**Ключевые слова:** тенденция роста, пенсионный возраст, получающие пенсию по возрасту, трудовой стаж, население в трудоспособном воз-

*расте, численность населения выше пенсионного возраста, население, молодежь, частные пенсионные фонды, экономически активное население, размер пенсии.*

## Reforming the pension system

**Shakxlo Makxkamova,**

*Candidate of Economic Sciences,  
Project Manager, Institute for Fiscal Studies  
under the Ministry of Economy and Finance  
Republic of Uzbekistan,*

**Bahrom Absamatov,**

*Head specialist,  
Institute for Fiscal Studies  
under the Ministry of Economy and Finance  
Republic of Uzbekistan,*

**Alisher Mamanov,**

*Head specialist,  
Institute for Fiscal Studies  
under the Ministry of Economy and Finance  
Republic of Uzbekistan*

**Abstract:** *the article highlights the main problems of the current state pension system. The influence of the demographic load on the sustainability of the pension fund is analyzed. The pension indicators of individual countries are compared. Separate proposals have been developed based on calculating long-term forecasts of various scenarios for indicators of the pension system, including assessing the impact of changes in the age limit as a result of applying the method of increasing the retirement age and reducing the dependency ratio.*

**Keywords:** *growth trend, retirement age, those receiving an old-age pension, work experience, population of working age, population above retirement age, population, youth, private pension funds, economically active population, pension size.*

## Kirish

Dunyo aholisining ko'payishi bilan barcha mamlakatlarda pensiya tizimida islohotlar o'tkazish zarurati ortib bormoqda. O'zbekistonda ham mustaqillik yillarida aholining o'rtacha umr ko'rish darajasi tobora yaxshilanib, o'sish tendensiyasiga ega bo'ldi. Shu munosabat bilan mamlakatimizda aholi daromadlari hamda farovonligini oshirishga qaratilgan pensiya tizimi islohotlari talab etiladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli [1], 2023-yil 28-fevraldagi PF-27-sonli [2] Farmonlarida 54-maqсад sifatida: "Pensiya ta'minoti tizimini takomillashtirish"ni, 2024 yil 21-fevraldagi PF-37-sonli [3] Farmoni 16-bandida "Ijtimoiy himoyaga muhtoj fuqarolarni qo'llab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirish" kabi vazifalarning ijrosini ta'minlash belgilangan.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 23-sentabrdagi "Davlat pensiya ta'minoti tizimini isloh qilish konsepsiyasini ishlab chiqish bo'yicha tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida"gi 600-sonli qarori [4] da belgilangan "Davlat pensiya ta'minoti tizimini isloh qilish konsepsiyasi loyihasini ishlab chiqish, amaldagi pensiya ta'minoti tizimida mavjud muammolarni tahlil qilish hamda ilg'or xorijiy tajribalar asosida pensiya ta'minoti tiziminining barqarorligini ta'minlash va ijtimoiy adolatni mustahkamlashga qaratilgan takliflarni tayyorlash" vazifasi ijrosi doirasida ushbu ishda mos takliflar ishlab chiqishga harakat qilindi.

## Adabiyotlar sharhi

I.f.n.,dots. B.Mamatov "Pensiya jamg'armasining moliyaviy barqarorligi unga to'lanadigan to'lovlarning o'z vaqtida va to'liq miqdorda amalga oshirilishiga hamda pensiya ta'minoti boshqaruvining samarali tashkil etilishiga bog'liqligini e'tirof etgan.

Xorijlik olim A.S.Stivenning fikricha, pensiya tizimidagi tarkibiy o'zgarishning asosiy yo'nalishi nodavlat pensiya jamg'armalarini tashkil etish bilan bog'liq bo'lishi lozim.

Rossiyalik olim V.Roikning ilmiy ishlarida aholini ijtimoiy himoya qilishda pensiya ta'minotining o'rni, pensiya sug'urtasi, ijtimoiy sug'urta va uning moliyaviy-iqtisodiy asoslari, pensiya tizimida islohotlarni amalga oshirishda qanday usullardan foydalanish kerakligi borasida misollar keltirilgan.

Vavulning fikricha, xususiy pensiya jamg'armalari – notijorat moliyaviy tashkilotlar bo'lib, pensionerlarning ixtiyoriy qo'yilmalari hisobiga ularni moliyaviy nafaqa bilan ta'minlaydi. Ular majburiy pensiya sug'urtasi va nodavlat (qo'shimcha) pensiya ta'minoti bilan shug'ullanadilar.

Nemis iqtisodchisi A.Borsh-Supan Yevropa mamlakatlarida pensiya tizimini (xususiy, birdamlik pensiya tizimi) isloh qilishning asosiy muammolarini qilinayotgan xarajat va aholining o'rtacha umr ko'rish yoshining o'sishi nuqtayi nazaridan ko'rib chiqqan.

Dunyodagi barcha rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlar pensiya tizimi oldidagi asosiy muammo –

pensionerlar ulushining ortib borishidir. Bu bo'yicha ko'plab davlatlar amaliy ishlarni boshlab yuborgan, jumladan, pensiya jamg'armalarini xususiyashtirish o'tgan asrning oxirlarida boshlangan bo'lsada, pensiya yoshini oshirish ishlari bosqichma-bosqich amalga oshirilmoqda. Shu o'rinda mamlakatimizda ham xorij tajribalariga tayangan holda pensiya tizimidagi demografik muammoning oldini olish va bartaraf etish uchun dastlab xususiy pensiya jamg'armalarini tashkil etish va takomillashtirish bo'yicha chora-tadbirlar ishlab chiqish zarurati paydo bo'lmoqda. Pensiya tizimining moliyaviy barqarorligini ta'minlash uchun xalqaro tamoyil va standartlarga muvofiq davlat tomonidan kafolatlangan minimal pensiyalar, birdamlik tamoyiliga asoslangan va jamg'arib boriladigan pensiyalar hamda xususiy pensiyalardan tarkib topgan uch darajali pensiya ta'minoti tizimini joriy qilish maqsadga muvofiqdir.

**Asosiy qism**

O'zbekiston dunyoda aholisi soni barqaror sur'atlarda o'sib borayotgan mamlakatlar qatoriga kiradi. Respublikada aholining tarkibida yoshlar katta salmoqqa ega bo'lishiga qaramasdan iqtisodiy faol aholining o'sishi keksa aholining o'sishidan ortda qolmoqda. Bu esa o'z navbatida keksalarning demografik bosim koeffitsiyentini (Kkdb) oshishiga olib kelmoqda: Kkdb 2010-yilda 14% ni tashkil qilgan bo'lsa, 2024-yilda 20% ga, 2030-yilda 23% ga, 2050-yilda esa 35% ga yetishi mumkin.


2024-yil 1-yanvar holatiga O'zbekiston Respublikasining doimiy aholisi 36 799,8 mingni tashkil qilib ularning tarkibini jinsi va yosh guruhlari bo'yicha (65 yoshgacha bo'lganlar 5 yillik yosh intervalida, 65 va undan yuqori yoshdagilar esa jamlangan holda) tahlil qilinganda, erkaklar tarkibida 4 yoshgacha bo'lgan bolalar eng yuqori ko'rsatkichni, ya'ni 2 262,7 ming kishini tashkil etgan. Erkaklar tarkibida eng kam aholi soni 60-64 yoshlilar hissasiga to'g'ri kelib, 657,0 ming kishini tashkil etdi. Shuningdek, ayollar tarkibida ham 4 yoshgacha bo'lgan qizlar eng yuqori ko'rsatkichni, ya'ni 2 108,1 ming kishini tashkil etgan bo'lsa, eng kam ayollar soni 60-64 yoshlilar hissasiga to'g'ri kelgan, ya'ni 736,0 ming kishini tashkil etgan.

2024-yil aprel holatiga Statistika agentligi ma'lumotiga ko'ra, O'zbekiston aholisi 36 934 572 kishi bo'lib – 18 594 902 (50,3%) [5] kishi erkak va 18 339 670 (49,7%) ayol. Bundan, 55 yosh va undan yuqori yoshdagi ayollar soni 2 695 931 (7,3%) hamda 60 yosh va undan yuqori yoshdagi erkaklar soni 1 580 567 (4,3%). Demak,

pensiya rasmiy yoshidagi aholi soni hisob-kitobimizga ko'ra – 4 276 498 kishi (11,6%) [6].

Pensiya oluvchilar soni 2023-yilda 2014-yilga nisbatan 44,8%ga o'sgan bo'lib, jami aholi soni esa, 15,5% o'sish sur'atini qayd etgan. Pensiya oluvchilarning jami aholidagi ulushi 8,9%dan 11,2%ga ko'tarilib, o'sish sur'ati 25,4%ni tashkil qilgan. Hisobot davrida tayinlangan pensiyalar soni ham oshib borish tendensiyasiga ega bo'lib, 2014-yilda 157,5 mingta yangi pensiya tayinlangan bo'lsa, 2023-yilda 292,0 mingta yangi pensiya tayinlangan. Yangi tayinlangan pensiyalarning pensiya oluvchilarga nisbati 2016-yildan boshlab o'rtacha 8,0% dan kam bo'lmagan. Umuman olganda pensiya oluvchilar sonining o'tgan yilga nisbatan o'sishi o'rtacha 4,5% foizni tashkil qilgan [7].

Aholini barqaror ravishda, munosib miqdordagi pensiya bilan ta'minlash amalda pensiya oluvchilarning rasmiy sektordagi faoliyat yuritayotganlar soni bilan uzviy bog'liq hisoblanadi. O'zbekistonda esa mazkur ko'rsatkich ham salbiy tendensiyaga ega. 2017-yilda bitta pensionerni ta'minlash 1,47 ta ishchi zimmasiga tushgan bo'lsa, 2022-yilda bu ko'rsatkich 1,33ni tashkil etmoqda. Bu nisbat Xalqaro mehnat tashkilotining tavsiyasiga ko'ra kamida 4:1ni tashkil qilishi kerak [8].



**1-rasm. Ayrim davlatlarda pensiya yoshi erkaklar uchun 60, ayollar uchun 50 yosh bo'lganda va amaldagi pensiya yoshiga nisbatan keksalarning demografik bosim koeffitsiyentining o'zgarishi prognozi [9].**

*\*O'zbekiston uchun pensiya yoshi shartli ravishda 2035-yildan boshlab erkaklar uchun 63, ayollar uchun 58 yosh deb hisoblandi*

Yuqoridagi 1-rasm ma'lumotlarini tahlil qiladigan bo'lsak, pensiya yoshi erkaklar uchun 60, ayollar uchun 55 yosh bo'lganda keksalarning demografik bosim koeffitsiyenti 2050-yilga borib, O'zbekiston uchun 0,35 ni, Germaniya uchun 0,88 ni tashkil qilishini prognoz

qilishimiz mumkin. Biroq biz ko'rib chiqayotgan mamlakatlarda amaldagi pensiya yoshi (1-jadval) ayollar uchun 55 va erkaklar uchun 60 dan yuqoriligini inobatga olgan holda keksalarning demografik bosim koeffitsiyentini hisoblashda pensiya yoshini 60 va 50 yosh hamda ayni vaqtda amaldagi pensiya yoshini asos

qilib olamiz. Tahlillarga ko'ra 2050-yilgacha amaldagi pensiya yoshi bo'yicha Germaniya va Avstraliyada (67 yosh) demografik bosim koeffitsiyenti pensiya yoshi 60 va 55 yosh bo'lgandagiga qaraganda deyarli 2 marta kam, Qozog'iston (63,61) bilan Rossiyada (63,58) nisbatan pastroq ekanligini ko'rishimiz mumkin.

1-jadval

Ba'zi mamlakatlarda pensiya ko'rsatkichlari [10]

Mamlakat	Pensiya yoshi				To'liq pensiya olish uchun talab etiladigan staj				65 yoshda kutilayotgan umr ko'rish davomiyligi
	2019-y		2024-y		2019-y		2024-y		2023 y*
	erkak	ayol	erkak	ayol	erkak	ayol	erkak	ayol	o'rtacha
Yaponiya [11]	65	65	65	65	40	40	40	40	22,5
Shvetsiya [12]	65	65	65	65	40 yil davlatda yashash		40 yil davlatda yashash		20,9
Fransiya [13]	62	62	62,5	62,5	41,5	41,5	42	42	22,0
Buyuk Britaniya [14]	65	65	66	66	30	30	35	35	20,2
Niderlandiya	66	66	67	67	50 yil davlatda yashash va ishlash		50 yil davlatda yashash va ishlash		20,1
Singapur	62	62	63	63	Jamg'arilgan mablag'ga qarab annuitet shaklda to'lanadi		Jamg'arilgan mablag'ga qarab annuitet shaklda to'lanadi		21,9
O'zbekiston	60	55	60	55	25	20	25	20	14,8

Manba: \*World Population Prospects 2022 <https://population.un.org/wpp/>

2-jadval

Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasidan yil yakuni bo'yicha pensiya oluvchilari soni, hisobot davrida yangi tayinlangan pensiyalar soni va doimiy aholi soni [16] tahlili

Ko'rsatkichlar	2014-y.	2015-y.	2016-y.	2017-y.	2018-y.	2019-y.	2020-y.	2021-y.	2022-y.	2023-y.	2024y (baho)	2023yilda 2014-yilga nisbatan o'zgarishi, %	2024y./ 2014y. o'zgarishi (baho), %
Doimiy aholi soni, jami*	31022,5	31575,3	32120,5	32656,7	33255,5	33905,2	34558,9	35271,3	36024,9	36799,8	37187,3	18,6	14,2
Pensiya oluvchilarning jami aholidagi ulushi, %	8,7	8,8	9,0	9,2	9,5	9,8	9,9	10,2	10,5	10,7	10,8	23,0	31,0
Pensiya oluvchilar	2713,9	2781,6	2882,1	3007,6	3162,1	3312,7	3424,6	3588,4	3765,7	3930,4	4012,8	44,8	47,9
shundan:													
yoshga doir	2181,8	2263,0	2369,3	2481,5	2618,4	2749,6	2849,0	2986,7	3124,0	3260,2	3328,3	49,4	52,5
pensiya oluvchilarga nisbatan, %	80,4	81,4	82,2	82,5	82,8	83,0	83,2	83,2	83,0	82,9	82,9	3,1	3,1
nogironlik	371,4	358,6	351,5	359,3	370,4	382,6	386,6	399,4	419,9	436,0	444,1	17,4	19,6
pensiya oluvchilarga nisbatan, %	13,7	12,9	12,2	11,9	11,7	11,5	11,3	11,1	11,1	11,1	11,1	-19,0	-19,0
boquvchisini yo'qotgan (oila)	160,8	160,1	161,2	166,8	173,3	180,6	189,1	202,3	221,8	234,2	240,4	45,6	49,5
pensiya oluvchilarga nisbatan, %	5,9	5,8	5,6	5,5	5,5	5,5	5,5	5,6	5,9	6,0	6,1	1,7	3,4
Hisobot davrida yangi tayinlangan pensiyalar	157,5	195,9	225,3	251,9	277,4	277,3	277,6	314,5	299,7	292,0	288,2	85,4	83,0
pensiya oluvchilarga nisbatan, %	5,8	7,0	7,8	8,4	8,8	8,4	8,1	8,8	8,0	7,4	7,1	27,6	22,4
Pensiya oluvchilar sonining o'tgan yilga nisbatan o'sishi, %		2,5	3,6	4,4	5,1	4,8	3,4	4,8	4,9	4,4	4,2		

2024y. (baho) - Pensiya jamg'armasi va World Population Prospects 2022 hisoboti... ma'lumotlari asosida i.f.n. Sh.Mahkamova tomonidan hisoblab baholangan. \*World Population Prospects 2022 hisobotining ma'lumotlari

Demografik kutilmalar, tug'ilgandagi, 60 yoshdagi, 65 yoshdagi va hakoza kutilayotgan umr ko'rish davomiyligining oshayotganligi, Mustaqil davlatlar hamdo'stligi mamlakatlari va boshqa xorijiy mamlakatlarda pensiya tizimida islohotlar amalga oshirilganligini inobatga olgan holda, O'zbekistonda erkaklarning pensiyaga chiqish yoshi kamida 63 va ayollarning pensiyaga chiqish yoshi 58 yoshga yetkazilsa, Pensiya jamg'armasi ko'rsatkichlarining o'zgarishi prognozini tahlil qilib chqamiz.

Mamlakatimizdagi pensiya ta'minotini Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi belgilangan tartibda amalga oshiradi [15]. Pensiya jamg'armasi hisobida turgan pensiya oluvchilar soni (2-jadval) 2023-yilda 2014-yilga nisbatan 44,8 %ga o'sgan, jami aholi soni esa 18,6 % o'sish sur'atini qayd qilmoqda. Pensiya

oluvchilarning jami aholidagi ulushi 8,7 %dan 10,7 %ga yetib, ushbu ko'rsatkichning o'sish sur'ati 23,0 foizni tashkil qilgan. Pensiya oluvchilarning tarkibida yoshga doir pensiya oluvchilarning ulushi 2014-yilda 80,4 %ni tashkil qilgan bo'lsa, 2023-yilda 82,9 foizni tashkil qilgan. Nogironlik pensiyasi oluvchilarning o'sishi 17,4 %ga teng bo'lgan va pensiya oluvchilar sonidagi ulushi 2014-yilda 13,7 %ni 2023-yilda 11,1 %ni tashkil qilgan. Ushbu pensiya turini oluvchilar soni 19,0 %ga kamayganligi mamlakatimizda sog'liqni saqlash tizimidagi ijobiy islohotlar bilan bog'liq.

Yuqoridagi ma'lumot va tahlillardan foydalanib, boshqa sharoitlar o'zgarmagan holda doimiy aholi soni, pensionerlar soni hamda pensiya va pensionerlarga boshqa xarajatlarni interpolatsiya usulida prognoz qilib ko'ramiz (3-jadval).

## 3-jadval

## Taklif etilayotgan yosh oshishi hisobiga Pensiya jamg'armasi ko'rsatkichlarining o'zgarishi prognozi [17]

Ko'rsatkichlar	2024-y.	2025-y.	2030-y.	2040-y.	2050-y.
Doimiy aholi soni, ming kishi**	37134,2*	37394,6	40552	45751	52516,1
Ijtimoiy soliqdan daromadlar, trln. so'm	45,7	46,9	66,1	104,5	142,9
1 pensionerga xarajat, yillik, mln. so'm**	15,7	17,5	26,3	41,8	57,3
Pensiya oluvchilar soni, ming kishi**	4029,1	4140,7	4614,3	5228,4	5513,5
doimiy aholiga nisbatan ulushi, %	10,9	11,1	11,4	11,4	10,5
Pensiya oluvchilar soni, ming kishi***	4029,1	4140,7	4481,3	5045,7	5281,1
doimiy aholiga nisbatan ulushi, %	10,9	11,1	11,1	11,0	10,1
Bazaviy senariyga nisbatan*** pensiya yukining kamayishi, ming kishi			133	182,7	232,4
Yangi tayinlanadigan pensiyalar, ming kishi**	309,4	324,3	398,9	548	697,1
Pensiya oluvchilarga nisbatan, %	7,7	7,8	8,6	10,5	12,6
Yangi tayinlangan pensiyalar soni, ming kishi***			265,9	365,3	464,7
Pensiya oluvchilar soniga nisbatan, %			5,9	7,2	8,8
Pensionerlar uchun xarajatlari, trln. so'm**	63,1	72,6	121,3	218,7	316,2
Pensionerlar uchun xarajat, trln. so'm***	63,1	72,6	117,8	211,1	302,8
Balans, trln. so'm**	-17,4	-25,7	-55,2	-114,2	-173,2
Balans, trln. so'm***	-17,4	-25,7	-51,7	-106,6	-159,9
Defitsitning kamayishi, trln. so'm***			3,5	7,6	13,3
Foizda	0	0	6,8	7,2	8,3

\*doimiy aholi soni 01.07.2024-yil holatiga stat.uz-ma'lumoti, 2025–2050-yillar uchun prognozlar- population.un.org-ma'lumotlari.

\*\*bazaviy ssenariy

\*\*\*taklif etilayotgan yosh oshirilishiga (63 yosh - erkaklar, 58 yosh - ayollar) bog'liq ssenariy varianti.

Barcha sharoitlar o'zgarmagan holda pensiya oluvchilarning doimiy aholidagi ulushi 2024-yilda 10,9

% ni tashkil qilsa, 2050-yilga borib bu miqdor 10,5 % ga yetishi mumkin. Agar yoshni oshirish bog'liq

islohotlar amalga oshirilsa, ushbu ko'rsatkich 10,1 % ni tashkil qilishi mumkin, ya'ni bazaviy ssenariyga nisbatan 0,4 % punktga kamroq bo'ladi.

Yangi tayinlangan pensiyalarning pensiya oluvchilardagi ulushi esa 2050-yilga borib 12,6 % ga yetishi mumkin. Yosh oshishi bilan bog'liq holatda bu ko'rsatkich 8,8 % ni tashkil qiladi, ya'ni bazaviy ssenariyga nisbatan 3,8 % punktga kamroq bo'ladi.

Pensionerlar uchun xarajatlar 2050-yilga borib, 316,2 trln.so'mni tashkil qilishi mumkin, islohotlar natijasida bu qiymat 302,8 trln.so'mni tashkil qilib, bazaviy ssenariyga nisbatan Pensiya jamg'armasining defitsiti 8,3 % ga kamayishi mumkin.

**O'zbekistondagi pensiya tizimini yanada takomillashtirish va isloh etish uchun quyidagi yo'nalishlarda bir qator islohotlar amalga oshirilishi taklif qilinadi:**

- ayni vaqtdagi demografik kutilmalar, ma'lum yoshlardagi (tug'ilgandagi, 60 yoshdagi, 65 yoshdagi va hokazo) kutilayotgan umr ko'rish davomiyligining oshayotganligi, biz bilan ildizi bir xil bo'lgan pensiya ta'minoti tizimiga ega bo'lgan Mustaqil davlatlar hamdo'stligi mamlakatlarida va boshqa xorijiy mamlakatlarda yosh bilan bog'liq pensiya islohotlarining amalga oshirilganligini inobatga olgan holda erkaklarning pensiyaga chiqish yoshini kamida 63 va ayollarning pensiyaga chiqish yoshini 58 yoshga yetkazilsa, 2050-yilga borib Pensiya jamg'armasiga yuk 8,3% gacha kamayishi mumkin.

Lekin ushbu taklif Jahon banki ekspertlari tomonidan ham 2020-yilda 15 yildan so'ng

O'zbekistonda pensiya yoshini bosqichma-bosqich oshirishni tavsiya etilgan bo'lib, uning ma'lum bir vaqtda samara keltirishi biz tomonimizdan ko'rib chiqilgan bo'lsada, hozirgi vaqtda O'zbekistondagi demografik holat, aholisining 60 foizi yoshlardan iborat bo'lgan va ular o'rtasida ishsizlar soni ko'p bo'lgan sharoitda, bu islohotni amalga oshirish maqsadga muvofiq emas. Yashirin iqtisodiyotni kamaytirish va rasmiy bandlar (soliq to'lovchilar) sonini oshirish mexanizmlarini ishlab chiqish orqali Pensiya jamg'armasining aktuar balansini yaxshilash maqsadga muvofiq [8].

- pensiya jamg'armasi tizimining bir qator daromad manbalari bekor bo'lganligini natijasida jamg'arma o'z moliyaviy mustaqilligini yo'qotdi. Pensiya tizimi ko'p bosqichli tizimga o'tishi munosabati bilan xarajatlarni subvensiya shaklida moliyalashtirishdan voz kechib, moliyaviy mustaqilligini ta'minlash uchun qo'shilgan qiymat solig'ining ma'lum bir qismini Jamg'armaga daromad sifatida yo'naltirish, daromad va xarajat o'rtasidagi salbiy farqni kompensatsiya qilib berish maqsadga muvofiq;

- ish beruvchi tomonidan xodim uchun to'lanadigan sug'urta (soliq) to'lovlarining kamayib boruvchi tartibini joriy qilish ularga nisbatan qo'llaniladigan soliq imtiyozlari bo'yicha aniq miqdoriy birliklarni amaliyotga kiritish (Rossiya, Germaniya, Qozog'iston, Singapur);

- ma'lum tarmoqda (aviatsiya, temir yo'l sohasi va hokazo) korporativ pensiya jamg'armalarni tashkil qilish bo'yicha me'yoriy va iqtisodiy asoslar ishlab chiqish (Rossiya, Niderlandiya).

## Manba va adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022 – 2026 -yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmoni <https://lex.uz/ru/docs/-5841063>

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 28-fevraldagi "2022 – 2026 - yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasini "Insonga e'tibor va sifatli ta'lim yili"da amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risida"gi PF-27-son Farmoni <https://lex.uz/docs/-6396146>

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 21-fevraldagi «"O'zbekiston — 2030" strategiyasini "Yoshlar va biznesni qo'llab-quvvatlash yili"da amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risida»gi PF-37-son Farmoni <https://lex.uz/docs/-6811936>

4. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024 yil 23-sentyabrdagi «Davlat pensiya ta'minoti tizimini isloh qilish konsepsiyasini ishlab chiqish bo'yicha tashkiliy chora-tadbirlar»gi 600-son qarori <https://www.lex.uz/uz/pdfs/7111596>

5. [uznews.uz](http://uznews.uz)

6. Statistika agentligi ma'lumotlari asosida i.f.n. Sh.Mahkamova hisob-kitoblari.

7. Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi ma'lumotlari

8. Mahkamova SH. Пенсия жамгармаси даромадларини ошириши ҳамда даромад ва харажатлар мутаносиблигини таъминлаш. "Iqtisodiyot: tahlillar va prognozlar" – T., 2023. -№2. – Б. 116-121.

- 
9. *World Population Prospects 2022* <https://population.un.org/wpp/> ma'lumotlari asosida mualliflar tomonidan hisoblandi
  10. *World Population Prospects 2024* <https://population.un.org/wpp/> va statistika agentliklari ma'lumotlari asosida mualliflar tomonidan tuzilgan.
  11. <https://visasam.ru/emigration/pension/pensiya-v-yaponii.html>
  12. <https://emigranto.ru/evropa/shveciya/pensionnyi-vozhrast-shvetciia.html>
  13. <https://ria.ru/20191211/1562277158.html>
  14. <https://zaganportal.ru/velikobritaniya/zhizn-v-velicobritaniji/pensiya-v-velikobritaniya.html>
  15. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2010-yil 19-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi 30 - son qarori <https://lex.uz/docs/-1594751>
  16. Pensiya jamg'armasi va *World Population Prospects – 2022* hisoboti <https://population.un.org/wpp/> ma'lumotlari asosida mualliflar tomonidan tuzilgan va hisoblab baholangan.
  17. Pensiya jamg'armasi va *World Population Prospects – 2022* hisoboti <https://population.un.org/wpp/> ma'lumotlari asosida A. Mamanov tomonidan hisoblangan.
-

УЎК: 316.334.025.(315.1)

**Жаҳонгир РАББИНОВ,**  
Бизнес ва тадбиркорлик олий мактаби магистранти,  
“UzGasTrade” АЖ бўлим бошлиғи,  
E-mail: rabbinov.j@gmail.com

## КАМБАҒАЛЛИКНИНГ ИНСТИТУЦИОНАЛ ЖИҲАТЛАРИ

**Аннотация:** ушбу мақолада камбағалликка институционал ёндашувнинг назарий қараишлари, институционал жиҳатдан келиб чиқиб камбағалликни камайтиришига қаратилган илмий ёндашувларни очиб бериш, камбағалликка таъсир этувчи салбий ва ижобий жиҳатлари, бунда трансакцион харажатлар, камбағалликни институционал ёндашувга кўра ўрганган иқтисодчи олимлар қарашлари, камбағаллик бўйича институционал трансформация жараёнлари тадқиқ қилишда турли ёндашувлар билан боғлиқ бўлган масалалар ёритиб берилган. Шунингдек, камбағалликнинг институционал жиҳатларини тадқиқ қилиш бўйича турли ёндашувлар таклиф сифатида келтирилган.

**Калит сўзлар:** институционал камбағаллик, институционал иқтисодиёт, трансакцион харажатлар, трансформация, трансформация харажатлари, Коуз теоремаси, мулк, экспроприация, тартибга солиш сифати, қонун устуворлиғи, коррупцияга қарши кураш, овоз бериш ҳуқуқи ва ҳисобдорлик, ҳуқуқатнинг самарадорлиғи, меҳнат, рента, инвестиция, персонал маълумотлар, ижтимоий ёрдам тизими.

### Институциональные аспекты бедности

**Джахонгир Раббинов,**  
Магистрант Высшей школы  
бизнеса и предпринимательства,  
начальник отдела АО “UzGasTrade”

**Аннотация:** в данной статье представлены теоретические взгляды на институциональный подход к бедности, раскрыты научные подходы, направленные на снижение бедности с институциональной точки зрения, негативные и позитивные аспекты, влияющие на бедность, в том числе трансакционные издержки, рассмотрены взгляды

экономистов, изучавших бедность согласно институциональному подходу, освещены различные подходы к исследованию процессов институциональной трансформации в условиях бедности. Также предлагаются различные подходы к исследованию институциональных аспектов бедности.

**Ключевые слова:** институциональная бедность, институциональная экономика, трансакционные издержки, трансформация, затраты на трансформацию, теорема Коуза, собственность, экспроприация, качество регулирования, верховенство закона, борьба с коррупцией, право голоса и подотчетность, эффективность правительства, труд, рента, инвестиции, персональные данные, система социальной поддержки.

### Institutional aspects of poverty

**Jakhongir Rabbinov,**  
Master's degree in the Graduate School of Business  
and Entrepreneurship, Head of the Department of  
the “UzGasTrade” Joint Stock Company

**Abstract:** this article presents theoretical views on the institutional approach to poverty, reveals scientific approaches aimed at reducing poverty from an institutional point of view, negative and positive aspects affecting poverty, including transaction costs, the views of economists who have studied poverty according to the institutional approach, various approaches to the study of institutional transformation processes in poverty. Coverage of issues related to this Also, various approaches to the study of institutional aspects of poverty are proposed.

**Keywords:** institutional poverty, institutional economics, transaction costs, transformation, transformation costs, Coase theorem, property, expropriation, quality of regulation, rule of law,



*fight against corruption, voice and accountability, government effectiveness, labor, rent, investment, personal data, social support system.*

### Кириш

Сўнгги йилларда иқтисодиётнинг барча тармоқларини жадал ривожлантириш, инвестициявий жозибдорлик ва ишбилармонлик фаоллигини ошириш, ишлаб чиқариш ва хизмат кўрсатиш соҳаларини кенгайтириш ҳамда ижтимоий соҳа ва аҳоли турмуш фаровонлигини оширишга қаратилган кенг қўламли ислохотлар амалга оширилди.

Интернет тармоқларида камбағалликни қисқартиришга Ижтимоий ёрдам тизими (нафақалар, моддий ёрдам ҳамда компенсация, солиқ имтиёзлари, имтиёзли кредитлар, субсидиялар ва бошқа кўринишдаги ёрдамлар) бўйича бир қанча маълумотлар тарқатилиши, жумладан бўш иш ўринлари эълон қилиниши ҳамда ижтимоий тармоқлар ва ундан фойдаланувчилари сони юқори (экспоненциал) суръатлар билан ўсишига қарамай, ривожланаётган мамлакатларда камбағаллик, қашшоқлик, тенгсизлик ва очлик мавжудлигича қолмоқда.

**Қуйидаги савол туғилади:** нега дунё бўйлаб йирик давлатларнинг инвестицияларига қарамай камбағаллик сақланиб қолмоқда? Бу саволга жавобни камбағалликнинг институционал жиҳатдан сабабларидан излаш тақозо этилади.

Ижтимоий ёрдам тизими камбағалликни қисқартиришнинг тўғридан тўғри таъсир ўтказувчи воситаларидан ҳисобланади. Ижтимоий ёрдам тизими камбағаллик, қашшоқликка қарши курашда муҳим роль ўйнаши мумкин, аммо улар камбағаллик ва очликни йўқ қилишнинг асосий ечими эмаслигини кўришимиз мумкин.

Камбағалликни қисқартиришда институционал трансформация жараёнлари, юқори манфаатдорлик ва изчил институционал чораларни амалга ошириш диққатимиз марказида бўлади.

### Адабиётлар шарҳи

Ҳозирга қадар институционал иқтисодиёт олимларининг илмий изланишлари ва иқтисодиётнинг институционал трансформациясини таҳлил қилиш, шунингдек камбағалликнинг институционал жиҳатларини тадқиқ қилиш бўйича хориж олимлари бир қанча тадқиқот ишларини олиб борган, улар иқтисодиётдаги реал ҳолатни, айниқса камбағалликни институционал қарашлар асосида ўрганиш ва камбағалликни қисқартириш, соҳаларни ривожлан-

тириш бўйича концепциялар ва турли тавсиялар ишлаб чиқиш масаласига эътибор қаратганлар.

Д.Нортнинг “Институтлар, институционал ўзгаришлар ва иқтисодиётнинг самарадорлиги” номли китобида “Учинчи дунё мамлакатларида камбағаллик сақланиб қолишининг асосий сабаби шуки, мазкур мамлакатлардаги институционал чекловлар (қонун чиқарувчи, ижро этувчи, суд ҳокимиятлари фаолияти ва аҳоли учун ижтимоий хизмат кўрсатаётган тузилмани мисол қилиш мумкин) ҳисобидан барча иқтисодий агентларнинг самарали фаолияти учун қулай бўлмаган сиёсий/иқтисодий қарорларни маъқуллайди (бунда маълум гуруҳ манфаатлари учун қарорлар қабул қилинади)” [3].

Шунингдек, Д.Норт “Социалистик мамлакатлар иқтисодиётнинг ёмон ишлашига айнан шу мамлакатларнинг асосий институционал тизими сабаб бўлгани туфайли, улар ўз олдиларига устувор мақсад сифатида институционал тизимни қайта қуриш вазифасини қўйиб, иқтисодий агентлар ва ташкилотларнинг самарадорлигини оширишга ҳаракат қилмоқдалар” дея таъкидлайди [3].

Бундан ташқари Абхиджит Банерджи ва Эстер Дюфло каби олимларнинг тадқиқотларини кўриб чиқишни маъқул топдик. 2003 йилдан бошлаб Ҳиндистон ва Африкадаги мамлакатлардаги камбағал қатламни мустақил равишда иқтисодий мустақилликка эриштириш ёки камбағалларнинг ташқи ёрдамга муҳтож бўлган жиҳатларини ажратиш мақсадида А.Банерджи ва Э.Дюфло ўзлари томонидан ташкил қилинган камбағалликка қарши кураш лабораторияси орқали асл ҳолатни ифодаловчи бир қанча материаллар тўпладилар ва унинг асосида муҳим натижалар олинди [4].

Р.Ҳасан, Р.Митра, М.Улубасоглу [5] ва Т.Бретон [6] тадқиқотлари заиф институтлар ва қашшоқлик ўртасидаги алоқалар ҳақида тўлиқроқ тасаввур беради.

Хусусан, Покистонда 2008 йилдан бошлаб ижтимоий ёрдам тизими учун даромадларни қўллаб-қувватлаш “Беназир” дастури (нафақалар, моддий ёрдам ва компенсация учун пул ўтказмалари) иш бошлади. Ҳозирги кунда Покистон бўйлаб 5,4 миллиондан ортиқ камбағал оилалар мазкур дастурдан молиявий ва ижтимоий манфаатдор бўлишмоқда. Шунингдек, 1,5 миллионга яқин оила бошланғич таълим учун грант олмақда [7].

Институционализмга асосланган илмий изланишлар ўтказган иқтисодчи олимларнинг (Д.Норт,

Р.Коуз ва бошқалар) асарларида мураккаб формулалар, графикларга асосланган таҳлиллар жуда кам учрайди [3,8].

Уларнинг далиллари одатда тажрибага, макро ва микро даражадаги статистик маълумотларга асосланади. Уларнинг диққат маркази нархлар, талаб ва таклифни таҳлил қилишга эмас, балки кенгроқ масалаларга қаратилади ҳамда яхлит институт сифатида кўплаб ижтимоий, сиёсий масалаларни қамраган ҳолда ўрганишга ҳаракат қиладилар.

Улар соф иқтисодий муаммолар, жумладан фақат фойда ва зарар билан эмас, балки ижтимоий, сиёсий, ахлоқий, ҳуқуқий ва бошқа муаммолар билан боғлаган ҳолда турли иқтисодий муаммоларга ечим топишга ҳаракат қилишади.

Иқтисодиётни тадқиқ қилишда институционал ёндашувлар ишлаб чиқиш, шунингдек камбағалликни институционал жиҳатдан ўрганишга доир ягона қоида ишлаб чиқилмаган.

Иқтисодий муаммоларга ечим топиш, муҳим ва долзарб вазифаларни ҳал қилишга эътибор қаратган институционал иқтисодчилар умумий услубият (методология) ишлаб чиқмаганлар, ягона илмий мактабга асос солилмаган. Айни пайтда неоинституционализмда бундай талаб ҳам мавжуд эмас. Шунинг учун бўлса керак, барча учун бирдек ишлайдиган қонун ёки қоидалар ишлаб чиқишда ўта эҳтиёткорона ёндашув мавжуд. Қонун ёки қоидалар сифатидаги таклифларни қандайдир шартли ҳолатлар мавжудлигини инобатга олган ҳолда тақдим қиладилар.

Бу ҳолат иқтисодиётнинг институционал йўналиши ҳали ҳам ривожланишда эканлигини, унинг умумий, мантикий изчил назариясини ишлаб чиқиш ва қабул қилиш илгари сурилмаганини кўрсатади. Бу эса кейинги даврларда жамият ва одамларнинг ривожланиши ҳисобидан янги қомусий олимлар етишиб чиқишига сабаб бўлиши мумкин.

Бу камбағалликни қисқартиришда институционал ёндашув талаб этилишини кўрсатади.

### Таҳлил

Янги Ўзбекистон тараққиёт стратегиясини амалга ошириш жараёнида орттирилган тажриба ва жамоатчилик муҳокамаси натижалари асосида ишлаб чиқилган “Ўзбекистон–2030” стратегияси Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2023 йил 11 сентябрдаги “Ўзбекистон–2030” стратегияси тўғрисида”ги ПФ-158-сон Фармонида асосан тасдиқланган.

Мазкур стратегиянинг “Ижтимоий хизматлар кўрсатиш ва камбағалликни қисқартириш бўйича ислохотлар” биринчи устувор йўналишининг

27-мақсади сифатида “Мамлакатда камбағаллик даражасини қисқартириш” белгиланган. Мазкур йўналишдаги стратегик вазифаларда бири сифатида “2026 йилга қадар камбағалликни 2022 йилга нисбатан 2 баробарга, 2030 йилга қадар эса кескин қисқартириш; Камбағалликка тушиш хавфи мавжуд 4,5 миллион аҳоли даромадини ошириш; Ижтимоий шериклик асосида 500 минг малакали мутахассис тайёрлаш” бўйича 2030 йилгача эришиладиган мақсадларнинг самарадорлик кўрсаткичлари белгиланган ва бу стратегик мақсадларга эришишда муҳим аҳамият касб этади [1].

Мамлакатимизда камбағалликни қисқартириш ва аҳолини ижтимоий ҳимоя қилиш борасида катта дастурлар амалга оширилмоқда.

Президент Шавкат Мирзиёев Олий Мажлис Сенатининг парламент сайловидан кейинги биринчи мажлисидаги нутқида тўрт йил аввал 23 фоиз аҳолимизнинг даромади камбағаллик чегарасига ҳам етмаганлигини, ўтган даврда 3,5 миллион фуқаро учун даромад олиш имконияти яратилиб, камбағалликни 11 фоизга қадар туширишга эришилгани, келгуси уч йилда уни 7 фоизга қадар тушириш режа қилинганлиги айтдилар [2].

Мазкур кўрсаткичларга эришишда иқтисодиётнинг камбағалликни қисқартиришга доир масалалари ўз ечимини топиши учун институционал ёндашув ва трансформация жараёнларини ўрганиш ўта муҳим роль ўйнайди.

Биз, институтларнинг табиати ва мавжудлигининг амалдаги ҳолати мамлакатларда камбағаллик ҳамда тенгсизликнинг асосий сабабидир, деб ҳисоблаймиз. Мазкур тушунчага аниқлик киритиш мақсадида “Институционал камбағаллик” (Institutional poverty) атамаси ишлатилади. Мазкур атаманинг истеъмолга кириши 1990 йилларда бошланган ва 2000 йиллардан сўнг истеъмол қилиш фаоллашган.

Институционал ўзгаришлар жамиятларнинг вақт ўтиши билан қандай ривожланишини белгилайдиган ўзак эканлигини инобатга олсак, камбағалликни қисқартириш жамият ва иқтисодиёт тараққий этишига хизмат кўрсатиши мумкин.

Шу ўринда Абхиджит Банерджи, Эстер Дюфлонинг “Қашшоқлик иқтисодиёти: дунёда қашшоқликка қарши кураш усуларини тубдан қайта кўриб чиқиш” (инглизча: “Poor Economics:

**A Radical Rethinking of the Way to Fight Global Poverty**” русча – “Экономика бедности: Радикальное переосмысление путей борьбы с бедностью в мире”) китобидан айрим иқтибослар келтиришни жоиз топдик. Унга кўра, турли мамлакатларда 70–80 та тажриба ўтказиб, камбағаллар нима сотиб олишини, фарзандларининг соғлиғига қандай ғамхўрлик қилишларини, қанча фарзанд кўришни хоҳлашларини, нима учун фарзандлари мактабга боришини, лекин ҳали ҳам кўп нарсани ўргана олмаётганлигини ўрганиб, микромолиялаштириш фойдалилигини, аммо у муаммонинг тўлалигача ечимини бера олмаслиғига иқроор бўлишган [4].

А.Банерджи, Э.Дюфлолар олиб борилган тадқиқотларига асосланиб, қишлоқ жойларидаги камбағаллар озиқ-овқатга даромадларининг 36–70 фоизини, шаҳарлардаги камбағаллар эса 53–74 фоизини сарфлайди, деган хулосага келишган. Шу билан бирга, ушбу тадқиқотлар камбағаллар ҳам қиммат, мазали ва юқори калорияли таомларни афзал кўришлари ва ҳаётни ёркинроқ ҳамда одатдагидан оз бўлса ҳам бошқачароқ қиладиган турли харажатлар қилишга тайёрлигини кўрсатди [4].

Хусусан, Ҳиндистоннинг Шимолий Ражастан штатида, камбағаллар телевизорга уланиш имконига эга эмаслар, улар оилавий бюджетнинг 14 фоизини турли хил байрамларга сарфлайдилар ва Никарагуада қишлоқлардаги камбағалларнинг 56 фоизида радио ва 21 фоизида телевизорлар мавжуд бўлиб, кўп оилалар турли байрам ва маросимларга пул сарфламасликлари келтирилган [4].

А.Банерджи, Э.Дюфлолар олиб борилган кўп йиллик тадқиқотлари натижасига кўра, “**муаммони бирданига ҳал қилишнинг сеҳрли усули йўқ**” деган хулосага келишади. Шунингдек, Даромаднинг оддий ўсиши (кўплаб компенсация, солиқ имтиёзлари ва бошқалар) озиқ-овқат истемоли сифатининг ошишига сабаб бўлади, лекин ҳаёт сифатининг ошишига олиб келмайди, чунки қўшимча истаклар пайдо бўлади [4].

А.Банерджи, Э.Дюфлолар камбағалликни қисқартиришнинг тўғри ёндашувини шакллантириш мақсадида тавсиявий йўналишлар рўйхатини туздилар, масалан фойдали маълумотлар ва янгиликларни тарқатиш (ОИВ инфекциясини юктириб олмаслик учун нима қилиш кераклиги, микромолиялашлар ва мобил телефонлар орқали пул ўтказмалардан фойдаланиш тўғрисидаги тавсияларни мисол қилиб кўрсатиш мумкин).

Камбағалликни қисқартиришнинг энг тўғри йўлларида бири бу биз билган нарсаларга ва жамиятда амалда мавжуд нормаларга асосланиш ҳамда мавжуд воситалар асосида вазиятни ўнглаш кераклигини кўрсатиб беради (аҳолини касбга ўқитиш, бандлигини таъминлаш, минимал озиқ-овқат, темир ва йод моддалари билан бойитилган арзон туз истеъмоли билан таъминлаш кабиларни мисол тариқасида кўрсатиш мумкин).



**1-расм. Камбағалликни қисқартиришнинг муқобил чоралари**

**Манба:** Расм А.Чонг ва С.Калдероннинг “*Institutional quality and poverty measures in a cross-section of countries*” мақоласи асосида муаллиф томонидан тузилган.

А.Чонг ва С.Калдерон камбағалликни қисқартиришда институтларнинг бешта муқобил чораларидан фойдаланиш кераклигини таъкидлайдилар, шу жумладан, шартномавий муносабатларни рад этиш, мулкларни экспроприация хавфини камайтириш, коррупцияга қарши курашиш, қонун ва қоидалар қабул қилишнинг анъаналарини қайтадан кўриб чиқиш ҳамда бюрократия даражаси ва сифати (1-расм) [8].

**Жаҳон банкнинг “Бошқарув масалалари бўйича VI наشري:**

1996–2006 йилларда сиёсий тадқиқотлар учун бошқарув индикаторлари бўйича ишчи ҳужжатлари”да Д.Кауфман ва бошқа ҳаммуаллифлар биргаликда қуйидагиларни камбағалликни қисқартиришнинг институционал мезонлари сифатида келтирадилар (2-расм) [10].

**Тартибга солиш сифати** – “Нархларни назорат қилиш ёки банк назоратининг етарли эмасли-

ги каби бозор муносабатларига мос келмайдиган сиёсатнинг амалга оширилиши, шунингдек ташқи савдо ва бизнесни ривожлантириш каби соҳаларда ҳаддан ташқари тартибга солиш чоралари кўришни ўз ичига олади” [10];

**Қонун устуворлиги** – “Бунга иқтисодий агентларнинг жамият қоидаларига бўлган ишонч даражаси ва уларга риоя этилишини ўлчайдиган бир нечта индикаторлар киради. Булар жиноятчилик даражасини идрок этиш (ҳуқуқий оқибатларига паст назар билан қараш ёки оқибатларини тўлик тушуниш ҳисобига ўзини тийиб туриш), суд тизимининг самарадорлиги ҳамда суд қарорларининг олдиндан прогноз қилиниши (прогноз ҳисобига олдиндан келишув ва ўзаро тийиб туриш, самарали ҳамкорликка эришиш) ва шартномаларни бажариш қобилиятидир. Умуман олганда ушбу индикаторлар жамиятнинг ривожини, шу жумладан иқтисодий ва ижтимоий ўзаро муносабатларнинг асосини ташкил этадиган муҳитининг ривожланганлигини, адолатли қоидалар ҳамда прогноз қилинадиган қарорлар мавжудлигини, энг муҳими, мулк ҳуқуқларини ҳимоя қилиш даражасини ўлчайди” [10];

**Коррупцияга қарши курашиш** – “Давлат мансабдор шахсларининг мансаб ёки хизмат мавқеидан шахсий манфаатлари учун фойдаланиши – деб таърифланган “коррупция” иқтисодий агентларнинг институционал жиҳатдан аъъанавий тасаввурларини ўлчайди. Коррупциянинг мавжудлиги кўпинча фуқаро ёки хусусий сектор вакили ҳамда мансабдор шахс томонидан уларнинг ўзаро муносабатини қонун ва тартибга солувчи қоидаларга ҳурматсизлигининг намоён бўлишидир ва бу мавжуд бошқарувнинг муваффақиятсизлигини англатади” [10];

**Овоз бериш ҳуқуқи ва ҳисобдорлик** – “Мамлакат фуқароларининг ўз ҳукуматини танлашда қай даражада иштирок этиши, шунингдек сўз эркинлиги, бирлашиш эркинлиги (фуқаролик жамияти институтларини тузиш, ННТларни мисол қилиш мумкин) ва эркин ОАВ. Сиёсий барқарорлик ва сиёсий таҳдидлар йўқлиги (ҳукуматнинг мамлакат Конституциясига зид ёки зўравонлик усуллари, шу жумладан оиладаги зўравонлик ва терроризм билан беқарорлашиш эҳтимолининг йўқлиги)” [10];

**Ҳукуматнинг самарадорлиги** – “Давлат хизматларининг сифати, давлат идораларининг бошқарув сифати ва уларнинг бозор муносабатларига номувофиқ сиёсий босимдан мустақиллик даражаси, соҳаларда сиёсатни (концепция,

доктрина ва бошқалар) ишлаб чиқиш ва амалга ошириш сифати, шунингдек ҳукуматнинг ишлаб чиқилган ва эълон қилинган сиёсатга содиқлигига ишонч мавжудлиги” [10].



## 2-расм. Камбағалликни қисқартиришнинг институционал мезонлари

**Манба:** расм Жаҳон банкининг "World Bank Policy Research Working Paper" тадқиқот ҳисоботи асосида муаллиф томонидан тузилган.

Юқорида келтирилганлар институционал камбағалликнинг келиб чиқиш сабаблари ва чораларини англашга ёрдам беради.

Камбағалликни қисқартиришни Р.Коуз теоремасидан фойдаланган ҳолда кўриб чиқишга ҳаракат қиламиз. Теоремани музокаралар имконсиз ёки жуда қимматга тушганда (масалан, шартнома ёки низода кўп сонли томонлар иштироки) қўллаш муҳимдир.

**Р.Коуз теоремасида** – “Агар мулк ҳуқуқлари аниқ белгиланган бўлса ва трансакцион харажатлар нолга тенг бўлса, унда мулк ҳуқуқларини тақсимлашдаги ўзгаришлардан қатъий назар, ресурсларни тақсимлаш (ишлаб чиқариш таркиби) ўзгаришсиз ва самарали бўлиб қолади” дейилган. [8,11]. Бунда мазкур теоремани камбағалликни қисқартиришда қандай қўллаш мумкин, деган савол туғилади.

*Биринчидан*, иқтисодиётнинг асоси мулкчилик муносабатларидан ташкил топади. Мулк ҳуқуқи мавжуд бўлиши учун аввало шахсда даромад манбаи бўлиши лозим. Инсонларнинг мулкдор бўлиши

учун асос сифатида уч турдаги даромад кўриш манбаини кўриб чиқишни маъкул топдик, хусусан бу меҳнат қилиш ҳисобидан даромад, рента олиш (ер ва табиий ресурслардан, монопол фаолиятдан фойда, интеллектуал мулкдан олинадиган даромад), инвестиция (капитал қўйилмалар) орқали даромад қилиш (3-расм) [12].



**3-расм. Инсонларнинг мулкдор бўлиш учун асослари**

**Манба:** расм Джозеф Стиглицнинг “People, Power, and Profits: Progressive Capitalism for an Age of Discontent” китобига асосида муаллиф томонидан тузилган.

Камбағал аҳоли қатламларида мазкур турдаги даромад йўналишларини шакллантириш, асосан “меҳнат қилиш ҳисобидан даромад олиш” бўйича дастурлар амалга оширилмоқда.

Рента олиш, инвестиция йўналишида даромадлар оширишга ҳаракат қилиш бўйича изланишлар кўзга ташланарли даражада эмас.


Ҳар бир шахс биомаълумотга эгалик қилишини инобатга олган ҳолда рентага асосланган даромадлар олиши мумкин. Шу нуқтаи назардан келиб чиққанда, ҳар бир персонал маълумотлар ва биомаълумотлар мулк сифатида қаралиши ҳамда унинг ҳисобидан ҳар бир инсон рента асосида даромад олиниши мумкин.

Бу эса электрон ҳукумат ва ижтимоий тармоқ корпорациялари кўрсатаётган хизматларидан ҳар бир шахс, жумладан, камбағал аҳоли қатламлари фойдаланувчи эканлиги, ҳар бир персонал маълумотлар асосида инвестиция кўламини кенгайтириши, камбағал аҳоли қатламига медиа воситаларидан фойдаланиш рағбатлари мавжудлиги ва улар учун мўлжалланган бизнес ривожланаётганлигини мисол қилиш мумкин. Камбағалликни қисқартиришда ҳукуматлар томонидан электрон ҳукумат ва ижтимоий тармоқлар корпорациялари воситаларидан фойдаланган ҳолда турли дастурларни амалга ошириш имкониятларини кўриб чиқиш зарурдир.

Бундан ташқари мамлакатимизда камбағал аҳоли қатламига нафақалар, моддий ёрдам ва компенсациялар берилишида электрон ҳукумат воситаларидан фойдаланишни кенгайтириш, шунингдек АКТ соҳасининг бошқа маҳсулотларидан фойдаланиш пировардида камбағалликни қисқартириш мақсадга мувофиқдир.

Юқоридагилардан келиб чиқиб, қуйидагини қоида сифатида келтириш ўринли деб ҳисобланади “аҳоли ва ресурслар сонининг чекланганлиги ва мулкчилик объекти қандайлигидан қатъий назар янги мулкчилик муносабатлари шаклланиши ҳисобидан камбағалликни қисқартириш имконияти мавжуддир”.

Юқоридаги келтирилганларнинг исботи ўлароқ аҳоли мулкчилик муносабатлари ривож одатда ялпи ички маҳсулот (ЯИМ) ўсиши [13] ва аҳолининг жон бошига нисбатан ЯИМнинг ошиши ҳисобидан мамлакатда нафақалар, моддий ёрдам ва компенсация [14] камайишини кўришимиз мумкин (4-расм).



**4-расм. 2020–2025 йилларда аҳоли жон бошига ЯИМ ўсиши ҳамда Ўзбекистон Республикаси бюджетда нафақалар, моддий ёрдам ва компенсация харажатларининг нисбати [13,14]**

**Манба:** расм Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Статистика агентлиги ва Иқтисодиёт ва молия вазирлигининг маълумотлари асосида муаллиф томонидан тузилган.

Иккинчидан, институционал иқтисодиёт (неоинституционализм) олимларининг фикрига кўра, институтларнинг муҳим қисми – анъаналар, урф-одатлар, ҳуқуқий нормалар чекланган рационаллик ва оппортунистик хатти-ҳаракатларнинг салбий оқибатларини камайитиришга қаратилган [15,16].

Барчамизга маълумки трансакция харажатлари шартномалар тузиш билан боғлиқ харажатлар (шу жумладан бозор механизмларидан фойдаланиш), иқтисодий агентларнинг ўзаро муносабатларга киришиш ва мавжуд муносабатлар шароитида юзага келадиган харажатлар киради. Бундан ташқари ахборотни йиғиш ва қайта ишлаш харажатлари, музокаралар ва қарорлар қабул қилиш харажатлари, назорат қилиш учун харажатлари, шартнома бажарилишини ҳуқуқий ҳимоя қилиш харажатларини ўз ичига олади.

Одатда камбағал аҳоли қатлами мазкур турдаги харажатларни амалга оширишга имкониятлари чекланганлиги учун мулкчилик муносабатларига киришишдан ўзларини тийилишади ҳамда амалдаги турмуш тарзини мақбул кўришади.


Бундан ташқари трансакцион харажатлар ижобий бўлиши – камбағалликни қисқартириш бўйича дастурларда “камбағаллик даражаси ошиб кетилишининг олдини олишни” асосий мақсад сифатида кўйишга мажбур бўладилар ва ижтимоий ёрдам тизимининг кенгайишини рағбатлантирадилар, аммо булар камбағалликни ва қашшоқликни йўқ қилишнинг ечими бўлмайди.

Камбағалликни қисқартириш учун мўлжалланган дастурларнинг самарасини ошириш учун трансакцион харажатларни нолга тенглаштириш лозимдир. Бунда трансакцион харажатлар нолга тенг ёхуд энг кам миқдорларда бўлса, мулкчилик муносабатлари кенгайиши, одамларда мулкдор бўлиш учун чекланган рационаллиги ва оппортунистик хатти-ҳаракатлари камайишига ижобий таъсир қилади.

Шу ўринда Ўзбекистон Республикаси бюджетининг 2020–2025 йилларда ижтимоий соҳа харажатларини ва ундаги нафақалар, моддий ёрдам ва компенсацияларнинг улушини кўриб чиқишни маълум деб топдик [14].

2020 йилда Давлат бюджети ижтимоий харажатларининг 11% ини нафақалар, моддий ёрдам ва компенсация харажатлари ташкил этиб, 2019 йилга нисбатан 3 450,5 млрд сумга ошган ҳолда, 8 190,9 млрд сўмга ёки 172% га ижро этилган. (5-расм) 2021 йилда Давлат бюджети ижтимоий харажатларининг 11,8% ини нафақалар, моддий ёрдам ва компенсация харажатлари ташкил этиб, 2020 йилга нисбатан 2 690 млрд сўмга ошган ҳолда, 10 880,3 млрд сўмга ёки 132% га ижро этилган. (5-расм) 2022 йилда Давлат бюджети ижтимоий харажатларининг 16,5% ини нафақалар, моддий ёрдам ва компенсация харажатлари таш-

кил этиб, 2021 йилга нисбатан 8 516,8 млрд сўмга ошган ҳолда, 19 397,1 млрд сўмга ёки 178% га ижро этилган. (5-расм) 2023 йилда Давлат бюджети ижтимоий харажатларининг 13,9% ини нафақалар, моддий ёрдам ва компенсация харажатлари ташкил этиб, 2022 йилга нисбатан 1 330,1 млрд сўмга камайган ҳолда, 18 067 млрд сўмга ёки 93% га ижро этилган. (5-расм) 2024 йилда Давлат бюджети ижтимоий харажатларининг 10,8% ини нафақалар, моддий ёрдам ва компенсация харажатлари ташкил этиши ва 2023 йилга нисбатан 2 660,4 млрд сўмга камайган ҳолда, 15 466,6 млрд сўмга ёки 85% га ижро этиши кутилмоқда. (5-расм) 2025 йилга келиб, Давлат бюджети ижтимоий харажатларининг 9,5% ини нафақалар, моддий ёрдам ва компенсация харажатлари ташкил этиб, 2024 йилга нисбатан 1 533,4 млрд сўмга ошган ҳолда, 17 000 млрд сўмга ёки 109% га ижро этилиши прогноз қилинмоқда. (5-расм)



**5-расм. 2020-2023 йилларда Ўзбекистон Республикаси бюджетининг ижтимоий харажатлари ва унда нафақалар, моддий ёрдам ва компенсация харажатларининг улуши [14].**

**Манба:** расм Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Статистика агентлиги ва Иқтисодиёт ва молия вазирлигининг маълумотлари асосида муаллиф томонидан тузилган.

Демак, ижтимоий харажатлар таркибида нафақалар, моддий ёрдам ва компенсациялар камайиши трансакцион харажатлар энг кам миқдорларга тушаётганлигини, бу эса мулкчилик муносабатларига киришишдаги фаоллик ҳамда аҳолининг даромадларни топиш бўйича билим ва кўникмалари ошишига далолат қилади.

### Хулоса

Институционал камбағаллик мавжудлиги даромадлар тенгсизлиги ва институтларнинг заиф ривожланганлик манбаи ҳисобланади. Шу ўринда таъкидлаш лозимки, заиф институтлар сиёсатчилар ва ҳукумат амалдорларига давлат ресурсларидан ўз манфаатлари йўлида фойдаланишга имкон беради.

Коррупция ва ҳукуматнинг мамлакат учун самарасиз фаолияти камбағалликка олиб келади, даромадлар тенгсизлигини оширади. Шунингдек, бу ҳолат қонун устуворлиги ва тартибга солиш институтларининг ривожланганлигига ва соҳада амалий натижалар мавжудлигига ҳам боғлиқдир.

Камбағалликни қисқатириш учун аввало институционал ислохотлар (институционал трансформация) ўтказилиши муҳим бўлиб, бунда аҳолини даромадсизликдан ҳимоя қилишга алоҳида эътибор талаб этилади.

Иқтисодиётни институционал трансформация қилиш натижасида ресурсларни адолатли тақсимлаш ва барча фуқароларга ижтимоий-иқтисодий хизматлар кўрсатиш кафолатланади.

Ривожланаётган мамлакатларда ижтимоий ҳимоя дастурларини амалга ошириш ва унинг кўламини кенгайтиришдан кўзланган фойдани олиш учун трансформацион харажатларни ошириш талаб этилади.

Институционал ислохотлар қонунчиликни қайта ишлаб чиқиш ва такомиллаштиришни, жавобгарлик ва шаффофликни таъминлаш, қонун устуворлигини ва сиёсий барқарорликни таъминлаш учун кўп ва ҳар томонлама фойдали ҳамда изчил сиёсий ёндашувни қўллашни талаб қилиши мумкин.

Институционал камбағалликни ҳал қилмасдан, камбағаллик ва ишсизликка оид муаммоларни ҳал қилиш орзуси ҳеч қачон ҳақиқатга айлана олмайди.

### Институционал камбағалликни тадқиқ этишни қўидаги ёндашувлар асосида олиб бориш таклиф этилади:

- ҳар бир персонал маълумотлар ва биомаълумотлар мулк сифатида қаралиши ҳамда унинг ҳисобидан ҳар бир инсон рента асосида даромад олиши мумкин;

- камбағалликни қисқартиришда ҳукуматлар томонидан электрон ҳукумат ва ижтимоий тармоқлар корпорациялари воситаларидан фойдаланган ҳолда турли дастурларни амалга ошириш имкониятларини кўриб чиқиш зарурдир;

*Iqtisodiy samaradorlik va jamoatchilik nazorati.* Alatas va boshqalar (2012) Indoneziyada o'tkazilgan tadqiqotda tashabbusli budjet davlat xizmatlarining sifati va samaradorligini oshirishda muhim rol o'ynashini ko'rsatgan[4]. O'zbekistonda ham "Tashabbusli budjet" jarayoni orqali aholi davlat resurslaridan samarali foydalanishga jalb etilishi va jamoatchilik nazorati mexanizmlarining kuchayishi

kutilmoqda. Ferraz va Finan (2011) Braziliyadagi tadqiqotida tashabbusli budjet korrupsiyani kamaytirishga yordam berishi mumkinligini qayd etgan[5]. O'zbekistonda ham ushbu mexanizm budjet mablag'larining shaffofligini ta'minlash va samarasiz sarflarning oldini olishga xizmat qilmoqda. Yuqorida keltirilgan tadqiqotlar va tahlillar shuni ko'rsatadiki, "Tashabbusli budjet" ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni ta'minlash, davlat boshqaruvida shaffoflikni oshirish va fuqarolarning ishtirokini kuchaytirish uchun samarali vosita sifatida xalqaro darajada e'tirof etilgan. O'zbekistonda ham ushbu mexanizm joriy etilganidan buyon aholining davlat resurslari taqsimoti jarayonidagi ishtiroki kengaymoqda va ijtimoiy muammolarning hal etilishida sezilarli natijalar kuzatilmoqda.

Shu o'rinda ta'kidlash joiz-ki, xorijiy tadqiqotlarda "Tashabbusli budjet" loyihasining ijtimoiy jihatlariga ko'proq e'tibor qaratilgan bo'lib, tadbirkorlik faolligining loyihaga ta'siri, aholi zichligi va shaharlashuvning loyihaga ta'siri yetarlicha o'rganilmagan, bundan tashqari ishsizlik darajasi yuqori bo'lgan hududlarning o'ziga xos xususiyatlariga kam e'tibor berilgan. Zero, Tadbirkorlik faoligi bilan bog'liqlikni o'rganish orqali loyiha samaradorligini oshirish bo'yicha yangi tavsiyalar ishlab chiqish, ishsizlik darajasining ta'sirini o'rganish orqali esa loyiha ijtimoiy muammolarni hal qilishdagi samaradorligini oshirish mumkin. Xuddi shuningdek, aholi zichligi bilan bog'liqlikni o'rganish orqali loyihalarni rejalashtirish va amalga oshirishda hududiy xususiyatlarni hisobga olish mumkin.

Ushbu maqolada "Tashabbusli budjet" loyihasining 2024 yildagi natijalari tahlil qilinib, uning O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishga qo'shayotgan hissasi aniqlanadi.

### **Metodologiya**

Ushbu tadqiqotda "Tashabbusli budjet" loyihasining 2024 yildagi natijalari chuqur tahlil qilindi. **Tadqiqotda qo'llangan metodologiya quyidagi asosiy bosqichlarni o'z ichiga oladi:**

*1. Ma'lumot manbalari.* Tahlil uchun ma'lumotlar "Ochiq budjet" portali[6], Statistika agentligining rasmiy sayti va Davlat soliq qo'mitasidan taqdim etilgan ma'lumotlar asosida yig'ildi. Ushbu ma'lumotlar "Tashabbusli budjet" loyihasining ikki mavsumi davomida hududlar kesimida to'plangan tashabbuslar, g'olib loyihalar va ovoz berish ko'rsatkichlarini, Statistika agentligining aholi soni, ishsizlik darajasi va Davlat soliq qo'mitasining tadbirkorlar soni to'g'risidagi ma'lumotlarini o'z ichiga olgan.

2. *Statistik tahlil usullari.* Korrelatsion tahlil: Ijtimoiy-iqtisodiy omillar (masalan, aholi zichligi, ishsizlik darajasi, tadbirkorlar soni) va "Tashabbusli budjet" loyihasi natijalari o'rtasidagi bog'liqlik darajasini aniqlash uchun foydalanildi. Regressiya tahlili: tadbirkorlik faolligi, aholi soni va ishsizlik darajasi kabi omillarning tashabbuslar va g'olib loyihalarga ta'sirini chuqur tahlil qilish uchun qo'llanildi.

3. *Hududiy taqqoslash.* Tahlil natijalari hududlar kesimida tahlil qilindi. Bunda har bir viloyatning ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlari va loyihaga qo'shgan hissasi o'rganildi. Ma'lumotlarni vizualizatsiya qilish uchun harorat xaritalari va grafikalar yaratildi.

4. *Muvaffaqiyat indeksini hisoblash.* Tadqiqot davomida tashabbusdan g'olib bo'lgan loyihalarning ulushi asosida muvaffaqiyat indeksi ishlab chiqildi. Ushbu indeks loyihaning samaradorligini aniqlashda asosiy ko'rsatkich sifatida ishlatildi.

5. *Shahar va qishloq joylarining samaradorligini taqqoslash.* Loyihaning shahar va qishloq joylardagi natijalariga alohida e'tibor qaratildi. Ushbu tahlil orqali turli hududlarda omillar va natijalar o'rtasidagi farqlar aniqlandi.

6. *Sohalar kesimida tahlil.* Loyihaning turli sohalaridagi samaradorligi (masalan, sog'liqni saqlash, ta'lim, infratuzilma) bo'yicha chuqur tahlil o'tkazildi. Ushbu bosqichda fuqarolar tomonidan ustuvor deb topilgan yo'nalishlar aniqlab berildi.

Ushbu metodologiya "Tashabbusli budjet" loyihasing ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyatini ochib berish, omillarning loyihaga ta'sirini aniqlash va kelgusida loyihaning samaradorligini oshirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqishga imkon berdi.

### Tahlil va natijalar

I. "Tashabbusli budjet" loyihasiga ijtimoiy-iqtisodiy omillar ta'siri loyihaning asosiy ko'rsatkichlari bilan tadbirkorlik, ishsizlik, aholi zichligi kabi ko'rsatkichlar o'rtasidagi bog'liqliklarni o'rganish orqali tahlil qilindi. Tanlangan ko'rsatkichlar iqtisodiy va ijtimoiy holatning jamoatchilik tashabbuslari va g'olib loyihalarga bo'lgan ta'sirini aniqlashga qaratilgan. Bunday tahlil loyihalarning ijtimoiy ahamiyatini va resurslar taqsimotining samaradorligini tushunishga yordam beradi. Tahlil natijalari korrelyatsiya matritsasi va uning harorat xaritasi ko'rinishida taqdim etilgan (1-jadval).

1-jadval

### Ijtimoiy-iqtisodiy omillarning "Tashabbusli budjet" loyihasi natijalari bilan bog'liqlik harorat xaritasi

Tadbirkorlik	1,00	-0,54	0,76	0,51	0,43	0,61	0,71	0,40	yuqori ijobiy bog'liqlik (+1)
Ishsizlik	-0,54	1,00	-0,26	-0,31	0,08	-0,35	-0,29	0,10	
Aholi zichligi	0,76	-0,26	1,00	0,58	0,77	0,66	0,87	0,74	
Tashabbusli loyihalar	0,51	-0,31	0,58	1,00	0,42	0,47	0,57	0,38	
Barcha berilgan ovozlar	0,43	0,08	0,77	0,42	1,00	0,51	0,69	0,99	
G'olib loyihalar	0,61	-0,35	0,66	0,47	0,51	1,00	0,82	0,48	
G'olib loyihalar summasi	0,71	-0,29	0,87	0,57	0,69	0,82	1,00	0,67	
G'olib loyihalar to'plagan ovoz	0,40	0,10	0,74	0,38	0,99	0,48	0,67	1,00	
	Tadbirkorlik	Ishsizlik	Aholi zichligi	Tashabbusli loyihalar	Barcha berilgan ovozlar	G'olib loyihalar	G'olib loyihalar summasi	G'olib loyihalar to'plagan ovoz	

**Manba:** "Open budget" portali ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlangan.

\* Hisob-kitoblar korrelatsion tahlil usullari yordamida amalga oshirilgan.

Tahlil natijalari “tadbirkorlikka moyil bo‘lgan” hududlarda tashabbusli loyihalar soni ko‘proq bo‘lganligini ko‘rsatmoqda. Ya’ni, bu borada aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan tadbirkorlar sonining tashabbus qilingan loyihalar soni bilan bog‘liqligi (0,51) tadbirkorlar soni ortishi bilan tashabbuslar ko‘payishini ko‘rsatgan. Shuningdek, tadbirkorlikning g‘olib loyihalar soni (0,61) va g‘olib loyihalar summasi (0,71) bilan yuqori musbat korrelyatsiyasi tadbirkorlar soni ortishi ularning loyihalar muvaffaqiyatiga sezilarli ta’siri borligidan dalolat bermoqda.

Hududlar kesimida o‘tkazilgan korrelyatsiya tahlili tadbirkorlar faolligi va "Tashabbusli budjet" loyihasi natijalari o‘rtasidagi bog‘liqlik har bir hududning

o‘ziga xos ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlari, tadbirkorlik muhiti va aholi faolligiga bog‘liq ravishda farq qilishini ko‘rsatdi. Xususan, Samarqand, Buxoro viloyatlari va Qoraqalpog‘iston Respublikasida aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan tadbirkorlar soni bilan tashabbusli loyihalar soni o‘rtasida kuchli ijobiy korrelyatsiya (mos ravishda – 0,87, 0,85 va 0,84), shuningdek, Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Buxoro, Jizzax va Surxondaryo viloyatlarida loyihalar uchun berilgan ovozlar soni bilan ham yuqori korrelyatsiya (mos ravishda – 0,81, 0,81, 0,74 va 0,73) mavjudligi aniqlandi. Bu hududlarda tadbirkorlarning jamoatchilik tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlashga yuqori darajadagi faolligi kuzatildi (2-jadval).

2-jadval

**"Tashabbusli budjet" loyihasi natijalari ko‘rsatkichlarining aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan tadbirkorlar soni bilan bog‘liqligi**

	Tashabbusli loyihalar	Barcha berilgan ovozlar	G‘olib loyihalar	G‘olib loyihalar summasi
<b>Aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan tadbirkorlar soni 10 mingdan ko‘p bo‘lgan hududlar</b>				
Toshkent shahri	0,43	0,69	0,32	0,41
<b>Aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan tadbirkorlar soni 6 mingdan 10 mingga bo‘lgan hududlar</b>				
Buxoro viloyati	0,85	0,81	0,78	0,89
Toshkent viloyati	0,44	-0,08	0,46	0,61
Xorazm viloyati	0,12	0,08	0,67	0,59
Sirdaryo viloyati	0,63	0,61	0,19	0,79
Samarqand viloyati	0,87	0,50	0,80	0,84
Qoraqalpog‘iston Respublikasi	0,84	0,81	0,71	0,92
<b>Aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan tadbirkorlar soni 4 mingdan 6 mingga bo‘lgan hududlar</b>				
Navoiy viloyati	0,30	0,71	0,67	0,80
Farg‘ona viloyati	0,62	0,31	0,89	0,86
Jizzax viloyati	0,73	0,74	0,72	0,83
Qashqadaryo viloyati	0,46	0,11	0,66	0,67
Namangan viloyati	0,26	0,71	0,82	0,71
Andijon viloyati	0,66	0,60	0,93	0,90
Surxondaryo viloyati	0,29	0,73	0,88	0,83

**Manba:** "Tashabbusli budjet" loyihasi natijalari "Open budget" portali ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlangan.

\* Hisob-kitoblar korrelyatsion tahlil usullari yordamida amalga oshirilgan.

Andijon, Farg‘ona va Surxondaryo viloyatlarida esa tadbirkorlar sonining ko‘pligi loyihalarning muvaffaqiyatiga, ya’ni g‘olib loyihalar sonining ko‘payishiga (mos ravishda – 0,93, 0,89 va 0,88) va ularga ajratiladigan mablag‘lar hajmining oshishiga (mos ravishda – 0,90, 0,86 va 0,83) olib kelganligini ko‘rsatgan. Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Andijon va Buxoro viloyatlarida ham xuddi shunday tendensiya

kuzatilib, bu hududlarda g‘olib loyihalarning moliyalashtirilishi tadbirkorlar soni bilan yuqori darajada bog‘liqligini ko‘rsatgan (0,92, 0,90 va 0,89) (2-jadval).

Ishsizlik darajasi va g‘olib loyihalar soni o‘rtasidagi salbiy korrelyatsiya (-0,35) ishsizlik darajasi yuqori bo‘lgan hududlarda jamoatchilik tashabbuslari (-0,31) va g‘olib loyihalar soni kamroq bo‘lishini, hududlar



kesimida o'tkazilgan korrelyatsiya tahlili ishsizlik darajasining loyihaga ta'siri turli hududlarda turlicha bo'lishini ko'rsatgan.

Ko'pchilik hududlarda, xususan Qoraqalpog'iston Respublikasi (tashabbuslar – -0,53, ovozlar – -0,60, summa – -0,70), Buxoro (tashabbuslar – -0,50, g'oliblar

– -0,66, summa – -0,59), Jizzax (tashabbuslar – -0,55, ovozlar – -0,62, summa – -0,61) va Farg'ona (g'oliblar – -0,70, summa – -0,66) viloyatlarida ishsizlik darajasi bilan loyiha ko'rsatkichlari o'rtasida yuqori salbiy korrelyatsiya kuzatilgan (3-jadval).

### 3-jadval

#### "Tashabbusli budjet" loyihasi natijalari ko'rsatkichlarining Ishsizlik darajasi bilan bog'liqligi

	Tashabbusli loyihalar	Barcha berilgan ovozlar	G'olib loyihalar	G'olib loyihalar summasi
<b>Ishsizlik darajasi (7%dan) yuqori bo'lgan hududlar</b>				
Surxondaryo viloyati	0,00	-0,45	-0,65	-0,51
Sirdaryo viloyati	0,16	0,29	-0,65	0,04
Qashqadaryo viloyati	0,13	0,38	-0,26	-0,25
Jizzax viloyati	-0,55	-0,62	-0,43	-0,61
Qoraqalpog'iston Respublikasi	-0,53	-0,60	-0,41	-0,70
Farg'ona viloyati	-0,48	-0,17	-0,70	-0,66
Andijon viloyati	-0,10	-0,08	-0,52	-0,41
Namangan viloyati	0,42	0,08	-0,19	0,08
<b>Ishsizlik darajasi (6,5% dan 7,0% gacha) o'rtacha bo'lgan hududlar</b>				
Toshkent viloyati	0,16	0,55	-0,30	0,00
Samarqand viloyati	-0,46	0,16	-0,53	-0,37
Xorazm viloyati	-0,58	0,36	-0,31	-0,21
Buxoro viloyati	-0,50	-0,43	-0,66	-0,59
<b>Ishsizlik darajasi (6,5% dan) past bo'lgan hududlar</b>				
Navoiy viloyati	-0,03	-0,02	-0,29	-0,29
Toshkent shahri	-0,22	-0,48	-0,25	-0,22

**Manba:** "Tashabbusli budjet" loyihasi natijalari "Open budget" portali ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlangan.

\* Hisob-kitoblar korrelyatsion tahlil usullari yordamida amalga oshirilgan.

Aholi sonining barcha berilgan ovozlar soni (0,77), tashabbus qilingan loyihalar soni (0,58) va g'olib loyihalar summasi (0,87) bilan yuqori korrelyatsiyasi aholining jamoatchilik tashabbuslari va jamoat ishlariga faol jalb qilinishini ko'rsatdi. Aholisi ko'p bo'lgan hududlarda fuqarolarning jamoatchilik loyihalariga bo'lgan qiziqishi yuqori ekanligi va ular ovoz berish jarayonida faol ishtiroki kuzatildi.

Hududlar bo'yicha tahlillar shuni ko'rsatayaptiki, aksariyat hududlarda, xususan Buxoro (tashabbuslar – 0,92, ovozlar – 0,91, summasi – 0,97), Andijon (tashabbuslar – 0,83, g'oliblar – 0,98, summasi – 0,99), Samarqand (tashabbuslar – 0,87, g'oliblar – 0,78), Farg'ona (tashabbuslar – 0,84, g'oliblar – 0,88) viloyatlari va Qoraqalpog'iston Respublikasida (tashabbuslar – 0,85, g'oliblar – 0,70, summasi – 0,96)

yuqori korrelyatsiya kuzatilgan (4-jadval). Toshkent shahri (tashabbuslar – 0,59, g'oliblar – 0,70) va Xorazm viloyatida (g'oliblar – -0,38) past va salbiy korrelyatsiya kuzatilgan (4-jadval).

**Aholisi ko'p bo'lgan hududlarda fuqarolarning jamoatchilik loyihalariga bo'lgan qiziqishi yuqori ekanligi va ular ovoz berish jarayonida faol ishtiroki kuzatildi.**

4-jadval


"Tashabbusli budjet" loyihasi natijalari ko'rsatkichlarining aholi zichligi bilan bog'liqligi


	Tashabbusli loyihalar	Barcha berilgan ovozlar	G'olib loyihalar	G'olib loyihalar summasi
<b>Aholisi soni 3 mln. kishidan 4,5 mln.kishigacha bo'lgan hududlar</b>				
Samarqand viloyati	0,87	0,73	0,78	0,91
Farg'ona viloyati	0,84	0,66	0,88	0,89
Qashqadaryo viloyati	0,66	0,84	0,77	0,81
Andijon viloyati	0,83	0,82	0,98	0,99
Namangan viloyati	0,52	0,83	0,78	0,79
Toshkent viloyati	0,86	0,53	0,24	0,70
Toshkent shahri	0,59	0,73	0,70	0,78
<b>Aholisi soni 2 mln. kishidan 3 mln.kishigacha bo'lgan hududlar</b>				
Surxondaryo viloyati	0,60	0,93	0,90	0,96
Buxoro viloyati	0,92	0,91	0,76	0,97
Qoraqalpog'iston Respublikasi	0,85	0,94	0,70	0,96
<b>Aholisi soni 2 mln. kishigacha bo'lgan hududlar</b>				
Xorazm viloyati	-0,38	0,59	0,79	0,80
Jizzax viloyati	0,82	0,96	0,77	0,97
Navoiy viloyati	0,43	0,96	0,67	0,93
Sirdaryo viloyati	0,88	0,93	-0,21	0,90
Toshkent shahri	-0,22	-0,48	-0,25	-0,22

**Manba:** "Tashabbusli budjet" loyihasi natijalari "Open budget" portali ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlangan.

\* Hisob-kitoblar korrelatsion tahlil usullari yordamida amalga oshirilgan.

Loyihaning shahar va qishloq joylardagi samaradorligi tahlili natijalari shahar va tumanlarda "Tashabbusli budjet" loyihasiga ta'sir etuvchi omillar o'rtasidagi farqlar mavjudligini ko'rsatmoqda (1-diagramma). Xususan shaharlarda tadbirkorlar soni tashabbusli loyihalar soni (korrelyatsiya 0,69) va g'olib loyihalar soni (korrelyatsiya 0,57) bilan kuchli bog'liqlikka ega bo'lib, bu aholi jon boshiga ko'proq tadbirkor to'g'ri keladigan shaharlarda loyiha faolligi yuqori ekanligini ko'rsatmoqda. Tumanlarda esa bu bog'liqlik biroz past (tashabbusli loyihalar soni bilan 0,33 va g'olib loyihalar soni bilan 0,53) ekanini ko'rsatib, bu holat shaharlarga nisbatan tumanlarda tadbirkorlar faolligi kamroq ta'sir qilishidan dalolat bermoqda.





**1-diagramma. Shahar va tumanlarda tadbirkorlar va aholi sonining loyiha natijalari ko'rsatkichlari bilan bog'liqligi**

**Manba:** "Tashabbusli budjet" loyihasi natijalari "Open budget" portali ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlangan.


\* Hisob-kitoblar korrelyatsion tahlil usullari yordamida amalga oshirilgan.

Shuningdek, tahlillar shaharlarda aholi sonining tashabbusli loyihalar soni (0,74) va g'olib loyihalar soni (0,73) bilan kuchli bog'liqligi mavjudligini ko'rsatib, aholisi ko'p shaharlarda faollikning yuqori ekanligini va aholi soni ortishi bilan loyihalarga qiziqish va ishtirok darajasi oshishini ko'rsatadi. Tumanlarda esa aholi soni tashabbusli loyihalar soni bilan 0,47, g'olib loyihalar soni bilan esa 0,63 darajada bog'langan, bu shaharlarga nisbatan ancha pastroq bo'lib, aholi sonining loyiha natijalariga ta'siri tumanlarda nisbatan zaif ekanligini anglatadi (1-diagramma).

Shaharlarda ishsizlik darajasi tashabbusli loyihalar soni (-0,48) va g'olib loyihalar soni (-0,04) bilan salbiy korrelyatsiyaga ega bo'lsa, tumanlarda bu ko'rsatkichlar mos ravishda -0,18 va -0,25 darajada kamroq salbiy bog'liqlikka ega. Bu holat shaharlarda ishsizlik darajasi yuqori bo'lsa, aholining loyihalardagi ishtirokiga sezilarli salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkinligini, ammo tumanlarda bu ta'sir nisbatan zaif ekanligini anglatadi (1-diagramma).

Bu tahlillardan ko'rinib turibdiki, shaharlarda tadbirkorlar soni va ishsizlik darajasi kabi omillar loyihaning muvaffaqiyatiga kuchli ta'sir ko'rsatadi, tumanlarda esa aholi soni muhim rol o'ynaydi.

II. Loyihalar (tashabbuslar)ning samaradorligini baholash maqsadida muvaffaqiyat indeksi hisoblanib, tahlil qilindi. Muvaffaqiyat indeksi, g'olib loyihalarning umumiy loyihalar (tashabbuslar) soniga nisbatan ulushini ko'rsatuvchi asosiy ko'rsatkich bo'lib, u tashabbusli loyihalarning muvaffaqiyati darajasini baholashga yordam beradi.



**2-diagramma**  
**G'olib bo'lgan loyihalar yo'nalishlari bo'yicha muvaffaqiyat indeksi**

**Manba:** "Tashabbusli budjet" loyihasi natijalari "Open budget" portali ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlangan.

Muvaffaqiyat indeksi tahlillariga ko'ra, sog'liqni saqlash muassasalarini ta'mirlash eng yuqori muvaffaqiyat ko'rsatkichiga ega (26,0), bu sohadagi loyihalar (tashabbuslar)ning samaradorligi (yoki muvaffaqiyatligi) yuqori ekanligidan dalolat bermoqda. Xuddi shunday, oliy ta'lim muassasalarini ta'mirlash (20,4) va boshqa ta'lim muassasalarini ta'mirlash (17,7) loyihalari ham yuqori muvaffaqiyat ko'rsatkichiga ega bo'lgan (2-diagramma).

Shuningdek, umumta'lim maktablarini ta'mirlash ham 17,2 muvaffaqiyat indeksini ko'rsatgan, bu esa maktab ta'lim muassasalari ahamiyatining yuqori

ekanligidan dalolat bermoqda. Bundan tashqari, musiqa va maktabdan tashqari tashkilotlarni ta'mirlash (10,2) va sport muassasalarini ta'mirlash (9,4) ham faol qo'llab-quvvatlangan yo'nalishlardir.

Ichki yo'llarni (piyodalar yo'lakchasi, yo'l o'tkazgichlar) ta'mirlash 7,4 ko'rsatkich bilan o'rtacha muvaffaqiyatga erishgan. Boshqa sohalar, masalan, obodonlashtirish, aholi dam olish maskanlari va qabristonlarni tartibga keltirish kabi loyihalar ham muvaffaqiyatga ega bo'lsa-da, ular nisbatan pastroq ko'rsatkichlarga erishgan.

5-jadval

Hududlar bo'yicha muvaffaqiyat indeksi

	Muvaffaqiyat indeksi	jumladan																	
		Bolalar maydonchalarini barpo etish	Axoli dam olish maskanlarini ta'mirlash	Ko'cha chiroqlari(transformator, simyog'ochini o'rnatish yoki ta'mirlash)	Drenaj va ariq (zovur) larni tartibga keltirish	Ichki yo'llarni (piyodalar yo'lakchasi, yo'l o'tkazgichlar) ta'mirlash	Ichimlik suvi va oqava tizimini yaxshilash	Mahalla guzari (va boshqa ob'ektlar) ni ta'mirlash-tiklash	Qabristonlarni tartibga keltirish	Obodonlashtirish va ko'kalamzorlashtirish	boshqa tadbirlar	Tabiiy gaz ta'minoti	Umumta'lim maktablarini ta'mirlash	Sog'liqni saqlash muassasalarini ta'mirlash	Maktabgacha ta'lim muassasalarini ta'mirlash	Musiqa va maktabdan tashqari tashkilotlarni ta'mirlash	Sport muassasalarini ta'mirlash	Oliy o'quv yurtlarini ta'mirlash	Boshqa ta'lim muassasalarini ta'mirlash
Toshkent viloyati	11,6	2,3	11,1	2,9	4,0	10,8	5,5	0,9	3,8	0,0	8,3	6,7	24,7	22,7	19,4	37,5	12,4	21,1	22,1
Samarqand viloyati	9,5	0,9	17,6	2,8	4,0	11,1	1,7	0,7	20,8	0,0	6,1	0,0	14,6	24,4	5,8	5,3	9,9	12,5	11,2
Andijon viloyati	9,1	1,1	18,8	1,2	2,6	6,5	0,0	0,0	0,0	6,9	0,0	0,0	27,8	20,9	4,5	11,1	14,3	20,0	29,3
Jizzax viloyati	8,6	0,0	0,0	1,5	0,0	9,6	0,0	6,6	2,3	20,0	8,8	3,6	15,0	21,1	1,1	0,0	12,0	33,3	17,4
Farg'ona viloyati	8,5	1,7	4,2	3,2	8,7	6,5	2,1	1,7	7,3	14,6	7,4	4,4	21,8	29,8	1,7	5,0	6,1	11,8	31,5
Qoraqalpog'iston Respublikasi	8,2	3,1	5,4	1,4	2,8	5,9	3,8	1,3	18,2	3,0	4,0	6,9	18,6	15,7	9,9	17,2	7,2	13,3	19,1
Namangan viloyati	7,9	0,6	2,3	0,9	2,3	8,3	2,9	0,6	7,1	0,0	5,0	0,0	17,7	26,8	8,3	6,3	23,0	18,5	12,2
Sirdaryo viloyati	7,5	1,5	2,2	0,5	1,1	8,9	2,6	4,3	2,2	0,0	4,2	2,3	18,4	24,2	6,6	0,0	12,9	37,5	12,0
Buxoro viloyati	7,5	3,4	7,3	3,0	4,6	5,4	0,0	0,6	0,0	4,0	14,9	0,0	20,0	18,9	2,6	12,5	14,9	0,0	20,8
Qashqadaryo viloyati	7,1	0,7	11,8	1,7	0,0	10,3	4,0	1,9	3,8	0,0	0,0	0,0	7,5	12,5	2,9	4,8	5,4	22,2	6,0
Toshkent shahri	6,5	0,0	0,0	0,0	0,0	0,4	0,0	0,1	0,0	0,0	0,6	0,0	19,5	51,5	2,4	0,0	5,3	27,3	14,4
Surxondaryo viloyati	5,4	0,5	2,7	1,2	4,8	5,5	2,6	0,8	0,0	2,9	8,0	0,0	7,7	28,5	0,4	11,8	2,9	22,2	13,3
Navoiy viloyati	5,2	0,0	8,5	0,0	0,9	4,7	1,0	3,7	4,0	3,9	3,2	0,0	15,1	10,9	1,3	6,7	11,4	0,0	12,5
Xorazm viloyati	5,0	0,5	2,7	0,1	0,0	4,5	1,3	1,2	0,0	5,9	4,7	0,0	13,3	26,6	2,9	0,0	12,1	0,0	18,0

**Manba:** "Tashabbusli budjet" loyihasi natijalari "Open budget" portali ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlangan.

Tahlil natijalari hududlar o'rtasida muvaffaqiyat indeksida sezilarli farqlar mavjudligini ko'rsatmoqda. Toshkent viloyati eng yuqori muvaffaqiyat indeksiga ega bo'lib, bu yerda loyihalarning katta qismi g'olib bo'lgan. Ushbu hududdagi muvaffaqiyat indeksi 11,6 ni tashkil qiladi, bu ko'rsatkich loyihalar(tashabbuslar) ning samaradorligi yuqori ekanligini bildirmoqda. Xorazm viloyati esa eng past muvaffaqiyat indeksi (5,0) bilan ajralib turibdi (5-jadval).

Sog'liqni saqlash muassasalarini ta'mirlashda Toshkent shahri eng yuqori natijani ko'rsatgan (51,5). Undan keyingi o'rinlarda Farg'ona (29,8) va Surxondaryo (28,5) viloyatlari turibdi. Oliy ta'lim muassasalarini ta'mirlashda esa Sirdaryo viloyati (37,5) peshqadam. Umumta'lim maktablarini ta'mirlashda Andijon (27,8) va Toshkent viloyatlari (24,7) yetakchi bo'lib, bu viloyatlarda ta'lim infratuzilmasini yaxshilashga katta e'tibor berilgan (5-jadval).

Toshkent viloyati musiqa va maktabdan tashqari tashkilotlarni ta'mirlashda (37,5) ham yuqori ko'rsatkichga ega bo'lgan. Sport muassasalarini ta'mirlashda esa Namangan viloyati ko'rsatkichi (23,0) qolgan hududlarga nisbatan keskin tafovut bilan ajralib turibdi. Samarqand (11,1), Toshkent (10,8), Qashqadaryo (10,3) va Jizzax (9,6) viloyatlarida ichki yo'llarni ta'mirlash bo'yicha loyihalar muvaffaqiyatli bo'lgan. Bu hududlarda yo'l infratuzilmasini yaxshilash muhim yo'nalish hisoblangan (5-jadval).

Tahlil natijalari tuman va shaharlar kesimida muvaffaqiyat indeksida ham tafovutlar mavjudligini ko'rsatmoqda (6-jadval). Xususan, Samarqand viloyatining Kattaqo'rg'on shahri 19,1 indeks bilan eng yuqori ko'rsatkichga ega bo'ldi, bu hududdagi tashabbusli loyihalarning juda yuqori darajada qo'llab-quvvatlanganligini ko'rsatadi. Eng past ko'rsatkich esa Xorazm viloyati Tuproqqal'a tumanida (2,6) qayd etildi, bu esa ushbu hududda tashabbuslar qo'llab-quvvatlash darajasining juda pastligini anglatadi.

### 6-jadval

#### Eng yuqori va eng past muvaffaqiyat indeksiga ega bo'lgan 20 ta hudud (tuman/shaharlar) ro'yxati

No	Hududlar	Tuman/shaharlar	Muvaffaqiyat indeksi	No	Hududlar	Tuman/shaharlar	Muvaffaqiyat indeksi
1	Samarqand viloyati	Kattaqo'rg'on shahri	19,1	189	Xorazm viloyati	Qo'shko'pir tumani	5,1
2	Toshkent viloyati	Bekobod shahri	18,4	190	Xorazm viloyati	Xazorasp tumani	5,1
3	Jizzax viloyati	Do'stlik tumani	17,9	191	Surxondaryo viloyati	Qumqo'rg'on tumani	5,0
4	Toshkent viloyati	Nurafshon shahri	17,7	192	Toshkent shahri	Uchtepa tumani	4,9
5	Toshkent viloyati	Olmaliq shahri	16,8	193	Namangan viloyati	Uychi tumani	4,6
6	Toshkent shahri	Yunusobod tumani	16,7	194	Qoraqalpog'iston Respublikasi	Ellikqal'a tumani	4,6
7	Buxoro viloyati	Qorovulbozor tumani	16,4	195	Navoiy viloyati	Qiziltepa tumani	4,6
8	Namangan viloyati	Namangan shahri	16,4	196	Xorazm viloyati	Yangiariq tumani	4,5
9	Toshkent viloyati	Chirchiq shahri	16,4	197	Navoiy viloyati	Konimex tumani	4,1
10	Andijon viloyati	Xonobod shahri	16,2	198	Sirdaryo viloyati	Boyovut tumani	4,1
11	Sirdaryo viloyati	Shirin shahri	16,1	199	Surxondaryo viloyati	Sherobod tumani	4,0
12	Toshkent viloyati	Angren shahri	16,1	200	Surxondaryo viloyati	Oltinsoy tumani	3,9
13	Jizzax viloyati	Zafarobod tumani	15,8	201	Surxondaryo viloyati	Bandixon tumani	3,8
14	Toshkent viloyati	Yangiyo'l shahri	15,4	202	Toshkent shahri	Olmazor tumani	3,7
15	Namangan viloyati	Turaqo'rg'on tumani	14,0	203	Surxondaryo viloyati	Muzrobd tumani	3,6
16	Samarqand viloyati	Nurobod tumani	13,4	204	Xorazm viloyati	Xiva shahri	3,5
17	Toshkent viloyati	Piskent tumani	12,9	205	Navoiy viloyati	Karmana tumani	3,5
18	Farg'ona viloyati	Farg'ona tumani	12,9	206	Xorazm viloyati	Yangibozor tumani	3,5
19	Andijon viloyati	Andijon shahri	12,5	207	Navoiy viloyati	Nurota tumani	3,0
20	Qoraqalpog'iston Respublikasi	Qarao'zak tumani	12,3	208	Xorazm viloyati	Tuproqqal'a tumani	2,6

**Manba:** "Tashabbusli budjet" loyihasi natijalari "Open budget" portali ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlangan.

E'tiborli jihati shundaki, TOP-20 talikda tumanlarga qaraganda shaharlar (masalan Bekobod, Nurafshon, Olmaliq, Namangan, Chirchiq, Xonobod, Shirin, Angren shaharlari va Toshkent shahrining Yunusobod tumani) ko'pchilikni tashkil qiladi. Bu holatdan kelib chiqib aytish mumkinki, shaharlarda muvaffaqiyat indeksi kattaroq bo'lishi aholining ma'lumot darajasi va loyihaga qiziqishi yuqori ekanligi bilan bog'liq.

Eng yuqori muvaffaqiyat ko'rsatkichiga ega hududlardan biri bo'lgan Toshkent viloyatida faol ishtirok etgan tuman va shaharlar soni ko'proqdir.

Masalan, Bekobod, Nurafshon va Olmaliq shaharlari yuqori ko'rsatkichlarga ega. Bu viloyatda loyihalarga qiziqish va ishtirok darajasi yuqoriligini ko'rsatadi. Shu bilan birga, Surxondaryo va Xorazm viloyatlarida muvaffaqiyat indeksi past bo'lgan tumanlar soni ko'p bo'lib, bu hududlarda loyihalarning qo'llab-quvvatlanishi darajasi kamroq bo'lgan.

#### Hulosa va takliflar

"Tashabbusli budjet" loyihasi 2024-yilda O'zbekistonda fuqarolarning budjet jarayonidagi ishtirokini kuchaytirish va mahalliy muammolarni

hal qilishda samarali vosita sifatida o'z o'rnini mustahkamladi. Ushbu loyiha mahalliy infratuzilmani yaxshilash va aholining turmush sharoitlarini rivojlantirishda katta ahamiyatga ega bo'lib, uning ijtimoiy-iqtisodiy natijalari turli hududlarda sezilarli darajada farq qilgan.

Tahlil natijalari shuni ko'rsatdiki, loyiha samaradorligi hududlarning iqtisodiy va ijtimoiy xususiyatlariga, jumladan tadbirkorlik muhiti, aholi zichligi va ishsizlik darajasiga bog'liq. Tadbirkorlik faoliyati yuqori bo'lgan hududlarda tashabbuslarning muvaffaqiyat darajasi ham yuqori bo'lgan. Ishsizlik darajasi yuqori bo'lgan hududlarda esa loyiha ijtimoiy faolligini oshirishdagi samaradorligi pastroq ekanini aniqlangan.

Sog'liqni saqlash va ta'lim sohalariga oid loyihalar eng yuqori muvaffaqiyat indeksiga ega bo'lib, bu sohalar aholining asosiy ehtiyojlari orasida ekanligini yana bir bor tasdiqladi. Biroq, ichki yo'llar, obodonlashtirish va sport inshootlarini rivojlantirish kabi yo'nalishlarda loyihalar nisbatan past muvaffaqiyat ko'rsatkichlariga ega bo'ldi. Hududlar bo'yicha muvaffaqiyat indeksida sezilarli tafovutlar kuzatilib, ba'zi viloyatlar va mahallalarda loyihalarning amalga oshirilishi darajasi past bo'lgan.

"Tashabbusli budjet" loyihasi fuqarolarning davlat resurslarini boshqarishdagi ishtirokini oshirish bilan birga, davlat boshqaruvining shaffofligi va hisobotdorligini ta'minlashga xizmat qilmoqda. Ushbu loyiha mahalliy darajadagi ijtimoiy tenglikni mustahkamlash va aholining ishonchini oshirishga salmoqli hissa qo'shmoqda. Shu bilan birga, ayrim hududlar va yo'nalishlar bo'yicha mavjud bo'lgan kamchiliklarni bartaraf etish uchun loyiha doirasida yanada chuqurroq tahlillar va individual yondashuvlarni amalga oshirish zarur.

Mazkur loyiha doirasida kelgusi yillarda mahalliy tashabbuslarni rag'batlantirish va hududlararo tafovutlarni kamaytirish orqali loyiha ijtimoiy-iqtisodiy samaradorligini yanada oshirish imkoniyati mavjud. Bu o'z navbatida mamlakatning uzoq muddatli ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga zamin yaratadi.

**Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda, quyidagilar taklif etiladi.**

1. *Tahlillardan ma'lum bo'ldiki, "Tashabbusli budjet" loyihasining samaradorligiga iqtisodiy va ijtimoiy omillar turli darajada ta'sir qilmoqda, jumladan tadbirkorlik muhiti ijobiy ta'sir etgan bo'lsa, ishsizlik salbiy ta'sir ko'rsatgan. Shuningdek, shahar va tuman hududlarining ijtimoiy-iqtisodiy xususiyatlari bo'yicha farqlari loyiha natijalariga ta'sir ko'rsatgan. Shundan*

*kelib chiqib, quyidagi qo'shimcha yo'nalishlarga ham e'tibor qaratish maqsadga muvofiq:*

- Loyihani amalga oshirish jarayonida har bir hududning ijtimoiy-iqtisodiy xususiyatlarini inobatga olgan individual yondashuvni joriy etish;

- Hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy holatini inobatga olgan holda moliyalashtirish ustuvorliklarini belgilash;

- Hududlarning ustuvor ehtiyojlarini aniqlash uchun doimiy ravishda statistik tahlillar o'tkazish va mazkur tahlillar asosida moliyalashtirishning dinamik modelini ishlab chiqish;

- Aholi zich yashaydigan hududlarda ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish uchun mablag' ajratishni oshirish, kamroq resurslarga ega bo'lgan hududlarda maxsus rag'batlantirish dasturlarini joriy qilish.

2. *Tahlillarga ko'ra, sog'liqni saqlash va ta'lim sohalaridagi loyihalar yuqori muvaffaqiyat indeksiga ega. Shuningdek, ayrim hududlarda loyihalar mavzularining bir xil turdagi bo'lib qolishi va ayrim muhim sohalarining e'tibordan chetda qolishi kuzatilgan. Shundan kelib chiqib:*

- har bir hudud uchun ustuvor yo'nalishlarni aniqlash va loyihalar mavzularini diversifikatsiya qilish choralari ko'rish;

- sog'liqni saqlash sohasidagi muassasalar infratuzilmasini yaxshilash uchun qo'shimcha mablag' ajratish va ushbu yo'nalishni ustuvor qilib belgilash, umumta'lim maktablari va oliy ta'lim muassasalarini ta'mirlashga e'tiborni kuchaytirish maqsadga muvofiq.

3. *Tahlillarda ichki yo'llarni ta'mirlash, obodonlashtirish, sport inshootlari kabi yo'nalishlar nisbatan past muvaffaqiyat indeksiga ega ekanligi aniqlangan. Shundan kelib chiqib:*

- Ushbu yo'nalishlarda aholi qiziqishini oshirish va tashabbuslarni ko'proq qo'llab-quvvatlash uchun resurslarni qayta yo'naltirish zarur.

4. *Hududlar o'rtasidagi tafovut loyiha adolatli amalga oshirilishiga to'sqinlik qilmoqda. Shundan kelib chiqib:*

- hududlar o'rtasidagi tafovutni kamaytirish va imkoniyatlar tengligini ta'minlash choralari ko'rish;

- hududlarning rivojlanish darajasini hisobga olgan holda, "Tashabbusli budjet" mablag'larini taqsimlashda differentsiyalashgan yondashuvni qo'llash, kam rivojlangan hududlarga ko'proq mablag' ajratish;

- rivojlanish darajasi past bo'lgan hududlarga loyihalarni tayyorlash, amalga oshirish va monitoring qilishda qo'shimcha texnik va konsultativ ko'mak berish;

- kamroq muvaffaqiyatli hududlar uchun rag'batlantiruvchi choralar ishlab chiqish maqsadga muvofiq.

Bundan tashqari, "Tashabbusli budjet" loyihasida 2024-yilda qatnashgan 9 447 ta mahallaning 61 foizining loyihalari g'olib bo'lganligi, qolgan 39 foiz mahallalarning tashabbuslari amalga oshirilmaganligini ko'rsatmoqda. **Shundan kelib chiqib:**

- g'olib bo'lmagan mahallalarning ishtirok darajasini oshirish uchun rag'batlantiruvchi mexanizmlar va teng imkoniyatlarni yaratishga qaratilgan choralar ko'rilishi lozim;

- ushbu mahallalarning asosiy infratuzilma ehtiyojlarini qondirishga yo'naltirilgan loyihalarni amalga oshirish maqsadga muvofiq;

- barcha mahallalarni qamrab olish mexanizmini rivojlantirish, jumladan g'olib bo'lmagan mahallalar uchun kelgusi davrlarda loyihalarning moliyalashtirilishini ta'minlashni kafolatlaydigan rotatsiya tizimini joriy qilish lozim. Bunday mexanizm orqali har bir mahalla 2-3 yil ichida o'z tashabbuslarini amalga oshirish imkoniyatiga ega bo'ladi;

- ikki marta g'olib bo'lgan mahallalarga kelgusi yilda vaqtinchalik tanaffus berish amaliyoti boshqa mahallalarga imkoniyat yaratishni ta'minlaydi. Shuningdek, bunday mahallalarga ixtiyoriy ravishda maslahatchi va mentor sifatida boshqa mahallalarga yordam berish imkoniyatini taklif etish maqsadga muvofiq.

## Manba va adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Budjet jarayonida fuqarolarning faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" PQ-5072-son qarori (13.04.2021 yil). <https://lex.uz/docs/5370805>

2. Shah, A. (2007). *Participatory Budgeting: A Critical Review and Assessment of Its Potential for Developing Countries*. Jahon banki. <https://openknowledge.worldbank.org/server/api/core/bitstreams/bfb2f14e-41c5-5503-ba54-9cfc804f51c/content>.

3. Touchton, M., & Wampler, B. (2014). *Improving Social Service Delivery and Accountability through Participatory Budgeting: Evidence from Sao Paulo, Brazil*. <https://www.ipea.gov.br/participacao/images/pdfs/participacao/2014%20oramento%20participativo%20e%20mortalidade%20infantil.pdf>.

4. Alatas, V., Banerjee, A., Hanna, R., Olken, B. A., Purnamasari, R., & Wai-Poi, M. (2012). *Does Participatory Budgeting Improve Municipal Service Delivery? Evidence from Indonesia*. *Journal of Development Economics*, 98(2), 301-308. <https://www.tandfonline.com/doi/full/10.1080/00074918.2021.1931031>.

5. Ferraz, C., & Finan, F. (2011). *Electoral Accountability and Corruption: Evidence from the Audits of Local Governments*. *The American Economic Review*, 101(4), 1274-1311. <https://journals.sagepub.com/doi/pdf/10.1177/095624780101300112>.

6. "Ochiq budjet" portali. <https://openbudget.uz/home>

Yer va suv resurslaridan samarali foydalanish/  
Эффективное использование земельных и водных ресурсов/  
Effective use of land and water resources

УЎК: 636.03.(575.1)

Диёр ЭРГАШЕВ,  
Макроиқтисодий ва ҳудудий тадқиқотлар институти лойиҳа раҳбари,  
E-mail: d.ergashev@imrs.uz

РЕСПУБЛИКА ҲУДУДЛАРИДА ҚИШЛОҚ ХЎЖАЛИГИГА  
МЎЛЖАЛЛАНМАГАН ЕР УЧАСТКАЛАРИНИ  
ХУСУСИЙЛАШТИРИШ ТАҲЛИЛИ

**Аннотация:** ушбу мақолада мамлакатимизда қишлоқ хўжалигига мўлжалланмаган ер участкаларини хусусийлаштириш таҳлил қилинган. Бунда, давлат мулки бўлган ерларни хусусийлаштириш субъектларининг мулкига ўтказиш орқали иқтисодиётда рақобатни таъминлаш, инвестициялар ҳажмини ошириш, бизнес ҳамжамиятининг ишончини янада мустаҳкамлаш ҳамда ерларни муомалага киритишга қаратилган. Таҳлил натижаларига асосан, қишлоқ хўжалигига мўлжалланмаган ер участкаларини хусусийлаштиришни янада жадаллаштириш мақсадида аҳоли ўртасида хусусийлаштириш афзалликлари бўйича тарғибот ва ташиқот ишларини олиб бориш, шунингдек, мазкур жараёнга қўллаб ер мулкдорларини жалб этиш юзасидан таклиф берилган.

**Калит сўзлар:** ариза берувчи, аукцион, хусусийлаштириш, хусусийлаштирилаётган қишлоқ хўжалигига мўлжалланмаган ер участкаларини сотиб олиш қиймати, қишлоқ хўжалигига мўлжалланмаган ер участкалари, мастер-режа, мулк ҳуқуқи, хусусий мулк.

**Анализ результатов приватизации земельных участков несельскохозяйственного назначения в регионах республики**

Диёр Эргашев,  
Руководитель проекта Института  
макроэкономических и региональных исследований

**Аннотация:** в данной статье анализируется приватизация земель несельскохозяйственного на-

значения в нашей стране. При этом оно направлено на обеспечение конкуренции в экономике, увеличение объемов инвестиций, дальнейшее укрепление доверия делового сообщества, введение земли в оборот путем передачи земельных участков государственной собственности в собственность субъектов приватизации. По результатам анализа в целях дальнейшего ускорения процесса приватизации земель несельскохозяйственного назначения были предложены провести широкомасштабную пропагандистскую и агитационную работу, а также привлечь к этому процессу многих землевладельцев.

**Ключевые слова:** заявитель, аукцион, приватизация земельного участка, покупная цена приватизируемого земельного участка, земельный участок несельскохозяйственного назначения, мастер-план, права собственности, частная собственность.

**An analysis of the results of privatizing non-agricultural land plots in the regions of the republic**

Diyor Ergashev,  
Project Manager of the Institute for Macroeconomics  
and Regional Studies

**Abstract:** this article analyzes the privatization of non-agricultural land in our country. At the same time, it is aimed at ensuring competition in the economy, increasing the volume of investment, further strengthening the confidence of business community, introducing land into circulation by transferring state-



*owned land plots to the ownership of privatization subjects. Based on the results of the analysis, in order to further accelerate the process of privatization of non-agricultural land, it was proposed to conduct large-scale propaganda and agitation work, as well as to involve many landowners in this process.*

**Keywords:** *applicant, auction, privatization of a land plot, purchase price of a privatized land plot, non-agricultural land plot, master plan, property rights, private property.*

### Кириш

Глобаллашув жараёнида барқарор ва инклюзив иқтисодий ўсишга эришиш орқали иқтисодиётда рақобатни таъминлаш, инвестициялар ҳажмини кескин ошириш, бизнес ҳамжамиятининг ишончини янада мустаҳкамлаш ҳамда ерларни муомалага киритишда қишлоқ хўжалигига мўлжалланмаган ер участкаларини хусусийлаштириш жараёнини жадаллаштириш катта аҳамият касб этмоқда.

Юртимизда сўнгги йилларда қишлоқ хўжалиги учун мўлжалланмаган ер участкаларини хусусийлаштириш бўйича давлатимиз томонидан Ўзбекистон Республикаси Қонуни [1], Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2021 йил 8 июндаги ПФ-6243-сон Фармони [2] ва Вазирлар Маҳкамасининг 2022 йил 14 февралдаги 71-сон қарори [3] қабул қилиниши қишлоқ хўжалигига мўлжалланмаган ер участкаларини хусусийлаштиришда муҳим қадам бўлди.

Жамиятда шахсий мулк дахлсизлигини таъминлаш инсон ҳуқуқ ва манфаатларини ҳимоялашнинг бош омилларидан бири саналади. Сўнгги йилларда жорий этилган ушбу тизим ҳам, биринчи навбатда аҳолининг ўз уй-жойи, ер участкасига ўзи эгалик қилишини кафолатлашга қаратилган.

Регламентга асосан, ерни хусусийлаштириш қишлоқ хўжалиги учун мўлжалланмаган ер майдонларига нисбатан амал қилади. Бунда жисмоний шахсларга яқка тартибда уй-жой қуриш ва ободонлаштириш, шунингдек, тадбиркорлик фаолияти учун берилган ерлар, хусусийлаштирилиши лозим бўлган давлат кўчмас мулк объектлари жойлашган ерлар ҳамда бўш турган ерларни хусусийлаштириш масаласи Регламент билан тартибга солинган. Шунингдек, Ўзбекистон Республикасининг “Қишлоқ хўжалигига мўлжалланмаган ер участкаларини хусусийлаштириш тўғрисида”ги Қонунда (кейинги ўринларда – Қонун) хусусийлаштирилмайдиган ер участкалари тури белгилаб қўйилган.

Бугунги кунда мамлакатимизда жисмоний ва юридик шахсларга тегишли бўлган ер участкаларини хусусийлаштириш, ер участкасига мулк ҳуқуқи берилганидан сўнг ерни мулкдордан давлат томонидан фақат сотиб олиш амалиёти жорий этилди. Агар фуқаро ер участкасини бериш ёки сотишни истамаса, уни жамият эҳтиёжлари учун олиб қўйишига йўл берилмаслиги амалдаги тартиб билан белгилаб берилган.

**Ариза берувчи** – умрбод эгалик қилиш, доимий фойдаланиш ёки ижара ҳуқуқи асосида ажратилган қишлоқ хўжалигига мўлжалланмаган ерни хусусийлаштириш мақсадида ариза берган Ўзбекистон Республикаси фуқароси ёки юридик шахси [3];

**Ер участкасини хусусийлаштириш** – давлат (оммавий) мулки бўлган қишлоқ хўжалигига мўлжалланмаган ер участкаларини юридик ёки жисмоний шахсларнинг мулкига ўтказиш [3];

**Хусусийлаштирилаётган ер участкасини солиқ олиш қиймати** – ерни хусусийлаштириш учун, аризачи томонидан тўланадиган қиймат, хусусийлаштириш пайтида белгиланган ер солиғи базавий ставкасининг қаррали миқдоридаги тўлов [3];

**Мастер-режа** – шаҳарсозлик, экологик, ижтимоий-иқтисодий ва бошқа лойиҳа ечимларини ҳудудларнинг аниқ муаммоларини бартараф этишга йўналтирилган, шунингдек, ҳудудларнинг қисмларини иқтисодий ривожлантиришни яқин, ўрта ва узоқ муддатларга режалаштириш ва уларнинг иқтисодий салоҳиятини рўёбга чиқариш мақсадида мавжуд муаммоларнинг аниқ ечими ва амалга ошириш механизмларини ўзида акс эттирган ҳужжат [3];

**Қишлоқ хўжалигига мўлжалланмаган ер участкаси** – қишлоқ хўжалиги эҳтиёжлари учун берилмаган ёки ушбу мақсадлар учун мўлжалланмаган ер участкаси [3].

**Маълумот учун:** Қонунга мувофиқ қишлоқ хўжалигига мўлжалланмаган ер участкаларини хусусийлаштириш юридик ва жисмоний шахслар томонидан уларга доимий фойдаланиш, ижара ёки умрбод эгалик қилиш ҳуқуқи асосида тегишли бўлган ерларни сотиб олиш, шунингдек, ерларни онлайн-аукцион орқали сотиш орқали амалга оширилиши белгилаб қўйилган.

Сирдарё вилоятида 2019–2020 йилларда «YerxususiyLashtirish» автоматлаштирилган ахборот тизими орқали қишлоқ хўжалигига мўлжалланмаган ер участкаларини хусусийлаштириш тартиб-та-

омилларини апробация қилиш юзасидан ҳуқуқий эксперимент Вазирлар Маҳкамасининг 2019 йил 2 декабрдаги 963-сон қарорига мувофиқ ўтказилган.

### **Мавзуга оид адабиётлар шарҳи**

Илмий адабиётларда “хусусийлаштириш” атамаси ҳам кенг, ҳам тор маънода талқин қилинади. Кенг маънода хусусийлаштириш деганда давлат секторини қисқартириш ва хусусий секторнинг иқтисодиётни ривожлантиришга қўшган ҳиссасини ошириш орқали иқтисодиётни тартибга солувчи институтлардан бири тушунилади. Тор маънода хусусийлаштириш – бу мулкка эгалик ҳуқуқини юридик ва жисмоний шахсларнинг маълум бир доирасига ўтказишдир.

Профессор Э. Савас ўзининг Ғарб мамлакатларида амалга оширилаётган хусусийлаштиришнинг назарий ва амалий жиҳатларини очиб берувчи асарида шундай ёзади: “Хусусийлаштириш – давлат фаолияти қўламини қисқартириш ёки хусусий секторнинг тадбиркорлик фаолиятида маблағларга эгалик қилишдаги ролини кучайтиришга қаратилган турли тадбирлар мажмуидир”.

**Ушбу таъриф жуда аниқ ва уни таҳлил қилганда шуни айтиш мумкинки, муаллиф хусусийлаштиришнинг бир нечта ўзига хос хусусиятларини аниқлайди:**

1. Хусусийлаштириш, бу давомий жараён;
2. Бу шунчаки оммавий мулкни хусусий мулкка ўтказишга қаратилган битим эмас, балки иқтисодиётни таркибий ўзгартиришдир;
3. Айнан хусусийлаштириш орқали давлатда хусусий секторни мустақамлаш ва кенгайтириш мумкин [5].

О.В.Шатрова ўзининг “Аҳоли пунктларида қишлоқ хўжалигига мўлжалланмаган ер участкаларини хусусийлаштириш” мавзусидаги диссертациясида “Хусусийлаштириш – давлат мулкига эгалик ҳуқуқини иқтисодиётнинг хусусий секторига тўлиқ ёки қисман ўтказишдир” деб ёзади [6].

А.В. Кашанин ҳам хусусийлаштириш тўғрисида сўз юритар экан, у бунини “Хусусийлаштириш – давлат таъсир доирасининг қисқариши, муайян ҳудудларни жамотчилик билан алоқаларни ўрнатиш учун хусусий секторга ўтказиш” деб ҳисоблайди [7].

О.Ю. Скворцов “Хусусийлаштириш ўзига хос жараён сифатида маъмурий-ҳуқуқий ва фуқаролик-ҳуқуқий характердаги чора-тадбирлар мажмуи бўлиб, натижада хусусийлаштирилган мулкка

эгалик ҳуқуқи давлатдан юридик ёки жисмоний шахсга ўтади” деган фикрни илгари суради [8].

Ўзбекистонда хусусийлаштиришнинг хусусиятлари ва усуллари Б. Беркинов [9], 1991–2001 йиллар оралиғида хусусийлаштиришнинг таҳлили ва босқичлари И.Бутиков [10], хусусийлаштириш орқали мулкчилик ва тадбиркорликнинг шаклланиши масалалари Н. Хамрахуджаев [11] ва бошқаларнинг изланишларида тадқиқ этилган.

Таъкидлаш жоизки, республикада ер участкаларини хусусийлаштириш Ўзбекистон Республикаси “Ер кодекси”нинг 17-моддаси, “Юридик ва жисмоний шахсларнинг ер участкаларига бўлган ҳуқуқлари” [4], Қонуннинг 4-боби “Ерларни онлайн-аукцион орқали хусусийлаштириш” моддасида белгиланган [4].

Шунингдек, Вазирлар Маҳкамасининг 2022 йил 14 февралдаги 71-сон қарори билан тадбиркорликни амалга ошириш учун ерларни мулк ва ижара ҳуқуқлари асосида онлайн-аукцион орқали сотиш тартиби белгиланган [3].

### **Тадқиқот методологияси**

Тадқиқот методологияси сифатида мамлакатимизда қишлоқ хўжалигига мўлжалланмаган ер участкаларини хусусийлаштириш таҳлил қилинган ҳамда мутахассисларнинг фикрини ўрганган ҳолда, кузатиш, статистик таҳлил, таққослаш каби усуллардан фойдаланилган.

### **Таҳлил ва натижалар**

Ерга нисбатан хусусий мулкчиликни жорий этиш натижасида фуқаролар ва тадбиркорлик субъектларига мукаддам тақдим қилинган ерларни хусусийлаштириш орқали шахсий мулк дахлсизлиги ва тадбиркорлик фаолияти эркинлигини кафолатлаш борасидаги институционал ва маъмурий ислохотлар амалга оширилмоқда.

Ер участкаларининг фуқаролик муомаласига киритилиши уларнинг бозор қийматида сотилишини назарда тутди.

Шунингдек, ер ресурсларини муомалага киритиш нафақат улардан фойдаланиш самарадорлигини, балки корхоналарнинг инвестицион жозибадорлигини ҳам оширишга имкон беради.

Шу сабабли, қишлоқ хўжалигига мўлжалланмаган ер участкаларини хусусийлаштиришга оид Қонун қабул қилинди ҳамда ер участкаларини сотишда инсон омилини камайитишни кўзда тутадиган, барчага тенг бозор тамойилларига асосланган, шаффоф тартиб ишлаб чиқилди [3].

### **Кўриб чиқиш учун аризаларни тақдим этиш ҳолати.**

2022–2023 йилларда “Yerxususiyashtirish” ААТ орқали ягона дарчага ёки давлат хизматлари порталига ([my.gov.uz](http://my.gov.uz)) жами 56 988 та хусусийлаштириш субъектларига тегишли бўлган ерларни хусусийлаштириш учун ариза келиб тушган.

Шундан, 2022 йилда хусусийлаштириш учун берилган аризалар миқдори 30 423 та (жис.шахс – 29 339 та (96,4%), юр.шахс – 1 084 та (3,6%)), бунда, хусусийлаштириш учун берилган энг кўп аризалар Хоразм (жами аризаларга нисбатан улуши – 24,2%), Қашқадарё (11,5%), Сурхондарё (10,3%) ва Наманган (9,6%) вилоятлари ҳиссасига, энг кам аризалар Қорақалпоғистон Республикаси (0,6%), Навоий (2,0%) ва Фарғона (3,3%) вилоятларига тўғри келмоқда.

Бу кўрсаткич 2023 йилда 26 565 та (жис.шахс – 25 536 та (94%), юр.шахс – 1 029 та (6%)) бунда, шаҳарсозлик ҳужжатлари қамров даражаси нисбатан юқорилиги ҳисобига хусусийлаштириш учун берилган энг кўп мурожаатлар Хоразм (жами мурожаатларга нисбатан улуши–52,0%), Тошкент вилояти (9,2%) ва Тошкент шаҳри (7,8%) ҳиссасига, энг кам мурожаатлар Навоий (0,5%) ва Андижон (1,9%) вилоятларига тўғри келмоқда.

“Давлат хизматлари портали” орқали 2022 йилда 21 888 та, 2023 йилда 14 657 та мурожаат (жами – 36 545 та (64,1%)) юборилган бўлса, “Ягона дарча” орқали 2022 йилда 8 535 та, 2023 йилда 11 908 та мурожаат (жами – 20 443 та (35,9%)) юборилган.

2022 йилда республика бўйича келиб тушган жами мурожаатлардан 8 фоизига мулк ҳуқуқини тасдиқловчи давлат ордери тақдим этилган, шундан ижобий хулоса олганларнинг юқори улуши Тошкент шаҳри (21,0%), Қорақалпоғистон Республикаси (15,9%), Хоразм (15,9%), Андижон (14,0%) ва Фарғона (12,0%) вилоятларида кузатилди (1-жадвал).

Жойларда тарғибот ва ташвиқот тадбирларини жадаллаштириш мақсадида, 2022 йилда ҳудудларда 1,5 мингдан кўпроқ ўқув семинар, учрашув, тақдимотлар ва пресс турлар ўтказилган ҳамда ОАВ (радио, телевидение, газета ва журналлар), ижтимоий тармоқлар орқали реклама ҳамда тарғибот ишлари амалга оширилган [12].

Тошкент шаҳри ва ҳудудлардаги марказий кўчаларда, аҳоли гавжум жойларда ҳамда магистрал йўллар ёқасида 100 та билборд, 230 та LED экран

ҳамда давлат хизматлари марказларидаги 817 та экранда доимий равишда мавзуга оид видеоролик ва реклама материаллари узатиб борилган [12].

Таҳлиллар шуни кўрсатмоқдаки, 2022–2023 йилларда аҳоли ўртасида мунтазам равишда семинар, учрашув, мулоқот ва тақдимотлар ўтказилаётганлиги, оммавий ахборот воситалари (телевидение, радио, газета ва журналлар), ижтимоий тармоқларда реклама ва тарғибот ишлари амалга оширилиши натижасида 2023 йилда тушган мурожаатларнинг 38%ига мулк ҳуқуқини тасдиқловчи давлат ордери тақдим этилган.

Бу борадаги ижобий кўрсаткич ер участкаларини фуқаролик муомаласига киритиш ҳамда хусусийлаштириш жараёни жадаллашганлигини акс эттиради.

Бунда, ижобий хулоса олганлар улуши Қорақалпоғистон Республикаси (58,0%), Хоразм (47,0%) ва Фарғона (46,0%) вилоятларида юқори бўлса, Наманган (8,0%) ва Бухоро (10,0%) вилоятларида куйи поғонани эгаллаб турибди.

### **Мурожаатлар бўйича берилган аксарият салбий хулосаларнинг сабаблари:**

1. Маълумотларнинг нотўғри киритилиши, тақиқ ва чекловларнинг мавжудлиги;

2. Ҳимоя ҳудудида ёки кўп қаватли уйлар жойлашган ерларда жойлашганлиги;

3. Аҳоли пунктларининг тасдиқланган бош режалари, аҳоли пункти қисмларини батафсил режаллаштириш лойиҳалари, яъни шаҳарсозлик ҳужжатлари бевосита монелик қиладиган маълумотларнинг мавжудлиги деб кўрсатилган.

**2022–2023 йилларда аҳоли ўртасида мунтазам равишда семинар, учрашув, мулоқот ва тақдимотлар ўтказилаётганлиги, оммавий ахборот воситалари (телевидение, радио, газета ва журналлар), ижтимоий тармоқларда реклама ва тарғибот ишлари амалга оширилиши натижасида 2023 йилда тушган мурожаатларнинг 38%ига мулк ҳуқуқини тасдиқловчи давлат ордери тақдим этилган.**

1-жадвал

2022–2023 йилларда юридик ва жисмоний шахслар томонидан ер участкаларни хусусийлаштириш учун топширилган мурожаатлар миқдори

№	Худудлар	2022 йилда тушган жами мурожаатлар	шундан				2023 йилда тушган жами мурожаатлар	шундан			
			Худудлар кесимида (%)	жис. шахс (%)	юр. шахс (%)	Ижобий* хулоса берилган (%)		Худудлар кесимида (%)	жис. шахс (%)	юр. шахс (%)	Ижобий* хулоса берилган (%)
1	Қорақал. Рес.	180	0,6	95	5,0	15	839	3,2	98	2,3	58
2	Андижон	1 544	5,1	92	8,3	14	495	1,9	91	9,3	19
3	Бухоро	1 393	4,6	96	3,7	5	1 187	4,5	94	5,9	10
4	Жиззах	1 241	4,1	98	1,6	3	707	2,7	95	4,7	26
5	Қашқадарё	3 495	11,5	95	5,4	2	940	3,5	94	6,4	29
6	Навоий	611	2,0	98	2,3	3	137	0,5	87	13,1	11
7	Наманган	2 919	9,6	98	2,2	3	971	3,7	98	2,1	8
8	Самарқанд	1 942	6,4	97	3,5	5	748	2,8	96	4,1	35
9	Сурхондарё	3 128	10,3	99	1,4	2	843	3,2	95	5,1	34
10	Сирдарё	1 973	6,5	98	2,0	2	492	1,9	94	5,9	11
11	Тошкент	2 185	7,2	95	4,7	6	2 442	9,2	94	6,1	31
12	Тошкент ш.	1 470	4,8	87	13,3	21	2 085	7,8	88	12,4	30
13	Фарғона	989	3,3	96	3,6	12	855	3,2	95	4,6	46
14	Хоразм	7 353	24,2	98	1,7	15	13 824	52,0	98	1,5	47
ЖАМИ		30 423	100	95,8	4,2	8	26 565	100	94	6	38

\*мулк ҳуқуқи тасдиқланганлиги тўғрисида ордер олган.

**Манба:** Давлат активларини бошиқариш агентлигининг маълумотлари асосида муаллиф ишланмаси.

**Мурожаатларни кўриб чиқиш ҳолати**

Қишлоқ хўжалигига мўлжалланмаган ер участкаларини хусусийлаштириш бўйича келиб тушган мурожаатлар қуйидаги тартибда кўриб чиқилади:

- 5 иш кун ичида туман (шаҳар) кадастр ва қурилиш бўлимлари томонидан тасдиқланган шаҳар-созлик ҳужжатларига мослиги;

- ерга нисбатан тақиқ ёки чекловларнинг бор ёки йўқлиги;

- “Кўчмас мулкка бўлган ҳуқуқларнинг давлат реестрида”ги маълумотларга мувофиқлиги.

**Ваколатли ташкилотлар томонидан 2022–2023 йилларда жами кўриб чиқилган 56 988 та мурожаатдан:**

– қурилиш бўлимларига 65,1% ижобий ва 34,9% салбий хулоса;

– кадастр филиалларига 44,7% ижобий ва 55,3% салбий хулоса берилган.

Қишлоқ хўжалигига мўлжалланмаган ер участкаларини хусусийлаштиришдан тушадиган маблағлар ҳисоби.

Қишлоқ хўжалигига мўлжалланмаган ер участкаларини хусусийлаштиришдан тушадиган пул маблағлари ерга нисбатан белгиланган харажатларни чегириб қолган ҳолда Қорақалпоғистон Республикаси, вилоятлар ва Тошкент шаҳрининг бюджетига, фуқаро ва тадбиркорлик субъектларига етказилган мулкый зарарни компенсация қилиш бўйича ҳудудий мақсадли жамғармага, Қорақалпоғистон Республикаси Вазирлар Кенгаши, вилоятлар ва Тошкент шаҳри ҳокимликлари ҳузуридаги Тадбиркорлик инфратузилмасини ривожлантириш жамғармасига йўналтирилади.


**Хусусийлаштирилган ер участкалари ҳолати**

2022–2023 йиллар ҳамда жорий йилнинг 8 ойи давомида давомида “Yerxususiyashtirish” ААТ орқали жами 18 245 та юридик ва жисмоний шахсларга тегишли бўлган 1 670 гектар (шундан юридик шахслар – 175,6 гектар) ер участкалари хусусийлаштирилган.

Республика бўйича ўзига тегишли бўлган ерларни хусусийлаштириш жараёнида энг кўп мурожаат топширилган ҳудудлар Хоразм, Қашқадарё, Сур-

хондарё ва Наманган вилоятлари ҳисоблансада, ер участкалари энг кўп хусусийлаштирилган ҳудудлар

Хоразм – 46,5%, Тошкент – 17,2% вилоятлари ва Тошкент шаҳри – 9,0% ҳиссасига тўғри келмоқда.




**1-расм. Юридик ва жисмоний шахслар томонидан жами хусусийлаштирилган ер участкалари (фоиз ҳисобида)**

**Манба:** Давлат активларини бошқариш агентлигининг маълумотлари асосида муаллиф ишланмаси.

Ҳудудлар кесимида юридик ва жисмоний шахслар ўзига тегишли бўлган ер участкаларини хусусийлаштиришни таҳлил қилиб кўрилганда республика бўйича жами хусусийлаштирилган ер майдонларнинг 89,5 фоизи жисмоний шахслар ва 10,5 фоизи юридик шахслар ҳиссасига тўғри келмоқда, ушбу кўрсаткични ҳудудлар кесимида

кўрилганда жисмоний шахсларнинг юқори улуши Хоразм (97,5 фоиз), Жиззах (97,2 фоиз) ва Фарғона (96,0 фоиз) вилоятларида, юридик шахсларнинг юқори улуши Сирдарё (41,5 фоиз), Қашқадарё (34,8 фоиз), Андижон (30,1 фоиз) вилоятлари ҳамда Тошкент шаҳрида (28,1 фоиз) кузатилмоқда.




**2-расм. Ҳудудлар кесимида юридик ва жисмоний шахслар томонидан жами хусусийлаштирилган ер участкалари (улуши)**

**Манба:** Давлат активларини бошқариш агентлигининг маълумотлари асосида муаллиф ишланмаси.

2022–2023 йилларда давомда ер участкаларини хусусийлаштиришдан тегишли бюджет ва жамғар-

маларга келиб тушган пул маблағлари 107,8 млрд. сўмни ташкил этди.



3-расм. Худудлар кесимида юридик ва жисмоний шахслар томонидан жами хусусийлаштирилган ер участкалари (улуши)

**Манба:** Давлат активларини бошқариш агентлигининг маълумотлари асосида муаллиф ишланмаси.

Республикада ўзига тегишли қишлоқ хўжалигига мўлжалланмаган ер участкалари энг кўп хусусийлаштирилган ҳудуд – Хоразм вилояти (46,5%) ҳисоблансада, хусусийлаштиришдан тегишли бюджет ва жамғармаларга энг кўп пул маблағларини туширган ҳудуд – бу Тошкент шаҳри (49,5 млрд. сўм)дир. Бу бевосита пойтахтда қишлоқ хўжалигига мўлжалланмаган ер участкалари бўйича базавий солиқ ставкаларининг юқорилиги билан изоҳланиши мумкин.

Республикада аҳоли пунктларида жойлашган 2,8 млн. ер участкаларидан шаҳарсозлик жиҳатидан хусусийлаштиришга тўсқинлик қилмайдиган ерларнинг хусусийлаштирилишидан дастлабки ҳисоб-китобларга кўра, тегишли бюджет ва жамғармаларга қўшимча 6,63 трлн. сўм маблағни йўналтириш орқали республикада аксарият ҳудудларнинг шаҳарсозлик ҳужжатларини ишлаб чиқиш, муҳандислик - коммуникация инфраструктурасини ривожлантириш ҳамда қишлоқ хўжалигига мўлжалланмаган ер участкаларининг хусусий мулк бозорини шакллантириш имконияти мавжуд.

Бу борада, қишлоқ хўжалигига мўлжалланмаган ер участкаларини хусусийлаштириш аҳолининг турли қатламларини ерни гаровга қўйиш эвазига жалб қилиниши мумкин бўлган молия ресурслари-

ни тадбиркорликка кенг жалб қилиш, ерларни муомалага киритиш ҳамда шахсий мулк ҳуқуқига эга бўлган ер бозорини шакллантириш учун иқтисодий ривожланишнинг ҳаракатлантирувчи драйверларидан бири эканлигини таъкидлаб ўтиш жоиз.

### Хулосалар

1. Ер участкаларини хусусийлаштириш бўйича мурожаатларнинг ижобий қондирилиши 2023 йилда 2022 йилдагига нисбатан 5 бараварга ортган. Ер участкалари ва ерга бўлган ҳуқуқларнинг фуқаролик муомаласига киритилиши мулкчилик муносабатларининг такомиллашаётгани ҳамда жисмоний ва юридик шахсларнинг инвестицион жозибадорлигини ошираётганини акс эттирмоқда.

2. Ўсиш кўрсаткичлари Қорақалпоғистон Республикаси ҳамда Самарқанд, Сурхондарё, Фарғона, Хоразм вилоятларида ерларни хусусийлаштириш жараёнининг жадаллашганини кўрсатмоқда.

### Таклифлар

**Қишлоқ хўжалигига мўлжалланмаган ер участкаларини хусусийлаштириш жараёнини янада жадаллаштириш, шунингдек, мазкур жараёнга кўплаб ер мулкдорларини жалб этиш мақсадида қуйидагилар таклиф қилинади:**

1. Тарғибот ва ташвиқот ишларини жадаллаштириш ҳамда мазкур жараёнга туман (шаҳар) ҳоким

ёрдамчиларининг ижтимоий тармоқлардаги мавжуд каналлар орқали аҳолини ушбу жараёнга кенг қамраб олиш ишларида фаол иштирок этишини йўлга қўйиш.

2. Хусусийлаштириш субъектларига тегишли бўлган ерларни хусусийлаштириб, уларни гаровга қўйиш эвазига банклардан кредит олиш имкониятини яратиш. Бунда Вазирлар Маҳкамасининг 2022 йил 2 августидаги 420-сонли қарорига тегишли ўзгартиришлар киритиш зарур.

Бу механизм орқали жисмоний шахсларга тадбиркорлик билан шуғулланиш ҳамда ўзини ўзи

банд қилган аҳолининг расмий даромадга эга бўлиши бўйича кенг шароитлар яратиш мумкин.

3. Бош схема, ҳудудий схемалар ва агломерацияларни ривожлантириш стратегиялари, шаҳарларнинг бош режалари, қишлоқ аҳоли пунктларининг схемалари ҳамда мастер-режалар ишлаб чиқилмаган туман (шаҳар)ларда мазкур шаҳарсозлик ҳужжатларини ишлаб чиқиш учун лойиҳалаштириш ташкилотларини жалб қилиш ва керакли маблағларни ажратиш ишларини жадаллаштириш лозим.

### Манба ва адабиётлар

1. *Ўзбекистон Республикасининг Қонуни “Қишлоқ хўжалигига мўлжалланмаган ер участкаларини хусусийлаштириш тўғрисида”*. Тошкент, 2021, Lex.uz.
2. *Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2021 йил 8 июндаги “Ер муносабатларида тенглик ва шаффофликни таъминлаш, ерга бўлган ҳуқуқларни ишончли ҳимоя қилиш ва уларни бозор активига айлантириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПФ-6243-сон Фармони*.
3. *Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2022 йил 14 февралдаги “Қишлоқ хўжалигига мўлжалланмаган ер участкаларини хусусийлаштириш тўғрисида”ги Ўзбекистон Республикаси Қонунини амалга ошириш чора-тадбирлари ҳақидаги 71-сон қарори*.
4. *Ўзбекистон Республикасининг Қонунчилик базаси* (<https://lex.uz/>)
5. Савас, Э. С. *Приватизация: ключ к рынку: Пер. с англ. / Э. С. Савас. - М.: Дело, 1992. - С. 3.*
6. Шатрова О.В. *Правовое регулирование приватизации земельных участков в поселениях / О.В. Шатрова. М.: Проспект. 2006. - С. 13.*
7. Кашанин А.В. *Понятие и правовая природа приватизации / А.В. Кашанин // Правоведение. 1997. № 2. - С. 120.*
8. Скворцов О.Ю. *Приватизационное право / О.Ю. Скворцов. - М.: Норма. 1999. - С. 24 - 25.*
9. Беркинов Б.Б. *Новые способы приватизации государственной собственности и оценка их эффективности. // Журнал «Экономика и класс собственников». - Ташкент, 2004. - №3. - С. 21-26.*
10. *Институциональные основы формирования многоукладной экономики: коллективная монография. / Под общ. ред. И.Л.Бутикова. - Ташкент: Консаудитинформ, 2002. - 272с.*
11. *Хамрахуджаев Н.. Хусусийлаштиришнинг мулкчилик шакллари ривожланишидаги ўрни ва аҳамияти. // Хусусий мулкчилик ва тадбиркорликни ривожлантириш: эришилган ютуқлар, муаммолар ва ечимлар. Республика илмий амалий анжуманининг тезислари тўплами. - Тошкент, ТДИУ, 2011. - С. 14-16.*
12. *Қишлоқ хўжалигига мўлжалланмаган ер участкаларини хусусийлаштириш юзасидан Давактив агентлиги бошқармаси бошлиғи М.Убайдов ишчиликдаги брифинг* (<https://davaktiv.uz/uz/news/briefing-with-the-head-of-department-of-the-uzsama-m-ubaidov-on-the-privatization-of-non-agricultural-land-plots>)

УЎК: 628.1:631.4:332.12.(575.1)

**Махаматжон ҚОСИМОВ,**  
иқтисодиёт фанлари номзоди,  
Тошкент давлат иқтисодиёт университети  
“Макроиқтисодий сиёсат ва прогнозлаш” кафедраси профессори в.б.,  
E-mail: makhamatjon@mail.ru

## МАРКАЗИЙ ОСИЁДА СУВДАН ФОЙДАЛАНИШДАГИ МУАММОЛАР ВА ЎЗГАРИШЛАР

**Аннотация:** мақолада сув ресурсларининг Марказий Осиёда тобора танқисланиб бораётгани, сувдан самарали фойдаланишнинг баъзи муаммолари ва келгусида сувдан тизимли фойдаланиш орқали барқарор ривожланишга эришиш асослари тадқиқ этилган. Сув муаммоси тизимли муаммо эканлиги ва уни алоҳида олинган мамлакат доирасида самарали ҳал қилиб бўлмаслиги статистик рақамлар ва глобал жараёнлар оқибатлари негизида илмий асослаб берилган. Сув муаммосини бошқариш борасида Ўзбекистонда олиб борилаётган лойиҳалар ва давлат ҳаракатлари таҳлил қилиб умумлаштирилган ва хулосалар берилган. Мақолада келгусида Марказий Осиёда сув ресурсларидан самарали фойдаланиб, барқарор ўсишни таъминлашга боғлиқ тавсиялар ишлаб чиқилган.

**Калит сўзлар:** Марказий Осиё, сув ресурслари, глобал сув муаммоси, худудий сувга талаб, ичимлик суви, глобал омиллар, барқарор ривожланиш, суғориш технологиялари, сувдан самарали фойдаланиш.

### Проблемы и изменения водопользования Центральной Азии

**Махаматжон Касимов,**  
кандидат экономических наук,  
Ташкентский государственный экономический  
университет, и. о. профессора кафедры  
«Макроэкономическая политика и прогнозирования»

**Аннотация:** в статье рассматривается растущий дефицит водных ресурсов в Центральной Азии, проблемы эффективного использования воды и основы достижения устойчивого развития региона на основе эффективного использования воды в

будущем. Утверждается, что проблема воды является системной проблемой. В статье обосновано, что проблему нельзя эффективно решить в рамках одной страны, что показывает анализ статистических данных и последствий глобального процесса. Проанализированы проекты по водопользованию и государственные мероприятия, проводимые в Узбекистане для решения проблем водоснабжения, сделаны соответствующие выводы.

**Ключевые слова:** Центральная Азия, водные ресурсы, глобальная проблема воды, региональный спрос на воду, глобальные факторы, глобальное развитие, питьевая вода, технологии орошения, эффективность использования воды.

### Water problems and changes in water use in Central Asia

**Makhamatjon Kasimov,**  
PhD (in Economics),  
Tashkent State Economic University,  
acting professor of the “Department of  
“Macroeconomic policy and prognoses”

**Abstract:** the article examines the raising scarcity of water resources in Central Asia, problems of efficient use of water, and the foundations of achieving sustainable development of the region through efficient use of water in the future. It has been argued that the water problem is systemic problem. The problem cannot be effectively solved within the framework of a single country is scientifically justified on the basis of statistical figures and the consequences of global process. The water management projects and state actions carried out in Uzbekistan to solve the water



*problems are analyzed, summarized and conclusions are formulated.*

**Keywords:** *Central Asia, water resources, global water problem, regional water demand, global factors, global development, drinkable water, watering technologies, water using efficiency.*

### Кириш

Марказий Осиёда сувнинг чекланган ресурс сифатида муқобил варианты йўқ. Бу эса сув ресурсларидан келгусида тизимли ва самарали фойдаланиш лозимлигини яққол кўрсатади. Кейинги йилларда Орол денгизининг қуриши билан бирга Каспий денгизи сув сатҳининг ҳам пасайиб бориши кузатилмоқда. Каспий денгизининг сув сатҳининг пасайиб боришига ундан интенсив равишда нефть, газ ва бошқа ресурсларни кенг қўламли қазиб олиш асосий сабаб бўлмоқда.

Афғонистонда Амударёдан сув оладиган “Кўштепа” каналининг қурилиши ва ишга тушиши натижасида Ўзбекистон ва Туркменистонда сув танқислиги янада ошади. Сув ресурсларининг танқислигига глобал иқлимнинг иссиши ва унинг Марказий Осиёда икки баробар тезроқ исийганлиги ҳам катта таъсир кўрсатмоқда. “Ўртача глобал ҳарорат 2040 йилга қадар 1,5 даражага ортиши прогноз қилинган эди. Лекин ҳозирги вазиятда бу ҳолат 2030 йилдаёқ юз бериши мумкинлиги” [1] айтилмоқда.

Кейинги йилларда қишлоқ хўжалигида сувга бўлган талабнинг ўсиб бориши натижасида янги қудуқлар қазиб, интенсив боғлар ташкил этилмоқда. Натижада ер ости сувлари сатҳининг камайиб бориши кузатилмоқда. Бу каби муаммолар сувдан фойдаланиш борасида Марказий Осиё мамлакатларининг ҳамкорлиги яхлит, тизимли муаммо сифатида таҳлил қилиниши ва биргаликда барқарор иқтисодиёт яратишни тақозо этмоқда.

**“Бугунги кунда Марказий Осиё аҳолиси 80 миллион кишидан ошади. Яқин беш йил ичида минтақа ялпи ички маҳсулоти 700 миллиард долларга етиши кутилмоқда”** [1]. Ушбу прогнозларнинг амалга оширилиши Марказий Осиёда сувдан самарали фойдаланиш муаммосининг ҳал этилиши билан боғлиқ.

Ўзбекистонда “2022 йилга келиб сувни тежаш технологиялари асосида суғориладиган майдонлар 25%ни ташкил этди, натижада 3 млрд. куб метр сув иқтисод қилинди ҳамда 830 минг гектар майдонларни суғоришга йўналтирилди” [2]. Ижо-

бий ҳаракатлар бошланган бўлса-да, муаммолар ва чақириқлар бисёр. Хусусан, “Кўштепа” каналининг қурилиб тўла ишга тушиши натижасида Амударё ҳавзасидаги сув яна камида 8–20 фоизга камаяди ва сув муаммоси янада кескинлашади [3]. Ўзбекистон Республикаси Президенти Осиё инфратузилмавий инвестициялар банки бошқарувчилар кенгашида таъкидлаганидек: “Ўзбекистон Осиё инфратузилма инвестиция банки билан ҳамкорликда сувни тежовчи технологияларни кенг жорий этиш бўйича минтақавий марказни ташкил этиш ташаббусини илгари сурди. Ҳамкор ВСГ Ўзбекистонда сувни тежаш бўйича ташаббусларни 10 миллиард долларга баҳолади”, деб таъкидлади. Ўзбекистон яқин беш йилда сувдан фойдаланиш самарадорлигини 25 фоизга ошириш ҳисобига 15 млрд куб метр сувни тежаш бўйича йирик лойиҳаларни амалга оширишни бошлади [1].

Ҳозирда “*Сув таъминоти тизимини такомиллаштириш бўйича ишларни изчил давом эттириш, соҳага чет эл инвестицияларини жалб этиш ва мамлакатнинг ичимлик сув таъминоти ва сув чиқариш инфратузилмасини ривожлантириш*” [4] лойиҳалари амалга оширилмоқда.

### Илмий тадқиқотлар шарҳи

Сув ресурсларидан самарали фойдаланиш назарияси ва амалиётини ишлаб чиқишга мамлакатимиз олимлари орасида В.А. Духовний, Р. Гиниятуллин, И. Абдуллаев, Б.Мирзаев, Ш. Ҳамраев, Т.Шодиев ва бошқалар сув ресурсларининг иқтисодиётини бошқариш назариясини ривожлантиришга катта ҳисса қўшди. Б. Мирзаевнинг таъкидлашича “сув истеъмоли ва ҳисоб-китоби мураккаб муаммолардан бири бўлиб қолмоқда. Шу сабабли сув хўжалигини рақамлаштириш, насос станцияларини онлайн назорат қилиш, “ақлли” сув қурилмаларини амалиётга татбиқ этиш лозим” [5]. Халқаро сув ресурсларини бошқариш институти (IWMI) олимлари ва мутахассислари Ўрта Осиёда сувдан фойдаланишнинг илғор ютуқларини Ўзбекистонда амалга оширишни илмий жиҳатдан асослаб бермоқда [6]. Жаҳон Банкининг сув муаммоси лойиҳаси экспертлари таъкидлашича, сув секторига инвестиция киритиш иқтисодий ўсиш ва барқарорликка сармоя киритиш демакдир. Марказий Осиёда сув ресурсларига кам инвестиция қилинмаган, аммо оқибатлари кам баҳоланган ва етарли эмас [7]. Ўзбекистон “Сув ресурсларини бошқариш” лойиҳасини амалга оширмоқда. Марказий Осиё минтақасида билан 5 млрд долларлик

“Яшил иқтисодиёт” ва сувдан самарали фойдаланиш концепцияси ва амалиётини такомиллаштиришда [8]. Сув ресурсларини бошқариш лойиҳасида асосий масала сувнинг аниқ ҳисобини олиб бориш ва рақамлаштириш ҳисобланади.

Сув муаммоси Марказий Осиё мамлакатларининг ҳаёт мамот масаласи, мустакил давлатчилик муаммосидир. Ҳозирги босқичда Марказий Осиё мамлакатларининг ҳар бирида миллий манфаатлар биринчи ўринда туради. Бу тушунарли, албатта. Шунинг учун умумий минтақавий манфаатларни ўзаро хизматлар ва компенсациялар тақдим этиш йўли билан миллий манфаатларга мувофиқлаштириш мумкин [9]. Марказий Осиё давлатлараро мувофиқлаштирувчи сув комиссиясига сув ресурсларини ва трансчегаравий сувларда табиий жараёнларнинг барқарорлигини таъминлаш бўйича функциялар юкланган. Комиссия Марказий Осиё мамлакатларининг трансчегаравий сувларини йиллар ва ойлар кесимида олиши, халқаро сув ташкилотлари ва уларнинг лойиҳаларини амалга ошириш ва мувофиқлаштиришда, ҳукуматлар форматида, барқарор фаолият олиб бормоқда ва илмий-амалий анжуманларда тавсиялар ва ҳисоботлар тақдим этмоқда [10].

Марказий Осиёда сув ва экология муаммоси глобал иқтисодиёт олимларининг диққат марказида турибди. Айниқса, Япония олимларининг ҳудудий сув ва экологик хатарларга қаратилган илмий ҳулосалари эътиборга лойик.

Профессор Ёшихиро Кимура (Япония) “Environmental Risks and Human Insecurity in the Ferghana Valley“ [11] номли тадқиқотида таъкидлашчи, Қирғизистоннинг Фарғона водийси (Жалолобод ва Ўш вилоятлари) ҳудудларига уран чиқиндилари кўмилган. Ҳудудда сел ва ёмғирларнинг таъсирида сувнинг ифлосланиши ва ҳудуд аҳолисининг саломатлигига уран чиқиндилари билан қоришган сув таҳдидлари мавжудлиги таъкидланган. У ичимлик сувининг ифлосланиши, унинг сойлардан Сирдарёга оқиб келиши оқибатлари, ҳудуд экологиясининг бузилиши ва аҳолининг соғлигига ифлосланган сув таҳдидларини кўрсатиб берган. Фарғона водийси ягона сув тизимида (Норин дарёси, Қорадарё, Сирдарё трансчегаравий дарёлар тизими) эканлиги сабабли, Ўзбекистон, Қирғизистон ва Тожикистон Республикалари ягона стратегия асосида, халқаро ҳуқуқ нормалари асосида сувдан фойдаланиш орқали барқарор ривожланишга эришиши мумкинлигини англаш мумкин.

**Марказий Осиёнинг асосий муаммоси** – сувга бўлган талабнинг ортиши билан Орол денгизи сатҳининг тушиши, йиллар давомида унинг қуриб боришига олиб келди. Сув муаммосининг тизимли муаммо эканлигини англаган ҳолда 1992 йили сув бошқаруви бўйича халқаро комиссия тузилди. Бироқ комиссия самарали институт бўла олмади [9]. Марказий Осиёда мукамал ишлайдиган, сувни самарали бошқарув институтини яратиш ҳозирги даврда ҳам кун тартибда турибди.

Марказий Осиёда чегараларни демаркация қилишда ижобий тажриба шаклланди, компромисслар ва компенсациялардан фойдаланилди. Бу тажрибадан Марказий Осиёда сув муаммосини самарали ҳал қилишда ҳам фойдаланиш мумкин. Акс ҳолда сув ресурслари учун рақобат кескинлашиб, Марказий Осиё мамлакатларининг ҳудудий қарама-қаршилигига олиб келиши мумкин. Ана шундай зиддият Фарғона водийсида, Тожикистон ва Қирғизистон фермерлари ўртасида яқин йилларда бўлиб ўтди.

Маълумки, Марказий Осиё мамлакатлари раҳбарлари 1993 йили Ҳукуматлараро Орол Кегаш (IASC) ва Халқаро Оролни сақлаб қолиш фонди (IFAS)ни ташкил этдилар. Фондга ривожланган мамлакатлар ва халқаро техник кўмак кўрсатиш фондлари жалб этилди. Бироқ сув ва экологик лойиҳалар молиялаштирилса-да Оролни сақлаб қолишга ишонч сўниб борди. Аммо IFAS нинг фаолияти натижасида Марказий Осиё мамлакатларида IFAS нинг қўмитаси очилди ва сувдан самарали фойдаланиш бўйича қарор ҳамда фармонлар қабул қилинди [2].

Хусусан, Қирғизистонда Қамбар ота сув омборининг қурилиши ва Тожикистондаги Роғун 2 ГЭСининг қурилиши натижасида сув танқислигининг келиб чиқиши маълум. Бу ҳолат сув ва энергетика тизимини глобал ҳудуд форматида ҳал қилиниши кераклигини яна бир бор кўрсатди. Қурилажак сув омборларида етарли сув жамғариш орқали ГЭСларнинг фаолиятини барқарор йўлга қўйиш мумкин. Бу эса дарёларнинг қуйи қисмларида жойлашган мамлакатларда сув танқислигини келтириб чиқариши аниқ. Бу глобал ҳудудий муаммонинг ечими халқаро ижобий тажрибалар, норматив ҳуқуқий базаларни такомиллаштириш, халқаро молия ресурсларини жалб этиш, мамлакат етакчиларининг либерал ва конструктив ҳаракатларига боғлиқ бўлмоқда. Бу борада Ўзбекистон ва Қирғизистон етакчилари ўрта-сидаги Андижон сув омбори бошқаруви масала-

сининг ҳал қилиниши катта аҳамиятга эга бўлди. Бироқ, сувдан фойдаланиш квотасини белгилашда сувнинг юқори қисмида бўлган мамлакатлар куйи қисмида бўлганларни фақат харажатлар эвазига сув билан таъминламоқчи эканлиги жиддий муаммодир [12]. Аксинча, сувдан фойдаланишни кенг кўламда, узокни кўзлаб, тизимли муаммо сифатида қараш мақсадга мувофиқ деб ҳисоблаймиз.

Марказий Осиёнинг сувдан самарасиз фойдаланидиган ҳудуд эканлиги глобал иқтисодиёт олимлари ва мутахассисларига маълум [7]. Бир бирлик маҳсулот етиштириш учун сув сарфи илғор мамлакатларга нисбатан 2–3 марта кўп. Қишлоқ хўжалиги маҳсулотлари қийматида сувнинг қиймат кўрсаткичлари бўйича ҳам шундай фарқлар мавжуд. *“Фермерларга бир метр куб сувни Ўзбекистонда 212 сўмга етказиб берилмоқда, бироқ Бухоро, Қашқадарё ва Наманган вилоятларида 2–3 марта қиммат”* [4]. Бу ҳолатни Марказий Осиё мамлакатлари кесимида ҳам кузатиш мумкин. Демак, Марказий Осиё мамлакатларида муаммога комплекс ёндашиш, сув ресурсларининг аниқ ҳисобини юритиш, уни рақамлаштириш, сувдан фойдаланишнинг ягона шаффоф бошқарув тизимини яратиш зарур бўлмоқда. Бундан ташқари, Марказий Осиё мамлакатларида сув танқислиги 2050 йилга бориб 10–30 фоизгача камаяди [6].

Марказий Осиёнинг сув танқис ҳудудларида миграция жараёнлари кузатилмоқда. Буни Қуйи Амударё ҳудудида кўриш мумкин. Сув танқислигининг ортиши билан келгусида Марказий Осиё ҳудудида миграция жараёнлари ортиши мумкин. Жаҳон Банки ўзининг махсус ҳисоботида Европа Иттифоқи мамлакатларига Марказий Осиё мамлакатлари билан самарали миграция сиёсати олиб боришларини тавсия этмоқда. 2050 йилга бориб, Марказий Осиёда сув танқислиги натижасида аҳолининг миграцияси кучайиши мумкин. Экспертларнинг таъкидлашича, 2050 йилга бориб, Европа Иттифоқида меҳнатга яроқли аҳоли 14% га камайиши кутилмоқда [13]. Марказий Осиёда эса аҳолининг ёш ва фаол қатлами кўпайиб, уларнинг миграцияси ошади. Бошқача қилиб айтганда, сув танқислиги Марказий Осиёда миграция жараёнларини тезлаштиради.

Самарали миграция сиёсати икки томонга ҳам манфаат келтиради. Ўзбекистонда 2024 йилда 15,1 миллион ишчи кучи бўлиб, қарийб 2 миллион киши мамлакатдан ташқарида меҳнат қилмоқда. 2050 йилга бориб, Ўзбекистонда тахминан 30 миллиондан

ортиқ меҳнат ресурслари мавжуд бўлади. Юқори технологияга асосланган янги иш жойларини яратиш катта инвестиция киритишни тақозо этади. Малакали кадрлар етиштириш Марказий Осиёда муттасил ошиб боради, малакали ишчи кучи миграцияси кўпайиб боради. Шуни таъкидлаш керакки, келгусида Ўзбекистонда малакали ва юқори малакали кадрлар етиштириш сезиларли даражада кўпаяди.

Европа Иттифоқининг Марказий Осиёда малакали кадрлар етиштириш ва миграция жараёнларида ўзаро ҳамкорлик қилиши мақсадга мувофиқдир. Ҳозирги пайтда Германиянинг Фрайнбург университети клиникаси ва “Кох-Авиценна” номидаги Ўзбекистон – Германия тиббиёт жамияти Ўзбекистонлик ҳамшираларни ўқитмоқда. Ҳамшираларни тайёрлаб, 2 минг ҳамширани Германияга ишга жўнатиш ишлари амалга оширилмоқда. Тошкентдаги АҚШнинг Вебстер университети ҳам ҳамшираларни тайёрлаб, уларнинг АҚШда ишлашларига имкон яратмоқда. Бундай ҳамкорликни Япония, Жанубий Корея, Европа Иттифоқининг бошқа мамлакатлари билан ҳам йўлга қўйиш лозим.

#### **Тадқиқот гипотезаси**

Сув бор ерда ҳаёт бор, Марказий Осиёда сув муқобил варианты йўқ бўлган ресурсдир. Сувга бўлган талаб барқарор ўсиб бораверади. Сувдан тизимли ва самарали фойдаланиб, Марказий Осиё мамлакатларини сиёсий, иқтисодий, экологик барқарор ривожлантириш мумкин. Сувдан самарали фойдаланиш учун Марказий Осиё малакатлари илм-фан ва инновацияга инвестиция киритишни кўпайтириши, сув тежамкор технологияларни жорий қилиши, қишлоқ хўжалигида сув танқислигига чидамли экинлар майдонини кенгайтириши – диверсификация қилиши, сув бошқаруви тизимини шаффоф қилиши, барча сув ресурсларини кадастрлаши ва қишлоқ хўжалигини интенсив ривожлантириши лозим.

#### **Тадқиқот методологияси**

Ушбу мақолада статистик, қиёсий, тизимли ҳамда эксперт таҳлили усуллари билан фойдаланиб, сувдан фойдаланишнинг Марказий Осиёдаги ҳозирги ҳолати таҳлил қилинди ҳамда сув ресурсларининг хусусий (сув сарфи, сув тежамкор технологияли майдонлар, сув танқислиги, сувга инвестициялар) ва синтетик (жаҳон ва Марказий Осиёда сув микдори, сув танқислиги) кўрсаткичлардан фойдаланилди. Таҳлил манбалари бўлиб, Ўзбекистон Статистика агентлиги, Жаҳон Банки, Бирлашган Миллатлар


Ташкилотининг Қишлоқ Хўжалиги ва Озиқ-овқат ташкилоти (FAO UN), Халқаро ташкилотларнинг таҳлилий ҳисоботлари, сув ресурслари ва у билан боғлиқ экологик ва инвестиция лойиҳалари маълумотлари бўлиб ҳисобланади.

**Тадқиқотдан олинган асосий натижалар**

Бирлашган Миллатлар Ташкилотининг озиқ-овқат ва қишлоқ хўжалиги бўйича ташкилоти ФАОнинг маълумотларига кўра, охириги юз йилликда сувга бўлган талаб жаҳон иқтисодиётида муттасил ортиб борди. Айниқса сувга бўлган жаҳон иқтисодиётининг талаби 1950 йиллардан кейин кескин ортди. Сувнинг асосий истеъмоли қишлоқ хўжалигига (75–80%) тўғри келган (1-расм). Демак, сувдан самарали фойдаланиш муаммосининг ечими аввало қишлоқ хўжалигидан бошланиши лозим.

Шу билан бирга, Марказий Осиё қишлоқ хўжалигида Осиё китъаси қишлоқ хўжалигига нисбатан сув сарфи 6%га кўп (1-жадвал). Ваҳоланки, Жанубий Шарқий Осиё мамлакатларида асосий экин шоли бўлиб, у сувни кўп талаб этадиган экин ҳисобланади.

Марказий Осиёда чучук сувнинг 88%ини қишлоқ хўжалиги истеъмол қилмоқда. Марказий Осиё қишлоқ хўжалигида 2018 йили 131 км<sup>3</sup> сув ишлатилган. Шундан тахминан 50 км<sup>3</sup> сув Ўзбекистон қишлоқ хўжалигида ишлатилган. Кейинги йилларда Ўзбекистонда қишлоқ хўжалигида аввалги йилларга нисбатан сув 5–7 км<sup>3</sup> кам ишлатилган ва бу сувдан самарали фойдаланиш бўйича амалга оширилаётган чора-тадбирларнинг дастлабки натижасидир.



**1-расм. Жаҳонда сув истеъмолининг ўсиб бориш эволюцияси (1900–2018 йиллар) [13] (яшил ранг уй-жой ва коммунал хўжалиги, кизғиш ранг саноат ва кўк ранг қишлоқ хўжалиги).**

Марказий Осиёда Муниципал (уй-жой, коммунал хўжалиги) сув сарфи умумий сув сарфининг энг кам миқдорини, яъни 5% ни ташкил этади.

Сувни қайта тозалаб ишлатишда кичик ва ўрта бизнесга бўлган талабларни қайта кўриб чиқиш лозим. Уларда сувдан фойдаланиш борасида самарасиз технологиялар салмоғи катта бўлиб қолмоқда. Бу айниқса мева-сабзавот консерва заводларида яққол кўринади. Маълумки, йирик корхоналарда сувни тозалаб қайта ишлатиш сезиларли даражада ижобий томонга ўзгармоқда.

**1-жадвал**


**Осиё ва Марказий Осиёдаги умумий сув миқдори, инсон истеъмолига мўлжалланган умумий чучук сув истеъмоли ҳамда умумий сув истеъмолининг салмоғи [13]**

Худуд	Қишлоқ хўжалигида сув сарфи		Муниципал сув сарфи		Саноатда сув сарфи	
	(км <sup>3</sup> )	%	(км <sup>3</sup> )	%	(км <sup>3</sup> )	%
Осиё	2 162	82	249	9	223	8
Марказий Осиё	131	88	8	5	10	8

**Манба:** муаллиф томонидан [http://www.icwcaral.uz/reports\\_amudarya\\_ru.htm](http://www.icwcaral.uz/reports_amudarya_ru.htm) асосида яратилди

Аҳолининг тоза ичимлик суви билан таъминланиши ва истеъмолида ҳам муаммолар мавжуд. Бу айниқса қайта тикланадиган сув масаласида яққол кўринади. Хусусан, 2000, 2012 ва 2018- йилларда географик минтақалар бўйича аҳоли жон бошига тўғри келадиган йиллик ички қайта тикланадиган сув ресурслари Марказий Осиёда мос равишда 2500м<sup>3</sup>, 2400м<sup>3</sup> ва 2300м<sup>3</sup> га тенг бўлган ва ҳозирги даврда камайиши кузатилмоқда. Жанубий Америкада эса мос равишда 36000 м<sup>3</sup>, 33000 м<sup>3</sup> ва 29000 м<sup>3</sup> ни ташкил этган [14]. Бошқача қилиб айтганда, Жанубий Америка мамлакатларига нисбатан Марказий Осиёда қайта тозалаб ишлатиладиган сув 10–12 марта кам. Японияда сув сарфи ва назорати рақамлаштирилган ва юқори аниқликда ҳисоб-китоби юритилмоқда.

Сув танқислиги дунё худудлари бўйича турлича даражада бўлиб, у Марказий Осиё, Ғарбий Осиё ва Шимолий Африкада юқори суръатлар билан ўсиб бормоқда (2-расм). Ўзбекистонда сувнинг тикланишига қараганда уни ишлатиш 178% ни ташкил этади. Бу жараён экологик таҳдидларни янада кескинлаштиради. Бироқ экспертларнинг фикрича ҳали сув билан боғлиқ таҳдидларнинг олдини олиш мумкин.



2-расм. Глобал сув танқислиги даражаси [14].

Ўзбекистонда 2017 йилдан кейин ичимлик сувидан самарали фойдаланиш бўйича янгича қарашлар, ёндашувлар, амалий ишлар ва лойиҳалар кўпроқ илмий-амалий аҳамият касб этиб келмоқда. Айниқса бу ҳолат қишлоқ хўжалигида томчилатиб суғориш тизимидан кенг фойдаланишда кузатилмоқда.

Жумладан, Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2021 йил 23 февралдаги “Қишлоқ хўжалиги ишлаб чиқарувчиларининг сувни тежайдиган технологияларни жорий этиш бўйича харажатларнинг бир қисмини қоплаш чора-тадбирлари тўғрисида”ги 95-сонли қароридан томчилатиб суғориш тизимини рағбатлантириш механизми такомиллаштирилган. Ўзбекистонда 2019–2024 йилларда сувни тежаш технологияларини қўллаш майдони 7,7 баробар ошди, қамров майдони 1 миллион гектарга етди. Ўзбекистонда 2025 йилга бориб сув тежамкор технологиялар майдони 1,5 млн гектарни ташкил этади. Ҳозирда сувни тежаш технологияларини жорий этиш бўйича Ўзбекистон дунёда 7-ўринда туради [8].

Марказий Осиёда сув ресурсларининг муаммолари ва чақириқларининг ҳозирги давр таҳлили шунини кўрсатадики, сувдан самарали фойдаланиш кўп қиррали ва глобал муаммодир. Марказий Осиё мамлакатларининг биргаликда комплекс ҳаракат қилиши натижасида глобал ҳудуднинг узок муддатли барқарор ривожланишини таъминлаш мумкин.

Жумладан, сувдан фойдаланувчиларнинг (мамлакатлар ва тармоқлар кесимида) барчаларида илмфан ва инновацияга инвестиция киритишни рағбатлантириш лозим. Инвестиция самарадорлигини аниқлашда, сув танқислиги ва ундан келиб чиқадиган йўқотишларни алоҳида ҳисоблаб, муқобил фойда сифатида баҳолаш мақсадга мувофиқ.

$$NPV = \frac{\sum_{t=1}^n CF^t}{(1+k)^n} - \frac{\sum_{t=1}^n I^t}{(1+k)^n} + (a + b + c)^*$$

\* Формула муаллиф томонидан модификация қилинган

**Бу ерда:**

$CF^t$  –  $t$  - даврдаги лойиҳанинг пул тушумлари,

$I^t$  –  $t$  - даврдаги инвестиция харажатлари,

$K$  – лойиҳага қўлланилган дисконтлаш коэффициентини,

$(a+b+c)$  – бой берилган фойда.

Мисол учун, сувни тежаш ва бошқарувни такомиллаштириш натижасида тежалган сув: 1) сув танқис далаларга юборилади ва (а) даромад келтиради, 2) сув танқис далаларнинг экологик зарарларининг камайтирилишига сарфланадиган харажатлар (б) тежалади, ҳамда 3) давлат бюджетидан сув танқислиги бўйича дотация/субсидиялар харажатлари камаяди. Инвестиция харажатларининг самарадорлигини ҳисоблашда бой берилган  $(a+b+c)$  фойдани ҳисобга олиш, сувга киритилаётган инвестицияларнинг жозибадорлигини оширади. Келгуси сув-экологик лойиҳаларни баҳолашда ушбу назарий ёндашув тажриба сифатида қўлланиши тақлиф этилмоқда. Бу эса лойиҳаларни кенгрок ва чуқуррок баҳолаш имконини беради.

Инвестиция харажатларини янада қўпайтириш асосида сув тежамкор технологияларни жорий этиш, қишлоқ хўжалигини сув танқислигига чидамли, даромадли экинларга диверсификация қилиш, Марказий Осиё мамлакатларида сувни самарали бошқариш институтларини ташкил этиш, рақамлаштириш, барча республикаларда сув кадастрларини ишлаб чиқиш орқали Марказий Осиёда сув сарфини яқин йилларда икки бараварга камайтириш мумкин. Натижада узок муддатли барқарор иқтисодий ўсиш таъминланади. Каналлар, катта ва кичик ариқларни бетонлаштириш, сувларни аниқ ўлчаш ва шаффофлигини таъминлаб, рақамлаштириш асосида 13–14 млрд. куб метр сувни тежаб қолиш мумкин [14].

Бундан ташқари, сувни тежаш технологияларини субсидиялаб, ҳосилдор ва сув танқислигига чидамли қишлоқ хўжалиги экинлари уруғларидан фойдаланиш эса бир бирлик маҳсулотнинг сув сарфини 1,5 – 2 бараварга камайтиради. Натижада ўрта ва узок муддатда қишлоқ хўжалигининг барқарорлиги ҳамда озик-овқат хавфсизлиги таъминланади [14].

Бу борада амалга оширилган ҳамкорлик ва рағбатлар ўзининг ижобий натижасини кўрсатмоқда. Яқин йилларда қишлоқ хўжалиги экинларини суғориш даврида Шимолий Орол денгизига 400 млн. м<sup>3</sup>

яқин сув етиб келган бўлса, 2024 йили 1 млрд. куб метр сув етиб борди. 2024 йили 2021 йилга нисбатан сув 2,5 марта кўпайди [15].

2-жадвал.

Амадарёдан сув олиш [15].

2023 йил ойлар кесими												
	1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12
Жами млн.м <sup>3</sup>	1195	2595	4582	3840	4620	5662	7434	6882	4752	2642	1815	1566
Ўзб+ Турк(%)	76,1	90,0	89,7	75,4	75,9	79,5	82,7	81,8	78,4	73,4	72,7	73,1

Манба: [http://www.icwcaral.uz/reports\\_amudarya\\_ru.htm](http://www.icwcaral.uz/reports_amudarya_ru.htm) асосида муаллиф томонидан яратилди.

Шимолий Оролнинг сатҳини сақлаш учун Қозғистон қисмига йилига камида 1 млрд. м<sup>3</sup> сув куйилиши лозим. Бу эса балиқчилик тармоғининг ривожланиши ва аввалги ҳолатига келишига, чучук сувда балиқчилик тармоғини ривожлантиришга олиб келади. Ҳозирги даврда Шимолий Оролда 22 турдаги балиқ турлари етиштирилмоқда ва оролнинг флора ва фаунаси қайта тикланди [15].

Бироқ Афғонистонда “Қўштепа” каналининг қуриб ишга туширилиши дунёдаги энг сув танқис ҳудудларнинг бири – Қуйи Амударёда қишлоқ хўжалиги, экология ва барқарор ўсиш хатарини кескин оширади. Мисол учун 2023 йили Ўзбекистон ва Туркменистон Амударё сувининг 75–90 % ини олган. “Қўштепа” канали дарёнинг юқори оқимидан йилига 20% гача сув олади ва бетонлашмаган, эни 100 метр, чуқурлиги 8,5 метр ва узунлиги 270 километрдан узунроқ каналга оқизади. Канал лойиҳасининг кўплаб камчиликлари бўлсада, ҳозирда иккинчи босқичи амалга оширилмоқда

**Хулоса**

Марказий Осиёда сувдан самарали ва тизимли фойдаланиш аввало сув ресурсларини ҳудуд миқёсида бошқаришни такомиллаштиришни тақозо этади. Бунинг учун сув ресурсларини барча мамлакатларда аниқ ўлчаш, сувдан фойдаланишнинг шаффофлигини таъминлаш ва рақамлаштириш лозим.

Ҳудудда сув муаммосининг ҳал қилиниши илмфан ва инновация соҳаларида ҳамкорликни янада жадал ривожлантиришни ва сувдан фойдаланиш тизимида инвестицияни жалб этишнинг жозибадорлигини оширишни тақозо этмоқда. Сувдан самарали фойдаланиш бўйича инвестиция лойиҳалари тижорат жиҳатдан самарали бўлиши билан

бирга келгусидаги йўқотишларни ҳам ҳисобга олган ҳолда баҳоланиши лозим. Бунинг учун NPV формуласининг модификацияси таклиф этилмоқда.

Марказий Осиё мамлакатлари етакчиларининг биргаликдаги конструктив ҳаракатлари ҳал қилувчи аҳамият касб этади. Бундай ҳаракатларни 2024 йил, БМТнинг Боқуда ўтказилган COP 29 иқлим конференциясида яққол кўриш мумкин. Мамлакатларда сув ресурсларини самарали бошқариш барча сув манбаларини кадастрлаш, сув тежовчи технологиялардан барча соҳаларда кенг фойдаланиш, қишлоқ хўжалигини сувсизликка чидамли экинларга диверсификация қилиш каби тизимли муаммоларни ҳал қилишни тақозо этади. Шу мақсадда, ҳудудда сувдан фойдаланишнинг ягона бошқарув тизимини рақамлаштириш мақсадга мувофиқ.

Ҳудудда сувни қайта тозалаб ишлатиш, трансчегаравий сувларнинг ифлосланиши маълумотларини мамлакатлараро алмашиш, ичимлик сувининг хавфсизлигини таъминлаш борасида яқдил ҳаракатлар стратегиясини ишлаб чиқиш лозим.

Сувнинг муқобил варианти йўқлиги ва сув танқислиги муаммосининг оқибатларини ҳисобга олиб, ривожланган мамлакатлар билан аҳоли миграцияси масаласида икки томонлама манфаатли ҳамкорликни янада кенгайтириш лозим.

Ўзбекистонда келгуси йилларда олий таълим муассасаларининг қамров даражаси ўрта таълим муассасалари битирувчиларининг 60%ига этади. Демак, малакали кадрлар тайёрлаш ва миграция масалаларини сув танқислиги муаммоси билан узвийликда кўриб чиқилиши лозим. Республика Олий таълим тизимида кадрлар тайёрлашни прогноз қилишда халқаро бозорларда ўсиб бораётган кадрларга талабни ҳисобга олиш лозим.

**Манба ва адабиётлар**

1. <https://www.gazeta.uz/oz/2024/09/25/water/>
2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Сув ресурсларидан фойдаланиш самарадорлигини ошириш бўйича кечиктириб бўлмайдиган чора-тадбирлар тўғрисида”ги Қарори. [www/LexUz](http://www.LexUz). 2024.10.30
3. [2024\\_11\\_26\\_CFTNI\\_Afghanistans\\_qoshtepa\\_canal\\_and\\_water\\_security.pdf](https://2024_11_26_CFTNI_Afghanistans_qoshtepa_canal_and_water_security.pdf)
4. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 26.11.2019 йилдаги “Республика сув таъминоти тизимини янада такомиллаштириш тўғрисида”ги ПҚ-4536-сон Қарори. [www/Uza.uz](http://Uza.uz).2019.11.27.
5. Баходир Мурзаев. Сув масаласи — барқарорлик масаласи. Халқ сўзи. 2024 йил. 15 ноябрь [www.xs.uz](http://www.xs.uz)
6. [https://www.iwmi.cgiar.org/about/where-we-work/iwmi-in-central-asia/Water Efficient Allocation in Central Asian Transboundary River Basin \(project\)](https://www.iwmi.cgiar.org/about/where-we-work/iwmi-in-central-asia/Water_Efficient_Allocation_in_Central_Asian_Transboundary_River_Basin_(project))
7. World Bank. *Water Infrastructure in Central Asia: Promoting Sustainable Financing and Private Capital Participation*. <https://www.worldbank>
8. <https://news.mail.ru/politics/63621978/>.Экология, здравоохранение, инвестиции: что обсудил Мирзиёев на встрече в Баку.
9. М. Хушматова. Марказий Осиё республикаларида сув билан боғлиқ муаммолар ва унинг ўзаро муносабатлардаги аҳамияти. <https://cyberleninka.ru/article/n/markaziy-osiyo-respublikalarida-suv-bilan-bog-liq-muammolar-va-uning-o-zaro-munosabatlaridagi-ahamiyati/viewer>
10. [http://www.icwc-aral.uz/index\\_ru.htm](http://www.icwc-aral.uz/index_ru.htm)
11. Рисола. *Changing society: Environment and Human Insecurity in Central Asia*” Division of Environmental &Regional Environmental Studies (IRES).Graduate School of Environmental Studies.Tohoku university. 2008 с.65
12. <https://www.carecprogram.org/?publication=water-infrastructure-in-central-asia-promoting-sustainable-financing-and-private-capital-participation>
13. *Optimized Migration Policies to Boost Growth and Competitiveness in Europe and Central Asia* <https://www.carecprogram.org/?publication=water-infrastructure-in-central-asia-promoting-sustainable-financing-and-private-capital-participation>.
14. <https://openknowledge.fao.org/server/api/core/bitstreams/06e745be-89a5-4850-b819-10670efc1160/content>
15. <http://1tv.kz/>



---

**IQTISODIYOT:**  
**TAHLILLAR VA PROGNOZLAR**

---

100000, Toshkent sh., Xadra massivi 33a.  
Tel: (+998 71) 244-03-43. E-mail: [jurnal@imrs.uz](mailto:jurnal@imrs.uz)